

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

G.R. MADRAHIMOVA

**MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA
ISHTIROK ETUVCHI SHAXSLARNING HUQUQIY
MAQOMI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2026

UO'K: 342.5(045)(575.1)
KBK 67.407-20.3
A 100

Taqrizchilar:

G'. Hakimov – *yuridik fanlar nomzodi, dotsent;*
D. Artikov – *yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Madrahimova, A.A.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi: qiyosiy-huquqiy tahlil [Matn]: monografiya / Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi. – T.: TOP IMAGE MEDIA, 2026. – 212 b.

Monografiya Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining nazariy-huquqiy tavsifi, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari, ma'muriy sud ishlarini yuritishda bir nechta arizachi va javobgarining ishtirok etishining ayrim protsessual jihatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlar natijasida milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu monografiya bakalavr va magistratura bosqich talabalari, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va amaliyotchilar uchun mo'ljallangan.

Mazkur monografiya Urganch davlat Universiteti kengashining 2025-yil 29-dekabrda 5-son majlis bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-5216-7-6

© Madrahimova G.R., 2026-yil.

© Urganch davlat Universiteti, 2026-yil.

MUNDARIJA

Kirish	5
I bob. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining nazariy-huquqiy tavsifi	7
1.1. Ma'muriy sud ish yurituv subyekti tushunchasi va turlari.....	7
1.2. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi	16
1.3. Ma'muriy sudlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish masalalari	35
Birinchi bob bo'yicha xulosa	45
II bob. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari	47
2.1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarining huquqiy tavsifi.....	47
2.2. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlarining o'ziga xosligi	61
2.3. Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil.....	71
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	95
III bob. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishining ayrim protsessual jihatlarini	97
3.1. Ma'muriy sud ish yurituvda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etish shakllari: jamoaviy shikoyatning o'ziga xosligi.....	97
3.2. Ma'muriy sud ish yurituvda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilish muammolari	110
3.3. Ma'muriy sud ish yurituvda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishning asosiy mezonlari.....	116
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	131

IV bob. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining huquqiy asoslarini isloh qilishning nazariy-amaliy masalalari	133
4.1. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqi maqomiga oid huquqiy modellari tahlili	133
4.2. O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	164
To'rtinchi bob bo'yicha xulosa	179
Xulosa	181
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	190
Ilovalar	202

Dunyoda davlat organlarining faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirishda ma'muriy sudlar muhim o'rin tutadi. Xalqaro huquq tizimida davlatlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish majburiyatini olgan. Bu majburiyatni bajarishda milliy ma'muriy sudlar asosiy mexanizm hisoblanadi. "World Justice Project" (WJP) xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan e'lon qilingan reyting bo'yicha O'zbekiston 2024-yilda qonun ustuvorligi bo'yicha 142 ta davlat orasida 83-pog'onani egalladi¹. Mazkur reytingda mamlakatda ijro hokimiyati ustidan sud nazoratining samarali tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan odil sudlovga erishishda ma'muriy sudlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli ta'minlash, shuningdek ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini rivojlantirishga oid mavjud kamchiliklarni tashkiliy-huquqiy jihatdan bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirishda jamoaviy shikoyat berish, ularning huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritish, sudning faol ishtiroki prinsipining ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomiga ta'sirini baholashga oid ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning sudga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda ma'muriy sudlarda arizachining huquqiy maqomini takomillashtirish, javobgarining mas'ulligini oshirish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda xalqaro normalar va standartlar talablarni joriy etish, ishda ishtirok etuvchi shaxslar institutini takomillashtirish tendensiyalarini belgilash va ularning asosiy vazifalarini tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global>

Mamlakatimizda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini tubdan oshirish, sud protsessida arizachi va javobgarning huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritish, jamoaviy shikoyat jarayonida ularning huquqiy maqomini belgilash, ma'muriy sudlarda da'vo institutini joriy etilishi munosabati bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishtirokining qonunchilik asoslarini yaratish, sud amaliyotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib, sudda ishtirok etish uchun zarur konstitutsiyaviy makon va qonunchilik asoslarini yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ma'muriy sud ishlariga oid qonunchilik asoslarini takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib², O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilanishi mazkur sohani har tomonlama tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi (keyingi o'rinlarda MSIYtK), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4966-son "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari va 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son

I BOB. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA ISHTIROK ETUVCHI SHAXSLAR HUQUQIY MAQOMINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI

1.1. Ma'muriy sud ish yurituv subyekti tushunchasi va turlari

Ma'muriy sud ish yurituv doktrinasiga ko'ra, har qanday protsessual qonunchilik o'zining mukammalligi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga protsessdagi harakat erkinligini berishi bilan adolatni va buzilgan huquqlarni samarali himoya qilishni ta'minlashi zarur. Aks holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bu holat mamlakatimiz qonunchilik tizimiga fuqarolarimiz, tadbirkorlar, qolaversa, chet el investorlarining ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkinligini unutmasligimiz kerak"³.

Bundan ko'rinadiki, ma'muriy sud ish yurituv islohotlarini rivojlantirish, bu borada sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Ma'muriy sud ish yuritishda turli huquqiy maqomga ega bo'lgan ishtirokchilar ishda ishtirok etadi. Ularning protsessual maqomi ma'lum huquq va majburiyatlar doirasiga ega bo'lib, sud shu asosida ishlarni ko'rib chiqadi.

Ma'muriy sud ish yurituv ishtirokchilarini huquq va majburiyatlarini aniq tushunish uchun avvalo ma'muriy ish yuritish subyektlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tadqiqot ishining mazkur qismida ma'muriy sud ish yurituv subyektlarini tahlil qilamiz.

Ma'muriy sud ish yurituv subyektlari tushunchasi xorijiy olimlardan M. Xertog, R. Kirgxm, R. Tomas, J. Tolinson⁴ va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq qilingan.

"Ma'muriy sud ish yuritish subyektlari" tushunchasini aniqlash uchun asos va undan ham ko'proq ularning keyingi tasnifi huquqiy munosabatlar nazariyasiga ko'ra "huquqiy maqom" tushunchasi bilan bog'liq.

³ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – B. 8–9.

⁴ Hertogh, Marc, and others (eds), The Oxford Handbook of Administrative Justice, Oxford Handbooks (2022; online edn, Oxford Academic, 9 June 2021)

S.Alekseyev ta'kidlashicha, huquqiy maqom huquqiy normalarni konkretlashtirishda asosiy bo'g'in bo'lib, u shaxsning boshqa subyektlar bilan bog'liq munosabatlarini belgilaydi⁵.

Yuridik lug'atlarda maqom tushunchasiga huquqda keng qo'llaniladigan tushuncha ekanligi, organ, tashkilot, birlashma, mansabdor shaxs (fuqaro)ning normativ hujjat bilan rasmiylashtirilgan holatini bildiradi. Maqom yuqorida zikr etilgan tashkilotlar va shaxslarning tabiatini, ijtimoiy munosabatlar va huquq subyektlari tizimidagi o'rnini, muhim huquq va majburiyatlarini, ularni amalga oshirish shakllari (tartibi)ni va bunda qabul qilinadigan hujjatlar yoki amalga oshiriladigan harakatlarni tavsiflaydi⁶.

F. Otaxonov huquqiy maqomni yuridik xizmat nuqtayi nazardan o'rganib, unga quyidagicha ta'rif bergan: yuridik xizmatning huquqiy unga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar doirasi hamda chegarasida huquq va majburiyatlarining tizimidir⁷.

Umuman olganda huquqiy maqom tushunchasi juda ko'plab ilmiy manbalarning predmeti bo'lgan. Bu haqida juda katta hajmda tadqiqot ishi olib borish mumkin. Tadqiqot ishining mazmuni va asosiy urg'u maqom tushunchasi qaratilganidan kelib chiqib, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berish mumkin:

"Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi bu ularning ma'muriy ishni ko'rib chiqishda protsessual vazifalarini amalga oshirish, sudda o'z manfaatlarini himoya qilish va sud qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlovchi protsessual huquq va majburiyatlar yig'indisidir."

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy maqom tushunchasiga nisbatan shaxsning qonunchilikda belgilangan subyektiv huquq va majburiyatlar ega bo'lish qobiliyati sifatida umumlashtirilgan tushuncha ishlatiladi. Ma'muriy sud ish yuritish subyektlari ishning natijasiga ta'sir qilish darajasiga, xususiyatiga qarab manfaatlar turli pozitsiyalariga ega.

Ayrim manbalarda ma'muriy sud ish yurituvchi subyekti sifatida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va muayyan sharoitlarda ma'muriy

⁵ Alekseev S. S. Проблемы теории права. Свердловск, 2000. С. 277.

⁶ <https://lex.uz/dictionary?word=%D0%9C%D0%90%D2%9A%D0%9E%D0%9C>

⁷ F.Otaxonov. Yuridik xizmatning huquqiy maqomi // <https://mediator.uz/juridik-hizmat/maruzalar3/75-juridik-hizmatning-uuij-maomi.html>

ish yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan faoliyatni amalga oshirishi mumkin bo'lgan va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxs tushunilishi qayd etilgan⁸.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy protsessual munosabatlarga kiradigan ma'muriy ish yuritish subyektlari quyidagicha tasniflangan: 1) sud ishlarini yuritadigan davlat organlari va mansabdor shaxslar; 2) ma'muriy ishda ishtirok etuvchi shaxslar; 3) boshqa shaxslar. Mazkur tasnifda ayrim bahsli masalalar mavjud. Quyida uning ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, sud ma'muriy sud ish yurituvchi subyekti bo'lishi va bo'lmasligi bilan bog'liq munozarali masalaga e'tibor qaratsak.

Sud faoliyati va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning faoliyatini farqlash zarurati obyektiv ravishda mavjud. Sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessda turli funksiyalarni bajaradigan protsessual munosabatlarning subyektlari hisoblanadi⁹.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning funksiyalari ma'muriy protsessning tortishuv shaklidan kelib chiqadi va moddiy huquqiy munosabatlarning da'vo qilingan ishtirokchilarining holati, ishdagi qiziqishning tabiati va qarama-qarshi ma'muriy jarayonning protsessual vazifalari bilan belgilanadi. Protsessning boshqa ishtirokchilarining funksiyalari ularga yuklangan protsessual majburiyatlar va ularga berilgan huquqlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir¹⁰. Mazkur vazifalar sudning umumiy vazifalarini hisoblanib, har qanday protsessual faoliyatda mazkur qoidalarga tayanishi lozim hisoblanadi.

⁸ Рыжков А. Р. Постатейный комментарий к Кодексу административного судопроизводства Российской Федерации / подготовлен для системы "КонсультантПлюс". Дата публикации: 16.04.2015. Доступ из справ.-правовой системы "КонсультантПлюс".

⁹ Фокина М. А. Механизм доказывания по гражданским делам: теоретико-прикладные проблемы. М., 2010. С. 474–477.

¹⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son

Sudning sud organi sifatidagi vazifasi ishni mohiyatan huquq sohasidagi vakolatlarni amalga oshirish shakli sifatida hal qilishdan iborat. Ayrim xorijiy mamlakatlarda obyektivlikni oshirish va sudyalarga eng murakkab ma'muriy ishlarni hal qilishda yuzaga keladigan masalalarni muhokama qilish imkoniyatini berish uchun birinchi instansiya sudi tomonidan kollegial ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxati belgilab qo'yiladi. Jumladan, 1) normativ-huquqiy hujjatlari bo'yicha ma'muriy ishlar; 2) saylov komissiyalarini tugatish bo'yicha ma'muriy ishlar; 3) saylov komissiyalarini qarorlari bo'yicha ma'muriy ishlar; 4) ma'muriy ishlar birinchi instansiya sudiga ularning kollegial ko'rib chiqilishini ko'rsatgan holda yangi ko'rib chiqish uchun yuborilgan ma'muriy ishlar; 5) kollegial ko'rib chiqish to'g'risidagi qarorlar sudyaning asosli bayonoti asosida alohida murakkabligi sababli sud raisi tomonidan qabul qilingan ma'muriy ishlar.

Milliy qonunchilikka ko'ra, birinchi instansiya sudlarida kollegial ko'riladigan ishlar toifasiga quyidagilar kiradi: 1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar; 2) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi ishlar; 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonun bilan o'z vakolatlariga kiritilgan boshqa ishlar.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, ma'muriy sud ish yurituvda subyekt sifatida nafaqat sudya, balki sudyalar ham hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari, sud jarayonni boshqarishning protsessual funksiyalarini bajaradi, shuningdek jarayon ishtirokchilariga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam beradi. Albatta, isbotlash predmetini belgilovchi subyekt sud ekanligi haqida bahslashish mumkin. Xorijiy davlatlarda sud protsessida hech qanday qoida yo'q, unga ko'ra sud faqat taraflar ko'rsatgan holatlarni tekshirishga majbur bo'ladi. Xususan, ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun tegishli holatlar sud tomonidan bahsli ommaviy-huquqiy munosabatlarida qo'llaniladigan moddiy huquq normalariga muvofiq, ushbu ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Lekin, MSIYtKning 11-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud ishlarini yuritish sudning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma'muriy ishning to'g'ri hal qilinishi uchun

ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshiradi. Sud o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha qo'shimcha dalillar to'playdi, shuningdek ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajaradi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to'plashda sudga ko'maklashishi shart¹¹. Demak, milliy qonunchilikka ko'ra sudlar isbotlash jarayonida faol ishtirok etishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan holatlar doirasini aniqlash sudning protsessual majburiyatlari bilan bog'liq bo'lsa-da, taraflar dalil predmetini shakllantirishda ham ishtirok etadilar. Sud dalillarni tekshirishning faol ishtirokchisidir. Bir tomondan, sud jarayonni boshqarish funksiyasini amalga oshirib, dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va jarayonning boshqa ishtirokchilarining protsessual harakatlarini tashkil qiladi, taraflarning iltimosnomalari va bayonotlarini hisobga olgan holda ma'muriy vakolatlarni amalga oshiradi. Boshqa tomondan, sud ishni mohiyatan ko'rib chiqish funksiyasini anglab, ma'lumotlarni oladi va tahlil qiladi, guvohlarni, ekspertlarni so'roq qiladi, yozma va ashyoviy dalillarni tekshiradi.

Shu sababli, ma'muriy sud ish yurituv subyektlari sud jarayonlari uch guruhga bo'linadi: sudlar; ishda ishtirok etuvchi shaxslar; odil sudlovni amalga oshirishga hissa qo'shadigan shaxslar¹².

MSIYtKning 37-moddasida ma'muriy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining tarkibi keltirilgan bo'lib, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ma'muriy sud ishlarini yuritish ishtirokchilari ekanligi ko'rsatilgan¹³.

MSIYtKning 38-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar jumlasiga taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar o'z zimmalariga yuklatilgan vakolatlarga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslar kirishi nazarda tutilgan.

Bugungi kunda ilmiy manbalarda ma'muriy sud ish yurituv subyektlari ish yurituvning barcha ishtirokchilari, shu bilan birga, turli

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeks // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son(lex.uz)

¹² V.V. Yarkova Uchebnik dlya studentov vysshix uchebnykh zavedeniy po napravleniyu "yurisprudensiya" doktora yuridicheskix nauk, professora, zaslujennogo deyatelya nauki Rossiyskoy Federatsii, 2016 y.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeks // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son(lex.uz)

maqsadlarni ko'zlagan va ma'muriy ishlarni tegishli toifalarini ko'rib chiqish va hal qilishni tartibga soluvchi huquqiy normalarda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslarni tushunish tendensiyasi keng tarqalgan.

Ma'muriy sud ish yurituvining doktrinasini va qonunchiligiga ko'ra, protsessning barcha ishtirokchilari ko'rib chiqilayotgan ishga bo'lgan munosabati va shaxsning muayyan jarayondagi protsessual rolga qarab ma'lum guruhlariga bo'lish mumkin.

Ushbu mezonlarga muvofiq ma'muriy sud ish yurituvining subyektlarini uchta guruhga ajratish mumkin:

a) ma'muriy ishlarni hal qiluvchi shaxslar (sud, sudyalari);

b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilgan shaxslar va boshqalar.);

d) ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan birga sud jarayonida ishtirok etadigan ma'muriy sud ish yurituvining boshqa ishtirokchilari.

Yuqorida tahlil qilganimizdek sud ish yurituvining asosiy ishtirokchisi bo'lib, ma'muriy ishning borishi unga bog'liq. Boshqa barcha shaxslar sud nazorati ostida va sud bilan hamkorlikda harakatlarni amalga oshiradilar. Sud protsessning boshqa ishtirokchilarining faoliyatini tashkil qiladi va boshqaradi, ularga o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda yordam beradi. Protsessual munosabatlarning subyekti sifatida sud nomidan yakka o'zi sudya yoki sudyalarning kollegial tarkibi harakat qilishi mumkin.

Sud ma'muriy ish yurituvining boshqa ishtirokchilaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

– mustaqil shaxs sifatida ma'muriy ishni qonuniy va adolatli hal qilish huquqiga ega;

– ma'muriy ishning natijasi unga ta'sir qilmaydi. U ma'muriy nizoning ishtirokchisi emas.

– ma'muriy ishni o'z vaqtida va to'g'ri hal qilishdan iborat bo'lgan protsessual manfaatlarga ega.

Sudning protsessual manfaati uning sud organi sifatidagi protsessual funksiyasidan kelib chiqadi, bu taraflarning protsessual funksiyalaridan farq qiladi. Shunga ko'ra, sudning protsessual manfaatlari arizachi yoki javobgar tomonida bo'lmaydi. Hattoki davlat va jamoat manfaatlarini ko'zlab chiqqan taqdirda ham bir taraf manfaatini ko'zlamaydi. Uning protsessual manfaati qonun tomonida

yotadi va faqat ma'muriy nizoni to'g'ri, vakolatli va obyektiv hal qilishga qaratilgan protsessual funksiyasi bilan bog'liq vazifalarni to'siqsiz tezkor bajarishdan iborat.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Ma'muriy sud ish yurituvi subyektlarini tasniflash qaysi mezonga ko'ra amalga oshiriladi? Yuridik adabiyotlarda eng keng tarqalgan mezon "*huquqiy manfaat*"ga qarab subyektlarni tasniflashdir. Mazkur mezon to'loqonli qo'shilish mumkin.

Zamonaviy huquq nazariyada protsessual manfaat o'ziga xos huquqiy manfaat sifatida qaraladi va sud ish yurituvini manfaatli yakunlanishi sifatida tushuniladi. Binobarin, u nafaqat sud faoliyatini, balki ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning protsessual funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Huquqiy manfaat ishni hal qilish natijasida manfaatdor shaxs uchun yuzaga kelishi kerak bo'lgan qonunga asoslangan kutilayotgan huquqiy natija sifatida belgilanadi. Uning xilma-xilligi sifatida protsessual manfaat bilan bir qatorda ishdagi moddiy va huquqiy manfaatdorlik ham mavjud. Bu moddiy nizoni ularning foydasiga tugatish istagi sifatida tushuniladi va shunga mos ravishda faqat bahsli moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlariga xos bo'lishi mumkin. Shaxsning huquqiy manfaati ushbu munozarali huquqiy munosabatlar bilan bog'liq. Bu shaxsning ma'muriy ishda ishtirok etishi uning moddiy huquqlariga, ya'ni moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi huquqlarga ta'sir qilishida ifodalanadi.

Ko'pgina mualliflar huquqiy manfaatlar uchun moddiy va protsessual tarkibni ajratib ko'rsatishadi. Jumladan, M.A. Vikutning fikricha, huquqiy manfaat sud qaroridan ijobiy huquqiy natija kutish deb hisoblaydi. O'z navbatida, mazkur tushunchani taraflarning sudda ishtirok etish huquqi belgilashiga bog'lashadi¹⁴.

R.E. Gukasyan huquqiy manfaat faqat protsessual manfaat hisoblanishi, protsessual manfaat shaxsning moddiy-huquqiy manfaatlariga bog'liq ekanligiga urg'u qaratadi. Ya'ni, qachonki moddiy manfaat bo'lsa, protsessual manfaat yuzaga kelishini alohida ta'kidlaydi¹⁵.

A.Vilxovik huquqiy manfaatni yagona protsessual manfaat deb hisoblaydi. Huquqiy manfaat, ushbu muallifning fikriga ko'ra, huquqni sud tomonidan himoya qilish, xususan sud qarorini chiqarish bilan

¹⁴ Vikut M.A. *Стороны – основные лица искового производства* – Саратов, 2000. – С.6-14.

¹⁵ Gukasyan R.Ye. *Izbrannyye trudy po grazhdanskomu protsessu*. – M.: Prospekt, 2008. – С.46.

ishni belgilangan protsessual shaklda ko'rib chiqish va hal qilishdan manfaatdorlik tushuniladi¹⁶.

Manfaat tushunchasi MSIYtKda bir qancha o'rinlarda ishlatilgan. Kodeksning 2-moddasida ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalari sifatida ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir, deb belgilangan¹⁷.

MSIYtKning 4-moddasiga ko'ra, har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqlidir.

O'z navbatida, ma'muriy sud ish yurituvining muhim subyekti hisoblangan arizachiga berilgan ta'rifda ham mazkur terminga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, o'zlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida talab taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab talab taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar arizachilardir.

Mazkur termin ma'muriy sud ish yurituvida prokuror ishtirokiga oid normada ham mavjud. Jumladan, MSIYtKning 46-moddasiga ko'ra, prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega¹⁸.

Tadqiqot ishining mazmunidan va yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, *"Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaati deganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqini sud tomonidan himoya qilish, sud qarorini chiqarish bilan ishni belgilangan protsessual shaklda ko'rib chiqish va hal qilishdan manfaatdorlik tushuniladi."*

Umuman olganda, ilmiy-nazariy manbalarda ham amaldagi qonunchilikda ham manfaat tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur tushunchani har xil nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin.

¹⁶ Vilxovik A. Yuridicheskiy interes kak predposylka dostupnosti sudebnoy zashchity // SPS Konsultant Plus: Kommentarii zakonodatelstva.

¹⁷ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son

¹⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son

Ma'muriy sud ish yurituvining subyektlariga bog'liq holda tahlil qilish tadqiqot ishi nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda huquqiy manfaatni 3 turga bo'lish mumkin: a) shaxsiy (taraflar va uchinchi shaxslar); b) davlat manfaatlari; d) jamoat manfaatlari.

Bu shaxslarning barchasi, manfaat xususiyatidan qat'i nazar, "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" umumiy tushunchasi bilan birlashtirilgan. Ushbu tushuncha fuqarolik huquqida ham, ma'muriy huquq qonunchiligida ham qo'llaniladi.

Ushbu shaxslar orasida, ularning qonuniy manfaatlari shakliga qarab, subyektlarning ikkita asosiy guruhi farqlanadi:

- ishning natijasidan shaxsan manfaatdor shaxslar (taraflar, uchinchi shaxslar va sud qarori huquqlari va majburiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan boshqa shaxslar);

- davlat yoki jamoat manfaatlariga ega bo'lgan, manfaatlari protsessual va huquqiy xususiyatga ega bo'lgan shaxslar (masalan, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilgan shaxslar yoki nomuayyan shaxslar doirasi).

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud bilan bir qatorda ma'muriy sud ish yurituvining asosiy subyektlari hisoblanadi. Uning subyektlari orasida u yoki bu maqomda ma'muriy protsessda ishtirok etadigan va uni amalga oshirishda yordam beradigan shaxslar guruhi ham mavjud.

Ma'muriy sud ish yurituvining boshqa ishtirokchilari bu ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan birga sud ish yurituvida ishtirok etadigan subyektlardir¹⁹.

Ma'muriy protsessning boshqa ishtirokchilarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: a) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vakillari; b) odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar.

Sud vakilining protsessual maqomi ma'muriy sud ish yurituvining nazariyasida munozarali hisoblanadi. Huquqiy tabiatiga ko'ra, ushbu protsessual ko'rsatkich ishda ishtirok etuvchi shaxslarga qaraganda odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarga yaqinroqdir.

Amaldagi qonunchilikda vakil ishda ma'muriy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining aniq turiga kiritilmagan. Lekin, vakil MSiyTKning 6-bobida nazarda tutilgan. Mantiqan olib qaraganda ma'muriy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini tarkibida yotadi.

¹⁹ Izoh. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar haqida tadqiqot ishining keyingi qismlarida batafsil tahlil qilinadi.

Ma'muriy sud ish yurituvini nazariyasida vakil "sud protsessining boshqa ishtirokchilari" toifasini kiritish orqali hal qiladi, bu vakilning protsessual holatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga imkon beradi.

Odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar sud protsessini amalga oshirishda yordam beradigan shaxslar sud tomonidan ma'muriy nizoni to'g'ri va obyektiv hal qilishga yordam berishga chaqiriladi. Ular o'zlarining bilim va ko'nikmalari bilan sudga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishning holatlarini aniqlashda, dalillarni qayd etishda va hokazolarda yordam berishadi. Bularga ekspertlar, guvohlar, tarjimonlar, mutaxassislar, sud majlisi kotiblari va boshqalar kiradi. Ushbu subyektlar guruhi bir qator umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

sud vakilidan tashqari, ma'muriy ish natijalaridan qonuniy manfaatdor emas;

sud jarayonida o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilmaydi;

sud yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashabbusi bilan jarayonga jalb qilinadi.

Umuman olganda, ma'muriy sud ish yurituvini subyektlari tushunchasi va turlari juda keng qamrovli ilmiy-nazariy tahlil qilish mumkin bo'lgan masala hisoblanadi. Subyektlarning har bir turi alohida tadqiqot mavzusi bo'la oladi.

1.2. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi

Tadqiqot ishning avvalgi qismida tahlil qilinganidek ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ma'muriy sud ish yurituvining muhim subyektlari hisoblanadi.

MSIYtKning 38-moddasiga ko'ra, taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar o'z zimmlariga yuklatilgan vakolatlarga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslardir²⁰.

Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovnomada *"Amaldagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda ishda ishtirok*

²⁰ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son

etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari yetarlicha belgilab berilgan deb hisoblaysizmi?” degan savolga respondentlarning aksariyati (65,4%) *“qisman yetarli”* deb javob bergan. Bu esa mazkur masalani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish ahamiyatini oshiradi.

Ta’kidlab o’tish lozimki, ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishdagi ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi yuzasidan ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot ishi olib borilgan. Xususan, ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishdagi ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi masalasi jahon va Yevropa ilmiy maktabida keng o‘rganilgan. Jumladan, milliy olimlardan J.Nematov²¹, D.Artikov²², Rossiya va Yevropa huquqshunosligida Ye.Shmidt-Assmann, K.Xapen, M.K.Treushnikova, V.V.Yarkov, D.B.Abushenko, Ye.M.Batuxtina kabi olimlar ham ma’muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomiga oid tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot ishining mazkur qismida ishdagi ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy holatini belgilash asos bo‘luvchi masalalar va bu borada ilmiy munozaraga sabab bo‘layotgan holatlarga e’tibor qaratamiz.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ichida taraflar alohida o‘rin tutadi. Arizachi va javobgar ma’muriy sud ishlarini yuritishdagi taraflardir. O‘zlarining huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida talab taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko‘zlab talab taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar arizachilardir. Ariza (shikoyat) talabi qaratilgan ma’muriy organlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari javobgarlardir. Taraflar teng protsessual huquqlardan foydalanadi²³.

Yuridik adabiyotlarda taraflar tushunchasini belgilash bo‘yicha olimlar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhdagi olimlarning fikricha, sud ishlarini yuritishdagi taraflar nizoli moddiy-huquqiy munosabatlarning taxmin qilingan subyektlari hisoblanadi²⁴. Boshqa guruhdagi olimlar esa taraflar sifatida o‘zining moddiy-huquqiy va protsessual manfaatlarini himoya qilishga kirishgan va sudning

²¹ Nematov J.N. Ma’muriy sud ish yurituvchi (1). Monografiya – T.: Top Image Media, 2022.

²² D.Artikov. Ma’muriy sud ish yurituvchi. Darslik. – Yuridik publish. 2024.

²³ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son

²⁴ Mixaylova Ye.V. Ponyatiye, protsessualnye prava i obyazannosti storon v grajdanskom sudoproizvodstve. //Yuridicheskiy analiticheskiy jurnal. – 2003. – №2 (6). – S.78-79.

qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ta'sir ko'rsatadigan moddiy-huquqiy munosabat subyektlarini nazarda tutadilar.

Ma'muriy sud ish yurituvida taraflar ular o'rtasidagi ma'muriy nizoni hal qilish orqali huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga chaqirilgan shaxslardir. Taraflarning protsessual holati bahsli moddiy huquqiy munosabatlarning shikoyat qilgan subyektlari sifatida ular o'rtasida jiddiy nizoning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu nizoni hal qilish jarayoni taraflarning qarama-qarshiligi bilan bog'liq bo'lib, ulardan biri boshqasidan huquqiy himoyaga muhtoj. Ushbu qarama-qarshilikda sud ma'muriy sud ish yurituvining harakatlantiruvchi kuchidir.

"Ma'muriy sud ish yurituvining tarafi" tushunchasi mazmunan "bahsli moddiy ma'muriy huquqiy munosabatlar tarafi" tushunchasi bilan bir xil emas. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar sohasidagi moddiy-huquqiy munosabatlarning subyektlari, bir tomondan, qonuniy belgilangan vakolatlar doirasida ishlaydigan davlat organlari, mansabdor shaxslar, ikkinchi tomondan, ushbu sohada belgilangan huquq va majburiyatlarning subyekti sifatida jismoniy va yuridik shaxslardir.

S.A. Korfnig ta'kidlashicha, ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda davlat organlari doim "jamoat manfaatlarini" vakili bo'lgan tarafdor, boshqa taraf esa xususiy manfaatlarini ifodalovchi xususiy shaxslardir²⁵. Mazkur fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Sababi davlat organlari faqatgina jamoat manfaatlarini himoya qilmaydi, balki davlat manfaatlarini ham himoya qiladi.

Shunday qilib, ma'muriy nizo kelib chiqadigan ma'muriy huquqda, qoida tariqasida, ikki turdagi ishtirokchilar mavjud:

- a) davlat va jamoat manfaatlarini ko'zlaydigan, davlat funksiyalarini bajaradigan va ularni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektlar;
- b) xususiy manfaatdor shaxslar.

Binobarin, bu borada davlat va jamoat tomoni majburiy subyekt sifatida mavjud, boshqa taraf esa, qoida tariqasida, ularning shaxsiy, alohida manfaatlarini ifodalovchi xususiy shaxslardir.

Xususiy shaxs – bu jamoat manfaatlarini yoki davlat hokimiyatining rasmiy vakolatlari va majburiyatlarini emas, balki o'zining shaxsiy manfaatlarini, huquqlari va majburiyatlarini amalga oshiradigan moddiy ma'muriy-huquqiy yoki boshqa ma'muriy-huquqiy

²⁵ Korf S.A. Administrativnaya yustitsiya v Rossii: V 2 t. M., 1910. T. 2. Kn. 2, 3. S. 464.

munosabatlarning subyekti (jismoniy va yuridik shaxs). Ushbu shaxs davlat organlari bilan rasmiy xizmat munosabatlarida emas, balki davlat boshqaruvi tarkibiga kirmaydigan shaxs sifatida ishdan tashqari munosabatlarda bo'ladi (ad extra munosabatlari). Xususi shaxs o'z huquqlari bilan bir qatorda qonuniy manfaatini himoya qilish uchun sudga murojaat qiladi.

Ilmiy manbalarda, "protsess tarafi" tushunchasi "bahsli moddiy huquqiy munosabatlar tarafi" tushunchasidan kengroqdir. Gap shundaki, qonun nafaqat haqiqatan ham mavjud huquqiy munosabatlar subyektlariga, balki o'zlarini buzilgan huquqning egasi deb hisoblaganlarga ham huquqni himoya qilish uchun sudga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Lekin, amaldagi qonunchilikda mazkur masalada o'ziga xos yondashuv mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi Plenum qarorining 4-bandiga ko'ra, manfaatdor shaxs deganda, ma'muriy organning qarori yoki uning mansabdor shaxsi harakati (harakatsizligi) qaratilgan fuqaro yoki yuridik shaxs yoxud bunday qaror, harakat (harakatsizlik) huquq va qonuniy manfaatlariga daxl etgan boshqa shaxs tushuniladi²⁶. Mazkur ta'rifdan ko'rish mumkinki o'zlarini buzilgan huquqning egasi deb hisoblaganlarga ham huquqni himoya qilish uchun sudga murojaat qilishi nazarda tutiladi.

Ta'kidlash lozimki, amaldagi qonunchilikda manfaatdor shaxs tushunchasiga aniq ta'rif berib o'tilmagan. Lekin, qonunchilikda mazkur ta'rif juda ko'p marotaba ishlatilgan. Shu bois, MSiytKning 4-moddasiga quyidagi qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

"Ma'muriy hujjat (harakat-harakatsizlik) huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilgan yoki daxl qilinishi mumkin bo'lgan shaxs manfaatdor shaxs hisoblanadi."

Muayyan holatda arizachi bo'lish uchun buzilgan huquqni himoya qilish manfaatiga murojaat qilish, bahsli huquqning egalik huquqini ko'rsatish kifoya. Ushbu qoida qonunchilik formulasida o'z ifodasini topadi, unga ko'ra jismoniy yoki yuridik shaxslar o'zlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan yoki e'tiroz bildirilgan deb hisoblasalar, davlat organining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish talablari bilan sudga murojaat qilishlari mumkin.

²⁶ <https://lex.uz/docs/4711311>

Bahsli moddiy huquqiy munosabatlarning haqiqiy yoki taxmin qilinayotgan subyektlari bahsli huquq va majburiyatlarning tashuvchisi sifatida protsessda ishtirok etadilar. Protsess davomida ularning har biri noto'g'ri taraf deb topilishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda, ish bo'yicha qabul qilingan sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar ma'muriy ish yuritish taraflari (arizachi ham, javobgar ham) bahsli moddiy huquqiy munosabatlarning haqiqiy emas, balki taxmin qilingan subyektlari hisoblanadi.

Protsess ishtirokchilari ikki qarama-qarshi protsessual shaxs bo'lib, nizo natijalaridan qonuniy manfaaddordir. Moddiy huquqiy munosabatlarda vakolatli subyekt bo'lishi kerak bo'lgan shaxsning qonuniy manfaatlari boshqa tarafni o'z foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirishga majburlash yoki bu tarafni javobgarlikka tortish orqali o'z huquqi yoki manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ma'muriy ish bo'yicha taraflar o'z huquqlarini to'liq himoya qilish imkoniyatidan, ijobiy qaror qabul qilish va uni amalga oshirish istagidan iborat bo'lgan protsessual manfaatlarga ega. Sud qarori ularning huquq va majburiyatlariga moddiy ma'muriy va huquqiy jihatdan ta'sir qiladi, ulardan biriga biron bir foyda olish yoki yo'qotish imkoniyatini beradi.

Misol uchun, ma'muriy organning qaroriga e'tiroz bildirish to'g'risidagi ish bo'yicha ma'muriy ariza qanoatlantirilsa, ariza bergan taraf ushbu talab bo'yicha huquqni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi va yutqazgan tarafga majburiyat yuklanadi.

Shunga ko'ra, taraflarning protsessual funksiyalari bir biridan farq qiladi. Protsessual funksiyalar deganda taraflarning har bir funksiyani belgilab beruvchi manfaatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va ushbu shaxslar tashuvchisi bo'lgan muayyan maqsadli faoliyat sohalari tushuniladi. Sudning funksiyalaridan tashqari protsessual funksiyalarga quyidagilar kiradi:

a) davlat organining qarori yoki xatti-harakatlari bilan buzilgan huquqni himoya qilish talabini amalga oshirish funksiyasi;

b) e'tiroz bildirish va boshqa protsessual harakatlar orqali protsessual himoya qilish funksiyasi.

Shundan kelib chiqqan holda, *"taraflar" tushunchasi odatda o'zlarining moddiy va protsessual manfaatlarini himoya qilish uchun harakat qiladigan, nizoni hal qilish uchun sud xarajatlarini o'z zimmasiga oladigan va umumiy qoida sifatida bahsli moddiy huquqiy munosabatlar subyektlarini belgilash muhim bo'lgan shaxslardir.*

Ayrim ilmiy manbalarda taraflar deganda qarama-qarshi yuridik manfaatlarga ega bo'lgan, subyektiv huquqlar va huquqiy majburiyatlar to'g'risidagi ma'muriy-huquqiy nizo doirasida subyektlar sifatida sudda ishtirok etishini nazarda tutadi.

Huquq doktrinasida ma'muriy sud ish yurituvda taraflar tushunchasi mavjud bo'lmaydi, degan qarash ustuvorlik qilgan. Bu yondashuv muayyan nazariy ko'rsatmalar va eskirgan protsessual stereotiplarga asoslangan. Xususan, moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining tengsizligi tufayli ular o'rtasida ma'muriy-huquqiy nizo kelib chiqishi mumkin emas, degan g'oya ustunlik qildi. Bundan kelib chiqadiki, ma'muriy ishlar bo'yicha sud protsessi ma'muriy da'vo bilan emas, balki ariza bilan qo'zg'atilishi kerak. Shunga ko'ra, sud protsesslari davlat organlarining qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) qonuniyligi ustidan sud nazoratiga aylandi. Mazkur organlarning o'zlari, shuningdek, ularning qarorlariga e'tiroz bildirgan shaxslar protsess ishtirokchilari sifatida tan olinmagan, ularning maqomi aniq belgilanmagan.

Ko'plab davlatlar shunga o'xshash muammolarga duch kelishgan. Misol uchun, fransuz ma'muriy protsessual doktrinasida ma'muriy nizolar ehtimolini tan olgan holda, uzoq vaqt davomida hokimiyatni suiiste'mol qilishdan kelib chiqib, ma'muriyatni arizachining "raqibi" va "ma'muriy aktning himoyachisi" sifatida qarashga qarshi bo'lgan²⁷. Biroq, XIX asr oxiridan boshlab Fransiya qonunchiligi sud va ma'muriy raqobatda bahslashayotgan ishtirokchilar taraflarining maqomini va davlat boshqaruvi uchun himoya qiluvchi tarafning maqomini tan olishni boshlaydi. Shunga ko'ra, ma'muriy protsess yo'nalishiga yondashuv o'zgardi. Ya'ni, endi uni nizo tashabbuskori bo'lgan xususiy shaxs ma'muriy aktga qarshi emas, balki ma'muriy aktni qabul qilgan ma'muriy organga qarshi ish qo'zg'atadigan bo'ldi²⁸.

Bugungi kunda eskirgan doktrinal yondashuvlarga barham berilib, ma'muriy da'vo instituti tatbiq etildi. Bahsli ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlari protsess ishtirokchilari maqomiga ega. Protsessual fanda taraflarning quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi:

- qarama-qarshi yoki ziddiyatli huquqiy manfaatlarning mavjudligi;
- qarama-qarshi maqsadli protsessual funksiyalarni amalga oshirish (da'vo funksiyasi – himoya funksiyasi);
- ma'muriy-huquqiy nizoni hal qilishda shaxsiy huquqiy manfaatdorlik (moddiy va protsessual);

²⁷ Maurice Hauriou. Les éléments du contentieux. Impr. et librairie E.Privat, 2000. P.18

²⁸ Olivier Gohin. La contradiction dans la procédure administrative contentieuse. Paris, 1988. P. 32 – 33.

- ma'muriy ish yuritishda o'z nomidan ishtirok etish;
- ularning nomiga sud qarori chiqarish;
- protsessning asosiy ishtirokchilari sifatida taraflarning umumiy qoida sifatida sud xarajatlarini qoplash majburiyati.

Umuman olganda, ma'muriy sud ish yurituvda da'vo institutini joriy qilish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu esa sohadagi taraflar institutini ham tubdan o'zgarishiga olib keladi.

Ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yuridik shaxs sifatidagi maqomi ham amaliy jihatdan ham nazariy jihatdan munozarali masalalar mavjud. Bugungi kunda mazkur masala amaliy jihatdan ham juda dolzarb bo'lganligi uchun tadqiqot ishi doirasida alohida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, deb hisobladik. Zero, har qanday tadqiqot ishining eng asosiy vazifasi birinchi navbatda eng dolzarb masalani aniqlash va uni tahlil qilish hisoblanadi. Ma'muriy sud ish yurituvda arizachi ham, javobgar ham yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Bahsli ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ommaviy tarafining huquqiy holati uning ma'muriy protsessda ishtirok etish uchun asos bo'lgan yuridik shaxsining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Davlat organining protsessual yuridik shaxsi uning yuridik shaxsi bilan bir vaqtda moddiy huquqda vujudga keladi. Biroq, yuridik shaxsning ushbu turlari ularning mazmunida bir xil emas. Moddiy huquqda davlat hokimiyatining yuridik shaxsi – bu davlat yoki mahalliy hokimiyat organining vakolatlari sifatida qonun tomonidan berilgan moddiy huquq va majburiyatlarni amalga oshirish qobiliyatida ifodalangan ommaviy yuridik shaxs.

Davlat va uning organlari ommaviy qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs ekanligini aniqlash uchun ushbu yuridik shaxslar nima ekanligini tahlil qilish kerak.

Hozirgi vaqtda ommaviy huquqning yuridik shaxsi tushunchasi O'zbekiston qonunchiligida aks ettirilmagan. Shunga qaramay, mazkur masala yuridik adabiyotlarda uzoq vaqtdan beri muhokama markazida bo'lib kelgan. Ushbu konsepsiya asosan fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda keng tarqalgan.

Ommaviy huquqda yuridik shaxs tushunchasini qo'llagan birinchi olimlardan biri G.V. Shershenevich bo'lib, u davlatni ommaviy huquqda yuridik shaxslar orasida birinchi o'ringa qo'ygan²⁹.

²⁹ Shershenevich G. V. Uchebnik russkogo grajdanskogo prava. M., 1911. S. 122

Davlat, albatta, tarix nuqtayi nazaridan ham, zamonaviy nuqtayi nazardan ham ommaviy huquqning eng muhim yuridik shaxsidir. Agar siyosiy jamiyat o'zini himoya qilishga va o'z huquqlaridan foydalanishni boshlashga intilsa, u yuridik shaxs sifatida paydo bo'lishi kerak. Ilgari bunday yuridik shaxslar "shahar", "qirollik", "imperiya" deb nomlangan bo'lsa, endi "davlat" deb nomlanmoqda. Agar "xalq" sotsiologik tushuncha bo'lsa, "millat" tarixiy tushuncha bo'lsa, "davlat" huquqiy tushunchadir.

V.E. Chirkin ommaviy huquqda yuridik shaxs to'g'risida quyidagi tushunchani beradi: "bu davlat hokimiyati organlari tomonidan tan olingan, davlat hokimiyatidan qonuniy foydalanadigan, davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish orqali umumiy manfaat uchun turli tashkiliy-huquqiy shakllarda huquqiy munosabatlarda harakat qiluvchi, boshqa aniqlovchi xususiyatlar, xususan mulkka, huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan va javobgarlikni o'z zimmasiga olgan moddiy va ommaviy-huquqiy notijorat tashkilotdir³⁰."

Rossiyaning inqilobdan oldingi huquqshunoslik va qonunchiligida yuridik shaxslar ham davlat va xususiy shaxslarga bo'lingan. Bunday tasniflashning asosiy mezonini jismoniy shaxslarning yuridik shaxsni shakllantirish irodasining mavjudligi yoki yo'qligi edi³¹.

Biroq, XIX asrning o'rtalariga qadar ko'plab davlatlarda davlat maqomi yakka hukmdorning o'zi maqomiga tenglashtirilgan. Buni davlatni hukmdorning o'g'illari o'rtasida qismlarga bo'lish, ya'ni meros orqali o'tkazish faktlari va imkoniyati bilan asoslantirish mumkin.

Sobiq ittifoq davrida davlat, shuningdek sovetlar va ularning ijroiya organlari sovet nazariyotchilari tomonidan yuridik shaxs maqomiga egaligiga oid umumiy qoidani tan olishmagan. Faqatgina alohida mualliflarning asarlari bundan mustasno edi³². Shu bilan birga, sovet nazariyotchilari sovetlar va ularning ijro etuvchi organlarining yuridik shaxsi boshqa davlat idoralari, korxonalar va tashkilotlarning yuridik shaxsidan sezilarli darajada farq qilishini ta'kidlagan. Davlat organlarining maqomini tavsiflash uchun, masalan, V.P. Gribanov ko'pincha chet el qonunchiligida ma'lum bo'lgan ommaviy huquqning yuridik shaxslariga xos bo'lgan belgilardan foydalangan³³.

³⁰ Chirkin V. Ye. Yuridicheskoye litso publichnogo prava. M., 2007. S. 94

³¹ Shershenevich G. F. Uchebnik russkogo grazhdanskogo prava. M., 1995. S. 92–93.

³² Martemyanov B. C. Местные советы и их исполнительные органы как юридические лица. М., 1975.

³³ Gribanov V. P. Yuridicheskiye litsa. M., 1961. S. 53

Sotsialistik huquq xususiy huquqni tan olmaganligi va rad etganligi sababli MDHning aksariyat davlatlari hanuzgacha yuridik shaxslarning xususiy va ommaviy huquq subyektlariga bo'linishini tan olmaydilar. Bizning fikrimizcha, mazkur pozitsiyani qo'llab bo'lmaydi.

Professor Rolf Knipperning quyidagi so'zlari bilan bahslashish mumkin emas. Xususan, postsovet mamlakatlaridagi ko'plab huquqshunoslari uchun davlat hududiy birlashma sifatida yuridik shaxs ekanligi va yuridik shaxs tushunchasi xususiy huquq hodisasi emasligi, balki yuridik shaxslar ommaviy manfaatlar yo'lida javob beradigan ommaviy huquq subyekti hisoblanadi³⁴.

Biroq, bir qator davlatlar ommaviy huquqning yuridik shaxsini qonunchilik darajasida tan olishadi. Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar tushunchasi Germaniya Federativ Respublikasining "Ma'muriy organlarning yurisdiksiyasida ishlarni yuritish tartibi to'g'risida"gi Qonunining 1-qismida mustahkamlangan³⁵.

Gruziyada "Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to'g'risida"gi qonun mavjud bo'lib, unga ko'ra ommaviy huquqning yuridik shaxsi tegishli qonun, mamlakat Prezidentining farmoni yoki mustaqil ravishda siyosiy, davlat tomonidan amalga oshiriladigan davlat organining ma'muriy akti asosida tashkil etilgan tashkilotdir³⁶.

Meksika, Argentina va Peru kabi Lotin Amerikasi mamlakatlarining fuqarolik kodekslarida yuridik shaxslarning xususiy va ommaviy turlari keltirib o'tilgan.

Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslarning ko'plab tasniflari mavjud. Jumladan, V.E.Chirkin ommaviy huquq bo'yicha to'rt turdagi yuridik shaxslarni belgilaydi: 1) davlat hokimiyati organlari; 3) hududiy davlat organlari; 4) davlat tashkilotlari; 5) ommaviy xarakteridagi notijorat tashkilotlar³⁷.

Fransiya qonunchiligi ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslarning ikkita asosiy turini ajratib turadi: ommaviy huquq bo'yicha umumiy yuridik shaxslar va ommaviy huquq bo'yicha ixtisoslashgan yuridik shaxslar. Birinchisiga davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalar kiradi. Ikkinchisi ma'lum bir funksiyani bajarishga

³⁴ Kniper R. Yuridicheskiye litsa. Vvedeniye // Grajdanskoye i ekonomicheskoye pravo stran Kavkaza i Sentralnoy Azii. Proyekt Bremenskogo universiteta. Doklady. URL: // <http://www.cac-civillaw.org/baitraege>

³⁵ <https://www.kas.de/en/web/rspno/laws-and-rulings>

³⁶ <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/1649004?publication=0>

³⁷ Chirkin V. Ye. Yuridicheskoye litso publichnogo prava. M., 2007. S. 102.

ixtisoslashgan organlar, bular asosan davlat muassasalaridir. Bunga jamoat manfaatlari uchun uyushmalar ham kiradi³⁸.

Davlat jamoatchilik bilan aloqalar ishtirokchisi sifatida eng murakkab, murakkab va ko'p qirrali subyektlardan biridir. Ko'proq darajada real ijtimoiy munosabatlarda davlat alohida mavhum shaxs sifatida huquqiy funktsiyani bajaradi. Ko'rinib turibdiki unga yuklangan funktsiyalar tegishli vakolatlarga ega bo'lgan muayyan organlar tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ommaviy qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslarning turlaridan biri ekanligi aniq haqiqatdir. Buni isbotlash uchun biz davlat huquqining yuridik shaxsi sifatida davlatga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin: 1. Har qanday davlatni yaratish va faoliyat yuritishdan maqsad mamlakat xalqining umumbashariy manfaatlariga erishishdir. 2. Davlat va uning organlari hokimiyat vakolatiga ega. 3. Jamoat xarakteridagi huquq va majburiyatlarning tashuvchisi. 4. Davlat mulki ko'rinishidagi mulkiy bazaga ega; 5. Davlat xizmatchilari ko'rinishidagi xodimlarning maxsus toifasiga ega; 6. U maxsus tarzda yaratiladi va tugatiladi.

Shubhasiz, davlat ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs maqomini tan olishi va shu bilan birga yuridik shaxsning ommaviy huquq bo'yicha qonunchilik darajasida tan olinishi kerakligiga shubha yo'q.

I.A. Il'inning ta'kidlashicha, davlat shunchaki ittifoq emas, balki huquqiy normalarga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yuritadigan huquqiy ittifoq ekanligini isbotlash juda muhimdir. Davlatning tabiatiga kelsak, u davlatni yuridik shaxs sifatida tasniflash imkoniyati to'g'risida eng muhim xulosalar chiqardi. Xususan, u davlat birlashma sifatida yuridik birlashma jamoaviy yuridik shaxs yoki yuridik shaxs ekanligini yozgan. Bu shuni anglatadiki, davlat tabiatan mavjud emas, balki odamlar tomonidan tashkil etilgan, bu na jismoniy narsa (masalan, hudud), na oddiy odamlar ko'pligi, balki bitta qonun, yagona hokimiyat va yagona hudud bilan bog'langan ko'plab odamlar ittifoqidir. O'zidan davlat kabi yuridik shaxsning tabiatini aniqlashtirishni so'rab, davlat "boshqalar" ehtiyojlariga xizmat qiladigan muassasa emas, balki korporatsiyadir³⁹.

O.V. Mixaylenkning "yuridik shaxs" atamasini ommaviy huquqning jamoaviy subyektlarini tavsiflash uchun foydalanadi⁴⁰. Davlat va xususiy

³⁸ Portal fransuzskogo prava. URL: <http://www.france-jus.ru>

³⁹ Il'in I. A. Teoriya prava i gosudarstva. M., 2003. S. 45.

⁴⁰ Mixaylenko O. V. Publichnye yuridicheskiye litsa v chastnom prave i chastnye yuridicheskiye litsa v publichnom prave // Jurnal rossiyskogo prava. 2011. № 3. S. 48.

huquqda “yuridik shaxs” tushunchasi turli ma’nolarni oladi va butunlay boshqa toifalarga bo’linadi. Ko’rinib turibdiki, yuridik shaxs organlari va davlat organlarini (ommaviy yuridik shaxs sifatida) solishtirish mumkin, ammo bu toifalar o’xshashliklarga qaraganda ancha farq qiladi.

Fuqarolik huquqida yuridik shaxs va ma’muriy huquqning ommaviy subyekti tushunchalarining chalkashligi burjua yuridik adabiyotida umuman davlat idoralarining huquqiy layoqati doktrinasida aniqlik yo’qligi bilan chambarchas bog’liq. Bu masala bo’yicha fikrlar butunlay boshqacha va ko’pincha tushunarsiz bo’lib chiqadi. Ba’zilar davlatning o’zini yuridik shaxs sifatida tan olishadi va uning organlariga huquqiy layoqatni qat’iyan rad etishadi. Boshqalar davlatning yuridik shaxs sifatida tan olishdan bosh tortadilar, faqat davlat uchun fiskal subyekt yoki xalqaro huquqiy munosabatlar subyekti sifatida istisno qiladilar. N.M. Korkunov davlatning ichki munosabatlar sohasida yuridik shaxs sifatida tan olinishiga keskin qarshi chiqdi. Biroq, u fuqarolik va ma’muriy huquqda davlatni yuridik shaxs sifatida tan olishning mutlaq zarurligini tan oldi⁴¹. Yana boshqalar davlatning o’zini ham, uning organlarini ham huquq subyekti sifatida tan olishadi. Ya’ni bir guruh olimlar davlatni va uning organlarini hech qanday shartlarsiz yuridik shaxs sifatida tan oladi, lekin shu bilan birga yuridik shaxs tushunchasini ma’lum bir toifaga aylantiradi, undan tashqari davlatning o’zi ham, uning organlari ham jamoa sifatida barcha voqelik yo’qoladi.

Ta’kidlash joizki, davlat organlari normativ-huquqiy hujjat asosida tashkil etiladi. Davlat hokimiyati organlari dispozitiv usul bilan tartibga solinadigan yuridik shaxs organlaridan farqli o’laroq, imperativ usul asosida ishlaydi. Davlat organlari alohida huquqiy layoqatga ega bo’lib, uni fuqarolik ma’nosida yuridik shaxs organlari haqida aytib bo’lmaydi. Yuridik shaxslarning ommaviy qonun ostida mavjudligini tan olmagan holda, qonun chiqaruvchi yuridik shaxs maqomini respublika va hududiy davlat organlariga bo’ladi. Subyektlarning ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi misolida ushbu organlarning butun tuzilmasi yuridik shaxslardan iborat ekanligini ko’rish mumkin. Va biz aniq aytishimiz mumkinki, barcha ijro etuvchi hokimiyat organlari ommaviy qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslardir.

Davlat ommaviy qonunchilikka binoan yuridik shaxs sifatida o’z faoliyatini mustaqil ravishda emas, balki “vakillar”, ya’ni davlat

⁴¹ Korkunov N. M. Russkoye gosudarstvennoye pravo: vvedeniye i obshchaya chast. SPb., 1901. T. 1. S. 41–44.

idoralari orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, davlat idoralari qonun bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega. Shunday qilib, davlat ommaviy huquqning "birlamchi" yuridik shaxsi, uning organlari esa davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi "ikkilamchi" yuridik shaxslar sifatida belgilanishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, Germaniya qonunchiligi davlat va boshqa jamoat tashkilotlari uchun ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslarning maqomini tan oladi. Zamonaviy nemis huquqiy doktrinasiga ko'ra, mahalliy o'zini o'zi boshqarish davlat vazifalari ommaviy huquqning yuridik shaxslari tomonidan hal qilinishidan iborat. J. Vedelning fikricha, agar nomarkazlashtirish davlatdan tashqari davlat yuridik shaxslarining paydo bo'lishiga olib keladigan bo'lsa, unda bu davlat yuridik shaxslar ma'muriy xarakterga ega degan xulosaga keldi⁴².

Shubhasiz, davlat va uning organlarini ommaviy huquqning yuridik shaxslari sifatida belgilash huquqiy munosabatlarning turli subyektlarining javobgarlik chegaralarini belgilashga yordam beradi. Natijada ma'muriy-huquqiy sohada qonun ustuvorligi mustahkamlanadi. Davlat va uning organlari faoliyati qat'iy tartibga solinadigan tartibda, maxsus usulda va ushbu subyektlarga xos bo'lgan usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi.

V.Y. Kurbatovning fikricha, davlatga ommaviy qonun bo'yicha yuridik shaxs maqomini berish yuridik shaxs tushunchasining ma'nosini yo'q qiladi, deb hisoblaydi⁴³. Mazkur fikrga qo'shilish qiyin. O'zbekiston qonunchiligiga binoan yuridik shaxs tushunchasining ma'nosi quyidagicha: o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi⁴⁴.

Savol tug'iladi, nima uchun agar davlat ommaviy huquqning yuridik shaxsi deb tan olinsa, yuridik shaxs tushunchasining ma'nosi yo'q qilinadi? Davlat va uning organlari ommaviy qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs sifatida ma'muriy huquqiy imkoniyatlarga ega.

⁴² Vedel J. *Administrativnoye pravo Fransii*. M., 1972. S. 479.

⁴³ Kurbatov A. Ya. *O yuridicheskix litsax publichnogo prava // Xozyaystvo i pravo*. 2009. № 10. S. 77.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova; 1997-y., 2-son, 56-modda; 1998-y., 5-6-son, 102-modda; 1999-y., 1-son, 20-modda; 9-son, 229-modda

Ma'muriy huquqiy layoqat – bu ma'muriy huquq bilan tashkil etilgan va himoya qilinadigan subyektning ma'muriy-huquqiy burch va huquqlarga ega bo'lish, shuningdek ularni davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirish uchun qonuniy javobgarlik qobiliyatidir. Bu ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan boshqaruv munosabatlarida jismoniy yoki yuridik shaxsning ishtirok etishi uchun zaruriy shartdir. Xususiyl yuridik shaxslardan farqli o'laroq, davlat umumiy huquqiy layoqatga ega bo'lolmaydi, lekin maxsus huquqiy layoqatga ega, chunki davlat qadim zamonlardan beri ichki va xalqaro aniq maqsadlarga erishish uchun yaratilgan. Davlatning ushbu huquqiy layoqati uning organlari orqali amalga oshiriladi. Ularni shakllantirish vaqtida organlar ushbu organlar tugatilgandan so'ng yo'qoladigan huquqiy imkoniyatlarga ega.

Yuridik shaxsning tashkiliyl birlik kabi xususiyatiga kelsak, u davlat va uning organlariga ham xosdir. Barcha bo'ysunuvchi davlat organlari ularning rahbarlari tomonidan nazorat qilinadi. Biroq, ushbu yuridik shaxsning o'ziga xosligi shundaki, davlat foyda olish uchun emas, balki inson va butun jamiyatning hayotini ta'minlash uchun yaratilgan. Davlat huquqi bo'yicha yuridik shaxs sifatida davlatning yana bir xususiyati qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish huquqidir. Bir tomonlama bekor qilinishi mumkin bo'lgan ma'muriy shartnomalar tuzish mumkin.

Shubhasiz, ma'muriy huquqda yuridik shaxs instituti davlat boshqaruvida nomarkazlashtirish munosabatlarini tartibga solish usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yuridik shaxs sifatida ishtirok etishi haqiqati odatiy ma'noda shubhasizdir. Ammo, agar davlat ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs maqomini tan olmasa, davlat xalqaro huquqda qanday mas'ul ekanligi, ya'ni uning tiklanish, qoniqish va favqulodda tovon kabi shakllari haqida savol tug'iladi⁴⁵. Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlari inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi oldida ommaviy qonunchilikka binoan yuridik shaxslar kabi javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

E.A. Suxanovning ta'kidlashicha, hech kim ommaviy huquqning yuridik shaxsi nima ekanligini, ular fuqarolik aylanmasida qanday asosda ishtirok etishi va ishtirok etishi kerakligini, ularning mulk huquqi nima ekanligini bilmaydi⁴⁶.

⁴⁵ Chirkin V. Ye. Ye. Yuridicheskoye litso publichnogo prava. M., 2007. S. 147.

⁴⁶ Suxanov Ye. A. Uchastiye gosudarstva v grajdansko-pravovyx otnosheniyax // Puti k novomu pravu: materialy mejdunar. konf. v Sankt-Peterburge i Bremene / pod общ. red. M. M. Boguslavskogo, R. Knipper. Berlin, 1998. S. 198.

Bizning fikrimizcha, davlat mulkka ega. Garchi ko'plab mualliflar davlat mulki yo'q deb hisoblasa-da, faqat davlat tomonidan foydalaniladigan jamoat (xalq) mulki mavjud. Davlat va uning organlarining ommaviy yuridik shaxs sifatida mavjudligini inkor etuvchi qoidalaridan biri bu ularning ustaviga ega emasligidir. Shu bilan birga, ushbu organlarda ushbu yuridik shaxslar uchun asosiy hujjat bo'lgan, o'z faoliyatini amalga oshirish shakllari va usullarini belgilaydigan qoidalar yoki buyruqlar mavjud.

Fransiya misolidan foydalanib, shuni ta'kidlash mumkinki, davlatning mulkiy munosabatlardagi ishtiroki faqat ma'muriy yustitsiya bilan tartibga solinadi.

Agar biz davlatni fuqarolik ma'nosida yuridik shaxs deb hisoblasak, unda quyidagi holat noaniq bo'lib qoladi. Agar fuqaro yoki yuridik shaxs davlat organiga qarshi da'vo arizasi bilan murojaat qilsa, uning da'volarini kompensatsiya shaklida qondirsa, lekin davlat organi belgilangan muddatda kompensatsiya to'lamasa, amaldagi qonunchilik bo'yicha yuridik shaxs sifatida qo'llash mumkinmi?

Rossiya huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelgan quyidagi masalaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sud qarori ijrosi kechiktirilganligi sababli, "issiqlik tarmoqlari" munitsipal unitar korxonasi fuqarolarning pullaridan foydalangani uchun Volgograd viloyati hakamlig sudiga 350 519 rublni tiklash Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga qarshi da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Da'voni qondirishda sudlar Rossiya Federatsiyasi Budjet kodeksining 6-moddasi 242.2-bandiga amal qildilar, unda qabul qilingan ijro hujjatlarini ijro etishning uch oylik muddati belgilandi va ushbu foizlarni hisoblash qonuniy deb topildi. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi Oliy arbitraj sudi Prezidiumi huquqni qo'llash amaliyoti uchun birinchi va kassatsiya instansiyalari sudlarining bunday huquqiy pozitsiyasi to'g'ri va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining ma'nosi va ruhiga mos keladi degan muhim xulosaga keldi⁴⁷.

Shunday qilib, moddiy huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishini ko'rish oson. Shubhasiz, Moliya vazirligi (davlat organi sifatida) sud qarorining kechikib bajarilishi uchun javobgar bo'lishi kerak, ammo fuqarolik qonunchiligi doirasida emas. Ommaviy huquq yuridik shaxslarning qonunchilik darajasida tan olinishi ommaviy

⁴⁷ Belonojkin A. Yu., Senichkin A. Yu. *Primeneniye mer grajdansko-pravovoy otvetstvennosti za neispolneniye sudebnykh aktov o vзыskanii denezhnykh sredstv s publichno-pravovykh obrazovaniy za schet kazny* // *Zakon*. 2010. № 6. S. 49–55.

huquq munosabatlarida moddiy huquq normalarining qo'llanilishini istisno qiladi. Bizning fikrimizcha, ommaviy huquqning yuridik shaxslari ommaviy huquq elementi boshqalardan ustun bo'lgan maxsus tuzilma sifatida tan olinishi kerak.

Davlat davlat huquqining yuridik shaxsi ekanligi haqidagi fikrni professor N.I. Kosyakova ham qo'llab-quvvatlaydi va quyidagilarni aytadi: "Rossiya Federatsiyasi, uning subyektlari va munitsipalitetlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mamlakat ichida ham, tashqarisida ham o'z vakillari (davlat idoralari, mansabdor shaxslar) orqali sotuvchi, qarz oluvchi va qarz beruvchi, uy egasi va boshqalar roliga xususiy huquq subyekti sifatida qatnashadilar. Ammo, avvalambor, davlat jamoat tashkilotidir va bunday munosabatlarda, xususan, ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs sifatida jamiyatda birinchi navbatda hukmron suveren rolini bajaradi. Boshqa hech bir ommaviy huquq subyektlari bu vakolatlardan foydalana olmaydi"⁴⁸.

Davlat yuridik shaxs sifatida sof ijtimoiy maqsadga ega. Yuridik shaxsning mavjudligi uchun manfaat zarur, shuning uchun davlatning manfaati o'z mamlakati aholisi uchun eng qulay yashash muhitini yaratishdir. V.E. Chirkin davlatni jamoat yuridik shaxs sifatida tavsiflash uchun "umumiy sabablar" va "umumiy manfaat" atamalarini to'g'ri ishlatadi⁴⁹.

Davlat va uning organlari ko'proq funksiyalarni bajarish uchun yuridik shaxs maqomiga muhtoj. Ammo bu maqom faqat ommaviy (ma'muriy) ma'noda berilishi kerak.

Ko'pgina mualliflarning fikriga ko'ra, davlat va uning organlari yuridik shaxs deb hisoblanishi mumkin emas. Ularning fikricha, davlat organlarini yuridik shaxs maqomidan xalos qilish kerak. Lekin, davlat va uning organlari o'rtasidagi yuridik shaxs maqomiga nomuvofiqlikni yuridik shaxslarning maxsus toifasi – ommaviy (ma'muriy) tan olish yo'li bilan hal qilish kerak, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, har qanday huquqiy munosabatlarda, shu jumladan mulkiy munosabatlarda davlatning (uning organlarining) jamoat pozitsiyasiga shubha yo'q. Davlat jamiyatning tashkiliy va jamoat tarkibiy qismidir va shu sababli mulkiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar bilan teng ravishda ishtirok eta olmaydi. Shubhasiz,

⁴⁸ N.I. Kosyakova. Yuridicheskiye litsa v sovremennom prave i ix mejotraslevnye svyazi. URL: http://www.pravorggu.ru/2009_13/kosyakova_7

⁴⁹ Chirkin V.Ye. Yuridicheskoye litso publicnogo prava. M., 2007. S. 78.

davlat fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ham “oddiy” yuridik shaxs emas.

Ikkinchidan, davlatni ommaviy huquqning yuridik shaxsi sifatida tan olgan holda, butun xalq ushbu shaxsning tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak, chunki davlat fuqarolar uchun bevosita o‘zlari orqali mavjuddir.

Uchinchidan, davlat va huquq nazariyasi uzoq vaqtdan beri davlatni ommaviy huquqiy hodisa sifatida belgilab kelgan. Albatta, yuridik shaxs organlari va davlat organlari o‘rtasida o‘xshashliklar mavjud, ammo davlat organlari faqat davlat yuridik shaxslariga xos bo‘lgan vakolatlarga ega, ya’ni hokimiyat vakolatlari, ular o‘z navbatida maxsus usullar va usullar bilan amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, fuqarolik huquqi o‘z normalari bilan iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan subyektlarning barcha xilma-xilligini tartibga sola olmaydi, shuning uchun davlat va uning organlari ommaviy yuridik shaxs sifatida qaralishi kerak. Bizning fikrimizcha, davlatning mulkiy munosabatlardagi ishtiroki ma’muriy yustitsiyaga bo‘ysunadigan ma’muriy huquq bilan tartibga solinishi kerak.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko‘ra, har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi⁵⁰. Agar davlat organlari odatdagi yuridik shaxs sifatida tan olinsa va mulkka ega bo‘lgan va o‘z organlarining harakatlari uchun javobgar bo‘lgan davlat organlari ham shunday shaxslar sifatida tan olinsa, bunday qoidalar sudlarda yanada samaraliroq bo‘lar edi. Va buning uchun bizga yuridik shaxsning umumiy va maxsus ta’riflari kerak.

Birinchi navbatda, ommaviy huquq subyektlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etmaslik ommaviy huquq subyektlarini, davlat hokimiyati organlarini, jamoat birlashmalarini, jamoat huquq institutlarini yuridik shaxs sifatida tasniflash uchun asos ekanligini ta’kidlash kerak. Hozirgi kunda yuridik shaxs konsepsiyasini yaratish uchun bunday asos ancha kengdir, ya’ni yuridik shaxs nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasida, balki boshqa munosabatlar sohasida ham tashqarida, huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari bilan huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi. Buning

⁵⁰ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

uchun davlat organlari, yuqorida aytib o'tilgan boshqa davlat tashkiliy-huquqiy shakllari singari, "yuridik shaxsga" ko'rinishida tashkiliy-huquqiy maqomga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, ma'muriy sud ish yurituvda javobgar hisoblangan yuridik shaxsning maqomini aniqlash muhim ahamiyatga ega. *Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxsning quyidagi xususiyatlarini ajratib olish mumkin:*

1. *Uning asosiy maqsadi – ommaviy manfaatlari yo'lida ishlash, "umumiy vazifalarni" bajarish butun jamiyat bilan bog'liq (ular davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi). Davlat huquqi subyektlarining maqsad va vazifalari normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.*

2. *Ommaviy huquqda yuridik shaxs xususiy huquqdagi yuridik shaxsdan farqli ravishda tuziladi va tugatiladi. Bu ayniqsa ommaviy huquq subyektlari bo'lgan davlat organlari va muassasalari uchun alohida ahamiyatga ega.*

3. *Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar ommaviy xarakteridagi huquq va majburiyatlarga ega. Mazkur huquq va majburiyatlar ommaviy huquq subyektlari bilan bog'liqdir.*

4. *Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs umumiy emas, lekin maxsus huquqiy maqomga ega. Ularning huquqiy maqomi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Bu toifadagi yuridik shaxslar qonunda ruxsat etilgan fuqarolik-huquqiy shakllar va fuqarolik huquqi normalaridan foydalanishi mumkin.*

5. *Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar o'ziga xos huquqiy rejimga ega bo'lgan mulkka ega hisoblanadi. Odatda ular foydalanadigan mulk davlat mulki hisoblanadi.*

6. *Xususiy va ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bo'yicha bir biridan farq qiladi.*

7. *Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar xususiy huquqdagi yuridik shaxslardan o'zining tuzilish va boshqa ichki munosabatlar bilan farq qiladi.*

Yuqoridagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda "Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to'g'risida"gi qonun qabul qilish lozim deb hisoblaymiz.

Protsessual qonunchilikda nizoni hal qilish vakolati sudlar ega. Vakolat hokimiyatning ommaviy huquqiy shaxsini, ya'ni uning jamoat huquqlari va majburiyatlarini tashuvchisi bo'lish qobiliyatini, ommaviy huquq subyekti bo'lish qobiliyatini tavsiflaydi. Bu xususiy huquq nuqtayi nazardan davlat organi yuridik shaxsining shakllaridan biridir.

Davlat organlariga fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs maqomi berilgan. Fuqarolik huquqi subyektlari sifatida ularning huquq va majburiyatlari ularning vakolatiga kirmaydi, bu faqat ularning hokimiyat tashuvchisi sifatidagi maqomini tavsiflovchi huquq va majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat organining protsessual yuridik shaxsi uning protsessual huquq va majburiyatlarning tashuvchisi va shunga mos ravishda protsessual huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish qobiliyatini tavsiflaydi.

Ma'muriy sud ish yuritishda taraf sifatida ishtirok etuvchi davlat organi uning harakatlariga e'tiroz bildirayotgan shaxsga nisbatan o'z vakolati yoki vakolatlaridan foydalana olmaydi. Buning sababi shundaki, sud jarayonida protsessual vakolatlarga ega bo'lgan yagona subyekt sud hisoblanadi.

Shunday qilib, sud protsessida davlat organi nizoda taraf sifatida ishtirok etishining uchta holatidan birortasi bo'yicha ham davlat organi vakolatidan foydalana olmaydi:

a) harakatlari bahsli subyekt bo'lsa;

b) jismoniy shaxslar o'z vazifalarini bajarmaganligi sababli (qonun hujjatlarida belgilangan hollarda) yoki majburiy sud nazorati tartibida o'zi ma'muriy nizo qo'zg'atganda;

d) boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy-huquqiy nizo qo'zg'atilganda.

Bunday hollarda davlat organlarining protsessual munosabatlar subyekti sifatida jarayonda ishtirok etishining zaruriy shartlari protsessual qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, moddiy ommaviy huquqda belgilangan vakolatli davlat organlarining protsessual huquqiy maqomi yuridik shaxslar bilan bir xil ahamiyatga egadir. Ma'muriy sud ish yurituvda davlat organi ma'muriy nizoning tarafi sifatida o'z vakolatini emas, balki ma'muriy sud ish yurituvi normalarida belgilangan protsessual huquq layoqatini amalga oshiradi.

Ma'muriy nizolarni ma'muriy ish yuritish tartibida ko'rib chiqishda davlat organining barcha subyektlari singari jismoniy shaxslar bir xil protsessual huquq layoqatiga ega.

Ma'muriy nizolarni ma'muriy ish yuritish tartibida hal etishda vujudga keladigan protsessual huquqiy munosabatlarda jismoniy shaxs huquqiy da'vo qo'zg'atuvchi taraf sifatida ishtirok etishi mumkin.

Ma'muriy sud ish yurituvida arizachining protsessual va huquqiy maqomini olish ikkita shartning mavjudligini nazarda tutadi:

1) jismoniy shaxsning protsessual huquqiy munosabatlarning subyekt sifatida sudda harakat qilishi unda huquqiy layoqat, ya'ni ma'muriy protsessual huquq va ma'muriy muomala layoqati bor-yo'qligiga e'tibor qaratiladi.

2) ma'muriy nizoni hal qilishda subyektga uning huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini buzuvchi davlat organining bahsli qarori yoki harakati (harakatsizligi) tufayli jismoniy shaxsning qonuniy manfaatlarini buzilishi kerak.

Ma'muriy sud ish yurituvining ishtirokchisi bo'lishning umumiy sharti sifatida qonunga muvofiq huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega bo'lgan barcha jismoniy shaxslarga egadir.

Agar bu huquq mavjud bo'lsa, nafaqat yuridik shaxslar, balki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tashkilotlar ham ma'muriy ish yuritish ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Xorijiy qonunchilikda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmagan birlashmalarning ma'muriy ish yuritishda maxsus rasmiyatchiliklarsiz ishtirok etishiga ruxsat etiladi⁵¹. Uzoq vaqt davomida faqat yuridik shaxslar sudda ishtirok etishlari mumkin, deb hisoblab kelingan. Bunday yondashuv boshqa huquq sohalarining, shu jumladan ma'muriy huquqning subyektlari yuridik shaxs bo'lmagan, shu jumladan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan hollarda taraf sifatida ishtirok etuvchi kollegial shaxslar bo'lishi mumkinligini hisobga olinmadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan jamoaviy shaxs sifatida tashkilotlar uchun ma'muriy protsessual huquqiy layoqatning paydo bo'lishi yagona shart – bunday ishtirok etish imkoniyati to'g'risida qonunchilikda belgilanishi bilan ahamiyatli. Misol uchun, xorijiy mamlakatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga saylov sanasini belgilash to'g'risidagi nizolar yuridik shaxs bo'lmagan jamoat birlashmalari yoki ularning hududiy va mahalliy bo'linmalarining arizalari asosida sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Yuridik shaxs bo'lmagan tashkilotlar nafaqat ariza beruvchi, balki javobgarining protsessual maqomida ham harakat qilishlari mumkin. Masalan, yuridik shaxs bo'lmagan jamoat birlashmalar va diniy tashkilotlarning faoliyatini taqiqlash to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqilishi jarayoni bo'yicha xorijiy amaliyot mavjud.

⁵¹ Sandevuar P. Kontrol za deyatelnostyu gosudarstvennoy administratsii vo Fransii. M., 1998. S. 52.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tasnifi yuzasidan bugungi kundagi qonunchilik tasnifiga qo'shilgan holda ommaviy huquqda yuridik shaxsning huquqiy maqomi jihatdan ularning huquq va majburiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

1.3. Ma'muriy sudlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish masalalari

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari jarayonida ma'muriy sudlarning mustaqil sud tarmog'i sifatida tashkil etilgani sud himoyasini ta'minlashning muhim kafolati bo'ldi. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomi qonunchilik bilan belgilab qo'yilishi ularning sudda teng huquqliligini va adolatli sudlovga erishish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Buning huquqiy asoslari Konstitutsiya va maxsus qonunchilik hujjatlarida ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy iyerarxiyaning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Unda fuqarolarning sud orqali himoya huquqi belgilab qo'yilgan. Xususan, asosiy Qonunning 55-moddasiga ko'ra, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi nazarda tutilgan⁵². Mazkur normaga ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning umumiy xususiyatlari berilgan. Jumladan, ma'muriy sud ish yurituvining asosiy ishtirokchilari hisoblangan taraflar umumiy ko'rinishda ifodalangan. Xususan, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslari ma'muriy sud ish yurituvda javobgar hisoblansa, har kim deganda arizachilar nazarda tutilmoqda. Ta'kidlab o'tish kerakki, Konstitutsiyada ushbu masalani bu tartibda aks etishi tabiiy holat. Konstitutsiya Asosiy Qonun sifatida mavjud munosabatlarning fundamental asoslari belgilaydi.

BMTning 1966-yil 16-dekabrdagi "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktning 9-moddasiga asosan, har bir shaxs

⁵² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

davlat organlarining mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'zni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega⁵³.

Davlat organlarining mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilish huquqi Italiya, Portugaliya, Serbiya, Gretsiya, Daniya, Ozarbayjon, Hindiston kabi davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqi maqomi aks etgan eng asosiy qonun hujjati bu Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks(MSIYtK)dir. Mazkur kodeksining oltinchi bobi ushbu masalaga bag'ishlangan. Ya'ni, soha yagona kodeks doirasida tartibga solinadi. Mazkur holat Kontinental Yevropa (Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Estoniya) yagona kodeks modeliga o'xshashdir. Bu huquqiy aniqlik va tizimlilikni ta'minlaydi.

Anglo-sakson huquq tizimiga ko'ra (AQSH, Britaniya, Avstraliya) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi sohaviy qonunlar va umumiy prinsiplar asosida tartibga solinadi Bu esa tartiblarning turlichaligi va sud amaliyotiga katta ahamiyat berish bilan ajralib turadi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeks yoki maxsus qonun bilan tartibga solinadigan davlatlarda (Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Estoniya) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi quyidagi jihatlarda to'liq tartibga solinadi: taraflar (da'vogar va javobgar)ning huquq va majburiyatlari, uchinchi shaxslarning ishtiroki, ularning protsessual maqomi, davlat organlari va prokuraturaning ishtiroki tartibi, vakolatli vakillar orqali qatnashish shartlari va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual kafolatlari.

AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda yagona ma'muriy sudlov kodeksi yo'q. U yerda ishda ishtirok etuvchi shaxslar maqomi turli qonunlar, maxsus qoidalar (tribunal rules) yoki sud pretsedentlari asosida belgilanadi. Bu davlatlarda huquqiy maqom to'liq belgilangan, lekin kodeksga xos bir xillik va tizimlilik yo'q. Har bir sohaviy qonun o'zining ishtirokchilar tartibini belgilaydi.

Yana bir muhim masala ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini alohida ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligi doirasida tartibga solgan ma'qulmi yoki fuqarolik qonunchiligi asoslariga tayanish kerakligiga oid masala dolzarb hisoblanadi.

⁵³ <https://lex.uz/docs/2640479>

Fransuz huquqshunoslari J. Rivero va J. Vedellar ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi fuqarolik protsessual qoidalari asosida emas, balki alohida ma'muriy sudlov tizimi orqali tartibga solinishi zarurligini ta'kidlaydilar⁵⁴.

Germaniyada ma'muriy yustitsiya nazariyasida yetakchi olimlar Fris Verner va Eberxard Shmidt-Assmannlar ma'muriy protsessual qonunchilik orqali ishda ishtirok etuvchilarning huquqiy maqomi alohida ravishda tartibga solinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar⁵⁵.

Buyuk Britaniyada ma'muriy huquq nazariyasi olimlari K. Xarlou va R. Rous Buyuk Britaniyada alohida ma'muriy protsessual kodeks yo'qligini, barcha ishda ishtirok etuvchi shaxslarning maqomi umumiy fuqarolik protsessual qoidalari orqali belgilanishini tahlil qilib, uning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishgan⁵⁶.

Ya. Polanovskiy Yevropa ma'muriy huquqida protsessual ishtirokchilarning roliga bag'ishlangan tadqiqotlarida ayrim davlatlarda (masalan, Germaniya, Fransiya) ularning huquqiy maqomi alohida ma'muriy protsessual kodekslarda yoritilgan bo'lsa, boshqa davlatlarda (Polsha, Vengriya) umumiy fuqarolik protsessual kodeks doirasida tartibga solinishini qiyosiy tahlil qiladi⁵⁷.

Masalaga nazariy va amaliy nuqtayi nazardan yondashganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini alohida kodeks bilan tartibga solish yoki fuqarolik protsessual qonunchilik doirasida tartibga solishning har ikkisida ham afzal va kamchilik jihatlari mavjud.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish bo'yicha alohida kodeks bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish quyidagi afzalliklarga ega.

Birinchidan, mustahkam huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Ma'muriy nizolar fuqarolik ishlaridan tabiatan farq qiladi (ommaviy boshqaruvi sohasidagi munosabatlar, davlat organi va fuqaro o'rtasida tengsizlik mavjud). Shuning uchun ularni alohida kodeksda belgilash huquqiy munosabatlarning spetsifikasini hisobga oladi.

Ikkinchidan, fuqaro huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlaydi. Davlat organi ustidan shikoyat qilish tartibi, davlat organining protsessual majburiyatlari, dalillarni taqdim etishdagi tengsizlikni bartaraf etish mexanizmlari aniq ko'rsatiladi.

⁵⁴ Jean Rivero, Jean Waline. *Droit administratif*. Dalloz, Paris. 1992

⁵⁵ Eberhard Schmidt-Aßmann. *Das allgemeine Verwaltungsrecht als Ordnungsidee*. Springer, Heidelberg.

⁵⁶ Carol Harlow, Richard Rawlings. *Law and Administration*. Cambridge University Press.

⁵⁷ Polanowsky J., *Procedural Guarantees in Administrative Adjudication*, Warsaw, 2016

Uchinchi, ishtirokchilarning maqomi alohida belgilab beriladi. Arizachi, javobgar, prokuratura, uchinchi shaxs, davlat organi vakillari kabi ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilgan bo'ladi.

To'rtinchidan, huquqiy amaliyotda barqarorlikni ta'minlaydi. Sudyalar va huquqshunoslar uchun alohida yo'nalishda ixtisoslashish imkoniyati yaratiladi.

O'z navbatida, ma'muriy sud ishlarini yuritish bo'yicha alohida kodeks bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishning ayrim salbiy tomonlari ham mavjud. Xususan, fuqarolik va ma'muriy ishlar turli kodekslarda belgilangani uchun qonunchilik tizimi murakkablashadi. Shuningdek, ba'zi hollarda protsessual masalalarda turli yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, ayrim olimlar tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar maqomini fuqarolik protsessual qonunchilik asosida huquqiy tartibga solishning afzalliklariga ham katta urg'u beriladi. Jumladan, bunday holatda yagona protsessual tizim bo'ladi. Barcha sud ishlari bitta kodeksda tartibga solinadi, bu qonunchilikning yaxlitligi va soddaligini ta'minlaydi.

Shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar maqomini fuqarolik protsessual qonunchilik asosida huquqiy tartibga solishning kamchiliklari sifatida avvalo ma'muriy ishlar ixtisoslashuviga yetarlicha e'tibor berilmasligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Davlat organi bilan fuqaro o'rtasidagi protsessual tengsizlik, davlatning ustunligi va fuqaroning himoyaga muhtojligi umumiy qoidalar ostida qolib ketishi mumkin.

Shu bilan birga, huquqiy maqom umumiy shaklda belgilanadi. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari ma'muriy nizolarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan holda umumiy tarzda ko'rsatiladi. Amaliyotda davlat organlari manfaatdor tomon sifatida ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, agar davlatda ma'muriy sudlar mustaqil va ixtisoslashgan tizim sifatida shakllangan bo'lsa, unda alohida kodeks orqali tartibga solish ma'qul. Bu ishtirokchilarning huquqiy maqomini to'liq va adolatli belgilashga xizmat qiladi.

Agar davlatda ma'muriy nizolar umumiy sudlar tarkibida ko'rib chiqilsa, unda fuqarolik protsessual kodeksi doirasida tartibga solish yetarli bo'lishi mumkin.

Ilmiy nuqtayi nazardan, *O'zbekiston sharoitida alohida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning mavjudligi eng to'g'ri yo'l*

hisoblanadi, chunki u fuqaro va davlat organi o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash va fuqarolarning sud orqali himoya huquqini kafolatlashga qaratilgan.

Yana bir muhim masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini tartibga solishda ma'muriy munosabatlardagi moddiy va protsessual qonunchilikni yagona qonun asosida birlashtirilganligi hisoblanadi. Bu borada Qozog'iston tajribasi alohida ahamiyatga ega.

Qozog'iston Respublikasida ma'muriy nizolarni hal qilish sohasi 2021-yil 1-iyuldan kuchga kirgan Ma'muriy protsedura-protsessual kodeks bilan yagona huquqiy hujjat asosida tartibga solinadi⁵⁸. Bu holat uning boshqa mamlakatlardan farqli jihatlaridan biri hisoblanadi. Negaki ko'p davlatlarda ma'muriy protsedura qonun bilan, ma'muriy sud ishlarini yuritish esa alohida ma'muriy protsessual kodeks yoki fuqarolik protsessual kodeksi doirasida tartibga solinadi.

Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksini yuzaga kelish sabablari sifatida quyidagi jihatlar hisobga olingan:

1. Idoraviy nizolarning keng tarqalganligi. Qozog'istonda davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi nizolar soni ortib borgan, turli sohalarda turlicha tartib-taomillar qo'llanilib, yagona tizim yetishmasdi.

2. Huquqiy aniqlikni ta'minlash. Ma'muriy tartib-taomil va sudga ko'rib chiqish jarayoni o'zaro uzviy bog'liq ekanligi uchun ularni bir kodeks doirasida birlashtirish orqali huquqiy munosabatlarda yaxlitlikka erishildi.

3. Yevropa tajribasini qiyosiy o'rganish. Germaniya yoki Avstriya tajribasidan farqli o'laroq, Qozog'iston birlashtirilgan kodeks yo'lini tanladi. Buning ortida fuqarolar uchun huquqni amalga oshirishda soddalashtirish maqsadi turdi.

Moddiy va protsessual qonunchilikni yagona kodeksda ifodalanishi afzalliklari sifatida idoraviy va sud bosqichlari uyg'unligi ta'minlashga erishish yotadi. Fuqaro davlat organiga murojaat qilishi, undan rad javobi olishi va keyin sudga murojaat qilishi jarayonlari bitta kodeksda ifoda etilgan. Bu huquqni amalga oshirishda tizimlilik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Fuqaro manfaatlarining ustuvorligi ta'minlash yagona kodeksning asosiy maqsadlaridan hisoblanib, unda "pro persona" tamoyili mustahkamlangan bo'lib, shubhali holatlarda qaror fuqaro manfaatiga talqin qilinishi lozim.

⁵⁸ <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K2000000350>

Shuningdek, yagona huquqiy bazaning mavjudligini ta'minlaydi. Tartib-taomil va protsessual masalalar turli qonunlarda tarqoq holda emas, balki bitta kodeksda jamlangan. Bu huquqni qo'llashda va tatbiqda aniqlikni ta'minlaydi.

Qozog'istonda ma'muriy protsedura va protsessual kodeksni birlashtirish orqali davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar yaxlit huquqiy maydonga olib chiqildi. Bu nafaqat huquqiy aniqlik, balki fuqarolarning davlat organlari ustidan samarali huquqiy himoyaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Qozog'iston tajribasidagi kabi ma'muriy protsedura va ma'muriy protsessual qoidalarni yagona kodeks asosida tartibga solish amaliyoti bir qator xorijiy mamlakatlarda ham qo'llanilgan. Bu holat ma'muriy organlar faoliyati hamda sudda ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish jarayonini bir tizimga solish, fuqarolar uchun huquqiy aniqlik va kafolatlarni kuchaytirish maqsadida joriy etilgan.

Shu o'rinda savol tug'iladi. O'zbekistonda MSIYtKda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi yetarli darajada tartibga solinganmi? Bu o'ta dolzarb va murakkab masala hisoblanadi. Masalaga ham nazariy, ham amaliy jihatdan qarash mumkin. O'z navbatida, mazkur paragraf doirasida ushbu masalani to'liq tahlil qilish imkoni mavjud emas. Aksariyat masalalarga tadqiqot ishining keyingi qismlarida to'xtalib o'tamiz. Shu bois, umumiy jihatlarga to'xtalib o'tsak.

Shu o'rinda, mazkur masalaning ahamiyatini hisobga olib, so'rovnoma o'tkazildi. Jumladan, so'rovnomada *"Ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy himoya darajasi qanday, deb hisoblaysiz?"* degan savolga ishtirokchilarning 73% i *"o'rtacha"* deb javob bergan. Shuningdek, *"Sizning fikringizcha, bugungi kunda O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirishga ehtiyoj bormi?"* degan savolga 85% ishtirokchi *"ehtiyoj bor, ma'muriy sud ish yurituvining xususiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozim"* deb javob bergan. So'rovnoma natijalaridan ham ko'rish mumkinki, bugungi milliy qonunchilik takomilga muhtoj.

Birinchi navbatda, kodeks ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini keng qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, arizachi va javobgar bilan bir qatorda, uchinchi shaxslarning turlari hamda ularning protsessual imkoniyatlari aniq belgilangan. Shu bilan birga, prokurorning ishtirokiga ham alohida o'rin berilgan bo'lib, u muayyan

holatlarda jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun ariza kiritish vakolatiga ega.

Shu jihatdan, MSIYtK ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini ta'minlash borasida yetarli tartib-qoidalarni nazarda tutgan, deb hisoblash mumkin. Masalan, taraflarga berilgan asosiy huquqlar qatorida dalillar taqdim etish, dalillarni rad etish, ariza talabini o'zgartirish, sud qarorlariga shikoyat berish kabi keng protsessual imkoniyatlar ko'zda tutilgan.

Biroq, qator jihatlarda ushbu maqomning mukammalligi bo'yicha ilmiy bahslar mavjud. Jumladan, taraflar protsessual tengligi masalasi alohida dolzarbdir. MSIYtKda taraflarning huquqlari va majburiyatlari nazariy jihatdan teng belgilangan bo'lsada, amaliyotda ma'muriy organ bilan oddiy fuqaro o'rtasida imkoniyatlar tengligiga erishish murakkab bo'lib qolmoqda. Bu esa arizachining qo'llab-quvvatlovchi protsessual mexanizmlarning yanada takomillashtirilishini talab qiladi.

Bizningcha, MSIYtKda belgilangan sudning faol ishtiroki prinsipi to'laqonli o'z aksini topmagan. Armaniston tajribasiga e'tibor qaratsak, sud arizadagi rasmiy xatolarni ko'rsatadi, noaniq talablarni aniqlashtirishni, noto'g'ri talablarni sudga taalluqli talablar bilan almashtirishni, asosiy talab bilan hosilaviy talablarni farqlashni, yetarli bo'lmagan faktik ma'lumotlarni to'ldirishni taklif qiladi⁵⁹. Bu esa sudning faol ishtirokini to'laqonli amalga oshirish imkonini beradi. Sud amaliyotida ham sudlar tomonidan ko'plab holatlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga huquqlarini tushuntirishda xatoliklarga yo'l qo'ymoqda.

Misol uchun, *arizachi tuman prokurori sudga ariza bilan murojaat qilib, javobgar BBB tuman hokimining 2019-yil 20-martdagi "NNN" fermer xo'jaligiga yer uchastkasi ajratib berish to'g'risidagi xx-sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Xorazm viloyat ma'muriy sudi apellyatsiya instansiyasining 2024-yil 18-martdagi qarori bilan o'zgarishsiz qoldirilgan Urganch tumanlararo ma'muriy sudining 2024-yil 19-yanvardagi hal qiluv qaroriga ko'ra, ariza qanoatlantirilgan. Buxoro viloyat ma'muriy sudi taftish instansiyasining 2024-yil 25-iyundagi ajrimi bilan uchinchi shaxs "NNN" fermer xo'jaligining taftish shikoyatidan voz kechish haqidagi arizasi qabul qilinib, taftish shikoyati bo'yicha ish yuritish tugatilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 25-martdagi "Sudlar tomonidan ma'muriy ishlarni apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rishning ayrim masalalari*

⁵⁹ <https://www.arlis.am/hy/acts/98896>

to'g'risida"gi 11-sonli qarori 23-bandining uchinchi qismiga ko'ra, apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi arizachining ariza (shikoyat)dan voz kechishini qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin arizachiga (taraflarga) ish yuritishni tugatishning MSIYtK 109-moddasida nazarda tutilgan huquqiy oqibatlarini tushuntirishi shart. Ish hujjatlariga ko'ra, uchinchi shaxs "NNN" fermer xo'jaligi rahbari Buxoro viloyat ma'muriy sudi taftish instansiyasiga ariza bilan murojaat qilib, ma'muriy ishda kerakli qo'shimcha dalillarni to'plash uchun vaqt talab qilinayotganligi sababli taftish tartibidagi shikoyatidan voz kechishi va shikoyat bo'yicha ish yuritishni tugatishni so'ragan. Biroq, uchinchi shaxs "NNN" fermer xo'jaligi taftish tartibidagi shikoyatidan shartli ravishda voz kechgan bo'lsa-da, sud voz kechish oqibatlarini to'liq tushuntirmasdan uni qabul qilib, barvaqt xulosaga kelgan. Sud majlisi bayonnomasida ham uchinchi shaxs "NNN" fermer xo'jaligi rahbariga shikoyatdan voz kechish oqibatlari tushuntirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Shu sababli, Oliy sudi taftish instansiyasining 2024-yil 8-noyabrdagi qarori bilan Buxoro viloyat ma'muriy sudi taftish instansiyasining 2024-yil 25-iyundagi ajrimi bekor qilinib, ish (shikoyat) mazmunan ko'rib chiqish uchun shu instansiya sudiga yuborilgan⁶⁰.

Shu bois, MSIYtKning 11-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

"Sud fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida oldindan huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali talablarini shakllantirishda va ularni o'zgartirishda taraflarga huquqiy ko'maklashadi."

Shuningdek, uchinchi shaxslar instituti alohida tahlil qilishga muhtoj. MSIYtKda ularning ishtirok shakllari belgilangan bo'lsada, uchinchi shaxslarning arizaga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari amaliyotda yetarli darajada aniqlanmagan. Masalan, ayrim hollarda ularning mustaqil talab qo'yish imkoniyati cheklangan.

O'z navbatida, prokuror va davlat organi ishtiroki masalasida ham ko'plab savollar mavjud. MSIYtKda prokurorning huquqlari nazarda tutilgan bo'lsa-da, uning amaliy faoliyati hanuz tor doirada namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina ishlarda prokuror faqat umumiy nazorat funksiyasini bajaradi, ammo fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok darajasi past. Davlat organlari javobgar sifatida belgilab

⁶⁰ https://public.sud.uz/report/ADMINISTRATIVE_NEW

qo'yilgan bo'lsada, ularning javobgarligi ko'pincha formal xarakterda qolmoqda. Shuning uchun davlat organlari va mansabdor shaxslar ishtirokidagi ishlar bo'yicha protsessual kafolatlarni kuchaytirish zarur.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi tartibni xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda ham muayyan kamchiliklar va ustunliklarni ko'rish mumkin. Masalan, Germaniya yoki Fransiyada ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi ancha batafsil va keng qamrovda bayon etilgan. Ular nafaqat taraflarning huquqlari, balki protsessda ishtirok etuvchi har bir organning vakolatlari, tenglik prinsipi va sudning faolligini ham aniq belgilaydi.

Ta'kidlash lozimki, sud amaliyotida sudlar tomonidan doim ham mukammal qarorlar qabul qilinyapti deb bo'lmaydi. Xususan, *Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida 2025-yilning ikkinchi choragida taftish tartibidagi shikoyatlar (protestlar) asosida 520 ta ish o'rganilgan, taftish instansiyasida 74 ta ish ko'rilgan bo'lib, 49 tasi bo'yicha sud hujjatlari o'zgarishsiz qoldirilgan, 25 tasi bo'yicha bekor qilingan. Bekor qilingan 25 ta sud hujjatlaridan 11 tasi bo'yicha quyi sudlarning sud hujjatlari bekor qilinib, yangi qaror qabul qilingan, 3 tasi bo'yicha sud hujjatlari bekor qilinib, ish yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga (shundan, 1 tasi apellyatsiya instansiyasiga, 2 tasi taftish instansiyaga) yuborilgan hamda 11 ta ish bo'yicha sud qarorlari bekor qilinib, birinchi instansiya sudining 9 ta hal qiluv qarori, apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarining 1 tadan qarori o'z kuchida qoldirilgan. Yakuniy qarorlar qabul qilish ko'rsatkichi 88 foizni tashkil etgan. Bekor qilingan sud hujjatlarining 9 tasi Toshkent shahar, 5 tasi Samarqand, 4 tasi Buxoro, 3 tasi Toshkent, 2 tasi Qashqadaryo, 1 tadan Sirdaryo va Farg'ona viloyat sudlariga to'g'ri kelgan. Bekor qilingan 25 ta sud hujjatlaridan 23 tasi hal qiluv qarorlari, 2 tasi sud ajrimi hisoblanadi. Shundan 2 ta sud ajrimi bo'yicha shikoyat ko'rib chiqilishi uchun taftish instansiyasiga yuborilgan. Sudlov hay'atida jami ko'rilgan 74 ta ishning 27 tasi yoki 36,5 foizi soliq idoralari, 22 tasi yoki 29,7 foizi mahalliy hokimliklar, 9 tasi yoki 12,2 foizi kadastr, 3 tasi yoki 4,0 foizi bojxona idoralari bilan bog'liq munosabatlarga oid ishlarga to'g'ri kelgan. Sud amaliyoti obzorini tayyorlash natijalaridan ko'rinishicha, sudlar tomonidan ayrim ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, Oliy sud Plenumining qarorlari tushuntirishlariga rioya qilinmasligi, ish holatlari to'liq aniqlanmasligi, moddiy va protsessual huquq normalarining*

*noto'g'ri qo'llanilishi yoki buzilishi sud qarorlari bekor qilinishiga sabab bo'lgan*⁶¹. Mazkur kamchiliklar asosiy sababi qonun hujjatlarini noto'g'ri qo'llash bo'lsa, o'z navbatida qonunchilikdagi bo'shliqlar ham bunga asos bo'lyapti.

MSIYtKda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy huquqiy bazani yaratilgan, ammo uning yanada mukammal tarzda amalga oshishi uchun qator protsessual mexanizmlar takomillashtirilishi lozim. Ayniqsa, taraflar tengligini ta'minlovchi normalarni amaliy jihatdan samarali qo'llash, uchinchi shaxslarning ta'sirchan ishtiroki va prokurorning haqiqiy himoya funksiyasini kuchaytirish muhim vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

⁶¹ <https://sud.uz/wp-content/uploads/2025/08/obzor/%D0%A0%D0%A1-33-25%20%D0%9C%D0%98%D0%91%20%D0%9E%D0%91%D0%97%D0%9E%D0%A0%202025%D0%B9%202-%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BA.pdf>

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Monografiyaning birinchi bobida ma'muriy sud ishlarini yuritish subyektlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi va sohani huquqiy tartibga solishning dolzarb masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishi doirasida ma'muriy sud ish yurituvining subyektlarini uchta guruhga ajratib tahlil qilingan. Xususan, a) ma'muriy ishlarni hal qiluvchi shaxslar (sud, sudyalari); b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilgan shaxslar va boshqalar.); v) ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan birga sud jarayonida ishtirok etadigan ma'muriy sud ish yurituvining boshqa ishtirokchilari.

Shu bilan birga, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tasnifini huquqiy manfaat asosida tahlil qilingan. Xususan, ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda huquqiy manfaatni 3 ta turga bo'lingan a) shaxsiy (taraflar va uchinchi shaxslar); b) davlat manfaatlari; d) jamoat manfaatlari.

Tadqiqot ishi doirasida ma'muriy sud ish yurituvida taraflar tushunchasiga odatda o'zlarining moddiy va protsessual manfaatlarini himoya qilish uchun harakat qiladigan, nizoni hal qilish uchun sud xarajatlarini o'z zimmasiga oladigan va umumiy qoida sifatida bahsli moddiy huquqiy munosabatlar subyektlarini belgilash muhim bo'lgan shaxslardir, deb ta'rif berilgan.

Mazkur bobning yana bir muhim xususiyati ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxsning quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Uning asosiy maqsadi – ommaviy manfaatlari yo'lida ishlash, “umumiy vazifalarni” bajarish butun jamiyat bilan bog'liq (ular davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi). Davlat huquqi subyektlarining maqsad va vazifalari normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.
2. Ommaviy huquqda yuridik shaxs xususiy huquqdagi yuridik shaxsdan farqli ravishda tuziladi va tugatiladi. Bu ayniqsa ommaviy huquq subyektlari bo'lgan davlat organlari va muassasalari uchun alohida ahamiyatga ega.
3. Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar ommaviy xarakteridagi huquq va majburiyatlarga ega. Mazkur huquq va majburiyatlar ommaviy huquq subyektlari bilan bog'liqdir.
4. Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs umumiy emas, lekin maxsus huquqiy maqomga ega. Ularning huquqiy maqomi normativ-huquqiy

hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Bu toifadagi yuridik qonunda ruxsat etilgan fuqarolik-huquqiy shakllar va fuqarolik huquqi normalaridan foydalanishi mumkin. 5. Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar o'ziga xos huquqiy rejimga ega bo'lgan mulkka ega hisoblanadi. Odatda ular foydalanadigan mulk davlat mulki hisoblanadi. 6. Xususiy va ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bo'yicha bir biridan farq qiladi. 7. Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar xususiy huquqdagi yuridik shaxslardan o'zining tuzilish va boshqa ichki munosabatlar bilan farq qiladi.

Yuqoridagi o'ziga xususiyatlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda "Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to'g'risida"gi qonun qabul qilish lozimligi asoslab berilgan.

O'z navbatida, O'zbekiston sharoitida alohida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning mavjudligi eng to'g'ri yo'l hisoblanishi, chunki u fuqaro va davlat organi o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash va fuqarolarning sud orqali himoya huquqini kafolatlashga qaratilganligi tahlil qilingan.

II BOB. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA ISHTIROK ETUVCHI SHAXSLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI HAMDA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

2.1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarining huquqiy tavsifi

MSIYtKning 30-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish, rad qilish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) va MSIYtKda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqlariga ega⁶². Mazkur huquqlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomining tarkibiy qismi sifatida ma'muriy sud ishlarini yuritishda qonuniy manfaatlarini ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Milliy qonunchilikda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari yetarli darajada ifodalanganmi? Mavjud huquqlarni amalga oshirish mexanizmida muammolar mavjud emasmi? Tadqiqot ishning mazkur qismida ushbu masalaga alohida urg'u beramiz.

Ta'kidlash lozimki, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari ilmiy manbalarda turlicha tasniflangan. Xususan, H. Lukianova⁶³, Ya. Polanovskiy⁶⁴, M.K. Treushnikova⁶⁵, V.V. Yarkov⁶⁶, D.B. Abushenko, Ye.M. Batuxtina va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

⁶² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

⁶³ Lukianova H. (2024) Subjects of administrative jurisdiction: some issues of legal status. Bulletin of Lviv Polytechnic National University. Series: Legal Sciences. Vol. 11, No. 1(41), Pp. 159-

⁶⁴ Participants in Administrative Court Proceedings in Multi-Stakeholder Proceedings (Administrative Law Review, 2021) // https://www.researchgate.net/publication/354740791_Participants_in_Administrative_Court_Proceedings_in_Multi-Stakeholder_Proceedings

⁶⁵ Grajdanskiy protsess: Uchebnik / Pod red. M.K. Treushnikova. – M.: Statut, 2014.

⁶⁶ Yarkov V. V., Abushenko D. B., Batuxtina Ye. M. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii: kommentariy – Izdatelstvo "NORMA", 2021.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari mazmuniga ko'ra axborot olish va hujjatlardan foydalanish, izoh berish va munosabat bildirish, dalillar bilan ishlash, shikoyat qilish va norozilikni ifodalash hamda protsessual tashabbus huquqlariga bo'lib tahlil qilingan.

Bizning fikrimizcha, *ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari quyidagicha tasniflash mumkin:*

1. *Axborot olish huquqlari;*
2. *Izoh berish huquqlari;*
3. *Dalillar bilan ishlash huquqlari;*
4. *Protsessual tashabbus huquqlari;*
5. *Shikoyat qilish huquqlari.*

Quyida mazkur tasnif asosida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini ilmiy-nazariy va huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib ayrim jihatlarini tahlil qilib chiqamiz.

Axborot olish huquqlari. Mazkur huquq umum huquq nazariyasida alohida konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi. Lekin, tadqiqot predmeti nuqtayi nazardan tahlil qilib chiqamiz.

Milliy qonunchiligimizdan kelib chiqib, ma'muriy sud ish yurituv nuqtayi nazardan axborot olish huquqlariga **ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish va ko'chirma nusxa olish huquqlarini** kiritish mumkin.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda mazkur huquqlar toifasining o'ziga xos jihatlar mavjud. Xususan, Estoniya Ma'muriy protsessual kodeksining 27-moddasiga ko'ra, axborot olish huquqlarga ish materiallari bilan tanishish va ulardan nusxalarini olish hamda ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibini bilish huquqlari kiritilgan⁶⁷.

Rossiya Federatsiya Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 45-moddasida ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish va ularning nusxalarini olish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan berilgan shikoyatlar, ushbu ma'muriy ishda qabul qilingan sud hujjatlari to'g'risida bilish va alohida hujjat shaklida qabul qilingan sud hujjatlarining nusxalarini olish hamda ma'muriy ish bo'yicha sudyaning alohida fikri bilan tanishish kabi axborot huquqlari belgilab o'tilgan⁶⁸.

⁶⁷ <https://www.hartran.ee/index.php?id=13>

⁶⁸ https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/

Qozog'iston Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksining 28-moddasiga ko'ra, da'vogarning axborot olish huquqlariga ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish va nusxalarini olish, uning manfaatlariga daxldor bo'lgan qarorlar to'g'risida bilish va berilgan da'vo bilan bog'liq protsessual qarorlarning nusxalarini olish hamda sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va unga e'tirozlar bildirish kabilarni kiritilgan. Shuningdek, javobgarning axborot olish huquqlariga da'voning mohiyatini bilish, ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish va nusxalarini olish, uning manfaatlariga daxldor bo'lgan qarorlar to'g'risida bilish va berilgan da'vo bilan bog'liq protsessual qarorlarning nusxalarini olish va sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va unga e'tirozlar bildirish kabi huquqlar kiritilgan⁶⁹.

Yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning axborot olish huquqlarini quyidagi o'ziga xos jihatlarini ta'kidlash lozim:

Birinchidan, ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibini bilish huquqi alohida belgilab o'tilgan. Milliy qonunchilikda mazkur huquq alohida belgilab o'tilmagan. Lekin, to'g'ridan to'g'ri ushbu huquq belgilanmagan bo'lsada, ishda ishtirok etuvchi shaxslarda sud tarkibini bilishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud emas. Bizningcha, mazkur huquqni alohida qonunchilikda belgilab qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki, mazkur huquqni aniq belgilanishi ma'muriy sud ish yurituvining ochiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, *MSIYtKning 39-moddasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan biri sifatida sud tarkibini bilish huquqi kiritish lozim.*

Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilardan mazkur masalaga munosabat so'raldi. Jumladan, *"Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan biri sifatida "ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibini bilish huquqi"ni qonunchilikda alohida belgilab qo'yish kerakmi?"* degan savolga 77% ishtirokchi *"Belgilab qo'yish kerak, sudning shaffofligini oshiradi"* deb javob berdi.

Ikkinchidan, ishda etuvchi shaxslar ma'muriy ish bo'yicha sudyaning alohida fikri bilan tanishish huquqi mavjud. Biroq milliy qonunchilikda mazkur huquq mavjud emas. Xususan, MSIYtKning 19-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmasligi belgilab o'tilgan⁷⁰.

⁶⁹ <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K20000000350>

⁷⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

Sudya ishni ko'rib chiqish jarayonida sud tarkibidagi boshqa sudyalalar bilan fikri to'g'ri kelmagan hollarda, u alohida fikr bildirishi mumkin. Bu sudyaning huquqidir va sudning asosiy qaroridan alohida, mustaqil yozma shaklda bayon etiladi. Sudyaning alohida fikri sud mustaqilligi va ochiqlik tamoyillaridan biri sifatida Yevropa Kengashi, YEXHT, va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyoti⁷¹da tan olingan. Alohida fikr ma'muriy ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorning shaffofligi va mustahkam huquqiy tahlilini ta'minlaydi.

Bizningcha, mazkur huquqni milliy qonunchilikda belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu esa ma'muriy sud ish yurituvchi xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashga hamda ishda etuvchi shaxslarning huquqlarini to'laqonli ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, *MSIYtKning 19-moddasi ikkichi qismidan "Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi" jumlasini chiqarib tashlash lozim*⁷².

Uchinchidan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida arizachi (da'vogar) va javobgarning huquqlarini alohida ajratilganligini ham o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi ayrim holatlarda mazkur subyektlar o'ziga xos huquqlarga egaligi bilan tasniflanadi.

Shu o'rinda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ayrim munozarali va ilmiy jihatdan tahlil qilishga muhtoj ayrim axborot huquqlarini tahlil qilsak. Shunday huquqlardan biri **ish materiallari bilan tanishish huquqi** hisoblanadi. Mazkur huquq ma'muriy sud ish yurituvini qonuniy va adolatli hal qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu huquq yuqorida tahlil qilingan xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ham asosiy huquq sifatida ko'rsatilgan.

Har qanday protsessual huquq sohasi ruxsat beruvchi qoidalarini taqdim etadi. Xususan, protsess ishtirokchilariga ish materiallari bilan tanishish huquqini beradi. Protsessual qonunchilikda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish va nusxalarini olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Umuman olganda, sud muhokamasi taraflari ish aloqador hujjatlarni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lmagan holda ishda ishtirok etish samarali deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, ba'zida ish hujjatlarida nafaqat

⁷¹ https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_eng

⁷² Izoh. Tadqiqot ishi doirasida so'rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning aksariyati mazkur taklifni qo'llab quvvatlashdi.

ma'lum hujjatlar mavjudligi faktini aniqlash, balki hujjatlarning rasmiy xususiyatlarini o'rganish ham muhimdir. Bu ishtirokchilarga sud harakatlarining qonuniyligini kuzatish, dalillarining to'g'riligini tekshirish va soxtalashtirilgan hujjatlarni aniqlash imkonini beradi.

Amaldagi protsessual qonunchilik ishda ishtirok etuvchi shaxslarga barcha materiallar bilan tanishish imkoniyatini beradigandek tuyuladi. Xususan, MSiYtKning 129-moddasiga ko'ra, arizachi ariza (shikoyat) berayotganda javobgarga va uchinchi shaxslarga arizaning (shikoyatning) va unga ilova qilingan, ularda bo'lmagan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini yuborishi shart. Mazkur norma har qanday holatda ish materiallar bilan tanishish imkoniyatini beradi deyish mumkin. Agar bu mantiq mukammal ishlaganida va barcha ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z majburiyatlarini vijdonan bajarganlarida, ish materiallari bilan tanishish deyarli kerak bo'lmadi.

Sud ishni muhokama qilish jarayonlarida ariza va unga ilova qilinuvchi hujjatlarni javobgarga va uchinchi shaxslarga yuborilganligiga alohida e'tibor qaratadi. Nazariy jihatdan sud ishida ishtirok etuvchi barcha shaxslar sud majlisi o'tkazilishidan avval sudga boshqa ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan protsessual hujjatlar mazmunidan xabardor bo'lishlari kerak edi.

Biroq amaliyot bu normalarning boshqacha qo'llanish tartibini ko'rsatib berdi va bu ko'p hollarda huquqdan noo'rin foydalanish uchun sharoit yaratmoqda. Masalan, protsessual raqiblarga yuborilgan hujjatlar hamma vaqt qabul qiluvchiga yetib bormayapti. Bunga hujjatlar nusxalari o'z vaqtida yuborilmasligi va pochta xizmatidagi kechikishlar hamda sudga boshqa mazmundagi hujjat topshirilishiga sabab bo'ladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun qonunchilik o'zgarishlari talab etiladi. Masalan, barcha hujjatlarni yuborishda hujjatlar ro'yxati majburiy qilib qo'yilsa. Ammo bu ham to'liq kafolat bermaydi, chunki amalda pochta xodimlari konvert ichidagi hujjatlarni tekshirmaydilar. Aniqlik uchun notarius ishtirokida konvertni ochish tavsiya etiladi.

Ushbu muammolar natijasida sud ishtirokchilari pochta orqali kelgan hujjatlarga ishona olmaydi va ish materiallari bilan sudga bevosita tanishish zarurati paydo bo'ladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun barcha sudlar uchun ish materiallari bilan tanishishning bir xil qoidalari bo'lishi va ish materiallarining elektron nusxalari bilan onlayn tanishish imkonini kengaytirish zarur.

Elektron tizimlar ishlab chiqishni yanada kengaytirish kerak, biroq real tanishish imkoniyati ham saqlanib qolishi lozim. Chunki asl hujjatlar bilan tanishish huquqi har qanday holatda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, axborot olish huquqi ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur huquqlarni amalga oshirilishi protsessual munosabatlarni qonuniy bo'lishiga zamin yaratadi.

Izoh berish huquqlari. Mazkur huquqlarga sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish kabilarni kiritish mumkin. Ushbu huquqlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikri eshitalishi va himoya huquqini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ma'muriy sud ish yurituvchida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, **ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish huquqi** muhim o'rin tutadi. Mazkur huquq isbotlash vositalari bilan bog'liq bo'lib, keng qamrovli huquqdir. Ilmiy adabiyotlarda isbotlash vositalari bu taraflarning shikoyat va e'tirozlarini tasdiqlovchi holatlar, shuningdek ishni ko'rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlardan iborat ekani ko'rsatilgan. Bu kabi izohni ushbu sohada faoliyat yurituvchi bir qator nufuzli tadqiqotchilar, jumladan, A.I. Staxov⁷³, V.V. Yarkov⁷⁴, Ye.A. Naxova⁷⁵ va boshqalar o'z ilmiy ishlarida tasdiqlaydilar. Ular mazkur ta'rifni keltirish bilan birga, uni konseptual va nazariy jihatdan tahlil qiladilar.

Isbotlash prinsipiga muvofiq, isbotlash yuki **parti incumbit onus probandi** prinsipiga asoslanadi, ya'ni shikoyat bildiruvchi taraf sud jarayonida o'z talablarini tasdiqlash uchun yetarli va tegishli dalillarni taqdim etishi lozim. Isbotlash majburiyati qayta taqsimlash imkoniyatini nazarda tutuvchi maxsus qoida ham mavjud ekanligini

⁷³ Cmaxov A.I. K voprosu o neo6xodimosti razra6otki federalnogo zakona «Ob administrativnom proizvodstve» // Bestnik Universiteta imeni O.E. Kutafina. 2016. № 5 (21). S. 107–117.

⁷⁴ Yarkov V.V. Administrativnoye sudoproizvodstvo: uche6. dlya studentov yuridicheskix v6yssix uche6nyx zavedeniy po napravleniyu "Yurisprudensiya" (spetsialist, bakalavr, magistr) / otv. red. B.B. Yarkov; Ural. gos. yurid. un-t. 2-ye izd., ispr. i dop. M.: Gtatut, 2021. 123 s.

⁷⁵ Naxova E.A. Oso6ennosti opredeleniya predmeta dokazyvaniya v otdelnyx fakticheskix sostavax v grajdanskom i administrativnom sudoproizvodstve // Leningradskiy yuridicheskij jurnal. 2020. № 4 (62). S. 138–148.

ta'kidlash zarur. Bunday holat protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lsa, qo'llanishi mumkin.

Ushbu mexanizm sudga ayrim holatlar yoki ishni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlar alohida bir taraf tomonidan emas, balki boshqa ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslar tomonidan isbotlanishi lozimligini belgilash huquqini beradi.

Ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni ochib berish mavzusi huquqiy adabiyotda, ayniqsa, ma'muriy huquq sohasida alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu kontekstda sud jarayoni ishtirokchilari tomonidan dalillarni taqdim etish masalalari va ularning taraflar tengligi hamda tortishuvi kabi asosiy tamoyillarga ta'siri muhokama qilinadi.

Dalillarni ochib berish konsepsiyasi ishda ishtirok etuvchi shaxsda mavjud bo'lgan barcha dalillarni sud va boshqa ishtirokchilarga taqdim etishni o'z ichiga oladi. Ushbu dalillar shaxsning shikoyati va e'tirozlarini tasdiqlovchi holatlarni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ishni ko'rib chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu masala bo'yicha ilmiy jamoatchilikning tadqiqotlari dalillarni ochib berishga oid me'yoriy hujjatlar va sud amaliyotini o'rganishga, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga olib kelmoqda.

Olimlarning tadqiqotlarida ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligida dalillarni ochib berish tartibini aniq belgilaydigan normalarning mavjud emasligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ma'muriy sud ish yurituvda dalillarni ochib berish jarayoni yetarli darajada tartibga solinmagani ta'kidlangan, bu esa ma'muriy da'vogarlarining huquqlarini himoya qilishni qiyinlashtiradi⁷⁶.

Ushbu sohada tegishli me'yoriy bazaning yetishmasligi ayrim vaziyatlarda davlat organlari o'z rasmiy maqomidan foydalanib, o'z pozitsiyasini tasdiqlovchi dalillar nusxalarini qarshi tomonga taqdim etish majburiyatidan chetlanishiga, shuningdek, arizachilarga sud xarajatlarini qoplab bermasligiga olib kelishi mumkin.

A.V. Chekmareva ta'kidlaganidek, dalillarni ochib berish muammosi shundaki, dalillarni ochishni ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun majburiyat sifatida emas, balki ularning protsessual huquqi sifatida qaraladi. Bu esa, oddiy mantiqqa tayangan holda, ishtirokchining bu

⁷⁶ Pavlenpo K.A. Aktivnaya rol suda v administrativnom sudoproizvodstve: rassmotreniye na primere formirovaniya predmeta dokazyvaniya // Oбщество. Закон. Правосудие. 2020. № 4 (49).S. 33–36.

huquqdan foydalanmaslikka qaror qilishi mumkinligini anglatadi⁷⁷. Mazkur huquq ko'proq dispozitiv (ixtiyoriy) xarakterga ega bo'lib, ishda ishtirok etuvchi tomonlar bir-birlarining dalillari bilan tanishish imkoniyati ikkinchi tomonning xohishi yoki xohlamasligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Dalillar bilan ishlash huquqlari. Mazkur huquqlarga dalillar taqdim etish va dalillarni tekshirishda ishtirok etish huquqlarini kiritish mumkin. MSYtKning 67-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z talablariga yoki e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan haqiqiy holatlarni isbotlashi kerak. Arizachi dalillarni yig'ishda o'z imkoniyatlari doirasida ishtirok etishi shart. Arizachi o'ziga yetkazilgan zararning miqdorini isbotlashi shart⁷⁸. Yuqoridagi asosdan kelib chiqqan holda, arizachi dalillar bilan ishlash huquqlarini amalga oshirishning quyidagi ikkita xususiyati mavjud: dalillarni yig'ishda o'z imkoniyatlari doirasida ishtirok etish va o'ziga yetkazilgan zararning miqdorini isbotlashi.

Amaldagi qonunchilik talabidan kelib chiqib, dalillarni taqdim etishni quyidagi uch turga bo'lish mumkin: 1) Taraflar tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra dalillarni taqdim etish; 2) Sudning tashabbusiga ko'ra dalillarni taqdim etish; 3) Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi ko'ra dalillarni taqdim etish.

Sud ish yurituvda dalillarni taqdim etish instituti huquqiy jarayonning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur institutning nazariy-huquqiy asoslari, uning amaliy ahamiyati va taraflar zimmasidagi isbotlash majburiyati qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, rossiyalik taniqli protsessual huquqshunoslardan M.K. Treushnikov⁷⁹, Ye.A. Lupinskaya⁸⁰, V.I. Kurovskiy⁸¹, K.S. Yudelson⁸², A.M. Slobodyanik⁸³ kabi olimlar o'z asarlarida dalillarning tushunchasi,

⁷⁷ Chyekomareva A.V. Paskrytiye dokazatelstv v grajdanskom, ar6itrajnom i administrativnom sudoproizvodstve // Problemy realizatsii norm, reguliruyuyux dokazyvaniye i dokazatelstva v grajdanskom, ar6itrajnom i administrativnom sudoproizvodstve: s6ornik statey po materialam Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, Gankt-Peterburg, 16 oktya6rya 2015 g. SPB.: Petropolis, 2015. S. 374–379.

⁷⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

⁷⁹ Treushnikov M.K. Grajdanskiy protsess: Uchebnik / Pod red. M.K. Treushnikova. – M.: Yurayt, 2018. – 512 s.

⁸⁰ Lupinskaya Ye.A. Dokazatelstva i dokazyvaniye v grajdanskom protsesse. – M.: Statut, 2004. – 256 s.

⁸¹ Kurovskiy V.I. Dokazyvaniye v grajdanskom sudoproizvodstve: problemy teorii i praktiki. – M.: Norma, 2006. – 288 s.

⁸² Yudelson K.S. Storony v grajdanskom protsesse. – Saratov: Sarat. un-t, 1969. – 200 s.

⁸³ Slobodyanik A.M. Sostyazatelnost v grajdanskom sudoproizvodstve. – M.: Yuridicheskaya literatura, 1986. – 192 s.

ularni taqdim etish tartibi, sudning faol roli va dalillarni baholash mezonlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilganlar.

Shuningdek, xalqaro miqyosda Xervig Xofman⁸⁴, Paul Kreig⁸⁵, Karol Xarlov⁸⁶ va boshqa olimlar ma'muriy yurisdiksiyada dalillarni taqdim etish va isbotlash standartlarini huquqiy demokratik davlat sharoitida tahlil qilib, protsessual adolat prinsiplariga tayanadigan yondashuvlarni ishlab chiqqanlar.

Shu o'rinda mazkur masala doirasida o'ziga xos munozarali masala mavjud. Xususan, dalillarni taqdim etish huquqmi yoki majburiyatmi? Ta'kidlash lozimki, dalillarni taqdim etish ham huquq, ham majburiyat bo'lishi mumkin. Jumladan, MSiYtKning 39-moddasi birinchi qismida dalillar taqdim etish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqi sifatida ko'rsatib o'tilgan. O'z navbatida, MSiYtKning 68-moddasida taraflar o'z talablarini yoki e'tirozlarini qaysi dalillar bilan asoslab berayotgan bo'lsa, o'z ixtiyoridagi ushbu barcha dalillarni sudga taqdim etishi va ma'muriy organ ham ma'muriy sud ishlarini yuritishning barcha materiallarini taqdim etishi shartligi belgilab qo'yilgan⁸⁷. Demak, ham huquq, ham majburiyat sifatida qaraladigan masalalarni hal qilishda ishning holati muhim ahamiyatga ega.

Protsessual tashabbus huquqlari. Mazkur huquqlarga rad qilish to'g'risida arz qilish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish va arz qilish huquqlarini kiritish mumkin. Mazkur huquq ishda ishtirok etuvchi shaxsning sud ish yurituv doirasida muayyan harakatlarni amalga oshirish, protsessual mexanizmlarni qo'llash huquqlaridir. Ushbu huquq ish yurituvdagi faol ishtirok, protsessdagi tenglik va taraflar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Sudyaning xolisligi sudda qonuniyligni ta'minlashning ajralmas kafolati hisoblanadi. Sud protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan sudyalarning mustaqilligining maxsus protsessual kafolati va huquqni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Bu borada **rad qilish instituti** muhim o'rin tutadi⁸⁸.

⁸⁴ Hofmann, H.C.H., Rowe, G.C., and Türk, A.H. Administrative Law and Policy of the European Union. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 672 p.

⁸⁵ Craig, P. Administrative Law. – 9th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 960 p.

⁸⁶ Harlow, C., Rawlings, R. Law and Administration. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 568 p.

⁸⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

⁸⁸ Paliyeva O.N. Otvod sudye: Problemy pravoprimeneniya // Vestnik Severo-Kavkazskogo federalnogo universiteta. 2013. № 6 (39). S. 235–238.

Rad qilish instituti protsessual huquq sohalarini dolzarb mavzusi hisoblanadi. Rad qilish sud protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishning zaruriy shartidir⁸⁹.

Hozirgi vaqtda fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy shaxsiy manfaatdorlik sababli sudyani rad etish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishning yagona tartibi belgilangan. Bunday iltimosnomalarni ko'rib chiqish sudyaning shaxsiga bevosita taalluqli bo'lgan holatlarni baholashni nazarda tutadi, shu bois bu jarayonning o'ziyoq sud ish yurituvining an'anaviy qadimgi rim qoidasiga ***nemo iudex in causa sua*** (hech kim o'z ishida sudya bo'la olmaydi) zid keladi.

Sudyaning ishni ko'rib chiqishdan chetlashtirilishi uchun asoslardan biri uning shaxsiy manfaatdorligi bo'lib, bu holat adolat manfaatlari bilan ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan huquqiy manfaatlar to'qnashuviga olib keladi yoki olib kelishi mumkin. Qonunchilikda "manfaatlar to'qnashuvi" atamasi qo'llanilgan bo'lsa-da, nazariy tadqiqotlarda "huquqiy manfaatlar to'qnashuvi" iborasidan foydalanish asosli hisoblanadi. Chunki ushbu kategoriya huquqiy munosabatlar doirasida ko'rib chiqiladi va bu yerda huquq huquqiy manfaatlarini amalga oshirayotgan huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlarini taqqoslash va baholash mezonini sifatida xizmat qiladi. Huquqiy manfaatlar shaxsning huquqiy munosabatlarda mavjud bo'lgan va muayyan manfaat shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlaridir. Huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan va rivojlanadigan turli xil, qarama-qarshi yo'naltirilgan huquqiy manfaatlarning o'zaro ta'siri ular o'rtasidagi ziddiyatga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy manfaatdorlik holatlarini baholash sudyaning davlat hokimiyati vakolatlarini amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq holda tahlil etilishini nazarda tutadi. Avvalo, sudya bunday manfaatdorlikning mavjudligi yoki yo'qligini mustaqil ravishda baholashi lozim. Sudyaga davlat tomonidan hokimiyat vakolatlari berilgan paytdan boshlab unga nisbatan ishonch mavjud deb hisoblanadi va bu ishonch sudyaga qaror chiqarishda xolisligiga ta'sir etuvchi holatlarni baholash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish imkoniyatini nazarda tutadi.

Biroq sudya tomonidan uning manfaatdorligiga ta'sir etuvchi holatlarni ichki baholashi haqqoniylikni bartaraf etish choralari

⁸⁹ Tay Yu.V., Arabova T.F., Le Burdon V. Otvod sudey kak garantiya nezavisimosti suda // Vestnik Vysshogo Arbitrajnogo suda Rossiyskoy Federatsii. – 2014. – № 8. S. 5.

belgilashda yagona mezon emas. Xalqaro standartlarga murojaat qilish muayyan holatlarning atrofdagilar tomonidan qanday qabul qilinishi ham inobatga olinishi lozimligini ko'rsatadi. Huquq ustuvorligiga (Rule of Law Index) baho berishda yetakchi xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan Xalqaro sud loyihasi (World Justice Project) ning metodologiyasiga nazar tashlasak, undagi asosiy elementlardan biri fuqarolarning shaxsan o'zlari tomonidan sudyalardan va sud apparati xodimlarining xatti-harakatiga nisbatan qabul qilinishini baholashdir.

Sudyalarning ongi nafaqat ko'rib chiqilayotgan ish bilan qiziqmaslik, balki ularning xatti-harakatlarini boshqalarning idrokiga qarab baholashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak⁹⁰. Yevropa Kengashining xalqaro qarorlaridan birida sudya nafaqat huquqiy manfaatlar to'qnashuvi holatlaridan, balki shunday deb qabul qilinishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga kelishidan ham qochishi kerak.

Sudyaning mavjud bo'lgan harakatlarining algoritmi huquqiy manfaatlarining haqiqiy yoki xayoliy to'qnashuvi boshqacha bo'ladi. Sudyaning uning manfaatlariga bo'lgan ichki ishonchi uning xolisligiga ta'sir qilgan muayyan holatlarda qaror qabul qilishdan voz kechish majburiyatini talab qiladi. U taraflar tomonidan huquqiy manfaatlar to'qnashuvi sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga kelganda rivojlanadi. Bunday sharoitda qaror sud ishtirokchilarining fikriga asoslanishi kerak. Taraflar bunday holatlar to'g'risida xabardor qilinishi kerak va sud muhokamasi ishtirokchilari bo'lgan sudya va sud xodimlariga (sudya yordamchisi) asosli muammolarni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilinganida qabul qilingan holatlar haqiqiy mojaroga tenglashtiriladi.

Taraflarga huquqiy manfaatlar to'qnashuvi sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan holatlarni o'z xohishlariga ko'ra baholash huquqini berish sud muhokamasining qonuniyligi va adolatliligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda sudyaga va umuman sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Agar sudya tomonidan ma'lum bir holatlar haqida protsess ishtirokchilari xabardor qilingan bo'lsa, ammo ular ushbu holatlarga asoslanib rad etish to'g'risida ariza bermagan bo'lsalar, bu ularning mazkur holatlarni ahamiyatsiz va sudyaning xolisligi hamda beg'arazligiga ta'sir ko'rsatmaydi, deb hisoblash mumkin.

⁹⁰ Volosova N.Yu. Otvod sudi kak usloviye vyneseniya zakonno i obosnovannogo prigovora po ugovnomu delu: Mejdunarodnyy opyt //Vestnik Udmurtskogo universiteta. Seriya "Ekonomika i pravo". – 2018. T.28. – вып. 1. S. 93-99.

MSIYtKning 21-moddasiga ko'ra, sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u: 1) mazkur ish ilgari ko'rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga ushbu Kodeks talablariga muvofiq yo'l qo'yilmasa; 2) mazkur ish ilgari ko'rilganda unda prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa; 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining qarindoshi bo'lsa; 4) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa; 5) ishni ko'rayotgan hay'at tarkibidagi sudyaning qarindoshi bo'lsa⁹¹.

Yuqoridagi asoslardan biri sifatida ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur asosni baholash o'ta mushkul. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda sud ishtirokchisi bilan do'stlik, mulkiy, korporativ va boshqa munosabatlar bo'lish shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar sifatida baholanadi. Buning uchun sobiq hamkasbiga qarshi ish ko'rib chiqilishi munosabati bilan jarayon ishtirokchisi tomonidan berilgan sudyani rad etish to'g'risidagi iltimosnomada, bundan tashqari, sud ishtirokchisi sudyaning sobiq hamkasbi ekanligi, tomonlar ishni ko'rib chiqish paytida ular o'rtasida qolgan boshqa, masalan, do'stona munosabatlar mavjudligini oqlashlari kerak.

MSIYtKning 24-moddasiga muvofiq, rad qilish to'g'risida arz qilingan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrini, agar rad qilinishi talab etilayotgan shaxs tushuntirish berishni xohlasa, uning ham fikrini eshitadi. Ishni yakka tartibda ko'rayotgan sudyani rad qilish to'g'risidagi masala sud raisi tomonidan hal qilinadi. Ish hay'at tarkibida ko'rilayotganda sudyani rad qilish to'g'risidagi masala rad qilinishi talab etilayotgan sudyaning ishtirokisiz sud tarkibining ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Rad qilishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolsa, sudya rad qilingan hisoblanadi. Bir nechta sudyani yoki ishni ko'rayotgan sudning butun tarkibini rad qilish to'g'risidagi masala shu sud tarkibi tomonidan oddiy ko'pchilik

⁹¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

ovoz bilan hal qilinadi. Rad qilish to'g'risidagi masalani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi⁹².

Sudyaning shaxsiy manfaatlari asosida rad etish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etilgan taqdirda, protsessual qonun hujjatlarida bunday so'rovni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish nazarda tutilmagan. Yagona usul sifatida ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha yakuniy qaror ustidan shikoyat berishdir.

Shu o'rinda mazkur institut bilan bog'liq ayrim muammoli jihatlar ham mavjud. Xususan, sud amaliyotda davlat organida ishlab, keyinchalik sudya bo'lgan holatlar ko'p uchraydi. Shuningdek, yuridik shaxsga aloqador bo'lgan shaxslarga aniqlik kiritilmaganligi sababli turli muammolar yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, sudning faol ishtiroki prinsipi asosida sudya taraflarga huquqiy ko'mak berishi mumkin. Mazkur holatni shaxsiy manfaat sifatida qaramaslik kerak. Jumladan, Qirg'iziston Ma'muriy protsessual kodeksining 20-moddasiga aynan shunday holat bo'lgan sudyani rad qilish uchun asos bo'lmasligi belgilab qo'yilgan⁹³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, MSYtKning 21-moddasiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

"Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

...

3) ma'muriy sud ish yurituvda javobgar bo'lib qatnashayotgan ma'muriy organning vakili sifatida qatnashgan bo'lsa;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, tarafyuridik shaxs bo'lganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar rahbarlari yoki ta'sischilari (ishtirokchilari), yuridik shaxs mol-mulkining egasi yoxud ular vakillarining yaqin qarindoshi bo'lsa;

...

Sudyaning sudning faol ishtiroki prinsipi asosida huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali taraflarga huquqiy ko'magi (dastlabki huquqiy fikr) sudyani rad qilish uchun asos hisoblanmaydi."

Protsessual tashabbus huquqlardan biri bo'lgan ishni oqilona muddatda ko'rib chiqish va sud hujjatlarini oqilona muddatda ijro etish huquqi milliy qonunchilikka yot bo'lgan ma'muriy sud ish

⁹² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

⁹³ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=38800804&pos=5;-106#pos=5;-106

yurituvda o'ziga xos huquqlardan biridir. Ishni oqilona muddatda ko'rib chiqish huquqi yoki sud hujjatini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya to'lash to'g'risidagi ishlar huquqiy tabiati jihatidan o'xshashdir. Arizachi shikoyat berganda, u qonunchilikda belgilangan huquqni himoya qilish tartibini o'ziga xos ravishda bahs qilmaydi. U aniq bir holatda protsessual muddatlar buzilganini, natijada uning ishni oqilona muddatda ko'rib chiqish yoki sud qarorini o'z vaqtida ijro ettirish huquqi buzilganini iddao qiladi.

Bunday ishlar protsessual muddatlarning buzilishi va bu buzilishning oqilona muddatda ish ko'rish yoki sud hujjatini ijro etish subyektiv huquqiga ta'siri yuzasidan kelib chiqqan nizolarni qamrab oladi. Shunga qaramay, fuqarolik va ma'muriy huquq normalarining o'zaro aloqasi va bunday ishlarni hal etishda ularning o'rni ko'pincha turli mualliflar tomonidan muhokama qilinadi.

Qozog'iston Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksining 17-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud ish yurituvi, shu jumladan ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirish, oqilona muddatda amalga oshiriladi. Oqilona muddatni belgilashda quyidagi holatlar inobatga olinadi: ma'muriy ishning huquqiy va faktologik murakkabligi, ma'muriy ish yurituvda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z protsessual huquqlarini qanday darajada amalga oshirganligi va majburiyatlarini bajarganligi hamda ma'muriy ishni tezkor ko'rib chiqish maqsadida sud tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning protsessual yetarliligi va samaradorligi⁹⁴. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar suddan muddatlarga rioya qilinishi va ishda sun'iy cho'zilishlarga yo'l qo'ymaslikni talab qilishlari mumkin. Bu huquq ma'muriy jarayondagi ishonch va adolat tamoyillari bilan bog'langan.

Oqilona muddatni buzish bilan bog'liq xalqaro darajada muhokama qilingan sud amaliyotlari ham mavjud (garchi ma'muriy sud amaliyoti bo'lmasa ham). Xususan, Yevropa Inson huquqlari sudida Zimmerman va Steinerni Shvetsariya davlatiga qarshi qaratilgan ishi muhim ahamiyatga ega. Ish 1977-yil 18-aprelda qabul qilinib, 1980-yilda 15-oktyabrgacha, ya'ni uch yil olti oy davom etgan. Sud bunda ish sun'iy cho'zilganligi va davlat mas'uliyatini yaqqol ko'rsatgan⁹⁵. Yevropa Inson huquqlari sudining qayd etishicha "huquqning oqilona muddati" har bir ish bo'yicha qaraladi. Bu

⁹⁴ <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K20000000350>

⁹⁵ https://www.informea.org/en/court-decision/zimmermann-and-steiner-v-switzerland?utm_source

jarayonda ishning huquqiy va faktologik murakkabligi, arizachilarning tinglashdagi xatti-harakatlari hamda milliy sudlar va boshqa organlarning harakatlari asosiy mezonlar hisoblanadi.

Umuman olganda, “oqilona muddat” prinsipi bu sud ish yurituvi va ijro jarayonida ishni sun’iy cho’zmasdan, adolatli va tezkor hal qilish majburiyatini anglatuvchi universal huquqiy prinsipdir. U insonning adolatli sudlovga bo’lgan huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *milliy qonunchilikka mazkur prinsip joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, MSiYtKni quyidagi tahrirdagi 16¹-modda to’ldirish taklif etiladi:*

“Ma’muriy sud ish yurituvining oqilona muddati

Ma’muriy sud ish yurituvini amalga oshirish oqilona muddatda ta’minlanadi.

Oqilona muddatni aniqlashda ma’muriy ishning huquqiy va faktik murakkabligi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlardan foydalanish va protsessual majburiyatlarni bajarish darajasiga qarab ifodalanadigan xulq-atvori, shuningdek, ma’muriy ishni tezkor ko’rib chiqish maqsadida sud tomonidan ko’rilgan protsessual harakatlarning yetarliligi va samaradorligi hisobga olinadi.”

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqlarining yana bir ko’rinishi shikoyat qilish huquqlari hisoblanadi. Ushbu huquq haqida tadqiqot ishimizning keyingi qismlarida tahlil qilamiz.

Umuman olganda, ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqlarini tahlili shuni ko’rsatmoqdaki milliy qonunchiligimizda takomilga muhtoj bo’lgan nuqtalar mavjud. Bu esa jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy sudga murojaat qilish huquqini to’laqonli ta’minlashga xizmat qiladi.

2.2. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlarining o’ziga xosligi

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar faqat huquqlarga emas, balki huquqiy majburiyatlarga ham ega. Ushbu majburiyatlar odil sudlovning samaradorligi hamda haqqoniyligi uchun kafolat vazifasini bajaradi. MSiYtKning 39-moddasiga ko’ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar MSiYtKda nazarda tutilgan protsessual

majburiyatlarga ega⁹⁶. Mazkur norma mazmunidan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari ma'lum bir normada tizimlashtirilmagan.

Mazkur masala huquqshunos olimlar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan. Ular ma'muriy huquq va protsessual-huquqiy nazariya nuqtayi nazaridan ushbu institutsiyaviy tartiblarni o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar.

K.S. Yudelson ma'muriy protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning faol protsessual pozitsiyasi, ya'ni faqat huquq emas, balki majburiyatlarni ham amalga oshirishi lozimligi haqida ta'kidlaydi⁹⁷.

M.K. Treushnikov ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sudga hurmatli munosabati, protsessual harakatlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, dalillarni aniq va xolis taqdim etish kabi majburiyatlarini sud adolatini amalga oshirish kafolati deb hisoblaydi⁹⁸.

S.V. Nikolov va A.M. Melnikov kabi olimlar esa ma'muriy ish yurituvda davlat organlarining va manfaatdor shaxslarning majburiyatlari, xususan, dalillarni yashirmaslik, haqiqatni aniqlashga ko'maklashish kabi vazifalarini chuqur tahlil qilganlar⁹⁹.

Nemis olimlaridan F.Shtax, E.Shmidt-Asmann va X. Volflar o'z tadqiqotlarida ishtirok etuvchi shaxslarning **“protsessual faolligi”** (Prozessförderungspflicht) tamoyilini keng yoritib berganlar¹⁰⁰.

Fransiya ma'muriy huquq maktabida J. Rivero, P. Bon, J. Morel va boshqa olimlar davlat va fuqaro o'rtasidagi huquqiy tenglikka alohida e'tibor qaratgan. Ular sud ishtirokchilari majburiyatlarini sudning himoya funksiyasini amalga oshirishdagi hal qiluvchi mexanizm sifatida ko'rsatadilar¹⁰¹.

Angliya huquqshunoslari K. Elias, A. Tomkins, P. Kreyg va boshqa shu kabi olimlar ma'muriy yurisdiksiyani inson huquqlari bilan bog'lab, sudda ishtirok etuvchi shaxslardan to'g'ri xulq, dalillar taqdim etish, yurisdiksiyani suiiste'mol qilmaslik kabi majburiyatlarni bajarishni talab etishni nazariy asoslab berishgan¹⁰².

⁹⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

⁹⁷ Yudelson K.S. Стороны в гражданском процессе. – М.: Юридическая литература, 1984.

⁹⁸ Treushnikov M.K. Гражданский процесс. Учебник. – М.: Городец, 2022.

⁹⁹ Melnikov A.M., Nikolov S.V. Проблемы участия административных органов в административном судопроизводстве. // Журнал российского права. – 2018. – №7.

¹⁰⁰ Schmidt-Asmann, E. Das allgemeine Verwaltungsrecht als Ordnungsidee. – Heidelberg, 2006.

¹⁰¹ Rivero, J., Bon, P. Droit administratif. – Paris: Dalloz, 2015.

¹⁰² Craig, P., De Búrca, G. EU Law: Text, Cases, and Materials. – Oxford University Press, 2020.

Umuman olganda, ma'muriy sudlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lsada, kompleks yondashuv asosida tahlillar juda kam. Tadqiqot ishining mazkur qismida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlarining tasnifi asosida ayrim munozarali masalalarga urg'u beramiz.

Ilmiy manbalarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari tasnifi turli berilgan. Lekin, milliy qonunchilik nuqtayi nazarda tasnif mavjud emas. *Bizningcha, ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligidan kelib chiqib, ishda ishtirok etuvchi shaxslar majburiyatlarini quyidagi turlarga bo'lgan holda tahlil qilish mumkin, deb hisoblaymiz:*

1. Rasmiy (protsessual) majburiyatlar;
2. Dalillarni taqdim etish majburiyatlari;
3. Axloqiy majburiyatlar.

Rasmiy (protsessual) majburiyatlar sud ish yurituvda rasmiy harakatlarni belgilab berilgan shakl va tartibda bajarishni nazarda tutadi. Bunga sud chaqiruvlariga kelish, sud tomonidan belgilangan muddatlarga rioya qilish, sud hujjatlarini bajarish va boshqa majburiyatlarni kiritish mumkin. Mazkur majburiyatlardan eng muhimi ariza va iltimosnomalarni belgilagan shaklda taqdim etish majburiyati yotadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligida ariza va iltimosnomalarga qo'yilgan talablar to'g'rimi? Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga qo'shimcha majburiyatlar yuklamaydimi?

Amaldagi qonunchilikda ariza(shikoyat)ga qo'yilgan talablar 4 ta huquqiy normalarda ifodalangan. Jumladan, ushbu talablar MSIYtKning 128, 180, 187-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 2019-yil 24-dekabrdagi 24-sonli Plenum qarorining 14-bandida o'z aksini topgan¹⁰³. Mazkur talablar ichida ayrimlari munozarali. Xususan, arizachi uchun ariza(shikoyat)da mazkur ishga nisbatan qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, tortishilayotgan yoki buzilayotgan aniq huquq normalarini ko'rsatish majburiyatini alohida ta'kidlash lozim.

¹⁰³ <https://www.lex.uz/uz/docs/4711311>

MSIYtKning 187-moddasiga ko'ra, arizachi ma'muriy organlarning va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlarini haqiqiy emas, ular mansabdor shaxslarining, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi arizasi(shikoyati)da arizachining fikriga ko'ra, ustidan shikoyat qilinayotgan qarorning, harakatlarning (harakatsizlikning) qaysi qonunchilikka zid ekanligini ko'rsatishi kerak¹⁰⁴. Mazkur talabga amal qilmaslik MSIYtK talablariga ko'ra arizani (shikoyatni) qaytarishga asos bo'ladi.

Arizada faqat subyektiv huquq va manfaatlarning buzilganligini ko'rsatish talabi muayyan ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltiradi, chunki ma'muriy ishlar o'z tabiatiga ko'ra ommaviy huquqiy munosabatlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Faqat arizachining huquqlari buzilganligi haqida ma'lumot yo'qligi sababli arizani qabul qilmaslikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda mazkur aniq tartibga solingan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining ushbu masala bo'yicha aniq huquqiy pozitsiyasi mavjud. Konstitutsiyaviy sud xulosasiga ko'ra, agar jismoniy shaxs yoki yuridik normativ-huquqiy hujjatni ustidan shikoyat qilsa, sud arizani qabul qilishdan faqat huquq va manfaatlar buzilmagani sababli bosh tortmasligi kerak. Bunday hollarda huquqlar va qonuniy manfaatlarning buzilgan yoki buzilmaganligi masalasi faqat sud muhokamasi jarayonida hal qilinishi lozim. Ushbu yondashuvdan chetga chiqish qonun va sud oldida tenglik, taraflar teng huquqliligi va sud himoyasi huquqi tamoyillarini buzish bo'ladi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga o'xshash holat Rossiya Federatsiya Ma'muriy sud ish yurituvi kodeksi 128-moddasining birinchi qismi 3-bandi mazmuni¹⁰⁵dan kelib chiqib, ushbu qoida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy pozitsiyasi bilan muvofiq emas. Bu yerda ikki normativ-huquqiy hujjat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik yuzaga keladi, bu esa ulardan biriga taalluqli bo'lgan huquqiy normaning qo'llanilishi yoki talqini masalasini o'rta qo'yadi.

Umuman olganda ma'lum bir ishga formal yondashilsa, MSIYtKning 187-moddasi belgilab qo'yilgan ma'muriy organlarning va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlarini haqiqiy emas, ular mansabdor shaxslarining, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga

¹⁰⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

¹⁰⁵ https://www.consultan.ru/document/cons_doc_LAW_176147/7432473eeb1badfc52105c4c91bb1fbf99bbf238/

xilof deb topish to'g'risidagi arizasi(shikoyati)da arizachining fikriga ko'ra, ustidan shikoyat qilinayotgan qarorning, harakatlarning (harakatsizlikning) qaysi qonunchilikka zid ekanligini ko'rsatish talabi bo'yicha aksariyat arizalar qaytarishga asos bo'ladi. *Shu nuqtayi nazardan, MSiYtKning 187-moddasi ikkinchi qism to'rtinchi bandini chiqarib tashlash lozim.*

Ma'muriy ish yuritishda **dalillarni taqdim etish majburiyatlari** ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy mas'uliyatini belgilaydigan muhim institut hisoblanadi. Ushbu majburiyat sud ish yurituvda haqiqatni aniqlash va adolatni qaror toptirish uchun huquqiy va axloqiy vazifa sifatida qaraladi. Har bir ishtirokchi, ayniqsa, davlat organlari, bu borada o'zining qonun oldidagi javobgarligini anglashi va sudning samarali faoliyatiga yordam berishi lozim.

Ma'muriy sud ish yurituvda muhim bo'lgan majburiyatlardan biri dalillarni oshkor qilish majburiyatidir. Dalillarni oshkor qilish bu taraflar tomonidan o'zlarida mavjud va ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni boshqa tarafga ma'lum qilish majburiyatidir. Bu institutning maqsadi protsessning shaffofligi va adolatli sud muhokamasini ta'minlashdir. Nazariy jihatdan, bu tamoyil "protsessual tenglik" va "ishonchli ish yuritish" g'oyasi bilan uzviy bog'liq.

Mazkur institut fuqarolik va iqtisodiy protsesslarida ancha keng tatbiq etiladi. Ma'muriy sud ish yurituvda dalillarni oshkor qilish dalillarni taqdim etish tartibi bilan uzviy bog'liqdir. MSiYtKning 68-moddasiga ko'ra, taraflar o'z talablarini yoki e'tirozlarini qaysi dalillar bilan asoslab berayotgan bo'lsa, o'z ixtiyoridagi ushbu barcha dalillarni sudga taqdim etishi shart. Ma'muriy organ ham ma'muriy sud ishlarini yuritishning barcha materiallarini taqdim etishi shart. Agar taqdim etilgan dalillar ishni to'g'ri hal qilish uchun yetarli bo'lmasa, sud o'z tashabbusiga yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra qo'shimcha dalillarni talab qilib oladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar biron-bir dalilni yo'q qilishga yoki yashirishga yoxud dalilni tekshirishga va baholashga dalillarni olishni imkonsiz qilib qo'ygan yoki qiyinlashtirgan holda boshqacha tarzda monelik qilishga haqli emas. Bunday holda sud monelik qilayotgan tarafning zimmasiga, MSiYtKa belgilangan qoidalardan qat'i nazar, isbotlash majburiyatini yuklatishi mumkin. Ishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etmayotgan shaxsdagi zarur dalillarni mustaqil olish imkoniga ega bo'lmasa, o'sha dalilni talab qilib olish

to'g'risida sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli. Iltimosnomada ushbu dalil bilan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlar aniqlanishi mumkinligi, dalilning alomatlari va u turgan joy ko'rsatilishi kerak.

Ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni taqdim tartibi uzoq yillar muammo bo'lib kelgan. Xususan, javobgar o'z ixtiyorida bo'lgan muhim hujjatlarni taqdim etmasligi mumkin; davlat organining ish yuritish xususiyatlari hisobga olinmasa, fuqaroning huquqlari himoyasiz qolishi mumkin. Shuningdek, sud tomonidan dalillarni so'rab olish tashabbusining faollashuvi protsessual xolislikni shubha ostiga qo'yadi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur institutni qo'llashda quyidagi muammolar mavjud:

1) Jismoniy yoki yuridik shaxslar davlat organlarining hujjatlarini sudga talab qilib olishi juda murakkab jarayon hisoblanadi.

2) Sudyalar dalillarni oshkor qilish to'g'risidagi iltimosnomalarni qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishadi, bu esa huquqiy notenglikni yuzaga keltiradi.

3) Dalillarni yig'ish va taqdim etishning aniq protsessual mexanizmi yo'q.

Rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya, Fransiya, Angliyada dalillarni oshkor qilish instituti qonun darajasida mustahkamlangan va protsessning muhim qismi hisoblanadi. Umuman olganda, dalillarni oshkor qilish instituti ma'muriy sudlovda adolat va haqiqatni ta'minlash uchun zarur mexanizmdir. Uning huquqiy va amaliy asoslarini mustahkamlash nafaqat taraflar tengligini kafolatlaydi, balki jamoatchilikning sudga bo'lgan ishonchini ham oshiradi.

Ma'muriy sud ish yurituvining o'ziga xos xususiyati isbotlash majburiyatlarining maxsus tarzda taqsimlanishidir. Ko'plab mualliflar isbotlashning asosiy elementlaridan biri sifatida dalillarni yig'ishni e'tirof etadilar¹⁰⁶.

Bu jarayonning protsessual ahamiyati qonunchilikda ham o'z aksini topgan. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun zarur dalillarni taqdim etish qiyin bo'lsa, sud ularning iltimosiga binoan dalillarni to'plash va so'rab olishda yordam beradi. Sudlar qaror qabul qilishda mazkur normani yetarlicha tez-tez qo'llaydilar. Misol, muayyan ish yuzasidan birinchi va apellyatsiya instansiyalarining sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish jarayonida

¹⁰⁶ Grajdanskiy protsess: ucheb. / otv. red. Yu.K. Osipov. M., 1996.

mazkur qarorlar ish bo'yicha o'tkazilgan texnik-dastxatshunoslik ekspertizasining xulosalariga asoslangan. Ushbu xulosalarga ko'ra, eng muhim yozma dalil 2009–2010-yillarda tayyorlangan deb baholangan. Shu bilan birga, bu hujjat ish materiallariga 2008-yilda taqdim etilgani inobatga olinmagan. Shu munosabat bilan sud qarorlarini bekor qilish va ishni yangidan ko'rib chiqish uchun yuborish asosi sifatida dalillarni to'plashda yordam prinsipiga tayanilgani keltirilgan¹⁰⁷.

Sudlar o'z tashabbusi bilan dalillarni so'rab olish imkoniyatlariga ega. Ayrim mualliflar mazkur huquqni dalillarni to'plashda yordam berish prinsipining ifodasi sifatida baholaydilar¹⁰⁸.

Bunday yordamning ijobiy ahamiyatini inkor etmagan holda, shuni ta'kidlash kerakki, dalillarni to'plashda yordam berish degan prinsipning mavjudligi haqidagi fikr bu bilan isbotlanmaydi. Qonunchilikda faqat sudning tegishli huquqi belgilab qo'yilgan, majburiyati emas. Bundan tashqari, sud ish yurituvda sud tomonidan dalillarni to'plashda yordam ko'rsatish choralari ko'rish uchun ishda ishtirok shaxsning iltimosnomasi talab qilinadi.

Ma'muriy sud ish yurituvda dalillarni to'plash fuqarolik protsessual shaklidagi dalillarni to'plash bilan ko'p jihatdan o'xshash. Biroq ma'muriy-protsessual munosabatlarning o'ziga xos huquqiy tabiati va subyektlar tarkibi bilan bog'liq xususiyatlar ham ravshan namoyon bo'ladi.

Avvalo, dalillarni to'plash bu faoliyatdir. U protsessual ham, noprotsessual ham bo'lishi mumkin (masalan, notarius tomonidan faktni tasdiqlash). Bunday tasnifni ba'zi mualliflar asoslab bergan boshqa bir turdagi bir xil nomlangan guruhlariga bo'lish bilan adashtirmaslik lozim. Ularga ko'ra, protsessual usullar orqali dalillarni to'plash deganda sudning quyidagi harakatlari tushuniladi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitish, yozma dalillar bilan tanishish va boshqalar¹⁰⁹.

Bu masala dalillarni to'plash faoliyatining navbatdagi muhim elementi subyektlar bilan bog'liq. Keltirilgan g'oya tarafdorlari sud

¹⁰⁷ Opredeleeniye Verxovnogo Suda RF ot 6 okt. 2015 g. № 5-KG15-128. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

¹⁰⁸ Kurs dokazatelstvennogo prava: Grajdanskiy protsess. Arbitrajnyy protsess / pod red. M.A. Fokinoy. M., 2014.

¹⁰⁹ Рыжков А.Р. Postateynyy kommentariy k Arbitrazhnomu protsessualnomu ko deksu Rossiyskoy Federatsii. 10-ye izd., ispr. i dop. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

organlarini ana shunday subyektlar safiga kiritadilar¹¹⁰. Masalan, Ye.Yu. Vedeneyevning fikricha, sud isbotlashning subyekti bo'lib, ish yurishi jarayonining barcha bosqichlarida holatni nazorat qilib turadi¹¹¹.

Bizning fikrimizcha, dalillarni to'plash ishdagi natijaga nisbatan hech qanday manfaatdorligi bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas, chunki bu holat tortishuv prinsipiga zid bo'lar edi. R.O. Opalev ta'kidlaganidek, ushbu prinsipga ko'ra, sud ish bo'yicha dalillarni to'plash uchun mustaqil talablarga ega bo'lmagan uchinchi shaxsni ishda ishtirok etishga jalb qilishga haqli emas¹¹²

I.V. Reshetnikova esa protsessdagi tortishuv prinsipi va dalillarni to'plash subyektiga nisbatan an'anaviy qarashlar haqli ravishda ta'kidlaydi. Sud dalillarni to'plash jarayonidan chetlashtirilgan, u faqat taraflarning asoslangan iltimoslari mavjud bo'lganda dalillarni to'plashda yordam ko'rsatadi¹¹³. Lekin mazkur fikr ma'muriy sud ish yurituv tabiatiga mos emas.

MSIYtKning 11-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud ishlarini yuritish sudning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma'muriy ishning to'g'ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshiradi. Sud o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha qo'shimcha dalillar to'playdi, shuningdek ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajaradi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to'plashda sudga ko'maklashishi shart¹¹⁴. Demak, ma'muriy sud ish yurituvda sudning faol ishtiroki asosida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning

¹¹⁰ Postateynyy kommentariy k Arbitraj nomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Fe deratsii / T.K. Andreeva, S.K. Zagaynova, A.V. Za karlyuka i dr.; pod red. P.V. Krashennnikova. M., 2013.

¹¹¹ Vedeneyev Ye.Yu. Dokazyvaniye v arbi trajnom protsesse Rossiyskoy Federatsii: problemy teorii i praktiki (na primere do kazivaniya v sporax po imushchestvennomu stra xovaniyu): dis. ... kand. yurid. nauk. M., 1999.s. 35-37.

¹¹² Opalev R.O. Voprosy sudoproizvodstva v arbitrajnyx sudax: resheniya i argumenty, ko torymy možete vospolzovatsya i vy: nauch.-pri kladnoye posobiye. 2-ye izd., pererab. i dop. M., 2014. S.92.

¹¹³ Reshetnikova I.V. Grajdanskiy protsess cherez prizmu 150-letnego razvitiya // Kodi fikatsiya rossiyskogo chastnogo prava – 2015 / V.V. Vitryanskiy, S.Yu. Golovina, B.M. Gongalo i dr.; pod red. P.V. Krashennnikova. M., 2015. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "Kon sultantPlyus".

¹¹⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma'muriy ishning to'g'ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirishi lozim. Lekin, unutmaslik kerakki mazkur vaziyatda ishda ishtirok etuvchi shaxslarni isbotlash majburiyatidan ozod qilishini anglatmaydi. Ya'ni, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to'plashda sudga ko'maklashishi shart.

Sud tashabbus ko'rsatayotganda bu faqat haqiqatni aniqlash maqsadida amalga oshirilishini tushunish zarur. Isbotlash subyektlari o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida harakat qiladilar, bu esa ularning protsessual faoliyati isbotlashni sudning protsessual faoliyatidan, ya'ni ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatishdan farqli qiladi.

Ma'muriy sud ish yurituvida isbotlash subyektlari faqat taraflar bilan cheklanmaydi. Uchinchi shaxslar ham taraflardan biri kabi majburiyatlarga ega bo'ladi, biroq ular arizaning asosi yoki predmetini o'zgartirish, arizadan voz kechish, tan olish va kelishuv bitimini tuzish huquqiga ega emas.

Ma'muriy sud ish yurituvi nuqtayi nazaridan "dalillarni yig'ish" atamasi tez-tez tilga olinayotgan bo'lsa-da, mualliflar bu jarayon doirasida qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkinligini tahlil qilmaydilar. Masalan, A.P. Рыжakovning ta'kidlashicha, ko'pgina protsessualistlar "dalillarni yig'ish"ni qonun bilan belgilangan manbalarda mavjud bo'lgan fakt ma'lumotlarini aniqlash, olish (asl holatda ajratib olish) deb tushunadilar¹¹⁵. Biroq u bu nuqtayi nazarni bildirgan boshqa mualliflarning ishlariga havola keltirmaydi, shuningdek, dalillarni yig'ishning ayrim protsessual sohalarga xos xususiyatlari haqida ham to'xtalmaydi.

Aytib o'tish joizki, ma'muriy sud ish yurituvi fani doirasida dalillarni yig'ish tartiblari yetarlicha o'rganilmagan. Qonun chiqaruvchining tushunchasida, dalillarni to'g'ridan-to'g'ri yoki sud ko'magida olish imkonini beruvchi barcha harakatlar dalillarni yig'ish hisoblanadi. Biroq shunday harakatlar doirasini aniq belgilash, ularning to'liq ro'yxatini shakllantirish zarur.

¹¹⁵ Рыжков А.П. Postateynyy kommentariy k Arbitraznomu protsessualnomu ko deksu Rossiyskoy Federatsii. 10-ye izd., ispr. i dop. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

Yuqorida ta'kidlanganidek, A.P. Ryjakovning fikricha, dalillarni yig'ish qonun bilan belgilangan manbalarda mavjud bo'lgan fakt ma'lumotlarini aniqlash va olishni o'z ichiga oladi¹¹⁶. Ammo, bu dalillarni yig'ishga oid harakatlarning barchasini qamrab olmaydi.

Ta'kidlash lozimki, qonun ba'zi hollarda faqatgina dalillar manbalariga emas, balki ularni yig'ish usullariga ham talablar qo'yadi. Sudga taqdim etilayotgan yozma dalillar, agar ular to'liq yoki qisman chet tilida rasmiylashtirilgan bo'lsa, ularga davlat tiliga tarjima qilingan va belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari ilova qilinishi shart. Demak, agar dalillarni yig'ish hujjat tarjimasining tegishli tasdig'isiz amalga oshirilgan bo'lsa yoki tarjimonning imzosi haqiqiyligi tasdiqlanmagan bo'lsa, bunday dalil sud tomonidan qabul qilinmaydi, chunki u belgilangan tartibda yig'ilmagan deb hisoblanadi.

Dalillarning qonuniyligini baholashda birinchi navbatda ularning manbalari sud tomonidan ish uchun ahamiyatga ega fakt ma'lumotlarini aniqlashga mo'ljallangan deb e'tirof etilishi lozim¹¹⁷.

Dalillarni yig'ish maqsadida shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar qatorida boshqa shaxslarga yuborilgan so'rovlar, dalillarni talab qilish haqidagi iltimosnomalar va shunga o'xshash boshqa harakatlarni keltirish mumkin. Albatta, bu harakatlarni to'g'ridan-to'g'ri "yig'ish" deb bo'lmasligi mumkin, lekin ular dalillarni yig'ish maqsadiga xizmat qiladi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning **axloqiy majburiyatlari** qonuniy odob, sudga nisbatan hurmat va fuqarolik madaniyati asosidagi xulq-atvor qoidalariga amal qilish majburiyatlaridir.

MSIYtKning 2-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalaridan biri sifatida sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish, deb belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun sud protsessi ishtirokchilari sudga "Hurmatli sud!" degan so'zlar bilan murojaat qilishi, ular sudga o'z tushuntirishlari va ko'rsatuvlarini, savollarga javoblarini tik turib berishi va bu qoidadan chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan¹¹⁸.

¹¹⁶ Рыжков А.П. Postateynyy kommentariy k Arbitrazhnomu protsessualnomu ko deksu Rossiyskoy Federatsii. 10-ye izd., ispr. i dop. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

¹¹⁷ Postanovleniye Pyatnadsatogo arbi trajnogo apellyatsionnogo suda ot 1-iyulya 2015 g. № 15AP-7704/2015 po delu № A32 29330/2014. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

¹¹⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

Germaniya qonunchiligiga ko'ra, ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslardan "protsessual va etik xulq" talab etiladi. Yolg'on guvohlik uchun qonun javobgarligi bilan birga axloqiy tanbeh ham amal qiladi¹¹⁹.

Fransiyada sud jarayonida ishtirok etuvchilarning etik xulqi protsessual qonunlarda mustaqil tarzda belgilanmagan, ammo sud madaniyati kodeksi (Code de déontologie) orqali tartibga solinadi¹²⁰.

Umuman olganda ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum bir norma doirasida tizimlashtirilmagan.

2.3. Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

Ma'muriy sud ish yurituvi qonunchiligida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilanishi ularning huquqlar va manfaatlarini to'laqonli aks etganligini anglatmaydi. Balki, sudlar tomonidan unga amal qilinishi ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun aniq tizimli nazorat instituti bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikda mazkur masala **sud hujjatlarini qayta ko'rish instituti** orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi paragraflarda tahlil qilganimizdek mazkur tartib shikoyat qilish huquqini amalga oshirishning muhim elementidir. Mazkur paragrafda ma'muriy sudlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga birinchi instansiya sudlari tomonidan rioya qilinishi ustidan sud hujjatlarini qayta ko'rish instituti doirasida nazorat qilish tartibini milliy qonunchilikni **xorijiy mamlakatlar tajribasiga** qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganib chiqamiz.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, sud hujjatlarini qayta ko'rishning 3 ta ko'rinishi mavjud: apellyatsiya instansiyasi sudida ish yuritish, kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish va sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish.

¹¹⁹ <https://www.bverwg.de/en/rechtsprechung/verwaltungsgerichtsbarkeit/grundsaeetze-des-verwaltungsprozesses?utm>

¹²⁰ <https://www.conseil-etat.fr/en/news/the-conseil-d-etat-issues-a-reminder-of-the-rules-guaranteeing-the-independence-and-impartiality-of-administrative-justice>

Xorijiy davlatlarning huquqiy tizimlari ma'muriy huquq sohasidagi sud nazorati uchun ikki (Avstriya, Bolgariya, Kipr, Chexiya, Finlyandiya, Xorvatiya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Polsha, Sloveniya) yoki uch (Germaniya, Daniya, Estoniya, Ispaniya, Fransiya, Gretsiya, Vengriya, Irlandiya, Latviya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya) bosqichli sud instansiyalarini nazarda tutadi¹²¹.

Jumladan, Buyuk Britaniyada esa ma'muriy sud ishini ko'rib chiqish uchun uch yoki to'rt instansiya mavjud. Slovakiya va Serbiya o'z huquqiy tizimlarida ma'muriy ish yuzasidan faqat bir bosqichli sud nazorati mavjudligi, ammo bunga qo'shimcha tarzda oliy sudlarga murojaat qilish imkoniyati sifatida favqulodda vositalar nazarda tutilganini ta'kidlaydi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Yuqori instansiya sudlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi nazorat qilish uchun qanday protsessual tartibga amal qiladi?

Birinchi navbatda yuqori instansiya sudlariga shikoyat qiluvchi subyektlar doirasini tahlil qilsak. MSIYtK talablariga ko'ra, umumiy tartibda ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar shikoyati berishga, prokuror esa protest keltirishga haqli. O'z navbatida, ayrim holatlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil ham shikoyat qilishi mumkin.

Xorijiy davlatlarda deyarli umumiy qoida sifatida quyi suddagi ishda ishtirok etgan va chiqarilgan qarordan salbiy ta'sir ko'rgan har qanday taraf milliy sud amaliyotida belgilangan rasmiy va moddiy shartlarga rioya qilgan holda shikoyat berish huquqiga ega.

Germaniyada birinchi instansiyadagi ishning taraflari, jumladan, sudga jalb etilgan uchinchi shaxslar, ma'muriy sud tomonidan chiqarilgan qarorga nisbatan huquqiy va faktik asoslar bo'yicha apellyatsiya berish huquqiga ega. Apellyatsiya yuqori ma'muriy sudga ko'riladi va faqatgina birinchi instansiya sudi yoki yuqori sud tomonidan qabul qilingan taqdirda muhokamaga olinadi. Apellyatsiyani muhokamaga qabul qilish faqat qarorning to'g'riligiga jiddiy shubhalar mavjud bo'lsa, ish murakkab huquqiy yoki faktik

¹²¹ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

masalalarni o'z ichiga olsa va ish umumiy ahamiyatga ega bo'lgan hollarda mumkin. Agar apellyatsiya qabul qilinmasa, taraflar qarorni olgandan so'ng bir oy ichida yuqori suddan uni qabul qilishni talab qilishlari mumkin

Shikoyat berish shartlari sifatida apellyatsiya faqat da'vogar shikoyat qilgan qaror unga to'liq ijobiy hal etilmagan bo'lsa, yuborilishi mumkin. Bunda sudga jalb etilgan uchinchi shaxslar esa o'z huquq yoki manfaatlari buzilganini ko'rsatishlari shart. Apellyatsiya bir oy ichida berish va ikki oy ichida asoslab berish lozim.

Apellyatsiya quyidagi hollarda asosli hisoblanadi:

da'vogar tomonidan berilgan apellyatsiya birinchi instansiyada rad etilgan bo'lsa-da, da'vo barcha protsessual talablarga javob bersa;

javobgar tomonidan berilgan apellyatsiya birinchi instansiya da'vogar foydasiga qaror chiqargan bo'lsa-da, da'vo zarur protsessual talablarga javob bermagan yoki huquqiy asossiz bo'lsa¹²².

Yuqori ma'muriy sud tomonidan chiqarilgan har qanday qaror, u birinchi yoki ikkinchi instansiya qarori bo'lishidan qat'i nazar, Federal ma'muriy sudda huquqiy nuqtayi nazardan apellyatsiya (Revision) orqali qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ma'muriy sud qaroriga nisbatan huquqiy asoslar bo'yicha apellyatsiya faqat istisno hollardagina mumkin. Bular quyidagilardan iborat: birinchidan, federal qonunga muvofiq fakt va huquq asoslariga tayangan apellyatsiya mumkin bo'lmagan taqdirda; ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri yuqori instansiyaga shikoyat (Sprungrevision) bu holda ikki tarafning roziligi va ma'muriy sudning qabul qilishi talab qilinadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan apellyatsiya qarorida huquqiy xatolik mavjud bo'lganda va bu xato ahamiyatli bo'lgan taqdirda asosli hisoblanadi. Federal ma'muriy sud Yuqori ma'muriy sudning faktik holatlarga oid baholarini qayta ko'rib chiqmaydi. Faqat federal huquq normalariga zidlik asosida bahs yuritilishi mumkin, Land (joy) qonunlari asosida emas.

Germaniya ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunning yondashuvi shundan iboratki, u nisbatan kamsonli normalar orqali turli vaziyatlarni qamrab olishga harakat qiladi. Bu normalar orasidagi farqlar faqat zarur darajada belgilangan.

¹²² https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_vwgo/englisch_vwgo.html

Xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos jihatlaridan biri hatto ishda yutib chiqqan taraf ham shikoyat berish huquqiga ega. Buyuk Britaniya ishda yutgan taraf ham asosni boshqacha keltirgan holda, qarorni qo'llab-quvvatlash maqsadida murojaat qilishi mumkin.

Finlyandiyada quyi sudda ishtirok etgan ma'muriy organlar faqat qonun bilan maxsus vakolat berilgan taqdirda yuqori instansiyaga shikoyat berishlari mumkin. Avstriya va Gretsiya tegishli vazirning shikoyat qilish vakolati mavjud¹²³.

Ikkidan ortiq sud instansiyasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda oliy sudga apellyatsiya shikoyati odatda faqat ma'muriy apellyatsiya sudi (higher administrative court) qarorlariga nisbatan yo'l qo'yiladi. Lekin ayrim yurisdiksiyalarda shunday "tezkor apellyatsiya" tartibi (fast track) mavjud. Bu "leapfrog appeal" ("chetlab o'tib shikoyat qilish") deb ataladi va u ayrim holatlarda birinchi instansiya ma'muriy sudidan to'g'ridan-to'g'ri oliy sudga apellyatsiya berish imkonini beradi¹²⁴.

Fransiya, Irlandiya, Italiya kabi davlatlarda hech qanday istisnalar mavjud emas, ya'ni barcha turdagi qarorlar yuzasidan shikoyat berish mumkin. Avstriya, Germaniya, Estoniya, Gretsiya, Vengriya, Lyuksemburg, Niderlandiyada quyi sudning yakuniy bo'lmagan, dastlabki qarorlariga nisbatan shikoyat qilish taqiqlangan¹²⁵.

Shveysariya faqat konstitutsiyaviy huquq buzilgan bo'lsa, dastlabki qarorlar ustidan shikoyatlar ko'rib chiqilishi mumkin. Lekin, mazkur tartib juda umumiy bo'lib, konstitutsiyaviy huquqlarni aniq chegarasini belgilashda murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Avstriya, Shveysariya, Germaniya, Estoniya, Shvetsiya, Polshada protsessual masalalarga oid qarorlar (masalan, majlisni to'xtatish, dalillarni rad etish va h.k.) ustidan shikoyat berish mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qonunchiligida aynan shunday tartib mavjud bo'lib, sudning ajrimi ustidan MSYtKda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, ajrim ishning kelgusidagi harakatiga to'sqinlik qilgan taqdirda, sudning hal qiluv qaroridan alohida tarzda shikoyat (protest) qilinishi mumkin. Boshqa ajrimlar ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmaydi, lekin bu ajrimlarga qarshi e'tirozlar

¹²³ https://korkeinoikeus.fi/fi/index/ajankohtaista/puheet_1/theroleofthesupremecourtandleavetoappealinfinland.html

¹²⁴ Pinna, A. Filtering Applications, Number of Judgments Delivered and Judicial Discourse by Supreme Courts: Some Thoughts Based on the French Example. In *The Legitimacy of Highest Courts' Rulings: Judicial Deliberations and Beyond*. Edited by Jacco Bomhoff, Maurice Adams, Nick Huls. The Hague: T.M.C. Asser Press, 2009

¹²⁵ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

sudning hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

Ayrim davlatlarda muayyan huquq sohalari bo'yicha yuqori instansiyaga shikoyat qilish cheklangan. Xususan, immigratsiya huquqi (Germaniya, Lyuksemburg, Niderlandiya), bolani shoshilinch joylashtirish (Finlyandiya), majburiy ijro choralari kechiktirish to'g'risidagi qarorlar (Serbiya) yuzasidan yuqori instansiyaga shikoyat qilish mumkin emas¹²⁶.

Chexiyada agar quyi sud avval yuqori instansiya tomonidan bekor qilingan qaror bo'yicha yangi qaror chiqarsa va shikoyatchi bu yangi qaror oliy ma'muriy sud ko'rsatmalarini buzdi deb hisoblamasa, qaror ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Xorvatiyada ma'muriy sud tomonidan ma'muriy organ qarori bekor qilinib, ish qayta ko'rib chiqish uchun ma'muriy organga yuborilsa, bunday qarorga shikoyat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Niderlandiyada agar sudning fikriga ko'ra ish natijasi "ochiq-oydin ravshan" bo'lsa, shikoyat qilish mumkin emas. Faqat shu sudning boshqa hay'atiga murojaat qilish mumkin¹²⁷.

Bolgariyada 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi qonunga ko'ra, katta hajmdagi huquq sohalari bo'yicha yuqori instansiyaga shikoyat qilish cheklangan. Bu qonunning konstitutsiyaga zid ekanligi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudda ish ko'rilmogda. Aksariyat davlatlarda shikoyat qilish huquqi umumiy prinsip bo'lsa-da, ayrim qarorlar, huquq sohalari, yakuniy bo'lmagan qarorlar yoki protsessual harakatlar bo'yicha funksional yoki huquqiy cheklovlar mavjud. Bu cheklovlar milliy huquq tizimlaridagi farqlarga asoslangan.

O'zbekiston ma'muriy sud ishlarini yuritish tizimida shikoyat qilish huquqi umumiy qoida sifatida kafolatlangan, ammo ayrim texnik qarorlar, protsessual harakatlar yoki belgilangan muddatlar bilan cheklangan holatlar mavjud. Bu Yevropaning bir qator davlatlaridagi (Bolgariya, Avstriya) tartiblarga o'xshash, lekin asosiy huquqiy muhokama qilish huquqi saqlanib qolgan.

MSIYtK talablariga ko'ra shikoyatining (protestining) shakli va mazmuniga quyidagi talablar qo'yilgan: 1) shikoyat (protesti) yo'llanayotgan sudning nomi; 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi); 3) ustidan shikoyat

¹²⁶ [https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:\[%22001-57436%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:[%22001-57436%22]})

¹²⁷ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

(protest) berilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami va hal qiluv qarori qabul qilingan sana, talabning predmeti; 4) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablari hamda shikoyat (protest) bergan shaxsning qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlariga, ish holatlariga va dalillarga havola qilgan holda hal qiluv qarorini noto'g'ri deb hisoblash uchun keltirgan asoslari; 5) shikoyatga (protestga) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati¹²⁸.

Xorijiy davlatlarda shikoyat berish uchun qator umumiy rasmiy talablar mavjud. Ular shikoyat qilingan qarorning nomi va rekvizitlari, shikoyatchining shaxsiy ma'lumotlari, shikoyat berish muddatiga rioya etilishi, shikoyat arizasiga da'vogar yoki uning vakilining imzosi va davlat boji to'langanini tasdiqlovchi hujjat yoki belgilangan miqdorda qog'oz nusxalarni o'z ichiga oladi.

Ayrim davlatlarda shikoyatga qo'shimchalar talablar mavjudligiga ham e'tibor qaratish lozim. Xususan, hodisalar bayoni (Belgiya, Fransiya, Lyuksemburg), qonun buzilgan deb hisoblanadigan norma ko'rsatilishi yoki shikoyat qilingan qarorning qaysi qismi qonunga zid deb hisoblanishi (Belgiya, Bolgariya, Germaniya, Estoniya, Ispaniya, Vengriya, Italiya, Lyuksemburg, Latviya), shikoyatning ko'lami aniq belgilanishi (Avstriya, Belgiya, Fransiya, Lyuksemburg, Bolgariya, Shveysariya, Kipr, Latviya), shikoyatning asoslarini bayon etish (Belgiya, Shveysariya, Germaniya, Kipr, Chexiya, Estoniya, Ispaniya, Finlyandiya, Fransiya, Italiya), sud amaliyoti va ilgarigi qarorlarga tayanish (Kipr), talabning mazmuni yozma ravishda bildirilishi (Bolgariya, Germaniya, Estoniya, Fransiya, Italiya, Litva) va ochiq sud majlisi o'tkazish istagi bayon etilishi (Estoniya, Litva) talablari ham mavjud¹²⁹. Mazkur talablar shikoyat berish tartibi faqat da'vogar tomonidan bayon etilgan e'tirozlar doirasida cheklangan davlatlarda muhim ahamiyatga ega.

Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Latviyada shikoyat berish uchun maxsus ruxsat olish tartibi mavjud bo'lsa, ishning umumiy ahamiyati, jamiyat uchun dolzarbligi va o'xshash holatlarda muhim huquqiy masalalar mavjudligini asoslab berish talab qilinadi. Ushbu talablar orqali shikoyat berish tizimida tartib, shaffoflik va huquqiy asoslilik ta'minlanadi.

¹²⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

¹²⁹ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

Ta'kidlash lozimki, yuqori instansiya sudi tomonidan shikoyat cheklangan doirada ko'rib chiqilishi masalasi bo'yicha ham turli yondashuvlar mavjud. Xorijiy davlatlar tajribasi bu masalada ikki yirik guruhga bo'linadi:

1. Shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar.

Bu guruhda yuqori instansiya sudi o'z tashabbusi bilan ya'ni shikoyatchi tomonidan keltirilgan e'tiroz va dalillar bilan cheklanmagan holda ko'rib chiqishi mumkin. Bu davlatlarga Germaniya, Daniya, Estoniya, Ispaniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Portugaliya, Shvetsiyani kiritish mumkin.

2. Faqat shikoyatda ko'rsatgan e'tirozlar doirasida ko'rib chiqiladigan davlatlar. Bu guruhda yuqori instansiya ishni faqat shikoyatchi tomonidan keltirilgan da'vo va dalillar doirasida ko'rib chiqadi. Bu davlatlarga Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Kipr, Chexiya, Fransiya, Xorvatiya, Vengriya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Sloveniya, Slovakiya kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 217-moddasiga ko'ra, sud ishni apellyatsiya instansiyasida ko'rish chog'ida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligini va asosligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Apellyatsiya instansiyasining sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq hajmda tekshirishi shart. Birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish predmeti bo'lmagan yangi talablar apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rilmaydi¹³⁰. Demak, *O'zbekiston yuqoridagi guruhlardan biri bo'lgan shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar qatoriga kiradi, deb hisoblash mumkin.*

Shikoyat qilish huquqni amalga oshirishda yana bir muhim tartib yuqori instansiya sudiga shikoyat qilish uchun ruxsat berish tartibi bilan bog'liq. Shikoyat qilish uchun ruxsat berishning moddiy mezonlari yoki asoslari turli xilda yozilgan bo'lishi mumkin, ammo ular bir nechta guruhga ajratilishi mumkin. Ko'plab davlatlarda qonunlarning bir xilda qo'llanilishi va talqin qilinishi, shuningdek, shikoyat uchun ruxsat berish sabablarini ko'rsatish, yuqori instansiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi.

¹³⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

Xorijiy davlatlarda shikoyat uchun ruxsat berish yoki rad etish haqidagi qarorni yuqori instansiya sudi yoki qarorni qabul qilgan sud tomonidan qabul qilinadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada quyi sud tomonidan shunday qaror qabul qilinishini mumkin, ammo bu odatda kam uchraydi. Shuningdek, shikoyat berish uchun ruxsat berish yoki rad etish qarorini Avstriya va Xorvatiyada quyi sudlar qabul qilishi mumkin.

Germaniyada quyi sudning shikoyat uchun ruxsat berish bo'yicha qabul qilingan qarori yuqori sud uchun majburiy hisoblanadi. Bunga qarama-qarshi Avstriya, Xorvatiya, Ispaniya va Portugaliyada bunday qaror yuqori instansiya sudlari qabul qiladi. Germaniyada faqat quyi sudning shikoyat berishga ruxsatni rad etgan qarorini yuqori instansiya ish jarayonida bekor qilishi mumkin. Daniya va Norvegiyada yuqori instansiyasining Apellyatsiya ruxsati boshqarmasi va Apellyatsiya seleksiya komiteti mavjud bo'lib, ular shikoyat berish uchun ruxsat berish yoki rad etish haqidagi masalani hal qiladi.

Ayrim davlatlarda apellyatsiya uchun ruxsat berish haqidagi qaror yozma tartibda qabul qilinishi ta'kidlangan. Finlyandiyada bu qaror ishning mohiyati bo'yicha qaror bilan birga qabul qilinadi.

Qiziqarli jihat shundaki, ayrim davlatlarda shikoyat berish uchun ruxsat berishga murojaat qilishni hal qilishga haqli bo'lgan tizim mavjud. Jumladan, Daniya va Norvegiyada alohida organlar mavjud. Shuningdek, Ispaniyada shikoyat berish uchun ruxsat berishga oid qaror har doim uchinchi palataning birinchi bo'limi tomonidan qabul qilinadi shuningdek, ruxsat berilgan taqdirda ishni qonuniylashtirish bo'limiga o'tkaziladi. Finlyandiya va Germaniyada shikoyat berish uchun ruxsat berish haqidagi qarorni qabul qilish uchun uch sudyadan iborat hay'at mavjud. Estoniya, Portugaliya va Angliyada shikoyat berish uchun ruxsat berish yoki rad etish haqida qaror qabul qiluvchi hay'at uch sudyadan iborat, ular oliy sudning ma'muriy bo'limning eng tajribali sudyalari qatoriga kiradi. Irlandiyada shikoyat berish uchun murojaatlar kamida uch sudyadan tashkil topgan sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Fransiyada esa Komissarlik Kengashining tegishli palatasi rahbari amalga oshiriladi. Ruxsat berish esa ishning mohiyati bo'yicha qaror qabul qilishga majbur bo'lgan palatalar tomonidan amalga oshiriladi. Gretsiyada qaror yozma tartibda prezident tomonidan belgilangan bir yoki uch sudyadan iborat hay'at tomonidan qabul qilinadi. Latviyada shikoyat berish uchun ruxsat berishga murojaat

qilish haqidagi qarorni qabul qilishga ixtisoslashtirilgan uch sudyadan iborat hay'at mas'ul bo'ladi¹³¹.

Daniya, Ispaniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Latviya, Shvetsiya, Sloveniya huquqiy tizimlari orasida yuqori instansiya sudiga shikoyat berish uchun maxsus ruxsat tartibi nazarda tutilgan hollarda, ushbu tartib uchun alohida protsessual qoidalar belgilanmagan yoki shikoyatga ruxsat berish asosiy ish yurituv tartibining bir qismi sifatida qaraladi.

Ayrim huquqiy tizimlarda bu jarayon uchun biroz soddalashtirilgan protsessual qoidalar joriy etilgan. Jumladan, Kiprda yuqori instansiya jamoat eshituvisiz, shikoyat aniq va ravshan ravishda asossiz (frivolous) deb topilsa, uni rad etishi mumkin. Biroq amaliyotda bu qoida qo'llanilmaydi.

Shveysariyada (faqat umumiy huquqiy manfaatga ega bo'lmagan masalalarda) va Germaniyada shikoyatga ruxsat berish to'g'risidagi qaror uch nafar sudya tomonidan qabul qilinadi, holbuki odatda bu sudlar besh nafar sudyadan iborat hay'at tarkibida qaror qabul qiladi.

Germaniyada shikoyatga ruxsat berish haqidagi qaror uning mohiyati yuzasidan chiqariladigan qarordan farqli ravishda og'zaki eshituvsiz qabul qilinadi. Shuningdek, ko'rib chiqish doirasi faqat arizada ko'rsatilgan asoslar bilan cheklangan.

Fransiyada shikoyatga ruxsat berish jarayoni kontradiktorlikka asoslanmagan deb hisoblanadi. Ya'ni, shikoyat ikkinchi tarafga yuborilmaydi va agar sud rad etish qarorini jamoat tartibi nuqtayi nazaridan chiqarsa, bu haqda shikoyatchiga ma'lum qilish majburiyati yo'q. Odatda qarorlar juda qisqacha asoslanadi¹³².

Avstriya va Bolgariyada shikoyat arizasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun shikoyatchiga talabnoma yuborish va uni bajarmasa, shikoyatni rad etish tartiblari mavjud. Bolgariyada sud va shikoyatchi uchun qisqa muddatlar protsessual qoidalarda belgilangan. Chexiya Respublikasida xalqaro muhofaza masalalarida shikoyat qabul qilinmasligi to'g'risidagi qaror sud hay'atining yakdil ovozi bilan qabul qilinishi kerak.

Estoniya va Irlandiyada apellyatsiyani qabul qilish (admittance) uchun alohida tartiblar mavjud. Litvada 2019-yildan boshlab apellyatsiya arizalarini qabul qilish masalasi birinchi instansiya sudlari tomonidan hal qilinadi.

¹³¹ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

¹³² https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000031366350/

Shveysariya, Finlyandiya, Xorvatiya, Litva, Portugaliya, Serbiya, Shvetsiyada shikoyat ishlarini ko'rishda og'zaki eshituvlar majburiy emas. Daniyada shikoyatga ruxsat berish bo'yicha kengash yig'ilishlari ommaviy emas. Shu kabi, Norvegiyada ham shikoyatni tanlab olish bo'yicha qo'mita faqat yozma tartibda ish olib boradi, faqat shikoyatga ruxsat berilgandan so'ng og'zaki eshituv o'tkaziladi.

Ko'plab huquqiy tizimlar shikoyatga ruxsat berish bosqichi bilan ruxsat berilgan shikoyatni ko'rib chiqish bosqichi o'rtasida og'zaki eshituvga nisbatan turlicha yondashuvni nazarda tutadi. Chexiya, Estoniya, Ispaniya, Latviyada ruxsat berish jarayonida og'zaki eshituv o'tkazilmaydi, ammo ruxsat berilgan shikoyat bo'yicha ishda sudning xohishiga ko'ra og'zaki eshituv o'tkazilishi mumkin.

Sloveniyada qayta ko'rib chiqish (revision) uchun ruxsat berish jarayonida og'zaki eshituvlar o'tkazilmaydi, ammo ruxsat berilgan qayta ko'rib chiqishda (faqat huquqiy masalalar bo'yicha) ommaviy eshituv tayinlanishi mumkin. Biroq amaliyotda sud yopiq majlislarda qaror qabul qiladi. Shikoyat tartibida (shu jumladan faktlar bo'yicha ham) agar yangi dalillar taqdim etilsa yoki yangi holatlar aniqlansa, sud eshituv bilan qaror chiqarishi mumkin.

Germaniyada shikoyatga ruxsat berish jarayonida og'zaki eshituv talab etilmaydi, ammo ruxsat berilgan shikoyat ishlarida, agar taraflar ikkovi ham undan voz kechmasa, og'zaki eshituv o'tkazilishi majburiy.

Kipr va Polshada shikoyatga ruxsat berish uchun alohida tartib mavjud emas. Barcha sud qarorlari uchun og'zaki eshituv majburiy, biroq Polshada taraflar undan voz kechishlari mumkin.

Lyuksemburgda barcha ishlar bo'yicha taraflarga og'zaki so'zga chiqish, yozma bayonotlarni to'ldirish va sudning savollariga javob berish uchun og'zaki eshituv o'tkaziladi. Shunga qaramay, jarayon asosan yozma asosda amalga oshiriladi.

Aksincha, Bolgariyada sud majlislari yopiq shaklda o'tkaziladi, faqat sud o'z qarorini o'zgartirsa, boshqa tartibda bo'lishi mumkin. Shveysariyada ham og'zaki eshituv bo'lmaydi, faqat har qanday sudya talab qilsa yoki ovoz berishda birdamlik bo'lmasa eshituv o'tkaziladi.

Avstriyada dastlabki jarayon tugagach, agar taraflardan biri so'rasa va ko'p sonli istisnalar qo'llanilmasa, og'zaki eshituv majburiy. Sud ham o'z tashabbusi bilan eshituv tayinlashi mumkin.

Irlandiyada shikoyatga ruxsat berish arizalari yozma materiallar asosida ko'rib chiqiladi. Faqat sud zarur deb topsa, og'zaki eshituv

tayinlanadi. Konstitutsiyada belgilangan “adolatli sudlov omma oldida amalga oshirilishi lozim” degan talab ariza, javob va sud qarori e’lon qilinishi orqali ta’minlanadi.

Buyuk Britaniyada shikoyatga ruxsat berish bo’yicha arizalar og’zaki eshituvsiz hal etiladi. Faqat ayrim hollarda, masalan, Yevropa Ittifoqi Sudining yuborilishi mumkin bo’lgan masalalari yoki juda muhim ishlar bo’yicha og’zaki eshituv o’tkaziladi. E’tiborga loyiqki, asosiy apellyatsiya ishlari har doim og’zaki eshituvdan so’ng hal etiladi.

Fransiyada eshituvning o’tkazilishi shikoyatni qabul qilmaslik haqida qaror palata raisi tomonidan ommaviy eshituvsiz farmoyish shaklida chiqarilishi mumkin yoki jamoat prokurori xulosasidan so’ng va ommaviy eshituv asosida sud qaror chiqarishi mumkin.

Milliy qonunchilikda faqat taftish instansiyasida ruxsat berish tizimiga o’xshash tartib mavjud. Xususan, MSIYtKning 261-moddasiga ko’ra, taftish tartibidagi shikoyat (protest) O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi tomonidan o’rganiladi. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to’g’risida besh kundan kechiktirmay ajrim chiqaradi, taftish tartibidagi shikoyatni O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining Ma’muriy ishlar bo’yicha sudlov hay’atiga ko’rib chiqish uchun o’tkazishni rad etish to’g’risida yoki taftish tartibidagi shikoyatni (protestni) ish yuritishga qabul qilish va uni ko’rib chiqish uchun ish bilan birga O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining Ma’muriy ishlar bo’yicha sudlov hay’atiga o’tkazish to’g’risida esa shikoyat (protest) O’zbekiston Respublikasi Oliy sudiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ajrim chiqaradi¹³³. Bunday tartib boshqa instansiyalarda mavjud emas. *Bizningcha, ruxsat berish institutini sud hujjatlarini qayta ko’rishning barcha turlariga nisbatan qo’llash lozim.*

Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Shveysariya, Chexiya, Daniya, Germaniya, Estoniya, Ispaniya, Finlyandiya, Fransiya, Xorvatiya, Italiya, Lyuksemburg, Latviya, Polsha, Portugaliya, Serbiya, Shvetsiya, Sloveniya, Slovakiyada Oliy Ma’muriy sud qarorlari qonun bo’yicha quyi sudlar uchun majburiy kuchga ega emas¹³⁴.

Polshada oliy sud faqat konkret ishlar yuzasidan qaror chiqarish vakolatiga ega bo’libgina qolmay, abstrakt va konkret mazmundagi bir xillik (bir xil tushunish) qarorlari ham qabul qilishi mumkin. Bu qarorlar barcha quyi sudlar uchun majburiy kuchga ega.

¹³³ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

¹³⁴ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

Abstrakt bir xillik qarorlari amaliyotda turlicha talqin etilayotgan huquqiy normalarni aniqlash maqsadida qabul qilinadi va muayyan ishga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Bu kabi qarorlar oliy sud raisi yoki Bosh prokuror singari vakolatli subyektlar so'roviga binoan chiqariladi. Konkret bir xillik qarorlari belgilangan ishda jiddiy huquqiy shubhalar mavjud bo'lgan hollarda ishni ko'rayotgan sud hay'ati so'roviga binoan chiqariladi.

Gretsiyada oliy suding ayrim qarorlari quyi sudlar uchun majburiy bo'lishi mumkin. Xususan, agar Maxsus Oliy Sud qonunni Konstitutsiyaga zid deb e'lon qilsa, bu qaror quyi sudlarga majburiy hisoblanadi. Shuningdek, namunali (pilot) sud ishlari bo'yicha oliy sudning qarori chiqarilguncha quyi sudlar ishni to'xtatib turishi lozim; keyin esa mazkur qaror ular uchun majburiy bo'ladi.

Avstriyada shunga o'xshash holat mavjud. Xususan, agar shunga o'xshash juda ko'p ishlar kutilsa yoki shunday gumon uchun asoslar bo'lsa, oliy sud maxsus qaror chiqarishi mumkin. Bu qaror quyi sudlarga bunday ishlar yuzasidan qaror chiqarishni taqiqlaydi va kassatsiya shikoyati uchun muddatlarni to'xtatib qo'yadi.

Portugaliyada esa muayyan ish bo'yicha qabul qilingan qarorning ta'siri shu ishda ishtirok etmagan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat qilingan xuddi shu ma'muriy akt uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Ayrim davlatlarda yuqorida tavsiflangan filtr tizimlaridan istisnolarni umuman bilmaydi. Boshqa davlatlarda esa ayrim sohalarida qoidalar qat'iyroq yoki aksincha yumshoqroq shaklda qo'llaniladi.

Qat'iyroq qoidalar Belgiya, Chexiya va Niderlandiyada migratsiya va yoki boshpana berish huquqi sohalarida mavjud. Portugaliyada esa filtr tizimi qo'llanilmaydi va shu tufayli yuqori instansiyaga murojaat qilish imkoniyati davlat xizmatchilari, davlat ta'limi yoki ijtimoiy himoyaga oid ishlar bo'yicha ancha erkin va ochiqroq hisoblanadi.

Yuqori ta'kidlangan "leapfrog appeal" ("chetlab o'tib shikoyat qilish") tizimi kamida uch bosqichli sud tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi va birinchi instansiyadan to'g'ridan-to'g'ri Oliy ma'muriy sudga murojaat qilish imkonini beradi. Mazkur tizim ayrim huquq sohalarida nazarda tutadi. Xususan, Finlyandiyada bunday tartib soliq huquqi sohasida, Vengriyada mehnat huquqida va Latviyada davlat xaridlari bo'yicha ishlarda qo'llaniladi¹³⁵.

¹³⁵ <https://www.vero.fi/en/businesses-and-corporations/business-operations/foreign-business-in-finland/your-tax-hand-book-in-finland/#:~:text=Tax%20liability%3A%20Finnish%20residents%20are,effective%20management%20is%20in%20Finland.>

Fransiya bir nechta sohalarda "leapfrog appeal" ("chetlab o'tib shikoyat qilish") tartibini joriy etgan. Bu sohalar orasida ijtimoiy va mehnat huquqining ayrim yo'nalishlari, jamoat soliqlari, haydovchilik guvohnomalari kabi masalalar bor.

Ayrim davlatlarda esa abstrakt mezonlar asosida "leapfrog appeal" ("chetlab o'tib shikoyat qilish") tartibini qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, Irlandiyada bu tartib umumiy jamoat manfaatlariga daxldor bo'lgan ishlar yoki adolat manfaatlarini asosida qo'llanilishi mumkin. Germaniyada bu tartib birinchi instansiya sudi tomonidan ruxsat etilsa va ikki tomon rozi bo'lsa hamda faqat huquqiy masalalar ko'tarilgan taqdirda joriy etiladi. Portugaliyada mazkur tartib qiymati kamida 500,000 yevro bo'lgan va faqat huquqiy masalalarga oid bo'lgan ishlar uchun ochiq hisoblanadi.

Yana bir muhim masala yuqori instansiya sudlarini quyi instansiya sudlariga majburiy ta'siri bilan bog'liq. Fransiyada quyi instansiyaning faktlarini noto'g'ri deb e'lon qilishi mumkin. Polshada ham birinchi instansiya sudi faktlarni o'zi tekshirmaydi. U quyi sud tomonidan yig'ilgan faktlar asosida ish ko'radi. Lekin, bu faktlarning qonuniy tarzda aniqlanganini tekshirib chiqadi. Majburiy ta'sir holatda quyi instansiyaning protseduralari yuqori instansiya tomonidan noqonuniy deb topilsa, bekor qilinishi mumkin. Kiprda esa yuqori instansiya ushbu faktlardan majburiy emas, lekin yuqori instansiya faqat huquqiy savollarni ko'rib chiqadi. Gretsiya, Vengriya va Sloveniya esa majburiy ta'sir faqat tekshirish protseduralarida mavjudligini ko'rsatadi. Chexiya, Finlyandiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Shvetsiyada esa majburiy ta'sir mavjud emas.

Yuqori instansiya sudi birinchi instansiya sifatida ish yuritgan hollarda Bolgariya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Finlyandiya, Fransiya, Gretsiya, Xorvatiya, Italiya, Litva, Latviya, Niderlandiya, Portugaliya, Shvetsiya, Sloveniya, Slovakiyada unda qo'llanadigan protsessual qoidalar odatiy birinchi instansiya ma'muriy sudlari uchun belgilangan qoidalar bilan bir xil bo'ladi.

Milliy qonunchiligimizda ham yuqori instansiyasi sudi ishni sud majlisida birinchi instansiya sudida ko'rish qoidalari bo'yicha ko'radi. Lekin, yuqori instansiya sudida ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish to'g'risidagi, talabning predmetini yoki asosini o'zgartirish haqidagi, ishga uchinchi shaxslarni jalb etish to'g'risidagi qoidalar, shuningdek MSIYtKda birinchi instansiya sudida ishni ko'rish uchun belgilangan boshqa qoidalar qo'llanilmaydi.

Shu bilan birga, ayrim davlatlarda ayrim maxsus tartiblar va istisnalar ham mavjud. Xususan, Chexiyada birinchi instansiyada ish yuritadigan hollarda formal talablar yuqoriroq bo'lishi, muddatlar farq qilishi, hamda saylov ishlarida huquqiy vakil zarur bo'lmazligi mumkin. Sloveniyada ham saylov ishlariga oid maxsus qoidalar bor. Gretsiyada vaqtinchalik muhofaza choralari (asosan muhojirlar va qochqinlar bilan bog'liq ishlarda) hamda ommaviy xaridlar bilan bog'liq ayrim ishlar uchun qisqartirilgan muddatlar belgilangan. Litvada, ayrim normativ-huquqiy hujjatning qonuniyligini ko'rib chiqishda yozma tartibda ish yuritish umumiy qoida sifatida belgilangan¹³⁶.

Niderlandiyada ham qisqartirilgan muddatlar qo'llanilishi mumkin. Qurilish va yerdan foydalanish bilan bog'liq rejalar bo'yicha ishlarda, taraflar apellyatsiya berish muddati ichida barcha asoslarini bayon qilishi shart, keyinchalik ularni to'ldirishga ruxsat berilmaydi.

Lyuksemburgda yuqori instansiyaning o'zining protsessual qoidalari mavjud bo'lib, ular apellyatsiya ishlari va birinchi instansiya ishlariga tatbiq etiladi. Ammo, ular birinchi instansiya ma'muriy sudining qoidalariga parallel, farqlar asosan muddatlar bilan bog'liq.

Polshada Oliy ma'muriy sud tomonidan ish yuritishda qo'llaniladigan protsessual qoidalar ishning mavzusiga bog'liq. Vakolatlar yuzasidan yuzaga kelgan nizolar bo'yicha ishlarda, birinchi instansiya sudlaridagi ish yurituv tartiblari mutanosib ravishda qo'llaniladi. Boshqa ishlar uchun esa maxsus qonun hujjatlarida belgilangan maxsus protsessual qoidalar mavjud. Masalan, Saylov kodeksida qisqartirilgan muddatlar belgilangan. Milliy sudyalar kengashi tomonidan Oliy sudga sudya tayinlash bo'yicha qabul qilingan qarorlarga qarshi berilgan shikoyatlar bo'yicha ish yuritishda esa, oliy sud Fuqarolik protsessual kodeksini qo'llashi kerak. Bu esa juda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlashdagi yana bir muhim masala yuqori instansiya sudlari tomonidan tekshirish funksiyasini amalga oshirish bilan bog'liq. MSiYtK 220, 244-moddalariga muvofiq, ishni apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda quyidagilar aniqlanishi lozim:

– birinchi instansiya sudi ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'liq tekshirgan-tekshirmaganligi;

¹³⁶ Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

– sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar isbotlangan-isbotlanmaganligi;

– sudning hal qiluv qarorida, ajrimida, qarorida bayon etilgan xulosalar ish holatlariga muvofiqligi;

– barcha bildirilgan talablar bo'yicha sud hujjati qabul qilingan-qilinmaganligi;

– moddiy va (yoki) protsessual huquq normalari buzilgan-buzilmaganligi, ular to'g'ri qo'llanilgan-qo'llanilmaganligi¹³⁷.

Daniyada oliy sud quyi sudlar qarorlarini barcha jihatdan ko'rib chiqishi mumkin, ammo ma'muriy qarorlarni faqat ularning qonuniyligi nuqtayi nazaridan baholash huquqiga ega. Norvegiyada oliy sud **fakt va huquq**ni qayta ko'rib chiqishi mumkin, ammo bu huquq apellyatsiya ruxsati doirasi bilan cheklangan bo'lishi mumkin (faqat muayyan da'volar yoki masalalar bo'yicha). Serbiyada oliy sudning tekshirish doirasi faqat shikoyatda ko'rsatilgan asoslar bilan cheklangan. Irlandiyada oliy sud asosan huquqiy masalalarni qayta ko'rib chiqadi, lekin muayyan hollarda faktlarga oid qo'shimcha dalillarni qabul qilish huquqiga ega. Ammo guvohlarni eshitish kabi jarayonlarga amaliy cheklovlar mavjud.

Germaniyaning ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq, sud qarorlariga nisbatan taraflar odatda ikki marta shikoyat berish huquqiga ega. Bu bosqichda huquqiy va faktik holatlar yuzasidan shikoyat qilish mumkin.

Kassatsiya bosqichida esa faqat huquqni qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolar bo'yicha shikoyat qilish mumkin. Ya'ni, faqat huquqiy nuqtayi nazardan qaror qayta ko'rib chiqiladi, faktlar qayta baholanmaydi.

Amaliyotda ushbu ikki bosqichli shikoyat tizimiga ayrim istisnalar mavjud. Xususan, kuchga kirmagan qarorlar, ayniqsa vaqtincha choralar bo'yicha chiqarilgan qarorlar ustidan apellyatsiya berishning o'ziga xos shakli bor. Bunda faqatgina shikoyat (Beschwerde) shaklida yuboriladi. Bunday shikoyat yuqori ma'muriy sudga yuboriladi, va u qarorga nisbatan ikkinchi marta shikoyat qilish imkoni yo'q.

Alohida ta'kidlash lozimki, ma'muriy sudlarga murojaat qilishning o'zi va birinchi instansiya sudining yurisdiksiyasini apellyatsiya bosqichida shubha ostiga qo'yish mumkin emas. Chunki apellyatsiya sudi da'voni ko'rish haqidagi birinchi instansiya sudining qarorini tan olishi shart¹³⁸.

¹³⁷ <https://lex.uz/ru/docs/6877317>

¹³⁸ <https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/>

Sloveniyada ikki xil shikoyat qilish turi mavjud: 1) Huquq va faktlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish; 2) Faqat huquq masalalari qayta ko'rib chiqish.

Vengriyada agar oliy sud ikkinchi instansiyada faoliyat yuritisa, fakt va huquqlar ko'rib chiqiladi (lekin yangi faktlar kiritishda cheklovlar bor). Agar uchinchi instansiyada (faqat favqulodda vosita sifatida) faoliyat yuritisa faqat huquqiy masalalar ko'rib chiqiladi, yangi fakt, huquqiy asoslar taqdim etish mumkin emas. Polsha, Estoniya va Germaniyada faktlar baholanishi faqat protsessual qonun buzilishi bilan bog'liq bo'lgan taqdirdagina qayta ko'rib chiqilishi mumkin (agar bu quyi sud qaroriga ta'sir qilgan bo'lsa).

*Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligida yuqori instansiya sudlarida ishni ko'rish doirasining ikki xil tartibi mavjud deb hisoblash mumkin: 1) **huquqiy va faktik**, ya'ni sud hujjatlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rilganda birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligi va asoslilikini tekshirishi, yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. 2) **faqat huquqiy**, ya'ni sud ishni taftish tartibida ko'rish chog'ida quyi instansiyalarning sudlari tomonidan moddiy huquq normalari to'g'ri qo'llanilganligini va protsessual qonun talablariga rioya etilganligini ish materiallari bo'yicha tekshiradi. Ya'ni, taftish tartibida ko'rish chog'ida yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi nazarda tutilmagan.*

Shikoyat qilish huquqi amalga oshirishdagi yana bir muhim masala yuqori instansiya sudlari bilan Konstitutsiyaviy sud o'rtasidagi chegarani aniqlashdir.

Keng tarqalgan tajribaga ko'ra Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Xorvatiya, Vengriya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Latviya, Polsha, Portugaliya, Serbiya, Sloveniya, Slovakiyada Oliy ma'muriy suddan alohida **Konstitutsiyaviy sud** mavjud. Shveysariya, Kipr, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Irlandiya, Norvegiya, Niderlandiya, Shvetsiyada esa alohida Konstitutsiyaviy sud mavjud emas¹³⁹.

Estoniyada oliy sud tarkibida alohida Konstitutsiyaviy nazorat palatasi mavjud bo'lib, u sudyalar rotatsiya asosida saylanadigan hay'atdan iborat. Gretsiyada esa Konstitutsiyaviy nazorat bilan Maxsus Oliy sud shug'ullanadi. U mamlakatning boshqa oliy sud organlari

¹³⁹ <https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/legal-systems>

a'zolaridan shakllantiriladi va parlament qabul qilgan qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini hamda qonunlar mazmuni bo'yicha qarama-qarshi qarorlar mavjud bo'lsa, ularni izohlash bilan shug'ullanadi.

Kipr, Daniya, Estoniya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarda oliy ma'muriy sud konstitutsiyaviy sud vazifalarini ham bajaradi. Ushbu mamlakatlarda oliy ma'muriy sud nafaqat ma'muriy ishlar bo'yicha, balki barcha huquq sohalari bo'yicha oliy sud hisoblanadi. Bu oliy ma'muriy sud tomonidan konstitutsiyaviy huquqni hisobga olishni, ayniqsa asosiy huquqlarni himoya qilishni, hamda zarur hollarda oddiy qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Norvegiyada Yevropada ilk bor 1866-yilda qonunni Konstitutsiyaga zid deb e'lon qilish vakolatiga ega sud sifatida tan olingan. Shuningdek, 1999-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi qonun asosida Yevropaning Inson huquqlari konvensiyasi hamda BMTning tegishli shartnomalari ichki qonunlarga nisbatan ustuvor hisoblanadi.

Finlyandiyada, agar qonun qo'llanilishi Konstitutsiyaga ochiqdan-ochiq zid bo'lsa, sud ushbu qonunni qo'llamaydi va Konstitutsiyani ustuvor deb biladi. Shveysariyada oliy ma'muriy sud federal yoki xalqaro huquqqa zid bo'lgan kanton qonunlarni qo'llamaydi. Shu tariqa, u kanton qonunlar doirasida Konstitutsiyaga muvofiqlikni tekshiradi, chunki Konstitutsiya va asosiy huquqlar federal darajadagi huquq normalaridir.

Niderlandiyada esa Konstitutsiya barcha sudlarga, jumladan oliy ma'muriy sudga, parlament qonunlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishni taqiqlaydi, chunki parlament suvereniteti ustuvor hisoblanadi. Biroq, parlamentdan tashqari organlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar Konstitutsiyaga va boshqa yuqori darajadagi huquqiy hujjatlarga muvofiqligi jihatidan tekshirilishi mumkin. Shuningdek, parlament qonunlari ham inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar (Jumladan, Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar xartiyasi) bilan mosligi jihatidan baholanishi mumkin.

Alohida Konstitutsiyaviy sud mavjud bo'lgan Belgiya, Bolgariya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Xorvatiya, Vengriya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Latviya, Polsha, Sloveniya, Slovakiyada ko'p hollarda oliy ma'muriy sud qonunning Konstitutsiyaga zidligi masalasini ushbu sudga yuborishi mumkin. Estoniya va Gretsiyada ham shunga o'xshash tartib mavjud. Masala mos ravishda Oliy sudning Konstitutsiyaviy palataga yoki Maxsus Oliy sudga yuborilishi mumkin.

Gretsiyada esa bu masalani avvalo oliy ma'muriy sudning plenumiga havola etish kerak bo'ladi va faqat qonunning mazmuniga doir masalalar ko'rilishi mumkin. Portugaliyada oliy ma'muriy sud agar qonunni Konstitutsiyaga zid deb hisoblasa, o'z tashabbusi bilan ushbu qonunni qo'llamasligi mumkin.

Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Xorvatiya, Vengriya barcha qarorlarga nisbatan emas, Sloveniya, Slovakiyada oliy ma'muriy sud tomonidan chiqarilgan yakuniy qarorlar ustidan Konstitutsiyaviy sudga alohida yoki favqulodda shikoyat usullari belgilangan bo'lib, ular orqali ushbu qarorlarning Konstitutsiyaga mosligi qayta ko'rib chiqiladi. Latviya, Polshada esa fuqaro Konstitutsiyaviy sudga faqat qonunlarning Konstitutsiyaga zidligi yuzasidan shikoyat qilishi mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimiz qonunchiligida ham fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga ko'ra, agar qonun fuqarolar va yuridik shaxslarning fikricha, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq kelmasa hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan bo'lsa va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, ular qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqlidir¹⁴⁰.

Sud hujjatlarini qayta ko'rish institutida sudda vakillik qilish instituti muhim ahamiyatga ega. **Vakolatli vakil orqali qatnashish majburiy bo'lgan mamlakatlarda** taraflar uchun faqat huquqshunos vakillik qila oladi. Ushbu guruhga Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Chexiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Gretsiya, Vengriya, Italiya kabi davlatlar kiradi.

Taraflarga o'zlarini mustaqil ravishda namoyon etishga ruxsat beriladigan Shveysariya, Kipr, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Irlandiya, Litva, Latviya, Niderlandiya, Norvegiya faqat Apellyatsiyani tanlab olish qo'mitasi oldida, Polsha, Shvetsiya kabi mamlakatlarda shaxslar sudda o'zlarini advokatsiz himoya qilishlari mumkin¹⁴¹.

¹⁴⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son; 13.01.2024-y., 03/24/895/0025-son; 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son)

¹⁴¹ <https://expressreportnews.wordpress.com/>

Shimoliy Yevropa va anglosakson huquq an'alariga ega mamlakatlarda vakillik majburiy emas, Janubiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida esa advokat orqali vakillik talab etiladi. Ammo bu ajratish barcha holatlarga to'g'ri kelmaydi.

Advokat orqali vakillik majburiy bo'lmagan Kipr, Estoniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Polsha kabi mamlakatlarda, agar taraf o'z xohishiga ko'ra vakil orqali ish yuritmoqchi bo'lsa, ba'zilar advokatni tayinlashni talab qiladi.

Boshqa mamlakatlarda esa, advokat bo'lmagan shaxslar ham vakillik qilishlari mumkin. Misol uchun, Shveysariya ishonchli shaxslar, kasaba uyushmalari, notijorat tashkilotlar, huquqshunos olimlar, Daniya, Irlandiya huquqshunos olimlar yoki nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, Daniya, Xorvatiya, Polsha oilaviy a'zolarining vakilligiga ruxsat beriladi.

Yana boshqa mamlakatlar, masalan Vengriya, Sloveniya, advokat bo'lishni talab etmasdan, vakilda huquq sohasida ma'lumot bo'lishini talab qiladi.

Advokat orqali vakillik majburiy bo'lgan Germaniya, Polsha, Slovakiya kabi davlatlarda esa kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar yoki huquqshunos olimlar tomonidan ham vakillik qilish mumkin:

Ayrim yurisdiksiyalarda, ishning xususiyatiga qarab advokat orqali vakillik majburiy emas, ya'ni bundan istisnalar mavjud. Masalan, saylov ishlari bo'yicha Fransiya, Italiya va Lyuksemburgda vakillik talab qilinmaydi. Vengriya, Italiya, Sloveniya kabi davlatlar huquqshunoslar yoki advokatlarga o'zlarini mustaqil ravishda namoyon etishga ruxsat beradi. Chexiya, Xorvatiya, Litva, Slovakiyada xodim ish beruvchini vakil qilishi mumkin, biroq, masalan Litvada bu xodim huquqshunos bo'lishi shart¹⁴².

Ayrim xorijiy mamlakatlarda Oliy ma'muriy sud oldida advokat tomonidan vakillik uchun alohida ruxsatnoma talab qilinmaydi. Biroq, ayrim davlatlarda minimal tajriba muddati talab qilinadi. Boshqa Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada esa maxsus ruxsat talab etiladi.

Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Polshada davlat organlari uchun alohida qoidalar qo'llanishi mumkin, xususan ularni davlat xizmatchilari vakil qilishi mumkin. Germaniya,

¹⁴² <https://expressreportnews.wordpress.com/>

Bolgariya, Estoniya, Vengriya, Italiya, Portugaliya, Slovakiyada bu xizmatchilarda to'liq yuridik ma'lumot bo'lishi talab qilinadi¹⁴³.

Boshqa mamlakatlarda esa davlat xizmatchilari muayyan davlat organiga mansub bo'lsa kifoya. Xususan, Kiprda Bosh prokuror idorasi, Ispaniyada Davlat advokatlar korporatsiyasi yoki Avtonomiya hududlarining huquqshunoslari, Gretsiya Davlat huquq maslahatchilik kengashi, Xorvatiya Davlat prokuraturasi. Bu holatlar, har bir mamlakatdagi huquqiy tizimning o'ziga xosligini va ma'muriy sud ish yurituvining xilma-xilligini ko'rsatadi.

Milliy qonunchilikda fuqarolar uchun sudda vakil institutidan foydalanish ixtiyoriy hisoblanadi. Xususan, MSIYtKning 58-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan o'zlari va (yoki) vakillari orqali yuritishga haqlidir¹⁴⁴. Albatta, sudda vakildan foydalanish bu huquq. Lekin, yuqori instansiyalarda mazkur huquq emas, majburiyat bo'lishi lozim.

Germaniya ma'muriy sudlarida birinchi instansiya sudlarida ixtiyoriy bo'lsa, yuqori instansiyalarda majburiy vakillikdan foydalanishi lozim¹⁴⁵. Aynan shunga o'xshash tartib Fransiyada ham mavjud. Xususan, Ma'muriy apellyatsiya sudi va Davlat kengashida (Conseil d'État) fuqarolar advokat yordamida ishtirok etishlari shart¹⁴⁶.

Ko'plab Yevropa davlatlarida vakillik (ayniqsa advokat orqali) majburiy etib belgilanishi huquqiy aniqlik va professional jarayon tamoyiliga asoslanadi. Bu yechim inson huquqlari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (ECHR), xususan, odil sudlov huquqi talablariga muvofiqdir.

Umuman olganda, yuqori instansiyalarda sudda vakillikni, ya'ni fuqarolarning **advokat orqali ishtirok etishini majburiy etib belgilash**, bir qancha muhim huquqiy, protsessual va amaliy maqsadlarga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, *MSIYtKning 58-moddasi ikkinchi qismini quyidagi qo'shimcha bilan to'ldirish taklif etiladi:*

"Fuqarolar o'z ishlarini sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar orqali yuritishga majburdir."

¹⁴³ <https://expressreportnews.wordpress.com/>

¹⁴⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son; 13.01.2024-y., 03/24/895/0025-son; 02.03.2024-y., 03/24/917/0170-son)

¹⁴⁵ https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/_67.html

¹⁴⁶ https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000006507289

Ma'lumki, ma'muriy sud ishlarini yuritishda asosiy ishlar birinchi instansiya sudi sifatida tumanlararo ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu esa yuqori instansiya sifatida o'rta va yuqori bo'g'in sudlari harakat qilishini anglatadi. Shunday holatlar bo'ladiki, bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi birinchi instansiya sudi sifatida ishlarni ko'rib chiqadi. Mazkur holatlarda shikoyat qilish huquqini amalga oshirishning alohida tartibini nazarda tutadi.

MSIYtKning 30-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi birinchi instansiya sudi sifatida:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

2) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi ishlarni ko'rib chiqadi¹⁴⁷

Xorijiy mamlakatlarda ham oliy sud tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqiladigan o'ziga xos toifadagi ishlar mavjud. Fransiya, Gretsiya, Xorvatiya, Vengriya, Litva, Lyuksemburg, Latviya, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Shvetsiya, Sloveniya, Slovakiyada Oliy ma'muriy sudlar ko'pincha birinchi instansiyadagi sud sifatida ham ish yuritadi, biroq bu holat asosan muayyan turdagi ishlarga taalluqli¹⁴⁸.

Avstriya, Shveysariya, Kipr, Daniya, Estoniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Norvegiya, Serbiya kabi davlatlarda esa oliy sudning umuman birinchi instansiyada ish ko'rish vakolati yo'q.

Kipr Oliy Sudi esa 2015-yilga qadar birinchi instansiya sudi sifatida ish yuritgan bo'lib, hozirda faqat ma'muriy huquqi sohasidagi ayrim ishlar bo'yicha (yakka sudya tomonidan birinchi instansiyada va sud hay'ati tomonidan oxirgi instansiyada) ish ko'radi. Shuningdek, huquqiy buyruqlarni chiqarish vakolati ham uning ixtiyorida qolgan.

Estoniya Oliy Sudi tarkibidagi ma'muriy huquq bo'limi birinchi instansiya sudi sifatida ishlar ko'rmaydi, ammo Konstitutsiyaviy nazorat bo'limi Parlament va Prezident qarorlari hamda saylovlar bilan bog'liq nizolar yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqadi bunday ishlar formal jihatdan ma'muriy huquq doirasiga kiradi¹⁴⁹.

¹⁴⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

¹⁴⁸ <https://www.lvlat.lt/en/court-system/competence>

¹⁴⁹ <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/528062017007/consolide>

Italiya Davlat Kengashi esa o'z qarorlarini ijro etish bilan bog'liq ayrim holatlarda, yakka holda birinchi instansiya sudi sifatida ish yuritadi.

Irlandiya Oliy Sudi esa birinchi instansiyada ish ko'rmaydiganligi haqida ikki istisno holatni keltiradi, ular ko'proq konstitutsiyaviy huquq sohasiga taalluqli:

1. Prezident bevosita Oliy sudga murojaat qilib, biror qonun loyihasi Konstitutsiyaga zid ekanini aniqlash talabini qo'yishi mumkin (shunga qarab u imzolash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi).

2. Prezidentning doimiy kasallik tufayli o'z vazifasini bajara olmasligi holati yuzasidan qarorni Oliy sud chiqaradi.

Germaniya, Finlyandiya, Fransiya, Gretsiya, Xorvatiya, Vengriya, Slovakiya Oliy ma'muriy sudlar ayrim huquqiy muammolar yuzasidan birinchi instansiya sudi sifatida faoliyat yuritadi, bu esa qonun bilan aniq belgilangan holatlarda qo'llaniladi.

Eng ko'p uchraydigan nizo turlari quyidagilar hisoblanadi: milliy va Yevropa miqyosidagi saylovlar yoki referendumlar bilan bog'liq nizolar; milliy davlat va o'zini o'zi boshqaruvchi hududlar o'rtasidagi yoki hududlar o'rtasidagi nizolar.

Chexiyada siyosiy partiya yoki harakatni tugatish yoki faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi qarorlarga qarshi da'volar oliy sudda birinchi instansiyada ko'riladi. Germaniyada bu holat Federal ichki ishlar vaziri tomonidan uyushmalarni taqiqlash qarorlariga nisbatan amal qiladi.

Finlyandiya, Fransiya, Bolgariya, Litva, Portugaliya, Ispaniya va Shvetsiyada ayrim ishlar qarori qabul qilgan organga qarab birinchi instansiyada oliy sudga topshiriladi. Portugaliya va Ispaniyada milliy hukumat yoki boshqa konstitutsiyaviy organlar tomonidan qabul qilingan ma'muriy xususiyatdagi qarorlar oliy sudda ko'riladi.

Shvetsiyada hukumatning fuqarolarga ta'sir etuvchi ma'muriy qarorlari, ayrim soliq qarorlari, Finlyandiyada dori-darmon narxlari bo'yicha kengash qarorlari, Finlyandiya hukumati (vazirlar kabineti)ning qarorlari, aloqa regulyator organining ma'lumot uzatish masalalari bo'yicha qarorlari, Litvada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish inspeksiyasi murojaatlari, agar Yevropa Komissiyasi qarorlari shubha ostida bo'lsa oliy sud tomonidan ko'riladi.

Fransiyada Prezident buyruqlariga qarshi da'volar, Prezident farmoni bilan tayinlangan davlat xizmatchilariga nisbatan qo'llangan intizomiy jazo va ishga qabul masalalari ham oliy sudda birinchi instansiyada ko'riladi.

Bolgariyada Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari va vazirlar tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlar doirasida qabul qilingan qarorlar, Oliy sudyalari kengashi va Milliy bank organlari qarorlariga nisbatan da‘volar oliy sudda birinchi instansiyada ko‘riladi.

Gretsiyada Davlat Kengashi barcha ma‘muriy huquq ishlari bo‘yicha umumiy vakolatga ega, ammo qonunchi organ muayyan holatlarda ishlarni boshqa sudlarga yuklatishi mumkin. Biroq ayrim nizolar Konstitutsiyaga ko‘ra faqat Davlat Kengashida ko‘rilishi mumkin, masalan, davlat xizmatchilarining intizomiy jazolarga qarshi shikoyatlari.

Qator a‘zo davlatlardagi Oliy ma‘muriy sudlar birinchi instansiyada normativ hujjatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqish vakolatiga ham ega.

Fransiyada reglament (me‘yoriy) farmonlar, vazirlar yoki boshqa markaziy nazorat va tartibga soluvchi organlarning hujjatlari yuzasidan kelib chiqqan nizolar oliy sudda birinchi instansiya sifatida ko‘riladi.

Litvada davlat boshqaruvi markaziy organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jamiyatlar, siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlar tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterga ega hujjatlar bo‘yicha ishlar oliy sud yurisdiksiyasiga kiradi. Vengriya normativ nazorat (me‘yoriy hujjatlarning qonuniyligini baholash) vakolatiga ega. Bolgariya ikkinchi darajali normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha nizolarni ko‘radi, biroq munitsipalitetlar kengashlari tomonidan qabul qilingan hujjatlar istisno hisoblanadi.

Germaniyada Oliy Ma‘muriy Sud quyidagi ishlarni ham birinchi instansiya tartibida ko‘ra:

maxsus loyihalar yoki rejalashtirish hujjatlari bo‘yicha nizolar (ular belgilangan qonun hujjatlari ilovalarida ro‘yxatlangan bo‘lib, odatda, federal yoki Yevropa darajasida muhim infratuzilma loyihalari hisoblanadi).

chet el fuqarolarini mamlakatdan chiqarib yuborish to‘g‘risidagi muayyan qarorlar bo‘yicha, agar shaxs xavfli deb topilgan bo‘lsa.

Federal razvedka xizmati faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar.

Federal parlament a‘zolari yoki sobiq federal hukumat a‘zolari bilan bog‘liq muayyan ishlar¹⁵⁰.

Bir qator davlatlar huquqiy tizimida Oliy ma‘muriy sud apellyatsiya sudi sifatida (ya‘ni barcha turdagi huquqiy shikoyat

¹⁵⁰ <https://www.bverwg.de/en/rechtsprechung>

vositalarini qamrab olgan holda) quyi instansiya sudlari qarorlarini ham fakt, ham huquq nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqadi. Bunday holat Chexiya, Finlyandiya, Gretsiya, Xorvatiya, Italiya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya va Polshada kuzatiladi.

Biroq aksariyat davlatlarda oliy ma'muriy sud faqat huquq masalalari bo'yicha qarorlarni qayta ko'rib chiqish bilan cheklangan. Bu tartib Avstriya, Bolgariya, Shveysariya, Kipr, Germaniya, Estoniya, Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Latviya, Shvetsiya, Portugaliya va Slovakiyada amal qiladi.

Umuman olganda, ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazorat keng qamrovli munosabat hisoblanib, mazkur masala bo'yicha xorijiy mamlakatlarda turli nuqtayi nazarlar va huquqiy asoslar mavjud.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarining huquqiy tavsifi va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida yoritib berilgan.

Monografiya doirasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari axborot olish huquqlari, izoh berish huquqlari, dalillar bilan ishlash huquqlari, protsessual tashabbus huquqlari va shikoyat qilish huquqlariga tasniflangan holda tahlil qilingan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqlarini tahlili asosida milliy qonunchilikda sud tarkibini bilish huquqi belgilash va milliy qonunchilikda aks etgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmasligiga oid tartibni bekor qilish lozimligi asoslab berilgan.

Shu bilan birga, barcha sudlar uchun ish materiallari bilan tanishishning bir xil qoidalari bo'lishi va ish materiallarining elektron nusxalari bilan onlayn tanishish imkonini kengaytirish zarurligi tahlil qilingan.

O'zbekiston ma'muriy sud ish yuritishi qonunchiligida ma'muriy sud ish yurituvining oqilona muddati prinsipini joriy qilish lozimligi sud amaliyotidagi muammolar va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida asoslab berilgan.

Tadqiqot ishi doirasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari rasmiy (protsessual) majburiyatlar, dalillarni taqdim etish majburiyatlari va axloqiy majburiyatlar kabi turlarga bo'lgan holda tahlil qilingan. Tahlil jarayonida sud amaliyotida muammo bo'layotgan ariza(shikoyat)ga qo'yilgan ayrim talablar bugungi kun talablariga javob bermasligi sababli milliy qonunchilikdan chiqarib tashlash lozimligi asoslab berilgan.

Mazkur bob doirasida ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, bu borda xorijiy davlatlar

tajribasi shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar va faqat shikoyatda ko'rsatgan e'tirozlar doirasida ko'rib chiqiladigan davlatlar bo'lgan holda o'rganib, O'zbekiston yuqoridagi guruhlardan biri bo'lgan shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar qatoriga kirishi asoslab berilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligida yuqori instansiya sudlarida ishni ko'rish doirasining ikki xil tartibi mavjud deb hisoblash mumkinligi asoslab berilgan, xususan 1) huquqiy va faktik, ya'ni sud hujjatlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rilganda birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligi va asosliligini tekshirishi, yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. 2) faqat huquqiy, ya'ni sud ishni taftish tartibida ko'rish chog'ida quyi instansiyalarning sudlari tomonidan moddiy huquq normalari to'g'ri qo'llanilganligini va protsessual qonun talablariga rioya etilganligini ish materiallari bo'yicha tekshiradi. Ya'ni, taftish tartibida ko'rish chog'ida yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi nazarda tutilmagan.

Shu bilan, ushbu bobda fuqarolar o'z ishlarini sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar orqali yuritishga majburligi asoslab berilgan.

III BOB. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA BIR NECHTA ARIZACHI VA JAVOBGARNING ISHTIROK ETISHINING AYRIM PROTSESSUAL JIHATLARI

3.1. Ma'muriy sud ish yurituvda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etish shakllari: jamoaviy shikoyatning o'ziga xosligi

Ma'muriy sud ish yurituvda ishda etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniqlashda ishda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishining protsessual xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasida ma'muriy sudlarga jamoaviy arizalar (class action) berish tartibi va asoslarini belgilash nazarda tutilgan¹⁵¹.

Milliy qonunchilikda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishining barcha shakllari mavjud deb aytish mushkul. Xususan, MSIYtKning 41-moddasiga ko'ra, talab bir nechta arizachi tomonidan birgalikda yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilishi mumkin. Arizachilar va javobgarlarning har biri boshqa tarafga nisbatan sud protsessida mustaqil qatnashadi. Protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni *sherik ishtirokchilardan* biriga topshirishi mumkin¹⁵². Mazkur normadan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy qonunchiligimizda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishining sherik ishtirokchilik shakli mavjud.

Sherik ishtirokchilikning o'ziga xos xususiyatlarini xorijiy olimlardan V. Vey, S. Vot, A. Grinover, Ya. Kaladjich, Per Xenrik Lindblom, Elen van Lit, R. Maleron, E.Silvestri, D.Uoker va boshqalar o'rgangan.

Ta'kidlash lozimki, xorijiy mamlakatlarda ma'muriy sud ish yurituvda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etishining muhim shakli sifatida jamoaviy shikoyatlar ko'rsatib o'tiladi.

Ma'muriy sud ish yuritishda *"jamoaviy shikoyat"* va *"protsessual ishtirokchilik"* kabi tushunchalarni farqlash kerak. Aksariyat ilmiy manbalarda jamoaviy shikoyat deganda bir guruh shaxslar vakilining

¹⁵¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son.

¹⁵² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

sudga murojaat qilishi va ishning bir guruh shaxslar uchun umumiy bo'lgan holatlaridan va amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan moddiy huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish to'g'risidagi talabi tushunilishi mumkin.

Jamoaviy shikoyat instituti Angliyada huquqlarni tan olish to'g'risidagi da'volar ko'rinishida boshlangan¹⁵³. Klassik jamoaviy shikoyat 1938-yilda qabul qilingan AQSH fuqarolik protsessual qoidalariga borib taqaladi. Uning mohiyati shundan iboratki, agar javobgar bir vaqtning o'zida bir qancha arizachilarning huquqlarini buzsa, ulardan biri eng manfaatdor ishtirokchilarni o'z zimmasiga oladi, shikoyat bilan bog'liq barcha xarajatlar sud ushbu shikoyat bo'yicha ish yuritishni qo'zg'atib, guruh ishtirokchilari doirasini aniqlaydi, ma'lum miqdordagi mulkiy kompensatsiya to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi, so'ngra sud xarajatlari chegirib tashlanganidan so'ng, advokatlik to'lovlari summasi guruhning barcha ishtirokchilari o'rtasida ko'rsatilgan da'volar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi¹⁵⁴.

Aksariyat mamlakatlarda ushbu institut ommaviy munosabatlarining turli sohalarida qo'llaniladi. Xususan, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, sog'liqqa ommaviy zarar etkazish, qimmatli qog'ozlar va moliya bozoridagi suiiste'molliklar, monopoliyaga qarshi qonunlarni buzish va boshqalarni kiritish mumkin. Bu institut bilan bog'liq eng mashhur keys Volkswagen (Volkswagen) konserni bilan bog'liq nizoni misol qilib keltirish mumkin¹⁵⁵.

Ko'plab davlatlarda jamoaviy shikoyat institutining joriy etilgani ijobiy omil bo'lmoqda. Roman-german huquqiy tizimiga kiruvchi davlatlarda mazkur institutni rad etish holatlari mavjud. Lekin, mazkur yondashuvga doim ham qo'shilib bo'lmaydi.

Birinchidan, jamoaviy shikoyat instituti yo'qligini kontinental va anglo-sakson huquqi o'rtasidagi o'zaro farqlar deb hisoblash noto'g'ri. Chunki uning AQSHda o'tgan asrning boshlarida paydo bo'lishi mutlaqo subyektiv sabablarga bog'liq, ya'ni anglo-sakson huquqining o'ziga xos xususiyatlari bilan hech qanday bog'liq emas edi.

¹⁵³ Kolesov P. P. Групповые иски в США. М., 2004. С. 8.

¹⁵⁴ Abolonin G. O. Гражданское процессуальное право США. М., 2010. С. 94.

¹⁵⁵ <https://www.sanfordheisler.com/case/discrimination-harassment/volkswagen-ag-age-discrimination-collective-action/>

Ikkinchidan, kontinental Yevropa va Lotin Amerikasidagi ko'plab mamlakatlar o'tgan asrning oxiridan boshlab ushbu institutni ancha muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

Ushbu institutning afzalligi nimada? Jamoaviy shikoyat bir yoki bir nechta shaxslarning (shariklik) emas, balki nomuayyan shaxslarning buzilgan huquqlarini himoya qilishga imkon beradi.

Ayrim manbalarda mazkur institutning salbiy tomoni sifatida sud ishlarini arizachilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida emas, balki advokatlardan pul ishlash vositasi sifatida qaralishi qayd etilgan. Bizningcha mazkur asoslarga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bunday e'tirozlar har qanday institutni joriy qilishda yuzaga kelishi mumkin.

Jahon amaliyotida agar shikoyat qo'zg'atilgan paytda unga kamida yigirma kishi qo'shilgan bo'lsa, shikoyat jamoaviy shikoyat deb hisoblanishi mumkin. Bu shikoyatni jamoaviy shikoyat sifatida tan olish uchun o'ziga xos asosiy to'siq bo'lib, u javobgarga bir nechta talablarni tasdiqlashi kerak. Biroq, bu arizani topshirish vaqtida qo'shilmagan shaxslar guruh a'zolari sifatida tan olinmaydi degani emas. Jamoaga qo'shilish sud muhokamasiga o'tmasdan oldin amalga oshirish mumkin.

Jamoa a'zosi javobgarga o'z shikoyatini tasdiqlash tartibiga ko'ra ikkita model ajratiladi: "kirish imkoniyati" ("opt-in") va "chiqish imkoniyati" ("opt-out")¹⁵⁶. Agar "opt-out" modeli guruh mezonlariga javob beradigan barcha shaxslarning guruh a'zolari sifatida avtomatik tan olinishini nazarda tutsa, u holda "kirish imkoniyati" modeli guruhning potensial a'zolari guruhga qo'shilish istagini ko'rsatishi kerakligini anglatadi.

Ko'plab davlatlarda "opt-in" modeli o'rnatilgan bo'lib, bu huquq tizimida ilgari o'xshashi bo'lmagan tartibni sinovdan o'tkazishda to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Jamoaviy shikoyatga qo'shilish uchun ariza berishning bir necha yo'li mavjud. Birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri sudga. Agar ariza sud shikoyatni qabul qilgunga qadar amalga oshirilgan bo'lsa, ariza shikoyat arizasiga qo'shilish to'g'risidagi arizani ilova qiladigan dastlabki ariza beruvchilardan biriga berilishi mumkin. Qo'shilishning uchinchi varianti – sudning veb-saytida yoki "odil sudlov" davlat avtomatlashtirilgan tizimida maxsus elektron shaklni to'ldirishdir.

¹⁵⁶ Baranov S. Yu. Групповые иски в гражданском и административном судопроизводстве Российской Федерации // Вестник гражданского процесса. 2016. № 1. С. 85.

Klassik shaklda jamoaviy shikoyat nomuayyan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi. Sherik ishtirokchilikdan asosiy farqi nomuayyan ko'p sonli ishtirokchilar bo'lishi hisoblanadi, ammo ularning barchasi birgalikda arizachilar bo'lishi kerak¹⁵⁷.

S.A.Kurochkin fikricha, jamoaviy shikoyatning o'ziga xos xususiyati guruhning har bir a'zosini aniqlashning asosiy talabidir.¹⁵⁸ Biroq, bunday tartibni jamoaviy shikoyat deb atash qiyin. Buni jamoaviy shikoyatdan ko'ra o'ziga xos sheriklik modeli sifatida ta'riflash mumkin. Bunday huquqiy tartibga solish jamoaviy shikoyat uchun protsessual afzalliklarni belgilanmagan. Shuning uchun amalda bunday qoidalarining maqsadga muvofiqligi haqida savol tug'ildi. Nima uchun maxsus tartib kerak, agar u an'anaviy sheriklikdan deyarli farq qilmasa? Bu "jamoaviy shikoyatlar" nomi bilan bunday huquqiy tartibga solish anglo-sakson va romano-german huquqiga ega mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan jamoaviy shikoyat institutini obro'sizlantiradi.

Jamoaviy shikoyat instituti uchta yo'nalishda rivojlanib bormoqda: fuqarolik protsessi, iqtisodiy protsess va ma'muriy sud ish yurituv. Shu munosabat bilan, mazkur huquqiy munosabatlar tahlili yuridik fanda mavjud muammolarning qiyosiy huquqiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

I.N. Lukyanovning fikricha, jamoaviy shikoyatlar institutini rivojlantirish uchun ularning potensial ishtirokchilari bo'yicha kelishuv bitimini tuzish tartibi to'g'risida aniqroq qoidalar kerak¹⁵⁹. Umuman olganda, jamoaviy shikoyatlar modellarining ichki huquqiy an'alarining yo'qligi ham ushbu huquqiy institutlarning rivojlanishiga yordam bermaydi.

M.Z. Shvars jamoaviy shikoyatlarni ko'rib chiqishning maxsus protsessual shaklini kiritishni "qarama-qarshi jarayon" deb hisoblaydi, chunki uning fikricha qonunda jamoaviy shikoyatni hal qilishning ikki shakli ko'zda tutilishi kerak: ixtiyoriy, ya'ni guruh a'zolarining ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi va majburiy, ya'ni jamoa a'zolari o'rtasidagi substantiv munosabatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi¹⁶⁰.

¹⁵⁷ Tumanov D. A. O grupповых isках v Konsepsii yedinogo grajdanskogo protsessualnogo kodeksa RF // Vestnik grajdanskogo protsesssa. 2015. № 4. S. 69.

¹⁵⁸ Reshetnikova I. V. Osobennosti arbitrajnogo proizvodstva / pod red. I. V. Reshetnikovoy. M., 2019. S. 218.

¹⁵⁹ Lukyanova I. N. Kollektivnyy isk kak sredstvo zashchity prav grajdan // Yurist. 2021. № 10.

¹⁶⁰ Shvars M.Z. Ob imperativnom i dispozitivnom v regulirovanii protsessualnykh form zashchity grupповых interesov // Zakon. 2021. № 2. S. 31–33.

G. Ryabchikov ma'muriy sud ish yuritish sohasida jamoaviy ma'muriy shikoyat qo'zg'atilishi javobgarlar uchun ham o'z kuchlarini bir sud jarayonini boshqarishga jamlay oladigan, shuningdek, bir vaqtning o'zida bir nechta shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish zaruratidan xalos bo'lgan, buning uchun cheklangan resurslarni yo'naltirgan sud uchun qulay deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u ma'muriy da'vogarlarining o'ziga kelsak, ko'rib chiqilayotgan hujjat, bir tomondan davlat organi guruhning jamoaviy manfaatlarini hisobga olgan holda qulaydir va fuqarolarning huquq va manfaatlariga ko'proq e'tibor beradi. Ammo, ikkinchi tomondan sud himoyasi oxir-oqibat samarali bo'lishi uchun butun jamoa nomidan ishni olib borayotgan shaxsning ishini to'g'riligi va samaradorligini baholash kerak.¹⁶¹

V.V. Dolganichev Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksida, Fuqarolik protsessual kodeksida va Ma'muriy sud ish yurituv kodeksida mustahkamlangan jamoaviy shikoyatlar modellarini turli mezonlar bo'yicha tasniflaydi: ko'rib chiqilayotgan da'volar bo'yicha ish yuritishni boshlash shartlari, qo'zg'atish bosqichlarining xususiyatlari va ishni sudga tayyorlash¹⁶².

A.B. Zelensov va O.A. Yastrebovlar ma'muriy shikoyatni qo'riqlanadigan manfaatlarining xususiyatiga qarab jamoaviy (guruh) shikoyat bilan bir qatorda boshqa shikoyatlarni, xususan, shaxsiy shikoyatlar, boshqa shaxslarning manfaatlarini himoya qilish va noma'lum miqdordagi shaxslarning manfaatlarini himoya qilish kabilarga ajratib beradilar¹⁶³.

S.V. Moiseyev jamoaviy shikoyatlarni boshqa asoslar bo'yicha tasniflaydi – arizachilar soniga qarab individual va jamoaviy turga bo'linadi¹⁶⁴.

Ko'rinib turibdiki, jamoaviy shikoyatlar masalasi sud protsessida adolatlilik prinsipi bilan bevosita bog'liq bo'lib, S.V. Mishyakovning fikriga ko'ra, ham moddiy, ham protsessual xarakterdagi normalar va qoidalarni ularning ma'nosiga qat'iy muvofiq ravishda talqin qilish va sud tomonidan barcha ishtirokchilarga qonunchilikni teng ravishda qo'llashda ifodalanadi¹⁶⁵.

¹⁶¹ Ryabchikov G. Praktika primeneniya kollektivnykh administrativnykh iskov // Yuridicheskiy spravochnik rukovoditelya. 2021. № 5. S. 38–47.

¹⁶² Dolganichev V. V. Gruppovoy isk: sravnitel'nyy analiz normativnykh konstruksiy APK, GPK, KAS RF // Zakon. 2021. № 2. S. 37.

¹⁶³ Sudebnoye administrativnoye pravo: ucheb. dlya stud. vuzov, obuchayuyushsya po spetsialnosti "Yurisprudensiya" / Ros. un-t drujby narodov, Yurid. in-t. M.: Statut, 2017. S. 439–440.

¹⁶⁴ Administrativnoye sudoproizvodstvo: ucheb. dlya stud. yurid. vuzov, f-tov i yuristov, povыshayushch kvalifikatsiyu / pod red. M. K. Treushnikova. 1-ye izd. M.: Gorodes, 2017. S. 118.

¹⁶⁵ Mishyakov S.V. Protssessualnye aspekty osparivaniya sudebnykh aktov v rossiyskom sivilisticheskoy protsesse // Arbitrajnyy i grajdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 28.

S.A. Burmistrova subyektiv huquqlar va qonuniy manfaatlarni sud orqali himoya qilishning kutilayotgan natijasi haqidagi o'z konsepsiyasini taklif qiladi: "subyektiv huquqlarga nisbatan – shaxsning xatti-harakati tufayli majburiy amalga oshirish; yakuniy manfaatga nisbatan – manfaatdor shaxsning qonuniy xulq-atvori orqali to'sqinliksiz amalga oshirish; oraliq manfaatga nisbatan – manfaatdor shaxsning xatti-harakatlarini to'sqinliksiz amalga oshirish yoki subyektiv huquqqa aylantirish"¹⁶⁶.

S.V. Moiseyev ma'muriy shikoyatni bir shaxsning boshqa shaxsga subyektiv ommaviy huquqini himoya qilish to'g'risidagi, belgilangan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi shart bo'lgan sud orqali yuborilgan moddiy huquqiy talabi deb ta'riflaydi¹⁶⁷.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy shikoyatni tasniflash uchun turli asoslar mavjud. Xususan, arizachilar soniga qarab, individual ma'muriy shikoyat va guruh (jamoat) ma'muriy shikoyat farqlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, huquqiy doktrinasida jamoaviy shikoyatni belgilashda yagona yondashuvga ega emas, balki ommaviy, jamoaviy, qo'shma shikoyat kabi atamalardan foydalanadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, jamoaviy shikoyat bir guruh shaxslar nomidan ko'rib chiqilgan, javobgardan pul summasini undirish to'g'risidagi talabni o'z ichiga olgan va umumiy yuridik faktga yoki buzilgan huquqni tiklash to'g'risidagi umumiy talabga asoslangan holda, jamoaning barcha ishtirokchilarining qonuniy mulkiy manfaatlarini ko'zlab qo'yilgan sudga yozma murojaat deb hisoblanadi¹⁶⁸.

Ma'muriy sud ish yuritish bo'yicha jamoaviy shikoyat ma'muriy huquqning instituti hisoblanadi. Jamoaviy shikoyat fuqarolarning huquqlarini himoya qilish usullaridan biridir. N.A. Sutormin "Xitoyda qo'shma da'volarni ko'rib chiqish tartibi sheriklik institutiga juda yaqin" ekanligini ta'kidlaydi, bu institutga o'xshab, u qo'shma shikoyatning ikki turini ajratadi: majburiy va ixtiyoriy; muhim va oddiy, qo'shma shikoyatlarda kamida ikkita da'vogar yoki sherik javobgarining ishtiroki majburiydir¹⁶⁹.

¹⁶⁶ Burmistrova S. A. Subyektivnye prava i zakonné interesy: kakim doljen byt' rezultat sudebnoy zashchity // Arbitrajnyy i grazhdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 10.

¹⁶⁷ Moiseev S. V. Ponyatiye i elementy administrativnogo iska // Administrativnoye sudoproizvodstvo: ucheb. dlya stud. yurid. vuzov, f-tov i yuristov, povыshayushchix kvalifikatsiyu / pod red. M. K. Treushnikova. 1-ye izd. M.: Gorodes, 2017. S. 113.

¹⁶⁸ Abolonin G. O. Massovyye iski. M.: VoltersKluver, 2011. S. 22.

¹⁶⁹ Sutormin N. A. Kollektivnye iski v Kitaye // Arbitrajnyy i grazhdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 57.

A.B. Stepinning fikriga ko'ra, himoya usullarining o'zaro bog'liqligi nizodan nizosizgacha bo'lgan munosabatlarning rivojlanishiga yordam beradi¹⁷⁰.

Xitoy qonunchiligida jamoaviy shikoyatning uch turi ajratilgan: 1) qo'shma shikoyatlar; 2) vakillik shikoyatlar (ishtirokchilar soni ko'rsatilgan yoki qatnashmagan holda); 3) jamoat manfaatlarini himoya qilish bo'yicha shikoyatlar¹⁷¹.

Buyuk Britaniyada jamoaviy ish yuritishning ikkita asosiy turi mavjud: birinchisi, qo'shma shikoyat, ya'ni shaxslar bir protsessda bitta shikoyatga qo'shiladilar (masalan, ommaviy noqulayliklar, yirik moliyaviy huquqbuzarliklar); ikkinchisi – vakillik protsessi, bunda bir shaxs boshqa shaxslar – guruh a'zolari nomidan jarayonni amalga oshiradi¹⁷². Quyidagi misol orqali ushbu davlatda iqtisodiy nizolarda mazkur institut yuqori darajada qo'llanganligini ko'rish mumkin. Xususan, Buyuk Britaniyada iste'molchilar Master Card to'lov tizimi ustidan jamoaviy da'vo arizasi bunga misol bo'ladi. Arizachilar to'lov tizimidan Yevropa Ittifoqi ichidagi transchegaraviy operatsiyalar bo'yicha yuqori to'lovlar olgani uchun 14 mlrd funt sterling (18,8 mlrd dollar) undirishni talab qilishgan. Raqobatbardoshlik masalalari bo'yicha hakamlik tribunaliga berilgan shikoyat Buyuk Britaniya yurisprudensiyasi tarixidagi eng yirigi hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning sobiq moliyaviy ombudsmeni Uolter Merriksning aytishicha, Master Cardning noqonuniy siyosati natijasi 1992-yildan 2008-yilgacha barcha xaridlar narxining oshishi bo'lgan. Da'vo beruvchilarning manfaatini Quinn Emmanuel Urquhart & Sullivan LLP yuridik kompaniyasi himoya qilgan. Master Carddan undiriluvchi banklararo komissiyalar sababli jiddiy xarajatlarga uchraganlar, bu xarajatlar esa mahsulotlar va xizmatlar narxiga qo'shilgan holda iste'molchilardan undirilgan. 2008-yilda Yevrokomissiya Master Card tomonidan transchegaraviy bitimlarni ishlash uchun banklararo komissiyalarning undirilishi Yevropa Ittifoqining antimonopol qonunchiligini buzishi haqidagi xulosaga kelgandi. 2014-yilda bu qarorni Yevropa sudi qo'llab-quvvatlagan¹⁷³.

¹⁷⁰ Stepin A. B. Problemnye voprosy vosstanovleniya grazhdanskix prav uchastnikov ekonomicheskix otnosheniy // Arbitrajnyy i grazhdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 4.

¹⁷¹ Sutormin N. A. Kollektivnye iski v Kitaye // Arbitrajnyy i grazhdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 57.

¹⁷² Endryus E. Pravovaya sistema bez effektivnyx gruppovykh iskov ushcherbna // Zakon. 2021. № 2. S. 8–9.

¹⁷³ <https://kun.uz/kr/24276680?q=%2F24276680>

Sud amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda fuqarolar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi yuzasidan e'tiroz bildirgan jamoaviy shikoyatlar berilgan. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining normativ xarakterga ega bo'lmagan qarorlari odatda muayyan shaxsning huquq va majburiyatlariga taalluqli bo'lganligi sababli, ularni e'tiroz qilish uchun jamoaviy ma'muriy shikoyatlar qo'zg'atilishi juda murakkab.

Umuman olganda, jamoaviy ma'muriy shikoyatlar fuqarolarning huquqlarini himoya qilish usuli sifatida asosan normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashishda qo'llaniladi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar ushbu shaxslarning qaysi biri sudda ushbu xatti-harakatlarga e'tiroz bildirishga uringanligidan qat'i nazar, noma'lum shaxslar doirasiga nisbatan qo'llanilishi kerak. Ma'muriy shikoyat qanoatlantirilgan taqdirda (arizachilar sonidan qat'i nazar) va sud normativ-huquqiy hujjatni amaldagi qonun hujjatlariga zid deb topsa, uning qoidalari na arizachilarga, na ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari bo'lmagan boshqa shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Bunday arizalar rad etilgan taqdirda, normativ-huquqiy hujjatning qoidalari nafaqat arizachilar, balki tegishli toifadagi barcha shaxslar uchun majburiy bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar dastlab ommaviy xarakterga ega bo'lganligi sababli, bunday ishlar bo'yicha ma'muriy arizachilarning soni amalda ahamiyatli emas. Bunday protsessual ishtirokchilikni to'liq asosli degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Ushbu holatlar jamoaviy ma'muriy da'volarning muvaffaqiyati bo'yicha juda past statistik ma'lumotlar bilan birga fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning ushbu usulini hozirgi vaqtda samarasiz, deb hisoblash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jamoaviy ma'muriy shikoyat tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berish mumkin:

"Jamoaviy ma'muriy shikoyat – ma'muriy yoki boshqa ommaviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar va yuridik shaxslar nomuayyan shaxslar manfaatini ko'zlab, yagona nizo predmeti va asos doirasida yagona javobgarga qaratilgan sudga qilingan shikoyatdir."

Jamoaviy shikoyat qiluvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid arizasi uchun maxsus shartlar nazarda tutilgan.

Birinchi navbatda, bir guruh shaxslarning qanday huquqlari sud tomonidan himoya qilinishi;

Ikkinchidan, subyektlarni huquqlari buzilgan shaxslarning ma'lum bir guruhiga tasniflash mezonlari, ya'ni bu guruhning xususiyatlari;

Uchinchidan, shikoyat arizasi berilgan vaqtda arizaga qo'shilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak. Jumladan, shikoyat arizasiga qo'shilganligini, shuningdek, ayrim shaxslarning guruhga a'ziligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Guruh a'zosi bo'lmagan shaxslar uchun shikoyat arizasining mazmuniga alohida talablar qo'yiladi.

Shikoyat arizasida jamoa nomidan sudda ishni yuritish vakolatiga ega bo'lgan shaxs ham ko'rsatiladi. Ushbu shaxs sudda bir guruh shaxslarning manfaatlarini ishonchnomasiz himoya qiladi va arizachining barcha huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Jamoaning boshqa a'zolari vakilga nisbatan cheklangan huquqlarga ega, protsessning faol ishtirokchisi emas, faqat ish materiallari bilan tanishish, sud majlisida qatnashish va hokazo. Biroq, ular moddiy manfaatdor bo'lganligi sababli ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Protsessual manfaatlarga kelsak, ular buni mustaqil ravishda to'liq amalga oshira olmaydilar, chunki ular bir qator huquqlarini vakilga o'tkazadilar. Shuning uchun guruh a'zolari ishda ishtirok etuvchi maxsus shaxslar sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Jamoaviy shaxslar va ularning vakili o'rtasidagi munosabatlar notarial shaklda tuzilgan shartnomaga asoslanadi. Shartnoma sud xarajatlarini qoplash tartibini belgilaydi. Bunday shartnomani o'zgartirish va bekor qilish faqat jamoa ishini ko'rib chiqadigan sud tomonidan mumkin. Vakilning vakolatlari, agar u kasal bo'lganligi, uzoq vaqt ishda bo'lmaganligi yoki ishni vijdonan va jamoa manfaatlarini ko'zlab olib borishiga asosli shubhalari tufayli ishni olib borishga qodir emasligi aniqlansa, jamoa a'zolarining ko'pchiligining iltimosiga binoan tugatilishi mumkin. Vakilni almashtirish jamoa a'zolarining ko'pchiligining iltimosiga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi, bu yangi shaxsning nomzodini ko'rsatadi.

Jamoaviy shikoyatlarda a'zolardan biri shikoyatga qo'shilish to'g'risidagi arizasini qaytarib olishga haqli. Umumjamoaviy shikoyatga qarshi chiqqanlar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar sifatida ishda ishtirok etishlari mumkin. Xuddi shu shikoyat bo'yicha va o'sha javobgarga nisbatan jamoaviy shikoyat mavjud bo'lganda mustaqil shikoyat qo'zg'atilganda, sud uni ko'rib chiqishni jamoaviy shikoyat bo'yicha hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar to'xtatib turadi.

Xorijiy davlatlarda sud jamoaviy shikoyatni belgilangan mezonlarga mos kelishini aniqlash uchun dastlabki sud majlisini o'tkazadi. Javobgar boshqa sudlarda xuddi shu mavzudagi ishlar mavjudligi to'g'risida sudga xabar berishga majburdir. Qarorning xulosa qismida guruhning har bir a'zosiga tegishli xulosalar bo'lishi kerak.

Anglo-sakson huquqiy tizimi mamlakatlarida jamoaviy shikoyat instituti keng tarqalgan va rivojlangan. Bugungi kunda mazkur institut boshqa mamlakat huquq tizimiga ham kirib kelmoqda. Ushbu institut dastlab fuqarolik va iqtisodiy protsessual huquqiy munosabatlarda joriy qilinib, keyinchalik ma'muriy sud ish yurituvida tatbiq etildi.

Mazkur institutni joriy qilgan davlatlarda qaysi holatlarda jamoaviy shikoyat qilish mumkinligini belgilab o'tilgan. Xususan, Rossiya ma'muriy sud ish yurituv qonunchiligiga ko'ra, quyidagi ishlar doirasida jamoaviy shikoyat qilish mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risida;
- saylov natijalarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida;
- deputatlikka nomzodni ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorni bekor qilish to'g'risida;
- munitsipalitet vakillik organining munitsipalitet rahbari lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha tanlov tayinlash to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb e'lon qilish to'g'risida;
- munitsipalitet vakillik organi deputatlarining noqonuniy harakatsizligini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining binolarni yashash uchun yaroqsiz, uyni favqulodda va buzilishi kerak deb tan olish to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb tan olish to'g'risida;
- idoralararo komissiyaning binolarning (ko'p qavatli uylarning) belgilangan talablarga muvofiqligini baholash to'g'risidagi noqonuniy xulosasini tan olish;
- mahalliy davlat hokimiyati organining bir qator ko'p qavatli uylarga nisbatan kapital ta'mirlash fondini shakllantirish to'g'risidagi noqonuniy qarorini tan olish;
- davlat uy-joy nazoratini amalga oshiruvchi organning noqonuniy harakatsizligini tan olish to'g'risida;
- ko'p qavatli uyning umumiy qurilishida ishtirok etayotgan fuqarolarga ma'lumot bermaganlikda ifodalangan davlat qurilish nazoratini amalga oshiruvchi organning noqonuniy harakatsizligini tan olish to'g'risida;
- jamoatchilik eshituvi natijalarini bekor qilish to'g'risida;

- ko'chmas mulkni qurish uchun noqonuniy ruxsatnomalarni tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining qurilish uchun yer berish to'g'risidagi noqonuniy qarorini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining davlat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini tortib olish to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb topish to'g'risida;
- obyektni aniqlangan madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarorni rad etish;
- soliq organining tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb tan olish;
- soliq organining tashkilot faoliyatini tugatish bo'yicha noqonuniy harakatlarini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turini o'zgartirish to'g'risidagi noqonuniy qarorlarini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining hududni o'rganish loyihasini tasdiqlashni rad etish to'g'risidagi noqonuniy qarorini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining noqonuniy harakatsizligini tan olish to'g'risida, umumiy rejaga o'zgartirishlar kiritish, yerdan foydalanish qoidalari va munitsipalitetni rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qilmaslik to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining munitsipalitetning bosh rejasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi noqonuniy qarorini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining yer uchastkasining shaharsozlik rejasini tasdiqlash to'g'risidagi noqonuniy qarorini tan olish to'g'risida;
- mahalliy davlat hokimiyati organining yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanish turini o'zgartirishni rad etish to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb topish to'g'risida;
- munitsipalitet vakillik organining munitsipal ta'lim muassasalarini qayta tashkil etish to'g'risidagi qarorini noqonuniy deb topish to'g'risida;
- mahalliy hokimiyatlarning yo'l harakati amalga oshirilishini ta'minlamaganlikda ifodalangan harakatsizligini noqonuniy deb tan olish to'g'risida;

– tegishli organning rasmiy veb-saytida internetda tavsiyalarni joylashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organining xatti-harakatlarini noqonuniy deb tan olish to‘g‘risida;

– xususiylashtirilgandan keyin unitar korxonaning uy-joy fondini kommunal mulkka o‘tkazish bo‘yicha vazirlikning harakatsizligini noqonuniy deb topish to‘g‘risida;

– mahalliy davlat hokimiyati organining yer uchastkalarining pochta manzillarini bekor qilish to‘g‘risidagi noqonuniy qarorini tan olish to‘g‘risida¹⁷⁴.

Ommaviy-huquqiy munosabatlarda jamoaviy shikoyat instituti rivojlanishi XXI asrda eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Zamonaviy dunyoda nafaqat buzilgan “an’anaviy” huquqlar (korporativ huquqlar, tovarlar iste’molchilarining huquqlari), balki “yangi” huquqlar (qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqi, shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligi huquqi) yuzaga keldi¹⁷⁵. Bu boradagi yorqin misol sifatida Feysbuk (Facebook) ijtimoiy tarmog‘i foydalanuvchilari ishini misol keltirish mumkin. Shu munosabat bilan, aynan jamoaviy manfaatlarni himoya qilish, shuningdek, bir guruh shaxslarining aniq tarafdorlarining huquqlari ustuvorligi kun tartibiga chiqdi.

Aksariyat Yevropa mamlakatlarida jamoaviy shikoyatlardan foydalanish turli xil cheklovlarga ega. Misol uchun, Germaniyada jamoaviy shikoyatlar faqat qimmatli qog‘ozlar bozoridagi nizolar bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda va 2018-yildan boshlab iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida ham qo‘llanishi mumkin. Boshqa sohalarda undan foydalanish mumkin emas. Fransiyada faqat tashkiliy jamoaviy shikoyatlarga ruxsat beriladi, lekin jamoatchilik bilan aloqalarning barcha sohalarida emas.

Rossiyada jamoaviy shikoyatni qo‘llash doirasi bo‘yicha hech qanday cheklovlar yo‘q. Rossiya Ma’muriy sud ish yurituv kodeksning 42-moddasiga ko‘ra, ma’muriy yoki boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lgan fuqarolarning, shuningdek boshqa shaxslarning bir guruh shaxslarning buzilgan yoki bahsli huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga jamoaviy da’vo bilan murojaat qilish huquqiga ega¹⁷⁶. Jamoaviy shikoyatni atrof-muhitni

¹⁷⁴ "Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii" ot 08.03.2015 N 21-FZ (red. ot 28.12.2024) // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/

¹⁷⁵ Cappelletti M. The Judicial Process in Comparative Perspective. Oxford, 1989. 456 p.

¹⁷⁶ "Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii" ot 08.03.2015 N 21-FZ (red. ot 28.12.2024) // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/

muhofaza qilish va iste'molchilar huquqlaridan tortib, qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlari va huquqlarini himoya qilishgacha bo'lgan har qanday sohada qo'llash mumkin.

Rossiyada jamoaviy shikoyatlarning xususiy, davlat va tashkiliy kabi turlari mavjud bo'lib, 2019-yilda joriy etilgan mazkur institutni Yevropadan farqli ravishda uning radikal modeli sifatida tavsiflash mumkin. Bu davlatning ijtimoiy majburiyatlari nafaqat moddiy, balki protsessual huquq sohasida ham e'tirof etilgan sovet davridagi davlatning umumiy paternalistik yondashuvi bilan bog'liq¹⁷⁷.

Jamoaviy shikoyat instituti ushbu turdagi fuqarolik jarayonining paradigmasi uchun idealdir. Endilikda nafaqat prokuror yoki davlat organi, balki fuqarolik protsessida faol ishtirok etayotgan istalgan arizachi ham aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish uchun sudga da'vo bilan murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Demak, jamoaviy shikoyat institutini ijtimoiy davlatning kafolati deb hisoblash mumkin.

Jamoaviy shikoyat qilish huquqlarni himoya qilishning eng samarali vositasiga aylanishi mumkin bo'lgan bir nechta misollarni keltirish mumkin.

Birinchidan, aholiga xizmat ko'rsatuvchi monopolistik tashkilotlarning noqonuniy harakatlari misol bo'la oladi. Bunday vaziyatda jamoaviy shikoyat prokurorning bir guruh shaxslarni himoya qilish haqidagi shikoyati va sheriklik institutidan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Ikkinchidan, anglo-sakson mamlakatlarida jamoaviy shikoyat qilinishi ehtimoli yuqori bo'lgan sohalar mavjud. Jumladan, qurilish, atrof-muhit va avtomobil sanoati. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda qurilish qoidalarini va standartlarini buzish juda keng tarqalgan hodisadir. Ular turar-joy binolari va yo'llar, suv ta'minoti tizimlari, kanalizatsiya, kommunikatsiyalar va jamoat infratuzilmasining boshqa tarkibiy qismlarini qurishda ruxsat etiladi. So'nggi paytlarda shahar va sanoat infratuzilmasining eskirishi natijasida texnogen halokat holatlari tez-tez ro'y bermoqda. Bularning barchasi jamoaviy shikoyatlar uchun potensial sohalardir. Jamoaviy shikoyatni qo'llash ushbu sohalarda sifat jihatidan yaxshilanishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va mamlakatning jadal iqtisodiy rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, Rossiyada yuzaga kelgan bir iqtisodiy sud

¹⁷⁷ Strelsova Ye. G. Privatizatsiya pravosudiya. M., 2019. S. 17–18.

amaliyotiga e'tibor qaratish mumkin. Rossiyada qonunchilikdagi o'zgarishlar kuchga kirganidan keyin birinchi oyda dastlabki jamoaviy shikoyatlar qo'zg'atildi. Yigirma to'qqiz kishidan iborat guruh tomonidan kosmetika ishlab chiqaruvchisiga nisbatan sog'lig'iga yetkazilgan zararni 3 million rubl miqdorida qoplash to'g'risida da'vo qo'zg'atgan. Ushbu faktlar Rossiyada jamoaviy shikoyatga talab yuqoriligini ko'rsatadi.

Umuman olganda jamoaviy shikoyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shu jihatdan mazkur institutni bir nechta arizachi va javobgarining ishtirok etishning boshqa shakllaridan farqlash mumkin bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, *jamoaviy ma'muriy shikoyatning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:*

- 1) *shikoyat qiluvchi shaxslar doirasining noaniqligi;*
- 2) *nizo predmeti va asoslarining bir xilligi*
- 3) *umumiy javobgar mavjudligi;*
- 4) *jamoaning barcha a'zolari o'z huquqlarini himoya qilishning bir xil usulidan foydalanishi.*

Umuman olganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda jamoaviy shikoyat instituti ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomi bilan uzviy bog'liq institut hisoblanadi. Amaldagi mavjud tartibotdan tubdan farq qiladi.

3.2. Ma'muriy sud ish yurituvda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilish muammolari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasiga ko'ra, har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega¹⁷⁸. Mazkur normadan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, har kim o'zi yoki boshqalar birgalikda murojaat qilish huquqiy kafolatlanadi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz davlat organlariga jamoaviy shikoyat qilish mumkinligini inkor etmaydi. Lekin, jamoaviy shikoyat institutini qo'llash uchun aniq mexanizmlar kerak bo'ladi.

¹⁷⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Biz mazkur paragrafda jamoaviy shikoyatni joriy qilgan davlatlarning huquqni qo'llash amaliyotida kelib chiqqan ushbu institutni joriy qilish muammolarini tahlil qilamiz.

Jamoaviy shikoyatni joriy qilgan mamlakatlarda eng keng ko'p kuzatilgan muammo bu jamoaviy shikoyat beruvchi shaxslarning maqomi hisoblanadi. Ba'zi hollarda sud hujjatlari shuni ko'rsatadiki, jamoa a'zosi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lsa, guruh manfaatlarini ko'zlab ma'muriy ish yuritish huquqiga ega. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 5-bob normalari ma'nosida ushbu guruh manfaatlar uchun ma'muriy ish yuritish topshirilgan shaxslar guruhining a'zosi sud ishlarida ishonchnomasiz harakat qiladi¹⁷⁹. Bunday shaxsning o'zi ommaviy-huquqiy nizoning predmeti bo'lganligi, qoida tariqasida, sudda ma'muriy ishni shaxsan o'zi olib borishi mumkinligi sababli, u boshqa sheriklar tomonidan ishni sudda olib borish uchun tayinlangan sherik singari qonun tomonidan vakillarga qo'yiladigan maxsus talablarga bo'ysunmaydi.

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 27-sentyabrdagi Qarorining 16-bandida "Rossiya Federatsiyasi ma'muriy-protsessual kodeksining sudlari tomonidan qo'llanilishining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida mazkur masalaga ayrim aniqliklar kiritildi. Unga ko'ra, jamoat manfaatlarini ko'zlab ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxs bu guruh qismi talablariga javob berishi lozim va sudga jamoaviy ma'muriy shikoyat bilan murojaat qilgan shaxslar arizachining protsessual huquqlaridan foydalanadilar. Bunday shaxslar ishni ko'rib chiqishda haqiqiy ishtirok etishlari sharti bilan ko'rsatilgan arizalarni qanoatlantirish to'g'risida qaror qabul qilingan holda, ular tomonidan qilingan sud xarajatlari uchun kompensatsiya olish huquqiga ega. O'z navbatida, ushbu shaxslardan tegishli talablarni qondirish rad etilgan taqdirda sud xarajatlari undiriladi. Jamoaviy ma'muriy shikoyat buzilgan yoki bahsli huquqlar va qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun berilgan shaxslar guruhiga a'zo bo'lgan shaxslar ma'muriy ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish va ularning nusxalarini olish huquqiga ega¹⁸⁰.

¹⁷⁹ "Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii" ot 08.03.2015 N 21-FZ (red. ot 28.12.2024) // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/

¹⁸⁰ Postanovleniye Plenuma Verxovnogo Suda RF ot 27.09.2016 N 36 (red. ot 17.12.2024) "O nekotorykh voprosax primeneniya sudami Kodeksa administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii" // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_205136/

Shu bilan birga, jamoaviy ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lgan vakillarning xizmatlari uchun haq to'lash xarajatlari tegishli ishni ko'rib chiqishda ishtirok etgan va tegishli xarajatlarni hujjatlashtirgan ma'muriy ishni ko'rib chiqishning bir qismi sifatida jamoaviy ma'muriy shikoyat bilan murojaat qilgan shaxslarning har biri foydasiga sud qarori bilan undiriladi.

Jamoaviy shikoyat institutini joriy qilgan mamlakatlardagi yana bir muammo sudga shikoyat qilgan shaxslar soni kam bo'lsa, sudlar qanday yo'l tutishi bilan bog'liq. Jumladan, agar jamoaning bir yoki bir nechta a'zolari tomonidan ma'muriy shikoyat rad etilgandan so'ng, sudga berilgan shikoyatga qo'shilgan yigirmadan kam shaxs bo'lsa, sud tomonidan qanday protsessual harakatlar amalga oshirilishi kerakligi haqida savol tug'iladi. Jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasi berish va uni sud tomonidan ko'rib chiqish shartlaridan biri potensial jamoa a'zolarining shikoyatlarini yakka tartibda va sheriklar bilan birgalikda topshirish tartibida hal qilish bu bir guruh shaxslarning ko'pligi yoki uning a'zolari sonining noaniqligi bo'lib, uni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib ta'kidlash lozimki, agar jamoaviy shikoyat beruvchilar yigirma kishidan iborat bo'lsa, bir guruh shaxslar ko'p deb hisoblanadi. Agar sud ariza mazkur talabga javob bermasi ariza ko'rmasdan qoldiriladi va arizani topshirgan yoki ko'rsatilgan tashkilotga bir guruh shaxslar talablari bo'yicha shikoyat ma'muriy bayonot bilan sudga individual shikoyat qilish va bunday harakatlar protsessual oqibatlari to'g'risida tushuntirish beradi.

Aynan mazkur ko'rinishdagi fikrni O. Abolonin ham qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, agar guruhning bir yoki bir nechta a'zolari tomonidan ma'muriy shikoyat rad etilgandan so'ng, sudga berilgan shikoyatga qo'shilgan yigirmadan kam odam qolsa, sud ushbu protsessual harakatning belgilangan oqibatlari va ushbu protsessual harakatning huquqlarini tushuntirib, jamoaviy ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqmasdan qoldirishi lozim¹⁸¹.

Jamoa manfaatlarini ko'zlab ma'muriy ish yuritishda qatnashayotgan shaxs ishni mustaqil ravishda vakilga ishonib topshirish huquqiga egami yoki yo'qligi bilan bog'liq muammo ham dolzarbdir.

Ayrim davlatlarning ma'muriy sud ish yurituvu qonunchiligida jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasida jamoa manfaati uchun tegishli

¹⁸¹ Abolonin G.O. Prakticheskoye primeneniye gruppovyx iskov v nekotorykh stranax mira / G.O. Abolonin // Vestnik grazhdanskogo protsessa. 2015. N 4. S. 207 – 260.

ma'muriy ishni yuritishda qatnashayotgan shaxs yoki bir nechta shaxslar ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga, bunday shaxs yoki shaxslar ishonchnomasiz harakat qiladi, ma'muriy shikoyatlarning huquqlaridan foydalanadi va protsessual majburiyatlarini bajaradi. Demak, jamoat manfaati uchun ma'muriy ish yuritishda ayblangan shaxs, shaxsan unga ishni jamoat manfaatlari uchun olib borish uchun berilgan topshiriq asosida maxsus protsessual va huquqiy maqomga ega deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, bunday shaxs jarayonda ishonchnomasiz harakat qiladi. Binobarin, ular sudda ma'muriy ishni boshqarishni boshqa shaxsga mustaqil ravishda topshirish huquqiga ega emaslar.

Har qanday huquqiy institutni qo'llash amaliyotining o'ziga xos muammolari va qiyinchiliklari bor. Bizning fikrimizcha, jamoaviy shikoyatlarni qo'llash bo'yicha xorijiy sud amaliyotini tahlil qilish mazkur institutni samarali qo'llanishida muhim ahamiyatga ega. Quyidagi iqtisodiy nizo global miqyosda katta qiziqish uyg'otdi.

AQSH sudiga Janubiy Koreyaning Samsung kompaniyasi ustidan jamoaviy shikoyat arizasi kelib tushdi, bunga kompaniyaning Galaxy Note 7 smartfonlari sabab bo'ldi. Shikoyat arizasi Nyu-Jersi federal sudiga kelib tushgan. Unda smartfonlarning "muammoli" qaytarilishi amerikalik xaridorlarga millionlab dollarga tushgani ta'kidlangan. Mijozlar Samsung maslahatiga amal qilib, Galaxy Note 7 smartfonlaridan foydalanishni to'xtatishgan, biroq ma'lum bo'lishicha, kompaniyaning bu qurilmalarni almashtirib berishga munosib smartfonlari bo'lmagan. Hujjatda qayd qilinishicha, xaridorlarga bir necha kun va hattoki hafta kutishga to'g'ri kelishi aytilgan. Arizada Samsung tomonidan taklif etilgan kredit borasida hech narsa deyilmagan. Samsung Electronics America matbuot kotibi bunga izoh berishdan bosh tortdi¹⁸².

Jamoaviy shikoyat doirasida sud tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijro etishning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga solish eng munozarali masala hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bu toifadagi ishlarni ijro etish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Agar shikoyat qanoatlantirilsa, savollar tug'iladi: ijro protsessida guruhning vakili kim hisoblanadi? Arizachi faqat vakilmi yoki sinfning barcha a'zolarimi?

Jamoaviy shikoyatga qo'shilish sud muhokamasi boshlanishidan oldin yo'l qo'yilishi va qarorning qaror qismida barcha guruh a'zolarining shikoyatlari bo'yicha xulosalar ko'rsatilishi kerakligini

¹⁸² <https://www.wsj.com/articles/BL-LB-54664>

hisobga olib, guruhga qo'shilgan barcha shaxslar ijro protsessida kreditor sifatida e'tirof etilishi lozim. Mohiyatan jamoa ishining o'ziga xos xususiyatlari ijro protsessi sohasiga taalluqli emas. Sud qarorda ko'rsatilgan guruh a'zolarining har biriga ijro varaqalari berishi shart. Ijro varaqasini olgach, uni sud ijrochisi xizmatiga taqdim etadilar. Shunday ekan, ijro varaqasini ijroga taqdim etgan guruhning barcha a'zolari ijro protsessida arizachi sifatida ko'rilishi kerak.

Ikkinchi variant – jamoa a'zolarining ijro protsessida vakolatlarini vakilga o'tkazish masalalarini ular o'rtasida tuzilgan shartnoma orqali hal qilishga harakat qilish. Ammo bunday yondashuv munozarali, chunki u ijro protsessida bunday "yagona" arizachining huquqiy maqomini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. "Yagona" arizachining huquqiy asosi qonunda vakil to'g'risidagi qoidalarga o'xshash maxsus qoida bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ixtiyoriy ravishda bajarishdan bosh tortgan taqdirda, ijro yig'imlarini undirish haqida savol tug'iladi. Bu o'rinda umumiy yondashuvni qo'llash mumkin, lekin agar ijro protsessida jamoa nomidan bitta vakil emas, balki ko'plab kreditorlar bo'lsa, buni amalga oshirish deyarli mumkin emas. Shuning uchun vakilga sud muhokamasida bo'lganiga o'xshash ijro protsessida tegishli vakolatlarni berishi kerak. Aks holda, bitta ijro protsessida kreditorlarning katta guruhining ishtirok etishi sud ijrochisi ishini imkonsiz qilishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining normativ tuzilmalarini tahlil qilib, V.V. Dolganichev quyidagi xulosalarga keladi.

1) birinchi navbatda jamoaviy shikoyat qo'zg'atish uchun "amalda" bir xil shartlarni belgilashda o'z ifodasini topgan ushbu kodekslar qoidalarining umumiy mohiyati to'g'risida; ikkinchidan, ularda jamoaga qo'shilmagan a'zoning individual harakatidan jamoaviy shikoyatning ustuvorligini belgilash;

2) Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksi va Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksidan farqli o'laroq, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi qoidalarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha: birinchidan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksida sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi ishlarni tartibga soluvchi qoidalar mavjud emas; ikkinchidan, dastlabki eshituv doirasida o'tkaziladigan jamoani aniqlash tartibi rasmiylashtirilmagan; uchinchidan, jamoaviy shikoyatni ko'rib chiqish muddati belgilanmagan.

Sud amaliyoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida ayrim sud amaliyotlarini tahlil qilib chiqsak.

1-misol. Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi qarori bilan 2021-yil 5-iyuldagi Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maxsus dasturlar bosh boshqarmasining 2020-yil 3-fevraldagi Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maxsus dasturlar Bosh boshqarmasi tasarrufidagi yopiq harbiy lagerlardan ko'chirilishi kerak bo'lgan Rossiya Federatsiyasi fuqarolarini ro'yxatdan o'tkazish va ularni ijtimoiy ijara shartnomasi yoki mulk huquqi bo'yicha uy-joy bilan ta'minlash tartibini belgilash to'g'risida buyrug'ini bekor qilish uchun yopiq harbiy lagerda yashovchi yigirmadan ortiq kishidan iborat guruh tomonidan berilgan jamoaviy ma'muriy shikoyatni rad etdi.

2-misol. Rossiya Federatsiyasi Oliy Sudiga sanitariya-epidemiologiya bosh Davlat sanitariya vrachining 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yangi koronavirus infeksiyasining oldini olish (COVID-19) qoidalarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida jamoaviy ma'muriy shikoyat bilan murojaat qildi. Jumladan, arizachi S.Yu. sanitariya qoidalarini barcha shaxslar tomonidan tibbiy niqob va qo'lqoplardan foydalanishni nazarda tutuvchi qismini o'z kuchini yo'qotgan deb topishni so'ragan. Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektlarining ijro etuvchi hokimiyat organlari yuqori ogohlantirish rejimi joriy etilganda fuqarolar va tashkilotlar uchun majburiy xulq-atvor qoidalarini belgilash orqali Sanitariya qoidalarining bahsli bandida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining 2021-yil 1-apreldagi qarori bilan jamoaviy ma'muriy shikoyat qanoatlantirib, Rossiya Federatsiyasi Bosh davlat sanitariya vrachining buyrug'i bilan tasdiqlangan sanitariya-epidemiologiya qoidalarining 4.4-bandini qisman o'z kuchini yo'qotgan deb topdi.

E.V. Kudryavseva va I.O. Vtorushin jamoaviy shikoyatni tartibga soluvchi xorijiy qonun hujjatlarini tahlil qilib, ushbu institutni rivojlantirishning ikkita asosiy yo'nalishini aniqlaydilar: 1) raqamlashtirish; 2) ushbu institut mavjud bo'lmagan mamlakatlarda foydalanish.

Ma'muriy sud ish yuritishda jamoaviy shikoyat institutining shakllanishiga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash kerak: raqamli texnologiyalar, mahalliy sud amaliyoti, xorijiy amaliyot va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari.

Mazkur institut faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

birinchidan, fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini amalga oshirishda mazkur institut mexanizmidan samarali foydalanish aholining huquqiy madaniyatining yuqori emasligi;

ikkinchidan, o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida jamoaviy shikoyat bilan murojaat qilgan fuqarolarning davlat va sud tizimiga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqaradigan salbiy sud amaliyoti.

Umuman olganda, tadqiqot ishi doirasida tahlil qilish natijasida xorijiy mamlakatlarda ma'muriy shikoyat institutini joriy qilish bilan bog'liq muammolari juda ko'p. Bugungi kunda ma'muriy shikoyat institutini joriy qilgan davlatlarda mazkur institutni rivojlantirish bo'yicha quyidagi masalalarni rivojlantirish tendensiyalari kuzatilmoqda:

jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilish uchun arizaning mazmuni;

ma'muriy ish qo'zg'atilgandan keyin jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilgan shaxslarning oqibatlari;

jamoaviy ma'muriy shikoyatlar bo'yicha ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning maxsus muddatlari;

bir guruh shaxslar manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi shaxsni almashtirish (vakolatlarini tugatish) masalasi;

guruh a'zolarini shaxslar guruhidan chiqarish masalasi;

jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlari mazmuniga qo'yiladigan maxsus talablar;

bir guruh shaxslarga sud hujjatlari nusxalarini xabardor qilish va (yoki) yuborishning maxsus tartibi;

jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlariga shikoyat qilishning maxsus tartibi.

3.3. Ma'muriy sud ish yurituvda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishning asosiy mezonlari

Yuqoridagi paragraflarda tahlil qilinganidek bir guruh shaxslarning huquqlarini himoya qilishning eng samarali usuli sifatida jamoaviy shikoyat berish hisoblanadi. Mazkur institut Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Braziliya, Argentina va boshqa mamlakatlarda keng joriy qilindi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur institutning har qanday mamlakatda o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Uning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirishga va tegishli modellarni yaratishga imkon beradigan bir qator mezonlar mavjud.

Bir guruh shaxslarni himoya qilishning muayyan modelining asosiy xususiyatlari sezilarli darajada farq qiladi, bu muayyan mamlakatlarning huquqiy tizimi va madaniyatining rivojlanish tarixidagi siyosiy qarashlarni aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda to'rtta asosiy mezon mavjud bo'lib, ular bo'yicha mazkur institutning mavjud modellarini taqqoslash mumkin: jamoaviy murojaat qilishning doirasi, sudga murojaat qiluvchi subyekt, jamoaviy murojaatni shakllantirish tartibi va ma'lum bir vositani himoya usuli sifatida ishlatish qobiliyati¹⁸³. Bizningcha mazkur mezonlar to'g'ri tasniflangan deyish mumkin. Shu bois, tadqiqot ishining mazkur qismida ushbu mezonlar asosida tahlil qilib chiqamiz.

Birinchi mezon bo'yicha har bir davlat o'ziga xos yo'lni tanlagan. Misol uchun, Fransiyada iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, mehnat huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va monopoliyaga qarshi kurashish bilan bog'liq nizolar bo'yicha shikoyat qilish mumkin.

Germaniyada jamoaviy shikoyatlar instituti faqat qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish uchun ishlatiladi.

Ispaniya, Shvetsiya, Belgiya, Braziliyada iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va monopoliyaga qarshi to'g'risidagi nizolar bo'yicha jamoaviy shikoyat qilish mumkin.

2013-yil 11-iyundagi "Yevropa Ittifoqi kafolatlangan huquq va erkinliklarini buzgan taqdirda himoya qilish va zararni qoplash uchun da'vo qo'zg'atish orqali jamoaviy himoya qilishning umumiy tamoyillari to'g'risida"gi Yevropa komissiyasining tavsiyalariga muvofiq, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bog'liq nizolarni hal qilish mazkur institutni qo'llash mumkinligi nazarda tutilgan. Aynan shunday tartib Italiya va Niderlandiyada ham mavjud.

¹⁸³ Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally, *Kansas Law Review*, 2017, vol. 65, pp. 965–988.

Ikkinchi mezonga ko'ra, jamoaviy shikoyatlarni kimlar berishi mumkin degan savol ilmiy adabiyotlarda 3 ta turga bo'linadi: ommaviy, tashkiliy va shaxsiy¹⁸⁴.

Shaxsiy jamoaviy shikoyat fuqaro yoki tashkilot tomonidan qo'zg'atiladi va ularga guruh nomidan emas, balki uning a'zolari yoki nomuayyan shaxslar guruhining huquqlarini himoya qilish to'g'risida da'vo qo'zg'ashga imkon beradi. Ommaviy jamoaviy shikoyat davlat organi tomonidan ma'lum bir shaxslar guruhi yoki nomuayyan shaxslar doirasining huquqlarini himoya qilish uchun shikoyat arizasini berishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy jamoaviy shikoyat jamoat munosabatlarining ma'lum bir sohasida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan jamoat tashkiloti tomonidan ushbu sohada huquqlari buzilgan fuqarolar yoki tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish uchun beriladi. Bunday shikoyatlar ko'pincha qimmatbaho qog'ozlar bozori egalari tomonidan qo'llanadi.

Xorijiy mamlakatlarda har qanday noqonuniy qarordan jabrlangan jamoaviy shaxslar guruhining har qanday a'zosi bunday guruhni himoya qilishda ishtirok etish huquqiga ega. Biroq, ma'lum shartlar bajarilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi, uning asosiy sharti arizachiga butun guruh manfaatlarini yetarli darajada ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Finlyandiya, Daniya, Shvetsiya, Latviya kabi mamlakatlarda jamoaviy shikoyatlar berish prokuror, boshqa davlat organlari yoki inson huquqlari bo'yicha Komissar, monopoliyaga qarshi organlar, atrof-muhitni muhofaza qilish organlari (Shveysariya) tomonidan amalga oshirilishi mumkin¹⁸⁵.

Braziliya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining egalari, kasaba uyushmalari ham jamoaviy shikoyatlar berish huquqiga ega. Bu arizachining manfaati jamoa manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.

Shu munosabat bilan, davlat organlari va tashkilotlar vakillikning to'g'ri xususiyatini ta'minlashi mumkin deb taxmin qilinadi, chunki bunday subyektlari to'g'ridan-to'g'ri moddiy va huquqiy manfaatlarga ega emas. Shu bilan birga, adabiyotlarda jamoaviy shikoyatni boshlash huquqi berilgan organlar, mansabdor shaxslar va tashkilotlar jamoaviy

¹⁸⁴ Shapdursniy D. K. Pravovaya priroda instituta orranizatsionnogo gruppovoro iska v Rossii // Vestnik rrajdanskoro protsesssa. 2018. №6. S. 208–225

¹⁸⁵ Lipdbpom P. X. Shvedskiy natsionalnyy doklad // Grajdanskiy protsess v mexkulturnom dialoge: yevrapiyskiy kontekst: Vsemir. konf. Mexdunar. assotsiatsii protsessualnoro prava (Moskva, 18–21 sentya6rya 2012 g.). M.: Statut, 2012. S. 633–643.

shikoyatni boshlash yoki rad etish bilan bog'liq masalalarda siyosiy bosimga duchor bo'lganligi qayd etilgan¹⁸⁶.

Uchinchi mezon-shakllanish tartibi ko'p sonli shaxslar guruhi (yoki potensial guruh a'zolarini guruh ishlab chiqarishga jalb qilish tartibi). Ushbu mezonga ko'ra, jamoaviy shikoyatlar berish ikki turga bo'linadi: kirish (opt-in) va chiqish (opt-out).

Chiqish shikoyatlarida guruhning barcha potensial a'zolari, agar ular unga qo'shilishni istamasliklarini e'lon qilmasalar, uning bir qismi deb taxmin qilinadi; bunday guruhning bir qismi bo'lib qolishni istamagan shaxslar undan chiqish uchun muayyan harakatlar qilishlari kerak. Bunday talablar AQSH, Avstraliya, Kanada, Isroil va Kolumbiya qonunchiligida mavjud.

Qabul qilish bo'yicha sud jarayonlarida jamoaviy berish ushbu maqomga faqat ularning irodasi aniq ifodalangan taqdirdagina ega bo'ladilar. Mazkur modelga ko'ra, birgalikda guruhning a'zosi bo'lishni xohlaydigan tomonlar faol harakat qilishlari kerak, shuning uchun qo'shilish guruhga borishi kerak. Bunday da'volar qit'a huquqi mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Norvegiya, Finlyandiya, Braziliya) keng tarqalgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqida chiqish modeli asosida sinf harakatlarini joriy etishga shoshilmayapti. Yevropa parlamenti qarori 2012-yilda qabul qilingan "Jamoaviy himoya qilish bo'yicha Yevropa yondashuvi"¹⁸⁷ ga ko'ra Yevropa Ittifoqi mamlakatlari mazkur modelni qabul qilinmasligiga ishora qiladi.

Chiqish modeli bo'yicha jamoaviy shikoyatlar amalga oshirishni rad etish sabablari orasida quyidagilar mavjud. Birinchidan, bunday shikoyatlarning qonuniy ijro etilishi qit'a huquqi mamlakatlarining an'anaviy fuqarolik jarayoni qoidalariga, shu jumladan kamsitish va iroda avtonomiyasi tamoyiliga zid keladi. Ikkinchidan, chiqish modelidan foydalangan holda jamoaviy shikoyatlarda ko'p sonli guruhning barcha bevosita tarafdorlarini aniqlash qiyin bo'ladi. Uchinchidan, chiqish tizimining joriy etilishi sud tizimi uchun jamoaviy shikoyat qiluvchilar sonining sezilarli darajada ko'payishi, potensial arizachining sinfiy harakatni topshirish orqali shantaj qilish ehtimoli,

¹⁸⁶ Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally // Kansas Law Review. 2017. Vol. 65. P. 965–988

¹⁸⁷ European Parliament resolution of 2 February 2012 "Towards a Coherent European Approach to Collective Redress", (2011/2089(INI)) // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52012IP0021&-from=EN> (data o'rasheniya: 10.04.2020).

shuningdek, kelishuv bitimini tuzish tendensiyasi shaklida noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin¹⁸⁸. Biroq, ba'zi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari chiqish modelini qabul qilishdi. Ushbu mamlakatlarga Niderlandiya, Ispaniya, Litva, Polsha va Shvetsiya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

To'rtinchi mezon – jamoaviy shikoyatda zararni himoya vositasi sifatida qo'llash imkoniyati. Jamoaviy harakatni amalga oshirgan barcha mamlakatlarning qonunchiligi huquqlarni tan olish va sud qarori kabi huquqlarni himoya qilish usullaridan foydalanishga imkon beradi.

Qonunchilikda bunday himoya usulidan foydalanishga ruxsat berilgan mamlakatlar orasida AQSH, Shvetsiya, Italiya, Portugaliya, Niderlandiya kabilar ajralib turadi. Bundan tashqari, agar AQSH amaliyotiga murojaat qiladigan bo'lsak, barcha toifadagi ishlar zararni qoplash to'g'risida jamoaviy shikoyat berishga imkon bermasligini ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, nuqsonli mahsulotlar, transport hodisalari, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, korporativ nizolar va daromadlarni noqonuniy olish bilan bog'liq moliyaviy zararni qoplash bo'yicha boshqa nizolar bo'yicha binolarning vayron bo'lishi va neftning to'kilishi bilan bog'liq ommaviy huquqbuzarliklar bilan bog'liq hollarda zararni undirish mumkin¹⁸⁹.

Jamoaviy shikoyatda zararni qoplashdan foydalanishni cheklash, zararni qoplash to'g'risida da'vo qo'yish imkoniyati sud tizimiga yukning oshishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlanadi. Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "vaqt kelganda, turli guruh a'zolari o'z foydasiga qaror qabul qilishdan ko'proq manfaatdor"¹⁹⁰.

Bundan tashqari, bu jamoani shakllantirishning mavjud modellari bilan aloqani ham ko'rsatadi. Chiqish modelida jamoaviy shikoyat ishtirokchilari o'zlarini passiv tutadilar va guruhni tark etish uchun hech qanday harakat qilmaydilar. Aksincha, kirish modelida potensial guruh a'zolari jamoaviy shikoyat arizasi berish, a'zo bo'lish va ijobiy qaror qabul qilish uchun faol bo'ladi. Bularning barchasi jamoaviy shikoyat qiluvchilar sonining ko'payishiga olib kelishi mumkin.

¹⁸⁸ Nagy C. I. *Collective actions in Europe. A comparative, economic and transsystemic analysis*. N.-Y.: Springer International Publishing, 2019. 122 p.

¹⁸⁹ Hodges C. *US class actions: promise and reality*. EUI LAW. 2015/36. European Regulatory Private Law Project // URL: <http://hdl.handle.net/1814/36536> (data o'rnatilgan: 01.04.2020).

¹⁹⁰ Hensler D. R. *From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally* // *Kansas Law Review*. 2017. Vol. 65. P. 965–988.

Yuqoridagi holatlar ko'plab mamlakatlardagi qonun chiqaruvchilarning yondashuvini belgilaydi, ular faqat jamoaviy shikoyatni tan olishga imkon beradi. O'ziga nisbatan deklarativ qaror chiqarilgan bir necha guruh a'zosi zararni qoplash to'g'risida individual shikoyat bilan chiqish huquqini yo'qotmaydi. Bundan tashqari, bunday tizim qulay, birinchidan, jamoa a'zosi tegishli tartibda alohida shikoyat qilmasligi mumkin; ikkinchidan, shikoyat qilinganda, sud arizachining huquqlari buzilgan yoki buzilmaganligi va bu bilan bog'liq faktik holatlarni aniqlashga hojat qolmaydi. Bunday holda, sud faqat tovon miqdorini belgilaydi.

Ushbu qiyosiy tahlillardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, taqqoslash uchun ishlatiladigan mezonlar jamoaviy shikoyatning mavjud modellarini ikki guruhga bo'lish imkonini beradi: cheklangan va cheklanmagan.

So'nggi yillarda turli mamlakatlarda jamoaviy shikoyat tizimini isloh qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunga parallel ravishda, u yangi jamoaviy himoya imkoniyatlar bilan to'ldirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Jumladan, AQSHda jamoaviy shikoyatlar berish tartibi XX asrda dastlab fuqarolik protsessual qonunchilikda o'z aksini topgan. So'ng qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka kirib bordi. XXI asr boshlarida mazkur tartib sudlar vakolatlarini kengaytirish, advokat tayinlash bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar kiritildi.

Mazkur sohadagi jiddiy o'zgarishlar 2018-yilda amalga oshirildi. AQSHda jamoaning potensial a'zolarini xabardor qilish masalasidir. So'nggi o'n besh yil ichida bunday foydalanish masalasini hal qilish juda ziddiyatli bo'ldi. 2018-yilda elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda xabarnomalarni jo'natish imkoniyatini ko'zda tutuvchi o'zgartirish kiritildi, ya'ni xabarnomalarni elektron vositalar (alohida bildirishnomalar uchun) orqali yuborish amaliyoti qonuniylashtirildi.

Shuningdek, kelishuv shartnomasini o'rnatish uchun yanada qat'iy qoidalar o'rnatildi. Xususan, kelishuv shartnomasini tasdiqlashning ikki bosqichli tartibi joriy etildi: kelishuv shartnomasini dastlabki tasdiqlash va yakuniy tasdiqlash. Shu bilan birga, jamoa a'zolari kelishuv shartnomasi haqida barcha kerakli ma'lumotlarni olishlari kerak. Kelishuv bitimi sud tomonidan, agar butun guruh vakillarining tegishli xarakteri belgilangan bo'lsa, kelishuv bitimi esa vakillar tomonidan xolis asosda kelishilgan taqdirda tasdiqlanishi mumkin. Asosiy shart shundaki, birinchidan, kelishuv bitimida

ko'rsatilgan himoya qilish usuli barcha xarajatlarni, xavflarni va ishni ko'rib chiqishda mumkin bo'lgan kechikishlarni hisobga olishi kerak; ikkinchidan, guruhga xos bo'lgan resurslarni taqsimlashning samarali usuli taklif qilinishi kerak; Uchinchidan, jamoa advokatining to'lovini to'lash shartlarini kelishib olinishi kerak¹⁹¹.

Shunday qilib, AQSHdagi jamoaviy shikoyat instituti to'g'risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar raqamlashtirish va sud ishlarini yuritishda elektron texnologiyalardan foydalanishning global tendensiyasiga mos keladi, shuningdek, jamoaviy shikoyatlarni ko'rib chiqishda qonundan noto'g'ri foydalanishga qarshi kurashishga qaratilgan.

Shu o'rinda Niderlandiya tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu davlatda jamoaviy manfaatlarni himoya qilish ikki davr doirasida amalga oshirildi. Birinchi davr 1994-yildagi Jamoaviy shikoyatlar to'g'risidagi qonun (Act on Collective Action¹⁹²) va Fuqarolik kodeksida bilan tartibga solingan. Ikkinchi davr 2005-yildagi "Ommaviy zararni qoplash bo'yicha da'volar bo'yicha nizolarni jamoaviy hal qilish to'g'risida"gi qonun (Collective Settlement of Mass Damage Act¹⁹³) bilan mustahkamlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ikkinchi davr nizoni sudga tegishli shikoyat arizasisiz hal qilish uchun maxsus shartnoma shaklini (kelishuv shartnomasini) ifodalaydi. Bundan tashqari, bunday kelishuv shartnomasi, shubhasiz, sud tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Dastlabki davrlarda Niderlandiya Fuqarolik Kodeksiga ko'ra jamoaviy shikoyatda zararni qoplash kabi himoya usulini qo'llash mumkin emas edi, ya'ni himoya qilish usullari orasida faqat huquqlarni tan olish va sud buyrug'i (keng ma'noda) ruxsat etilgan. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Jamoaviy shikoyatlarda ommaviy yo'qotishlarni qoplash to'g'risida"gi qonunga ko'ra jamoaviy shikoyatlar to'g'risidagi yangi qonun ushbu cheklovni bartaraf etishga qaratilgan.

Yangi qonunga muvofiq, ixtisoslashgan uyushma jamoaviy shikoyatlar bilan murojaat qilishi mumkin. Qonunda alohida ta'kidlanganidek, jamoaviy shikoyatlarni ko'rib chiqish individual shikoyatdan ko'ra samaraliroq deb hisoblash mumkin.

Yangi qonun bir guruh shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid huquqi berilgan tashkilotlarga nisbatan qattiqroq

¹⁹¹ Schutz, A., Sandy, M.G. (2011). Collective Action in Twentieth-Century America: A Brief History. In: Collective Action for Social Change. Palgrave Macmillan, New York. https://doi.org/10.1057/9780230118539_4

¹⁹² <https://www.rechtspraak.nl/SiteCollectionDocuments/New-dutch-legislation-on-collective-actions.pdf>

¹⁹³ https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1456819

talablarni belgilaydi. Bunday qoidalar boshqaruv va moliyalashtirish bo'yicha muayyan talablarni o'z ichiga oladi (masalan, tegishli tashkilot direktorlari yoki uning o'rnini bosuvchi shaxslar jamoaviy harakatlardan bevosita yoki bilvosita foyda olishlari mumkin emas).

Yangi tartibga solishning asosiy jihati xalqaro rejimdir. Bu faqat Niderlandiya yurisdiksiyasi bilan yetarlicha chambarchas bog'liq bo'lgan jamoaviy shikoyatlarga yo'l qo'yilishi tushuniladi. Bunday talablarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) jamoa a'zolarining ko'pchiligi Niderlandiyada istiqomat qilsa; 2) javobgar Niderlandiyada istiqomat qilsa va qo'shimcha holatlar mazkur davlat bilan yetarlicha munosabatlarni ko'rsatsa; 3) jamoaviy shikoyatga sabab bo'lgan voqea Niderlandiyada sodir bo'lsa¹⁹⁴.

2020-yilgi qonun ilgari qabul qilingan qonunlar singari ishtirokchilar guruhni sud tomonidan belgilangan muddatda tark etishi mumkin bo'lgan chiqish (opt-out) modelini mustahkamlaydi.

Jamoaviy shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi o'ziga xos xususiyatga ega. Agar huquqni belgilash yoki noqonuniy xatti-harakatni cheklash uchun jamoaviy shikoyat qo'zg'atilgan bo'lsa, bunday shikoyat 1994-yildagi "Umumiy harakatlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq ko'rib chiqiladi. Shikoyatni ko'rib chiqishda 2005-yildagi "Ommaviy zararni qoplash to'g'risida"gi nizolarni jamoaviy hal qilish to'g'risidagi qonunning qoidalari qo'llaniladi. Sud tomonidan belgilangan muddatda taraflar (bir guruh shaxslarni va sudlanuvchini himoya qilish uchun ariza bergan tashkilot) 2005-yilgi Qonun talablariga muvofiq kelishi kerak bo'lgan kelishuv bitimiga kelishlari tushuniladi. Agar kelishuvga erishib bo'lmasa, jamoaviy da'vo e'tirof etish to'g'risidagi da'vo hisoblanadi¹⁹⁵.

Germaniyada jamoaviy shikoyatlarni isloh qilish 2005-yil 1-noyabrdan "Moliya bozorida investorlar ishini ko'rib chiqish to'g'risida" namunaviy protsessual qonun bilan bog'liq. Unga ko'ra, quyidagi uch toifadagi nizolar ko'rib chiqiladi:

moliyaviy bozorlar to'g'risida chalg'ituvchi ma'lumotlarni taqdim etish yoki ularni yashirish natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha nizolar;

"Aksiyalarning ustuvorligi va kapitalning yo'qolishi to'g'risida"gi qonunga muvofiq taklif asosida shartnomani bajarish bo'yicha nizolar;

¹⁹⁴ <https://www.ibanet.org/article/ec97d321-744e-40ad-ab3d-e5b3ae481b5d>

¹⁹⁵ <https://practiceguides.chambers.com/practice-guides/collective-redress-class-actions-2024/netherlands/trends-and-developments>

moliyaviy mahsulotlar yoki investitsiyalarni boshqarish xizmatlarini sotish yoki tarqatishda moliyaviy bozor qoidalari ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq nizolar¹⁹⁶.

2018-yil 1-noyabrdan boshlab Germaniyada tan olish uchun namunaviy da'volar to'g'risidagi qonun kuchga kiradi. Shu bilan birga, qonunni qabul qilishning aniq sabablaridan biri iste'molchilarga Volkswagenga o'z da'volarini taqdim etish imkoniyatini berish uchun uni Volkswagen Diyeselkandal sodir bo'lgan paytdan boshlab uch yillik cheklash muddati tugagunga qadar amalga oshirishga urinish bo'ldi.

Tartibga solishning maqsadi iste'molchilarga transmilliy kompaniyalardan o'z huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyatini berishdir.

Federal shtatlarning oliy sudlari bunday ishlar bo'yicha mutlaq yurisdiksiyaga ega. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 606-moddasi qoidalariga ko'ra, faqat ixtisoslashgan uyushmalar (iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari, avtoullovchilar uyushmalari va boshqalar) muayyan huquqbuzarlikni to'xtatish talabi bilan sudga murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, bunday tashkilotlarga alohida talablar qo'yiladi. Xususan, a'zolikka qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat: bir hududda faoliyat yurituvchi kamida o'nta uyushma yoki 350 nafardan ortiq jismoniy shaxs. Bunday tashkilotlar to'rt yil davomida ixtisoslashtirilgan reyestrda kiritilishi kerak. Bunday tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirishga alohida talablar qo'yiladi.

Agar da'vo sudga topshirilgunga qadar unga kamida o'n kishi qo'shilsa, namunaviy da'vo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ish e'lon qilingan kundan boshlab ikki oy ichida kamida 50 iste'molchi petitsiyaga qo'shilishi kerak. Shu bilan birga, ikkinchisi ishda arizachiga tayanadigan sud muhokamasining protsessual xavfini o'z zimmasiga olmaydi.

Sudning ish bo'yicha hal qiluv qarori faqat javobgar tomonidan huquqbuzarlik mavjudligi/yo'qligi faktini aniqlash, shuningdek, huquqbuzarlikni to'xtatish to'g'risidagi buyruq bilan cheklanadi. Dastlabki namunaviy jarayonda o'z da'volarini qo'ygan iste'molchilar dastlabki ishda aniqlangan zararsiz holatlarga tayangan holda zararni qoplash to'g'risidagi shikoyatlarni mustaqil ravishda topshirishlari kerak.

¹⁹⁶ Voet S. European Collective Redress Developments, available at: http://www.academia.edu/4373659/European_Collective_Redress_Developments_August_2013 (accessed: 01.04.2020).

Hozirda shunga o'xshash ikkita ish ko'rilmoqda: Braunshveygdagi Oliy yer sudida (Volkswagen AG) va Shtutgartdagi Oliy yer sudida (Mercedes Benz Bank AG).

AQSH, Niderlandiya va Germaniyaning huquqiy tizimlari jamoaviy shikoyatlarning mavjud tizimlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bir tomondan, jamoaviy ish yuritishning eng rivojlangan institutiga ega yurisdiksiya bo'lgan AQSHning qonun chiqaruvchi organi protsessual reglamentlarda jamoaviy shikoyatlarni ko'rib chiqishda, ya'ni potensial ishtirokchilarni xabardor qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq normalarni mustahkamlaydi. Boshqa tomondan, ma'lumotlar Federal Davlat budjeti muassasasiga 2018-yilda kiritilgan o'zgarishlar turli jamoa a'zolariga ko'proq ma'lumot berish nuqtayi nazaridan kelishuv bitimini tasdiqlash shartlarini belgilashga qaratilgan. Mohiyatan, bu o'zgarishlar ko'rib chiqilayotgan guruh a'zolarining huquqlarini hurmat qilish kafolatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Agar Niderlandiya va Germaniya amaliyotiga murojaat qiladigan bo'lsak, biz tashkilotlar va shaxslarning (xususan, iste'molchilarning) jamoaviy shikoyat instituti orqali o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan umumiy tendensiyaning qayd etishimiz mumkin. Gollandiya uchun bunday kengayish zararni qoplashni jamoaviy harakatlarda himoya qilish usuli sifatida qo'llash zarurati bilan bog'liq, ammo amalga oshirishning o'ziga xos shakllari mavjud. Germaniya uchun o'zgarishlar namunaviy shikoyatlar instituti orqali o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega bo'lgan iste'molchilarga tegishlidir.

Mamlakatimizda jamoaviy himoya usullarining, xususan, jamoaviy shikoyat institutining joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bir qancha boshqa davlatlar tajribasi va ular bosib o'tgan yo'lni aniqlab olish muhim. Xususan, 1992-yilda Rossiya Federatsiyasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni bankrotlik jarayonida nomuayyan miqdordagi shaxslarni himoya qilish imkoniyatini kuchaytirdi. Bunday imkoniyat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlariga sotuvchi, ishlab chiqaruvchi yoki pudratchining iste'molchilarning aniqlanmagan guruhiga nisbatan harakatlarini noqonuniy deb topish va ushbu harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ldi. Shu kabi huquqiy tuzilmalar Rossiya

Federatsiyasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va “Reklama to‘g‘risida”gi qonunlarda mustahkamlangan.

Jamoaviy shikoyat institutining rivojlanishiga ko‘plab moliyaviy tashkilotlarning noqonuniy faoliyati bilan bog‘liq vaziyat turtki bo‘ldi, ular orasida “Selena”, “MMM”, “Xoper-Invest” rus uyi ham bor edi. Sudlar pul mablag‘larini qaytarish uchun bir xil javobgarga – moliyaviy kompaniyaga qarshi o‘n minglab shunga o‘xshash shikoyatlarni hal qilish zarurati bilan duch keldi. Shaxslarning katta guruhlarini himoya qilishning huquqiy vositalarining yo‘qligi bu muammoning siyosiy tus olishiga va siyosiy harakat predmetiga aylanishiga olib keldi. Belgilangan shartlarga ko‘ra, birinchi qonun loyihasi Fuqarolik protsessual kodeksiga guruh da‘volari bo‘yicha sud qarorlarini jamoa tomonidan ijro etilishi ustidan sud nazorati sohasida yangi bob kiritishni nazarda tutuvchi birinchi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasiga taqdim etilgan, keng muhokama qilingan, ammo qabul qilinmagan.

2009-yilda Arbitraj protsessual kodeksiga “Bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish” deb nomlangan yangi bob kiritildi. Rossiya protsessual qonunchiligida birinchi marta jamoaviy da‘vo instituti paydo bo‘ldi, uning namunasi boshqa misollar bilan solishtirish mumkin. Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksida mustahkamlangan jamoaviy da‘vo modeli ilmiy jamoatchilik tomonidan juda haqli ravishda jiddiy tanqidga uchradi.

Birinchidan, jamoa a‘zolari bitta huquqiy munosabatlarning a‘zosi bo‘lishi kerakligi shartining mavjudligi guruhning potensial a‘zolari o‘rtasida bunday huquqiy munosabatlar prinsipial jihatdan mavjud bo‘lmagan vaziyatni yaratdi. Bu holat odatda himoya qilish usullaridan foydalanishni faqat tan olish talablari bilan chekladi.

Ikkinchidan, jamoaviy shikoyatlarni ko‘rib chiqishning protsessual tartibi va sud qarori to‘g‘risidagi qoidalar munozaraga sabab bo‘ldi.

Uchinchidan, kelishuv bitimini tuzish va jamoaviy shikoyat bo‘yicha qarorni ijro etish tartibi to‘g‘risidagi normalarni mavjud emasligi qonunning asosiy kamchiligi edi.

2015-yilda Rossiya Federatsiyasining Ma‘muriy sud ish yurituv kodeksi Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksiga nisbatan jamoaviy da‘voning boshqa modelini o‘rnatdi. Ommaviy

huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar va federal qonunlarda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar bir guruh shaxslarning buzilgan yoki bahsli huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga jamoaviy ma'muriy shikoyat qo'zg'atish huquqiga ega. Shunday qilib, Rossiya qonunchiligida jamoaviy ma'muriy shikoyat instituti yuzaga keldi.

Jamoaviy shikoyat arizasi berish uchun quyidagi shartlar belgilandi.

1) shaxslar guruhining ko'pligi yoki uning a'zolari sonining noaniqligi;

2) nizo predmetining bir xilligi;

3) boshqa javobgarining mavjud emasligi;

4) guruhning barcha a'zolarining o'z huquqlarini himoya qilishning bir xil usulidan foydalanishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamoaviy shikoyat qilishining aniq shartlari o'rnatilganiga qaramay, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining tartibga solinishi hali ham juda cheklangan.

Rossiya Federatsiyasida jamoani faqat arizachi tomonida tuzish imkoniyati ko'zda tutilgan, bu deyarli asoslanmaydi, chunki bir guruh javobgarlarga nisbatan ishlar guruh ishini yuritish tartibida ham ko'rib chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, xorijiy amaliyotda, masalan, Buyuk Britaniyada, arizachi tarafida ham, javobgar tomonida ham shaxslar guruhini tuzish imkoniyati nazarda tutilgan. Ikkinchidan, agar shaxs guruhga qo'shilish huquqidan foydalanmagan bo'lsa, sud bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy ish bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar uning ma'muriy shikoyat bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turadi.

Amaldagi qonunchilik bo'yicha jamoaviy shikoyatni ko'rib chiqqandan keyin hech kim o'z shaxsiy da'vosining mohiyatini ko'rib chiqish va hal qilish yo'li bilan sud himoyasi huquqidan mahrum qilinishi yoki cheklanishi mumkin emas. Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 42-moddasi individual talab bo'yicha ishlab chiqarish qayta tiklanadi. Bu har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishni kafolatlanishiga oid konstitutsiyaviy qoida bilan bog'liq.

Ma'muriy ish yuritish bo'yicha jamoaviy shikoyat institutidan foydalanishning bir qator ijobiy tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, bu sudyalarning vaqtini tejaydi, chunki bitta sud

muhokamasida ko'plab shunga o'xshash shikoyatni ko'rib chiqish, barcha arizachilar doirasini to'liq aniqlash va ularning huquqiy himoyalani sh imkoniyatlarini tenglashtirish mumkin; ikkinchidan, jamoat manfaatlari himoya qilinadi, chunki har qanday organ yoki shaxsning noqonuniy faoliyati bostiriladi; uchin chidan, har biriga alohida ma'muriy ariza qo'zg'atish shart bo'lmagan ko'p sonli fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinadi; to'rtinchidan, shunga o'xshash shikoyatni jamlangan holda ko'rib chiqish alohida ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqishda mumkin bo'lgan bir-biriga zid bo'lgan sud hujjatlarini chiqarishning oldini olishga imkon beradi.

Jamoaviy shikoyatlar berishda vakil arizada ko'rsatilishi kerak, shundan so'ng u ishda arizachi sifatida ishlaydi. Sudlar, shuningdek, arizachi vakilining oliy yuridik ma'lumoti to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishni talab qiladi. Agar guruh vakili arizachilardan biri bo'lmasa, u advokat maqomiga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun arizachilar guruhida jarayonning barcha yuklarini o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan hech kim bo'lmasa, ular yordam uchun faqat mutaxassislarga murojaat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, arizachilarning har qanday a'zosi ish materiallari bilan tanishish va nusxa ko'chirish huquqiga ega. Ammo sud majlisida hammaning ishtirok etishi shart emasligi sababli, faqat guruhning rasmiy vakili xabarnoma oladi. Boshqalarga joriy uchrashuvlar haqida xabar berilmaydi.

Jamoaviy ish faqat guruh vakillari tomonidan olib borilishi to'g'ri yo'l bo'lib, chunki bu sud jarayonining professionalligini ta'minlashiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, *jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozim:*

Birinchi mezon – bu jamoaviy shikoyat usulidan foydalanish doirasi. Ayrim davlatlar qonunchiligida jamoaviy shikoyat berilishi mumkin bo'lgan holatlar soni cheklanmagan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa jamoaviy faoliyatga bog'liq faoliyat bilan bog'liq nizolar bo'yicha jamoaviy shikoyatni qo'zg'atish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi mezon – jamoaviy shikoyat berish huquqiga ega subyekti bilan bog'liq. Yuqorida biz dunyoda bir nechta modellar mavjudligini ta'kidladik. Xususan, jamoaviy shikoyatlar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ixtisoslashgan notijorat tashkilotlar tomonidan berilishi

mumkin. O'z navbatida, prokuror, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari va boshqalar tomonidan ham jamoaviy shikoyatlar berilishi mumkin.

Uchinchi mezon – jamoani shakllantirish tartibi. Bu bo'yicha ikkita model bor: kirish yoki chiqish. Bunda potensial ishtirokchi turli xil shaxslar guruhiga kirish uchun bir qator faol harakatlarni amalga oshirishi kerak, xususan, tegishli guruhga qo'shilish uchun ariza topshirishi kerak. Bunday harakatlar nafaqat ishni ko'rib chiqish bosqichida, balki tegishli ariza qo'zg'atilishidan oldin ham amalga oshiriladi.

To'rtinchi mezon – huquqni tan olish, huquqni buzadigan yoki uning buzilishini chek qo'yish va yo'qotishlarni qoplashni o'z ichiga olgan himoya qilishning turli usullarini qo'llash imkoniyatini belgilaydi. Jamoaviy shikoyat instituti quyidagi yangi shartlarni belgilab berdi:

- 1) jamoa har bir a'zosiga nisbatan umumiy javob mavjudligi;
- 2) nizo predmeti – bir guruh shaxslarning umumiy shaxsiy huquqlari va qonuniy manfaatlari qaratilganligi;
- 3) jamoa huquqlari va javobgarining majburiyatlari o'xshash faktik holatlarga asoslanganligi;
- 4) barcha guruhlar o'z huquqlarini himoya qilishning bir xil usulidan foydalanishi;

Jamoaviy shikoyatlarni qo'llash doirasi va qo'llaniladigan himoya usullari bo'yicha qonun hujjatlarida cheklovlar mavjud bo'lmagan taqdirda yangi shartlarning o'rnatilishi, jamoaviy shikoyatning mavjud modeliga muvofiq, tan olish va taqiqlash to'g'risida da'vo qo'yishga ruxsat beriladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Hozirgi paytda qaysidir davlat tajribasini ijobiy yoki salbiy deb aytish mushkul. Xususan, chiqish modelidan foydalanmaslik uchun asosli sabablar mavjud bo'lib, asosiysi jamoaviy shikoyat arizasi berish huquqidan noto'g'ri foydalanish xavfi. Shu bilan birga, jamoaviy shikoyat arizasi berish huquqi subyektlarning keng doirasiga beriladi. Shu ma'noda protsessual qonunchilik jamoaviy huquq va manfaatlarni jamoaviy shikoyat orqali himoya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Taklif etilgan mezonlar asosida olib borilgan qiyosiy tahlil turli guruhlardagi sud jarayonlari modellari qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Hech bo'lmaganda, tadqiqot natijalari cheklangan va cheklanmagan shikoyat tizimining mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Jamoaviy shikoyat institutini qonunchilikni isloh qilish amaliyotini o'rganish jamoaviy manfaatlarni himoya qilishning mavjud

imkoniyatlarini kengaytirish tendensiyasini ko'rsatadi. Bu borada muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihat, nafaqat jamoaviy shikoyat institutidan foydalanish orqali sud himoyasi huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, balki jamoa ishtirokchilarining huquqlariga rioya etilishini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishdir.

Yuqoridagi mezonlar asosida jamoaviy shikoyat institutini milliy qonunchilikka qo'llagan holda ushbu institutni joriy qilish va sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Tadqiqot ishining mazkur bobida ma'muriy sud ishlarini yuritishda milliy qonunchiligimiz uchun yangilik hisoblangan jamoaviy shikoyat berish tartibi va uni mamlakatimizda joriy qilish mezonlari tahlil qilingan.

Jamoaviy shikoyat tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berilgan:

“Jamoaviy ma'muriy shikoyat – ma'muriy yoki boshqa ommaviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar va yuridik shaxslar nomuayyan shaxslar manfaatini ko'zlab, yagona nizo predmeti va asos doirasida yagona javobgarga qaratilgan sudga qilingan shikoyatdir.”

O'z navbatida, mazkur bob doirasida jamoaviy ma'muriy shikoyatning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatilgan: shikoyat qiluvchi shaxslar doirasining noaniqligi; nizo predmeti va asoslarining bir xilligi; umumiy javobgar mavjudligi; jamoaning barcha a'zolari o'z huquqlarini himoya qilishning bir xil usulidan foydalanishi.

Bugungi kunda ma'muriy shikoyat institutini joriy qilgan davlatlarda mazkur institutni rivojlantirish bo'yicha quyidagi masalalarni rivojlantirish tendensiyalari kuzatilayotganligi tahlil qilingan: jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilish uchun arizaning mazmuni; ma'muriy ish qo'zg'atilgandan keyin jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilgan shaxslarning oqibatlari; jamoaviy ma'muriy shikoyatlar bo'yicha ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning maxsus muddatlari; bir guruh shaxslar manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi shaxsni almashtirish (vakolatlarini tugatish) masalasi; guruh a'zolarini shaxslar guruhidan chiqarish masalasi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlari mazmuniga qo'yiladigan maxsus talablar; bir guruh shaxslarga sud hujjatlari nusxalarini xabardor qilish va (yoki) yuborishning maxsus tartibi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlariga shikoyat qilishning maxsus tartibi.

Monografiyaning uchinchi bobida eng muhim masalalar biri sifatida jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozimligi asoslab berilgan:

Birinci mezon – bu jamoaviy shikoyat usulidan foydalanish doirasi. Ayrim davlatlar qonunchiligida jamoaviy shikoyat berilishi mumkin bo'lgan holatlar soni cheklanmagan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar

yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa jamoaviy faoliyatga bog'liq faoliyat bilan bog'liq nizolar bo'yicha jamoaviy shikoyatni qo'zg'atish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi mezon – jamoaviy shikoyat berish huquqiga ega subyekti bilan bog'liq. Yuqorida biz dunyoda bir nechta modellar mavjudligini ta'kidladik. Xususan, jamoaviy shikoyatlar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ixtisoslashgan notijorat tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin. O'z navbatida, prokuror, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari va boshqalar tomonidan ham jamoaviy shikoyatlar berilishi mumkin.

Uchinchi mezon – jamoani shakllantirish tartibi. Bu bo'yicha ikkita model bor: kirish yoki chiqish. Bunda potensial ishtirokchi turli xil shaxslar guruhiga kirish uchun bir qator faol harakatlarni amalga oshirishi kerak, xususan, tegishli guruhga qo'shilish uchun ariza topshirishi kerak. Bunday harakatlar nafaqat ishni ko'rib chiqish bosqichida, balki tegishli ariza qo'zg'atilishidan oldin ham amalga oshiriladi.

To'rtinchi mezon – huquqni tan olish, huquqni buzadigan yoki uning buzilishini chek qo'yish va yo'qotishlarni qoplashni o'z ichiga olgan himoya qilishning turli usullarini qo'llash imkoniyatini belgilaydi

IV BOB. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA ISHTIROK ETUVCHI SHAXSLAR HUQUQIY MAQOMINING HUQUQIY ASOSLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-AMALIY MASALALARI

4.1. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqi maqomiga oid huquqiy modellari tahlili

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirishda ma'muriy sud ish yurituviga oid bo'lgan huquqiy modellar tahlili muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda ma'muriy sud ish yurituviga modellarini G'.T. Xakimov¹⁹⁷, F. Schoch¹⁹⁸, J. Aubi¹⁹⁹, H. Eriksen, V. Martens, P. Badura²⁰⁰ va boshqa ma'muriy huquq bo'yicha olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi nuqtayi nazardan 5 ta huquqiy modelga ajratish mumkin. Bular quyidagilardan iborat.

1. *Nemis huquqiy modeli;*
2. *Fransuz huquqiy modeli;*
3. *Anglo-sakson huquqiy modeli;*
4. *Skandinaviya huquqiy modeli;*
5. *Sharqiy Yevropa va bolliq davlatlari huquqiy modeli.*

Quyida mazkur modellarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilib chiqsak.

Nemis huquqiy modeliga Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Lyuksemburg, Niderlandiya va boshqa davlatlarni kiritish mumkin. Mazkur modelga asos bo'luvchi davlat Germaniya hisoblanib, ushbu davlatda ma'muriy huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish uchun boshqaruv sohasidagi vakolatlar bilan birga sud vakolatlariga ham ega bo'lgan davlat organlari emas, balki mustaqil va alohida ma'muriy sudlar tizimi tashkil etildi. Ma'muriy sudlar faoliyatining maqsadi sifatida alohida shaxslarning subyektiv ommaviy huquqlarini himoya qilish belgilab qo'yildi. Bu holat 1949-yilda qabul qilingan Germaniya Asosiy qonunida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga muvofiq, agar

¹⁹⁷ Xakimov G'.T. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammolari. T., 2010.

¹⁹⁸ Friedrich Schoch. Verwaltungsrecht und Verwaltungsprozessrecht. 1992.

¹⁹⁹ Jean-Bernard Auby. Droit comparé de la procédure administrative. 2016. P. 1046.

²⁰⁰ Allgemeines Verwaltungsrecht (De Gruyter Lehrbuch). 2019. P. 805.

shaxsning huquqlari davlat organlari tomonidan buzilgan bo'lsa, u holda bu shaxs sudga murojaat qilish huquqiga ega²⁰¹.

Hozirgi kunda Germaniyaning ma'muriy sudlari tizimiga quyidagi sud organlari kiradi:

1. Yer ma'muriy sudlari (52 ta) jamoat-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha birinchi instansiya sudlari hisoblanadi;
2. Oliy ma'muriy sudlar (15 ta) yer miqyosidagi apellyatsiya instansiyasi sifatida faoliyat yuritadi;
3. Federal ma'muriy sud ma'muriy sudlov bo'yicha eng oliy sud instansiyasidir.

Ma'muriy ishlar yuzasidan ishlar ko'rib chiqilishi va hal etilishi jarayonida ma'muriy sudning huquqiy maqomi uning quyidagi jihatlari orqali tavsiflanadi: vakolatlari; vakolatlarning yuzaga kelish asoslari; faoliyat prinsiplari; boshqaruv organlarining ma'muriy aktlari ustidan nazorat chegaralari; taraflarni yarashtirish bo'yicha vakolatlari; qabul qilingan sud qarorlarining ijrosini ta'minlash vakolatlari.

Germaniya ma'muriy sudlarining vakolat doirasini to'liq tushunish uchun ommaviy-huquqiy nizo tushunchasiga murojaat qilish lozim. Bu tushuncha ma'muriy sudlar, umumiy yurisdiksiya sudlari, mehnat nizolari bo'yicha sudlar, moliya sudlari va ijtimoiy sudlar o'rtasidagi vakolatlarni aniq ajratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu yerda ommaviy-huquqiy nizo bilan xususiy-huquqiy nizo o'rtasidagi farq alohida e'tiborga loyiq, chunki aynan shu farq yuridik ishni qaysi sud tizimida ko'rib chiqish mumkinligini belgilaydi.

Ommaviy-huquqiy nizo bu ommaviy huquq normalari asosida huquqiy oqibatlariga olib keladigan nizo hisoblanadi. Demak, agar davlat organining harakati yoki qarori ommaviy huquqqa oid qonun hujjatlarida belgilangan normalarga asoslangan bo'lsa, u holda bunday harakat ommaviy-huquqiy tusga ega bo'ladi. Shunga muvofiq, sud o'z vakolatlari doirasida nizoni ko'rib chiqish yoki rad etish masalasini hal etayotganda, avvalo nizo predmetining huquqiy tabiatini u ommaviy huquqi sohasiga kiradimi yoki xususiy huquq normalariga taalluqlimi aniqlashi shart. Bu, o'z navbatida, nizo qaysi sudda ko'rib chiqilishi lozimligini belgilaydi²⁰².

²⁰¹ Ewer W. Anwaltschaft und Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Frankreich // Festschrift 150 Jahre Verwaltungsgerichtsbarkeit. Richard Boorberg Verlag. 2014. S. 182.

²⁰² Mattarella Verwaltungsrecht und Privatrecht // von Bogdandy/Huber, Ius Publicum Europaeum, 1 Aufl. 2007. S. 78.

Sudlar o'rtasida vakolatlari Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni va Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonun bilan huquqiy tartibga solingan. Ma'muriy, umumiy yurisdiksiya, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy hamda Konstitutsiyaviy sudlar o'rtasidagi vakolatlarni ajratishda Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunning 40-moddasida quyidagi qoida belgilangan: "Ma'muriy sudlar tomonidan Konstitutsiyaviy huquq sohasiga kirmaydigan barcha ommaviy-huquqiy nizolar ko'rib chiqiladi, agar ushbu nizolarni hal etish federal qonun bilan boshqa sud vakolatiga yuklatilmagan bo'lsa".

Germaniya Konstitutsiyaviy sudining vakolatiga nizo taraflari ikki konstitutsiyaviy organ bo'lgan va nizo predmeti Asosiy Qonundan bevosita kelib chiquvchi huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan ommaviy-huquqiy nizolar kiradi. Bu qoidalar Germaniya sud tizimida huquqiy nizolarni to'g'ri yurisdiksiyaga yo'naltirishda muhim asos hisoblanadi.

Sudlar o'rtasida umumiy yurisdiksiya, ma'muriy, mehnat, moliyaviy va ijtimoiy sudlar vakolatlarni ajratish har bir sud turi yurisdiksiyasiga tegishli bo'lgan jamoat-huquqiy nizolar turkumini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Shu tariqa, qonun chiqaruvchi maxsus ma'muriy sudlardan tashqari, moliyaviy va ijtimoiy sudlarni ham ma'muriy sudlov subyektlarining turlari sifatida tashkil etadi hamda ularning vakolat doirasini ommaviy-huquqiy nizolar toifalarini keltirish orqali aniq belgilaydi.

Ta'kidlash lozimki, Germaniyada ma'muriy sud vakolatlari da'vogar tomonidan ma'muriy da'vo arizasi kiritilishi orqali boshlanadi. Bu ariza ma'muriy da'vogar tomonidan, da'vo predmeti bo'lgan ma'muriy aktni qabul qilgan ma'muriy organda ishni majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish tartibini bajargandan so'ng taqdim etiladi. Qonun bilan belgilangan ayrim holatlarda, bunday da'voni to'g'ridan-to'g'ri sudga taqdim etish ham mumkin. Ma'muriy da'vogarlar davlat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat hamda individual ma'muriy aktlarni ham sud tartibida bahslashish huquqiga egadirlar. Shunga ko'ra, Germaniya ma'muriy sudlovi quyidagi ikki turga bo'linadi:

1. Ma'muriy sudlar yoki Federal ma'muriy sud tomonidan ko'rib chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat yuzasidan nizolashish bo'yicha ish yuritish;

2. Birinchi instansiya ma'muriy sudlarida ko'rib chiqiladigan individual ma'muriy aktlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar.

Har qanday da'voni qabul qilishda ma'muriy da'vogarning huquqni himoya qilishda huquqiy manfaati mavjudligini tekshiradi. Agar da'vogarda bunday huquqiy manfaat mavjud bo'lmasa, sud ishni mazmunan ko'rib chiqmasdan, protsessual sabablarga ko'ra da'voni rad etadi. Bu mexanizm ma'muriy sudlovda real huquqiy himoyani ta'minlash va asossiz da'volar yuzasidan sudlarning yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Germaniyada ma'muriy sudlar faoliyati sudning faol ishtiroki prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, dalillarni sud tomonidan faol ravishda yig'iladi. Sud ish yuritish doirasida holatlarni haqiqatga mos holda aniqlash maqsadida, ish bo'yicha dalillarni o'z tashabbusi bilan talab qilib oladi. Bu jarayon qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, sud faktik holatlarni to'ldiradi. Sud ish bo'yicha faktik holatlarni to'liq aniqlashni ta'minlaydi va zarur bo'lsa, da'vogar yoki javobgar keltirmagan holatlarni ham o'rganish bilan tekshiruvni to'ldiradi.

Uchinchidan, sud da'vogarning dalillari bilan cheklanmaydi. Ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishda sud faqat da'vogar keltirgan dalillar bilan cheklanmaydi. U ishni xolis va to'liq o'rganish majburiyatini bajaradi.

Yana bir muhim jihatlardan biri ma'muriy sudlar va fuqarolik sudlari o'rtasida farqlar bilan bog'liq. Fuqarolik ishlarida sud odatda tomonlar keltirgan dalillar va talablar doirasida harakat qilsa, ma'muriy sudlar sudning faol ishtiroki prinsipi asosida ish ko'radi. Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunning 173-moddasiga ko'ra, agar ma'muriy sudlovga oid maxsus qoidalar mavjud bo'lmasa va sudning faol ishtiroki prinsipiga zid bo'lmasa, sud fuqarolik protsessual qonunchilik qoidalarini qo'llashi mumkin.

Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunning 47-moddasiga muvofiq, vakolatli organlar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud huquq normalarining amal qilishini tekshirish bo'yicha normativ nazorat tartibini alohida ta'kidlash lozim. Bu huquq normalari Qurilish kodeksi va federal yerlar qonunchiligi me'yorlariga

muvofig qabul qilingan bo'ladi. Sudlov jarayonida birinchi instansiya sifatida Oliy ma'muriy sudi harakat qiladi va u normativ-huquqiy hujjatning qonuniyligini hokimiyat organining vakolat doirasiga mosligi, shakli, huquqiy ko'rsatmalarning mazmuni, diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlarning qo'llanilishi kabi jihatlar bo'yicha tekshiradi.

Ma'muriy organlar tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilinganda, sud quyidagi holatlarni aniqlaydi:

1. Ma'muriy ixtiyoriy qaror qabul qilishni amalga oshirish uchun faktlarga asoslangan asoslar mavjudligi;

2. Ma'muriy organ bir nechta qarorlarni qabul qilish imkoni borligini aniqlaganligi yoki u noto'g'ri ravishda muayyan qarorni qabul qilishga majbur deb hisoblaganligi (bunday holat "ma'muriy ixtiyoriylikni qo'llamaganlik" deb ataladi);

3. Ma'muriy organ qonun bilan belgilangan ixtiyoriylik doirasida qolganligi, qonunda nazarda tutilgan qarorni qabul qilganligi yoki belgilangan chegaralardan chiqib ketganligi (bu "ixtiyoriylik chegaralarini buzish" deb ataladi);

4. Ma'muriy organning qarori to'g'ri va haqiqiy holatlarga asoslanganligi;

5. Ma'muriy organ barcha nuqtayi nazar va manfaatlarni tahlil va qaror qabul qilishda hisobga olganligi;

6. Ma'muriy organga ixtiyoriylik berishdan ko'zlangan maqsad yetarlicha inobatga olinganligi va organ ishga daxldor bo'lmagan sabablar yoki shaxsiy manfaatlar asosida qaror qabul qilmaganligi (bunga "ixtiyoriylik noto'g'ri qo'llash" yoki "ixtiyoriylikdan suiiste'mol qilish" deyiladi);

7. Ma'muriy organ mutanosiblik prinsipiga rioya qilganligi, ya'ni tanlangan huquqiy chora (oqibat) belgilangan huquqiy maqsadga erishish uchun mos bo'lganligi. Bu chora zarur bo'lishi kerak, ya'ni shunga o'xshash, biroq kamroq og'irlik keltiruvchi, yumshoqroq vosita mavjud bo'lmasligi kerak. Shuningdek, tanlangan chora va undan kelib chiqadigan og'irliklar huquqiy maqsad bilan oqilona va mutanosib bo'lishi shart (bu yerda "ortiqcha ta'sirni taqiqlash" qoidasi amal qiladi).

Germaniyada nazorat hatto baholash imkoniyati mavjud bo'lgan qarorlar qabul qilinganda ham faqat faktlar va huquqiy xatolarni tekshirish bilan cheklanmaydi. Ayniqsa, bu noaniq huquqiy tushunchalarga taalluqli. Bu yerda kichik holatlarda baholash doirasi paydo bo'ladi. Shuningdek, huquqiy tartib sohasida ma'muriy

organlarning ixtiyoriy qarorlarida xatoliklar mavjudligi nuqtayi nazaridan, Germaniyaning Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunining ijrosini nazorat qilish doirasi ancha kengdir.

Ma'muriy sudlar faqat ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish vakolatiga ega bo'libgina qolmay, taraflarni yarashtirish vakolatiga ham ega. Nizolarni hal etishning eng keng tarqalgan shakllari muzokaralar, yarashuv kelishuvi va mediatsiya. Ular soliq nizolari, qurilish va hududni rivojlantirish rejalashtirish sohasidagi nizolar, subsidiya ajratish va boshqa sohalarda qo'llaniladi²⁰³. Germaniyaning Soliq kodeksida soliq organlariga soliq to'lovchilar bilan soliq solish bazasi masalalari bo'yicha kelishuvlar tuzish huquqi berilgan²⁰⁴.

Mediatsiya, ya'ni ommaviy-huquqiy nizolarni hal etish usuli sifatida, 2012-yil 26-iyulda qabul qilingan "Mediatsiya va suddan tashqari nizolarni hal etishning boshqa tartiblarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonun hamda Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunning o'zgarishlari orqali keng tarqaldi. Ushbu qonun ma'muriy sudga ishni ko'rib chiqishning har qanday bosqichida taraflarga mediatsiya (ya'ni vositachilik) yoki nizolarni hal etishning boshqa usulidan foydalanishni taklif qilish huquqini berdi¹.

Agar taraflar sudning ushbu taklifini qabul qilsalar, sud tegishli yarashuv tartibini tayinlash haqida ajrim chiqaradi. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 278-paragrafi 5-qismiga muvofiq, ma'muriy sud ish yurituvida nizolarni hal etishni maxsus tayyorgarlikka ega, ya'ni muammolarni hal qilish usullarini o'rgangan sudya-mediator amalga oshirishi mumkin.

Sudya-mediator, ishni ko'rib chiquvchi sudyadan farqli o'laroq, nizoni mazmunan hal etish vakolatiga ega emas. U faqat tomonlarning ixtiyoriyligi va kelishuvi asosida harakat qiladi. Nizoni hal etishning bunday shakli ba'zan davlat-huquqiy nizoning chegaralaridan tashqariga chiqadigan qarorlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Biroq muvaffaqiyatli yarashuvga erishish uchun ma'muriy organning ixtiyorining chegaralari, faktlarni baholash va ma'muriy erkinlikka taalluqli masalalar bo'yicha amaldagi huquqiy me'yorlarga rioya qilinishi shart. Mediatsiya jarayoni davomida sud ish yurituvini to'xtatish haqida ajrim chiqaradi. Agar taraflar yarashuv kelishuviga

²⁰³ Wurtenberger T., Heckman D. Verwaltungsprozessrecht // Verlag C.H. Beck, Munchen, 2018. S. 30.

²⁰⁴ Svetkova Ye. A. Sravnitelno-pravovoy analiz alternativnykh sposobov razresheniya nalo govnykh sporov na primere Rossii, SSHA, Niderlandov, Germanii // Journ. zarubejnogo zakona i sravnitel'nogo pravovedeniya. 2017. № 2. S. 59.

erishsalar, sud ularning iltimosiga binoan bu kelishuvni tasdiqlash haqida ajrim chiqaradi.

Ma'muriy sudlarning vakolatlariga sud qarori ijrosini nazorat qilish vakolati ham kiradi. Germaniyaning Ma'muriy sudlov to'g'risidagi qonunining talablariga ko'ra, ma'muriy sud organga qarshi chiqargan qaror unga ma'muriy huquqiy hujjatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yoki yangi huquqiy hujjat qabul qilish majburiyatini yuklaydi.

Agar ma'muriy organ ma'muriy sudning qarorini ijro etmasa, tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan 10 000 yevro miqdorigacha ma'muriy jarima qo'llanilishi mumkin. Bunda sud qarorini ijro etish uchun muddat ko'rsatiladi. Ma'muriy jarimani tayinlash takroran ham amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotda sud qarorlarini ijro etish muammo keltirib chiqarmaydi. Ma'muriy organlar ma'muriy sud qarorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lib, ularni o'z vaqtida va puxta amalga oshiradilar. Agar sud qarorini ijro etish jarayonida xizmat vazifalarining buzilishi oqibatida boshqaruv organiga nisbatan jarima sanksiyalari qo'llanilsa, javobgar mansabdor shaxslar tegishli ma'muriy organ oldida regress da'vo tartibida javob beradi.

Umuman olganda, Germaniya va O'zbekistonda ma'muriy sud ish yurituvida sudning protsessual maqomini huquqiy tartibga solishda umumiy jihat ma'muriy sud va umumiy yurisdiksiya sudi o'rtasida vakolatlarni farqlashda o'xshash moddiy mezonning qo'llanilishi hisoblanadi. Bu jamoat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlat organlarining hokimiyat vakolatlari bo'lib, ular faqat ommaviy huquq normalari bilan tartibga solinadi va xususiy huquq normalari qo'llanilishi istisno qilinadi.

Bundan tashqari, har ikki mamlakatda sud vakolatlarining yuzaga kelish asoslarini tartibga solishning o'xshash mexanizmi amal qiladi. Xususan, jismoniy yoki yuridik shaxs o'zining subyektiv jamoat huquqini himoya qilishni so'rab murojaat qilganda, sud unda yuridik manfaat mavjudligini tekshiradi. Agar bunday manfaat mavjud emasligi aniqlansa, sud ma'muriy da'vo arizasini qabul qilishni rad etadi.

Germaniya ma'muriy sud ish yurituvida sud ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish vakolatini amalga oshirar ekan, u yerda sudning faol ishtiroki tamoyili amal qiladi. Bu tamoyil ishda nochor yoki kuchsizroq tomonni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, u O'zbekiston ma'muriy sud ish yurituvida sudning faollik tamoyiliga o'xshashdir.

Germaniya va O'zbekistonda ma'muriy sud ish yurituvida sudning protsessual-huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishdagi farqlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

Birinchidan, Germaniyada Federal ma'muriy sud boshchiligidagi umumiy ma'muriy sudlardan tashqari, maxsus ixtisoslashgan ikki turdagi mustaqil ma'muriy sudlar ham mavjud: moliyaviy nizolar bo'yicha sudlar va ijtimoiy nizolar bo'yicha sudlar. Ushbu sudlar mos ravishda Federal moliyaviy sud va Federal ijtimoiy sud tomonidan boshqariladi.

Ikkinchidan, Germaniyada ma'muriy sud vakolatlari, umumiy qoida tariqasida, davlat organining qarorlari manfaatdor shaxslar tomonidan shikoyat qilingan taqdirda, avval ushbu organning o'zi tomonidan ommaviy-huquqiy nizoni majburiy tarzda ko'rib chiqishi orqali yuzaga keladi. Faqat qonunda to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy da'vo bilan murojaat qilishga ruxsat etilgan holatlar (normativ-huquqiy hujjatlarga qarshi da'volar) bundan mustasno hisoblanadi.

Uchinchidan, Germaniya ma'muriy sudining vakolatlariga faqat ma'muriy organlar qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish emas, balki zarur hollarda ushbu qarorlarning maqsadga muvofiqligini ham baholash kiradi. Bu esa, tegishli holatda davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar va ularning qo'yilgan maqsadga mosligini xususiy va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda baholashni nazarda tutadi.

To'rtinchidan, sud qarorlarining davlat organlari tomonidan ijro etilishini ta'minlash maqsadida Germaniyada ma'muriy sud 10 000 yevrogacha miqdorda jarima belgilash va sud qarorini ijro etish uchun muddat belgilash vakolatiga ega.

Beshinchidan, Germaniyada sud tomonlarga nizoni turli yarashuv tartiblari orqali hal qilish huquqidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bunday yarashuv tartiblari boshqa qonunlarda batafsil tartibga solingan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: muzokaralar, mediatsiya, sud yarashuvi, arbitraj tartibi. Manfaatdor shaxslar mazkur tartiblardan ham sudgacha, ham sudga murojaat qilinganidan so'ng foydalanishlari mumkin. Bu sudlarga tushadigan yukni sezilarli darajada kamaytiradi hamda ayrim toifadagi nizolarni yarashuv usullari orqali majburiy tarzda hal etish qoidasini joriy etish imkonini beradi.

Fransuz huquqiy modeliga Fransiya, Belgiya, Italiya, Gretsiya va boshqa davlatlarni kiritish mumkin.

Kontinental huquq an'alariga asoslangan mamlakatlarda ma'muriy sud ish yurituv tizimining tashkil etilishi chuqur tarixi va huquqiy ildizlarga ega. Bu esa davlat organlarining fuqarolarga nisbatan qilgan harakatlariga nisbatan huquqiy himoyani ta'minlashda sud vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan²⁰⁵.

Mazkur huquqiy modelning asosi Fransiyaga borib taqaladi. Ushbu davlatdagi ma'muriy ish yurituv modelining mazmunini tushunish uchun quyidagi masalalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, qaysi davlat organi fuqarolarning huquqlarini davlatning noqonuniy harakatlariga qarshi himoya qilish vakolatiga egaligiga oid savolga javob topish lozim. Fransiyada bu vazifa Ma'muriy sudlar tizimiga, ayniqsa Davlat kengashiga (Conseil d'État) yuklangan. Davlat kengashi ma'muriy sudlovning eng yuqori instansiyasi hisoblanadi va u nafaqat konkret nizolarni hal qiladi, balki normativ hujjatlarning huquqqa muvofiqligini ham baholaydi.

Ma'muriy sudlar davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat muassasalari hamda ular bilan fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni ko'rib chiqadi. Bu nizolarga soliq to'lovlari, davlat xaridlari, davlat xizmatchilari bilan bog'liq nizolar, shaharsozlik va ekologiya, ijtimoiy ta'minot sohalaridagi masalalar kiradi.

Fransuz ma'muriy sudi nizoni mustaqil ravishda hal qilish vakolatiga ega. Boshqa huquqiy modellardan farqli ravishda u faqat huquqiy baholash emas, balki qaror qabul qiluvchi organ hamdir. Sud jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi va ayrim hollarda ma'muriy organning qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish haqida qaror ham chiqaradi. Sud taraflarni yarashtirish mexanizmlaridan ham foydalanishi mumkin, biroq bu ixtiyoriy va cheklangan holatlarda qo'llaniladi.

Fransiyada ma'muriy sud ish yurituvi mustaqil va umumhuquq tizimiga nisbatan alohida huquqiy tartibga ega bo'lib, fuqarolarning davlatga nisbatan murojaat qilishida muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

²⁰⁵ Maier Ch. Der Weg zu einer eigenständigen Verwaltungsgerichtsbarkeit in der Russischen Föderation. Probleme des Verwaltungsschutzes in modernen Russland // Druncker & Humblot GmbH. Berlin, 2015. S. 30; Capitani D. § 35 Gerichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Frankreich // Karl-Peter Sommermann, Bert Schaffarzik Handbuch der Geschichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Europa. Springer-Verlag GmbH Deutschland, ein Teil von Springer Nature. 2019. S. 1336–1371.

Fransiyadagi ma'muriy sud ish yurituv modelining shakllanishi va rivojlanishi 1789-yildagi Fransuz burjua inqilobi davridan boshlanadi. U o'zining asosiy prinsiplariga ega bo'lib, bu prinsiplar hozirgi kunda ham Fransiyada ma'muriy sudlovni tashkil etish va amalga oshirishning asosiy ustuni hisoblanadi.

Fransuz ma'muriy sudlovi quyidagi prinsiplarga tayanadi:

Birinchidan, yurisdiksiyalarning ajratilganlik prinsipi. Fransuz huquqi tizimida ommaviy va xususiy huquqlar o'rtasida aniq chegara qo'yilgan. Ommaviy-huquqiy nizolarni (fuqarolar yoki yuridik shaxslar va davlat organlari o'rtasidagi nizolar) faqat maxsus ma'muriy sudlar ko'rib chiqadi. Umum yurisdiksiya sudlari (sudyalar korpusi) bu kabi nizolarni ko'rishga haqli emas. Bu tamoyil 1790-yilgi 16-avgustdagi Qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, u ma'muriyat ustidan umumiy sudlar tomonidan nazorat o'rnatilishini ta'qiqlagan²⁰⁶.

Ikkinchidan, Ma'muriy yustitsiya tizimida umumiy sudlar kabi ishlovchi maxsus davlat organlarining tashkil etilishi. Fransiyada ma'muriy sudlovni amalga oshiruvchi maxsus organlar tashkil etilgan. Ular Ma'muriy sudlar (tribunaux administratifs), Ma'muriy apellyatsiya sudlari (cours administratives d'appel) va Davlat kengashi (Conseil d'État)ni o'z ichiga oladi. Mazkur sudlar ma'muriyat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi, jumladan ma'muriy qarorlarning qonuniyligini tekshiradi, ma'muriy organlar harakatlarining fuqarolar huquqlariga ta'sirini baholaydi va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda qaror chiqaradi. Bu sudlar alohida protsessual tartibda, umumiy sudlardan farq qiluvchi holda faoliyat yuritadi. Shu bilan fransuz ma'muriy ish yurituv davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligini ta'minlashga qaratilgan mustaqil va mustahkam tizim sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu prinsiplar 1789-yildan 1987-yilgacha bo'lgan davr mobaynida Fransiyada ma'muriy sudlov modelining shakllanishi va mustahkamlanishi uchun huquqiy va institutsional asos bo'lib xizmat qildi. Bu jarayon natijasida Fransiyada ma'muriy sudlarning uch pog'onali tizimi yaratildi. Bu tizim hozirgi kunda ham ma'muriy ish yurituvni samarali va tizimli tashkil etishni ta'minlaydi.

Fransiya ma'muriy sudlarining uch pog'onali tizimi quyidagilardan iborat:

²⁰⁶ Fromont M. Rechtsschutz gegenüber der Verwaltung in Deutschland, Frankreich und den Europäischen Gemeinschaften (Monographie). Verlag Heymanns, Köln, 1967. S. 17.

1. Davlat kengashi (Conseil d'État) Fransiyadagi eng oliy ma'muriy sud organi hisoblanadi. U ayrim toifadagi ma'muriy nizolar bo'yicha birinchi instansiyada ishni ko'rish (masalan, hukumat qarorlari ustidan shikoyatlar), apellyatsiya tartibida ayrim qarorlarni qayta ko'rib chiqish, kassatsiya instansiyasi sifatida ma'muriy apellyatsiya sudlari qarorlarini qonuniylik nuqtayi nazaridan tekshirish va hukumatga huquqiy maslahat organi sifatida ham xizmat qilish, loyiha qilingan qonunlar va normativ hujjatlar yuzasidan xulosa berish vakolatiga ega.

2. Ma'muriy apellyatsiya sudlari (Cours administratives d'appel) ma'muriy sudlarning birinchi instansiyada chiqargan qarorlarini apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish va qonunni qo'llashda bir xillikni ta'minlash vazifalarga ega²⁰⁷.

3. Ma'muriy sudlar (Tribunaux administratifs) Fransiyaning 42 ta hududida faoliyat yuritadi. Ushbu sudlar hududlardagi fuqarolar va ma'muriyat o'rtasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni birinchi instansiyada ko'radi.

Fransiya ma'muriy sud tizimi davlat va fuqaro o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarni mustaqil va samarali hal etishga qaratilgan. Ushbu uch bosqichli tuzilma nizolarni keng qamrovli va bosqichma-bosqich ko'rib chiqish imkonini beradi, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish mexanizmini to'liq ta'minlaydi. Fransuz modeli ko'pgina boshqa mamlakatlar, xususan kontinental huquq tizimiga mansub davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Fransiyada, klassik uch pog'onali ma'muriy sudlardan tashqari, alohida sohalarga ixtisoslashgan ma'muriy sudlar ham faoliyat yuritadi. Ularning faoliyati moliya, budjet, ijtimoiy himoya, davlat xizmatchilari kabi sohalarda yuzaga kelgan jamoat-huquqiy nizolarni hal etishga qaratilgan. Xususan, moliyaviy sud (Cour des comptes) davlat moliyaviy organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Fransiyadagi Konstitutsiyaviy Kengash ham ayrim toifadagi ommaviy-huquqiy masalalarni ko'rib chiqish huquqiga ega. Uning vakolatiga qonunlar va xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish, konstitutsiyaviy shikoyatlar yuzasidan qaror chiqarish hamda saylovlar va referendumlarning qonuniyligini nazorat qilish kabilar kiradi.

²⁰⁷ Lücking W. Die Grundlagen der französischen Verwaltungsgerichtsbarkeit. Heft 2. Verlag von Richard Mayr. Würzburg, 1955. S. 5.

Ma'muriy va umumyurisdiksiya sudlari o'rtasidagi chegara Fransiya huquqida eng murakkab nazariy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq. Xususan, davlat organlari o'z faoliyatida ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy shakllardan foydalanadi. Masalan, agar ma'muriyat shaxslar bilan teng sharoitda shartnoma tuzsa (xususiy-huquqiy munosabat), unda umumyurisdiksiya sudlari vakolatli bo'ladi. Ammo agar ma'muriyat o'z vakolatiga asoslangan holda qaror qabul qilsa (ommaviy-huquqiy munosabat), bu masala ma'muriy sud vakolatiga kiradi.

Fransiya ma'muriy sudlov tizimi nafaqat umumiy, balki maxsus vakolatli sud organlarini ham o'z ichiga oladi. Bu tizim ommaviy-huquqiy munosabatlarni har tomonlama qamrab olish va har bir sohada ixtisoslashgan sudlar orqali adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq ma'muriy va fuqarolik yurisdiksiyasi o'rtasidagi chegaralarni aniqlash masalasi Fransiya huquqshunosligida hanuz dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Fransiya tajribasining muhim o'ziga xos ko'rinishi ma'muriy sudlovida vakolatlarni ajratishning moddiy mezonlari mavjudligidir. Bularga davlat xizmati va davlat hokimiyatiga xos ustunliklarni kiritish mumkin.

Davlat xizmati mezoniga ko'ra agar ma'muriy organ o'z faoliyatini jamoat ehtiyojlarini qondirish maqsadida, faqat davlat-huquqiy shaklda amalga oshirsa, bunday faoliyat natijasida yuzaga kelgan huquqiy nizo ma'muriy sud vakolatiga kiradi. Ya'ni, agar faoliyat xususiy huquq qoidalari asosida amalga oshirilsa (masalan, tijorat shartnomalari asosida), u holda bunday nizo ma'muriy sud vakolatiga kirmaydi. Lekin agar davlat organi jamoat manfaati yo'lida, bir tomonlama hokimiyat vakolati bilan harakat qilsa, bu ma'muriy ish hisoblanadi.

Davlat hokimiyatiga xos ustunliklar (*Prérogatives de puissance publique*) mezoni davlat hokimiyati organlarining bir tomonlama qabul qilgan va majburiy ijro etilishi kerak bo'lgan qarorlariga taalluqli. Agar shaxs bunday qarorga bo'ysunishdan bosh tortsa, davlat organi sudga murojaat qilmasdan, uni ijro etishi mumkin. Bu holda nizo ma'muriy sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Chunki davlat bir tomonlama qaror chiqarish va uning ijrosini to'g'ridan to'g'ri amalga oshiradi. Bunday holda jismoniy yoki yuridik shaxslar bu qarorga qarshi shikoyat bilan ma'muriy sudga murojaat qiladi.

Yuqoridagi mezonlar orqali ham sudga taalluqli masala hal etilmasa sud yurisdiksiya masalasini hal etish uchun ishni nizolarni hal qilish tribunaliga yuborishi mumkin. Bu organ ma'muriy va umumyurisdiksiya sudlari o'rtasida yurisdiksiya to'qnashuvlarini hal qilish bo'yicha ixtisoslashgan. Ushbu Tribunal sud amaliyoti orqali aniq yo'nalishlar belgilab beradi.

Fransuz ma'muriy sudlari reglamentar hujjatlar va individual ma'muriy qarorlarga nisbatan nazorat amalga oshiradi. Ma'muriy sud bunday hujjatlarning qonunga muvofiqligini baholaydi. Shu orqali sud ma'muriy organlar faoliyatini huquqiy nazorat qiladi va ma'muriy ish yuritish turlarida o'z vakolatlarini amalga oshiradi.

Fransuz ma'muriy sudlari yozma shaklda ish yuritish, taraflarning tengligi va da'voning isboti, ishning aslini aniqlash va sudning dalil to'plashdagi cheklangan faolligi prinsiplariga tayanadi. Xususan, ish yuritish sudga yozma ko'rinishdagi ma'muriy da'vo arizasi kelib tushganidan so'ng boshlanadi. Sud ishni yuritishga olishdan avval da'vogarda shaxsiy manfaatning mavjudligini tekshiradi. Fransiya qonunchiligida ma'muriy organga murojaat qilish majburiy emas, lekin istalgan shaxs avval ma'muriy organning o'ziga yoki undan yuqori turuvchi organga murojaat qilishi mumkin.

Taraflarning tengligi va da'voning isboti prinsipiga ko'ra, har bir taraf o'z talablarini asoslash va isbotlash majburiyatiga ega. Sud faqat da'vogar tomonidan bayon qilingan asoslar va dalillar doirasida ishni ko'radi va o'zi mustaqil ravishda yangi talablar kiritmaydi.

Ishning aslini aniqlash prinsipi doirasida sud ish bo'yicha huquqiy va faktik holatlarni aniqlash uchun tegishli tadqiqot amalga oshiradi. Biroq sudning faolligi da'vogar tomonidan ko'rsatilmagan talablar bo'yicha cheklangan. Agar sud da'vogarning ba'zi talablarini davlat organi oldida ilgari surmaganini aniqlasa, u holda bunday talablar inobatga olinmaydi.

Sudning dalil to'plashdagi cheklangan faolligi prinsipiga ko'ra sudlar dalillar to'plashda cheklangan faollikni namoyon etadi. Sud taraflar tomonidan keltirilgan dalillar bilan ishlaydi va faqat o'ta zarur hollarda qo'shimcha dalil talab qiladi.

Umuman olganda yuqoridagi prinsiplar Fransiyada ma'muriy sudlovning huquqiy davlat asosidagi mustaqil va adolatli tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi²⁰⁸.

²⁰⁸ Gebhardt G. Rechtsschutz durch und gegen die Verwaltung in Frankreich – zugleich eine vergleichende Betrachtung zu Annäherungstendenzen des französischen und deutschen Verwaltungsschutzsystems. S. 7.

Fransiyada davlat organlari ustidan ma'muriy sud nazorati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ma'muriy sudlar davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ammo bu nazoratning qamrovi va shakli davlat xizmatchilari faoliyatini tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy normalarning xususiyatiga bog'liq. Fransuz huquqshunosligida bu normalar asosida ma'muriy vakolatlar ikki toifaga ajratiladi: 1.Cheklangan vakolatlar (compétence liée); 2. Ixtiyoriy vakolatlar (pouvoir discrétionnaire).

1. Cheklangan vakolatlar(compétence liée) doirasida ma'muriy organ faqat qonun aniq ruxsat bergan yoki majbur qilgan hollarda harakat qilish huquqiga ega.Qonundan chetga chiqib qaror qabul qilish taqiqlangan. Agar amal qilingan qaror qonun bilan ruxsat berilmagan bo'lsa, u holda u bekor qilinishi lozim. Bunday holda sud "oddiy nazorat" (kontrol de l'erreur de droit et de fait) amalga oshiradi.Ya'ni, faktlarni noto'g'ri belgilangani va ularning huquqiy malakalashda xatolik mavjudligini tekshiradi.

2. Ixtiyoriy vakolatlar (pouvoir discrétionnaire) doirasida ma'muriy organ qaror qabul qilishda tanlov va baholash erkinligiga ega. Qonun faqat umumiy chegaralar belgilaydi, ammo qarorning mazmunini tanlash huquqini organning o'ziga yuklaydi. Bunday holatda sud cheklangan nazorat amalga oshiradi, ya'ni qaror qabul qilishda texnikaviy yoki ilmiy bilimlar asos bo'lganida va qaror siyosiy tabiatga ega bo'lsa, xususan jamoat xavfsizligi sohasida bo'lsa nazorat amalga oshiradi. Bunda sud faktlar haqiqiylikini va ularning huquqiy baholanishi to'g'ri yoki yo'qligini tekshiradi.

Bu tizim Fransiyada huquqiy davlat va ma'muriy adolat prinsiplariga mos tarzda sudning salohiyatini belgilaydi. Sud ma'muriy ixtiyoriylikni to'liq cheklamasdan, asoslanganlik va qonunga muvofiqlikni ta'minlaydi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqlarini himoya qilishda ma'muriy organlarning diskretsion vakolatlari ustidan sud nazorati muhim ahamiyatga ega. Fransiya qonunchiligiga ko'ra, diskretsion vakolat zarur huquqiy me'yorlarning mavjud emasligida va me'yoriy hujjatlarda keng ma'noli normalar mavjud bo'lgan hollarda bu ma'muriy organlar tomonidan qaror qabul qilish ixtiyoriyligi tushuniladi. Bu hollarda ma'muriy organ o'z tanloviga ko'ra, huquqiy harakatning shakli va usulini belgilash huquqiga ega bo'ladi.

Diskretsiyon vakolatlar ustidan nazorat odatda minimal darajada amalga oshiriladi. Ammo Fransiya ma'muriy sud amaliyoti 1960-yillardan boshlab nazoratni chuqurlashtiruvchi quyidagi beshta muhim mexanizmni ishlab chiqilgan:

1. Majburiy asoslash majburiyati (*L'obligation de communiquer au juge les motifs d'une décision*)ga Ma'muriy organ sudga o'z qarorining aniq va individual asosini taqdim etishi shart. Umumiy standart izohlar qabul qilinmaydi. Sud qarori qabul qiluvchi organning muayyan vaziyatga oid dalillarni keltirishini talab qiladi.

2. Aniq baholash xatosi (*Erreur manifeste d'appréciation*)ga ko'ra ma'muriy organ tomonidan faktlarni yoki ularning huquqiy tavsifini xatolik bilan baholaydi.

3. Ichki ma'muriy direktivalar tahlilida ma'muriy organlar ko'pincha ichki reglamentlar (direktivalar) asosida ish yuritadi. Agar organ bu direktivalardan chetga chiqmoqchi bo'lsa, u holda sudga ijtimoiy zarurat yoki individual holatning spetsifikasi bo'yicha asos keltirishi shart.

4. Xarajat-foyda tahlili (*Analyse coût-avantage*)da ma'muriy qaror qabul qilishda organ uning ijobiy va salbiy ta'sirini baholashi va jabrlangan shaxslar va jamoatchilik uchun oqibatlar hisobga olishi kerak. Bunday holda sud bu muvozanatni to'liq baholaydi.

5. Mutanosiblik prinsipi doirasida ma'muriy qaror insoniy huquqlar va shaxsiy erkinliklarga jiddiy ta'sir etsa, sud ma'muriy maqsad va shaxsiy huquqlar o'rtasidagi muvozanatni tekshiradi.

Bu mexanizmlar Fransiyada huquq ustuvorligini ta'minlaydi, ma'muriy organlarning erkinligini asossiz va subyektiv qarorlardan himoya qiladi va fuqarolar huquqlarini kafolatlaydi.

Fransiyada sud nizosini hal qiluvchi qaror qabul qilinganidan so'ng, uning ijrosi to'liq nazorat qilinadi. Sud qarori bajarilmasa manfaatdor shaxs ma'muriy sud yoki ma'muriy apellyatsiya sudiga murojaat qilishi mumkin. Agar qarorda ijro tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa, mazkur sud organi qaror ijrosi uchun muddat belgilaydi va majburlovchi moliyaviy jazo chorasini qo'llaydi.

Umuman olganda, Fransiya va O'zbekistonda ma'muriy sud hamda umumiy yurisdiksiya sudi o'rtasida vakolatlarni taqsimlashda o'xshash moddiy mezon qo'llaniladi. Ushbu mezon davlat organlarining jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hokimiyat vakolatlarini o'z ichiga oladi va ushbu faoliyatni davlat hokimiyatining ommaviy huquq

normalari orqali tartibga solishini nazarda tutadi, shuningdek, xususiy huquq normalarining qo'llanilishini istisno etadi.

Har ikki davlatda ham ommaviy huquqqa oid nizolar yuzasidan sud vakolatlari vujudga kelishi uchun o'xshash huquqiy mexanizmlar mavjud. Bunday vakolatlar manfaatdor shaxs tomonidan nizoni hal etish uchun sudgacha (ma'muriy) tartibni tanlashi orqali sud vakolatining yuzaga kelishi yoki muayyan toifadagi nizolarni tegishli davlat organi tomonidan majburiy tartibda oldindan ko'rib chiqilishi talab etiladigan holatlar kabi asoslarga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, sudning ommaviy huquqqa oid nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha vakolatga ega bo'lishi murojaat etuvchi shaxsda subyektiv ommaviy huquqni himoya qilishga oid huquqiy manfaatning mavjudligi yoki yo'qligini tekshirishga bog'liq. Agar sud bunday manfaat mavjud emas, deb hisoblasa, u holda ma'muriy da'vo arizasini qabul qilishni rad etadi.

Bundan tashqari, Fransiyaning ma'muriy sudlov tizimida zaif tomonni himoya qilishga qaratilgan qidiruv prinsipi amal qiladi. Bu prinsip milliy qonunchiligimizdagi ma'muriy sudlovda sudning faolligi prinsipi bilan o'xshashdir.

O'zbekiston va Fransiya ma'muriy sudning protsessual-huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishdagi farqlar quyidagicha namoyon bo'ladi.

Fransiyada moliya, budget va boshqa ijtimoiy sohalardagi ommaviy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan sud organlarining alohida tizimi mavjud (maxsus vakolatga ega ma'muriy sudlar tizimi). Ushbu sudlar ommaviy huquqiy munosabatlar predmetiga qarab adolatni ta'minlaydi. Ular ushbu nizolarni ko'rib chiqishda va hal etishda, ma'muriy organlar qarorlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirishdan tashqari, zarur hollarda ushbu qarorlarni qabul qilish maqsadga muvofiqligini ham baholaydi. Bunday baholashda jamoat organlari harakatlarning maqsadi va ularning holatga muvofiq turlari xususiy va jamoat manfaatlari bilan qonun doirasida muvofiqligi aniqlanadi.

Fransiyada sud qarorlarini davlat organlari tomonidan ijro etilishini ta'minlash maqsadida, sud har bir ijro qilinmagan kun uchun belgilangan foiz miqdoridagi jarima (astrent) tayinlash vakolatiga ega.

Anglo-sakson huquqiy modeli shakllanishining nazariy asosi sifatida huquq ustuvorligi doktrinasi xizmat qilgan. Uning mohiyati

davlat hukmdorlarining qonun, urf-odat va sud pretsedenti shaklidagi umumiy huquq normalariga bo'ysunishida ifoda topadi¹.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorligini ta'minlovchi organlar qirolik sudlari bo'lib, ular xususiy va ommaviy huquq sohasidagi ishlarni fuqarolik sudlov qoidalari asosida ko'rib chiqish va hal etish vakolatiga ega. Bu jihatdan ular qit'a huquqi tizimiga mansub mamlakatlar (Fransiya, Germaniya) sudlaridan farq qiladi²⁰⁹.

Shu munosabat bilan ingliz yuridik nazariyasi ma'muriy sudlov nazariyasining asoslarini ishlab chiqishdan voz kechgan, chunki bu doktrina huquq ustuvorligi tamoyilining daxlsizligini shubha ostiga qo'yishi mumkin edi.

Shu bilan birga, XIX–XX asrlar chorrahasida Angliya huquqiy tizimida ijro hokimiyati ta'sirining kuchayishi bilan bog'liq o'zgarishlar sodir bo'ladi. Turli huquqiy nizolarni umumiy sudlar tomonidan ko'rib chiqish an'anasidan chekinishlar va ilk ma'muriy tribunallarning joriy etilishi tabiiy jarayonga aylandi.

Bu esa mavjud nazariy konsepsiyaga ma'muriy tribunallar va sudlarning ommaviy-huquqiy nizolar yuzasidan vakolatlari to'g'risidagi nazariyaga o'zgarish kiritishga olib keldi, keyinchalik esa parlament tomonidan tayinlanadigan vakolatli mansabdor shaxslar tizimi, ijro hokimiyati organlarini nazorat qiluvchi boshqa organlar va sud tizimining isloh qilinishi kabi yangi institutlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda Angliyada har qanday shaxs o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan istalgan organga murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu organlar orasida fuqarolarning ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan noqonuniy qarorlardan himoyasini ta'minlashda asosiy mexanizm sud hisoblanadi, chunki u ko'p asrlik huquqiy an'analarga, shuningdek, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning protsessual shakl orqali amalga oshiriladigan tegishli kafolatlariga ega. Bu holat ijro hokimiyati vakolatli organi tomonidan qabul qilingan hujjat shaxsning huquqiy manfaatlariga taalluqli bo'lgan hollarda yuzaga chiqadi.

²⁰⁹ Aparova T. V. Суды и судебный процесс Великобритании. Англия, Уэльс, Шотландия. М., 1996. С. 11; Уейд Ye. S., Филлипс D. D. Конституционное право // отв. ред. С. В. Кылов. М., 1950. С. 61; Shmelev I. V. Osobennosti protsessa peresmotra administrativnykh aktov v ad ministrativnom sude Velikobritanii // Teoriya i praktika obshchestvennogo razvitiya. Krasno dar, 2014. № 10. С. 189.

Hozirgi kunda ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha sud tizimi quyidagi organlarni o'z ichiga oladi:

1. Buyuk Britaniya Ma'muriy sudi Oliy sudning Qirollik bo'limi tarkibiga kiradi va markaziy hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, tartibga soluvchi va intizom organlari, quyi sudlar va ma'muriy tribunallar, boshqa davlat organlari va jamoat funksiyalarini bajaradigan mansabdor shaxslar faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish vakolatiga ega.

2. Apellyatsiya sudi ma'muriy adliya organlari va quyi sudlar qarorlari yuzasidan ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqadi. Bunday qarorlar quyidagi sohalarga taalluqli bo'lishi mumkin: aholini ish bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi yerlari, mehnat faoliyati, boshpana va migratsiya, ruhiy salomatlik, ijtimoiy ta'minot va bolalar parvarishiga oid to'lovlar, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq nizolari.

3. Oliy sud Buyuk Britaniyada barcha fuqarolik ishlari va alohida ahamiyatga ega ishlar bo'yicha so'nggi apellyatsiya instansiyasi hisoblanadi.

4. Grafluk sudlari politsiyaga oid ishlar, yer huquqiga taalluqli da'volar va boshqa shunga o'xshash masalalar bo'yicha ishlar yuzasidan vakolatli hisoblanadi.

5. Korona sudi magistrat sudlari qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

6. Magistrat sudlari bolalar tarbiyasiga oid ishlar va boshqa ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega.²¹⁰

Sudlar o'rtasida vakolatlar taqsimotini 1981-yilda qabul qilingan "Oliy sudlar to'g'risida"gi Qonun hamda 2007-yilda qabul qilingan "Tribunallar, sudlar va majburiy ijro to'g'risida"gi Qonun belgilab beradi. Ma'muriy ishlar bo'yicha sud ish yuritish tartibi 1997-yilda qabul qilingan "Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar faoliyatining mazmuni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirishdan iborat. Sud nazoratining predmeti ushbu organlar tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktlar hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda sudlar faoliyatining mazmuni, odatda, sudning vakolatlarni amalga oshirish tartibi va adolatni ta'minlashda foydalanadigan vositalari sifatida izohlanadi.

²¹⁰ The Developing Administrative Justice Landscape: Executive Summary // Administrative Justice and Tribunals Council. URL: http://ajtc.justice.gov.uk/docs/landscape_paper.pdf (data o'rnatilgan 23.11.2019).

Ushbu fenomenlarning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun ingliz huquqi doirasida ma'muriy akt tushunchasini ko'rib chiqaylik. Ma'muriy aktlar deb davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan va xususiy shaxslarning huquqlariga taalluqli bo'lgan har qanday hujjatlarga aytiladi. Bularga metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar, standartlar, yozma javoblar va hisobotlar, shuningdek ma'muriy aktni qabul qilishdan bosh tortish kabi holatlar kiradi.

Ma'muriy aktlar ustidan nazoratni amalga oshirar ekan, sudlar 1981-yilgi "Oliy sudlar to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasida belgilangan vazifalarni bajaradilar:

1. Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar normalarining haqiqiy ma'nosini majburiy tarzda talqin qilishni ta'minlash;

2. Qonundan yuqori huquqiy kuchga ega bo'lgan normalar bilan taqqoslab, ustavlar va qarorlarni (qonunlardan keyingi normativ hujjatlarni) haqiqatga muvofiqligiga qarashadi va qonunlardan keyingi hujjatlardagi aniq normalarni talqin qilish;

3. Davlat organlari tomonidan diskretsiya vakolatlarining amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

4. Davlat organlari tomonidan ma'muriy akt qabul qilish jarayonlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

5. Qaror qabul qiluvchi shaxslarning betarafligini nazorat qilish va huquqiy ahamiyatga ega xatolik yuzaga kelgan taqdirda samarali huquqiy himoya vositasini ta'minlash.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni ko'rib chiqish bo'yicha sudning vakolati, agar ushbu qarorlar ommaviy huquq predmeti bo'lsa, yuzaga keladi. Oliy sudning ilmiy hamda sud amaliyotida ma'muriy nizoni ommaviy huquqqa tegishli deb hisoblash uchun maxsus organning vakolat manbai, ya'ni tegishli harakatni amalga oshirish uchun organning vakolatini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat bo'lishi, qo'llanilayotgan chora-tadbirlar doirasi aniq bo'lishi va hokimiyatning tabiatini anglash, ya'ni qaror qabul qilayotgan shaxs yoki boshqa subyekt ommaviy huquq funksiyalarini bajarish kabi mezonlar ishlab chiqilgan.

Ingliz yuridik adabiyotlarida ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktlar ustidan sud nazorati elementlari tahlil qilingan. Ularga ma'muriy aktlarning qonuniyligi, ma'muriy organning vakolat doirasi va protsessual tartibga amalga qilishi kabilarni kiritish mumkin.

Ma'muriy aktning qonuniyligini nazorat qilish sud tomonidan qaror qabul qilgan organning vakolati mavjudligini tekshiradi. Xususan, normativ terminning mazmunan ma'nosini talqin qilish hamda faktlarni tanlab olish va ularni normaning huquqiy xususiyatiga to'g'ri keltirish kabilarni aniqlaydi²¹¹.

Diskretsion vakolatlardan foydalanish majburiyatining buzilishiga qaror qabul qiluvchi shaxslarga vakolatlarni boshqalarga berish taqiqining buzilishi va diskretsion vakolatlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik holat(vaqtida talqin qilmaslik)lar kiradi²¹².

Ingliz huquq tizimidagi yana bir o'ziga xos jihat huquqni suiiste'mol qilish holatlari aniq belgilanganligi hisoblanadi. Bunga muayyan ruxsatnoma (qo'llanma) yuzasidan nomaqbul maqsadlar ko'zlash, qarorlar asossiz, ortiqcha yoki me'yordan tashqari darajada og'ir bo'lishi va diskretsion vakolatlar qasddan suiiste'mol qilish kabilarni kiritish mumkin²¹³.

Sud tomonidan ma'muriy organlarning mutanosiblik prinsipiga amal qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Buning doirasida sud ma'muriy organ tomonidan huquqlarni cheklashi asosiligi, maqsadga erishish uchun qo'llanilgan chora-tadbirlar ratsionalligi hamda qo'llangan usul va vositalar ortiqcha yoki haddan tashqari og'ir emasligini tekshiradi.

Shuningdek, tadqiqotchilar ta'kidlashicha, mutanosiblik doktrinasidan sud qaror to'g'ri qabul qilinganligini deb tekshirish emas, balki ma'muriy organ qaror qabul qilishda manfaatlar o'rtasida to'g'ri muvozanatni saqladimi, deb baholashni ham talab qiladi. Bundan tashqari, mutanosiblik mezonini sudni taraflarning manfaatlari va qarashlariga qanchalik ahamiyat berilganini ham hisobga olishga majbur qiladi.

Ushbu nuqtada sud nazoratining intensivligi qonun bilan belgilangan maqsadga erishishda huquqlarni cheklash demokratik jamiyatda zarur bo'lgan chora ekanligi tekshirilishini anglatadi. Bunda sud ma'muriy organ tomonidan qo'llangan cheklov ijtimoiy ehtiyojga javob berganligi va uning aralashuvi qonuniy maqsadga nisbatan proporsional bo'lganligini aniqlaydi.

²¹¹ Ralf Brinktrine. § 32 Geschichte des Verwaltungsgerichtsgerechtschützes im Vereinigten Königreich von Grossbritannien und Nordirland Frankreich. S. 1234.

²¹² Brinktrine R. Verwaltungsermessen in Deutschland und England. S. 1237; Brinktrine R. Verwaltungsermessen in Deutschland. 1998. (Fn. 12). S. 353.

²¹³ Brinktrine R. § 32 Geschichte des Verwaltungsgerichtsgerechtschützes im Vereinigten Königreich von Grossbritannien und Nordirland Frankreich. S. 1237.

Bu shuni anglatadiki sud ijro etuvchi hokimiyat organlari qarorlarining maqsadga muvofiqligini ham baholaydi. Bunda qaror orqali jamoatchilik munosabatlarini tartibga solishda qonun bilan nazarda tutilgan maqsadga amal qilinganligi, qarorni qabul qilgan organ o'z vakolatlari doirasida harakat qilganligi va qo'llangan choralarda shaxsiy va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilganligiga baho beradi.

Sud agar davlat organi ilgari bir xil turdagi masalalarni bir xil hal etib kelgan bo'lsa, ammo aynan shu holatda asossiz chekinish qilgan bo'lsa, sud bunday qarorni o'zgartirish huquqiga ega. Ya'ni, odillik va tenglik tamoyilini buzadigan ma'muriy qarorlar, hatto agar ular rasman qonunga zid bo'lmasa ham, sud tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Sud bu bilan shaxsning ishonchli kutilmalari (legitimate expectations) himoyasini amalga oshiradi.

Shuningdek, sud ma'muriy jarayonning qonuniyligini tekshirishni ta'minlaydi. Protsessual normalarni buzish qarorning haqiqiy emas, ya'ni noqonuniy deb topilishiga olib kelishi mumkin, biroq bu faqatgina ushbu protsessual talab "majburiy", deb tasniflangan taqdirda yuz beradi. Bu holatda "protsessual adolat" tushunchasi qo'llaniladi, u nafaqat yozma qoidalarni, balki yozilmagan protsessual prinsiplarni ham o'z ichiga oladi. Shu tarzda, boshqaruv faoliyati uchun asosiy mezonlar sifatida tabiiy adolat prinsiplari xizmat qiladi.

Tabiiy adolatning asosiy protsessual prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Barcha tomonlarni eshitish majburiyati (*audi alteram partem*), ya'ni qaror qabul qilinishida barcha manfaatdor shaxslarga o'z fikrini bildirish imkoniyati berilishi;

2. Xolis qaror qabul qilish (*nemo iudex in causa sua*) hech kim o'z ishi bo'yicha hukm chiqarmasligi kerak, ya'ni qaror qabul qiluvchi shaxs manfaatdorlikdan xoli bo'lishi lozim.

3. Bir tomonlama yoki taqqoslama yon bosishga yo'l qo'ymaslik (qarama-qarshilikka qarshi qoida) qaror qabul qiluvchi shaxs har qanday shaxsiy qarashlardan, fikrlardan yoki ta'sirlardan xoli holda, xolis va betaraf qaror chiqarishi shart.

Shu tariqa, sud faqat qarorning mazmunini emas, balki ushbu qarorga olib kelgan jarayonning adolatlilikini ham baholaydi. Agar mazkur protsessual kafolatlardan biri buzilgan bo'lsa, hatto qaror qonuniy normalarga asoslangan bo'lsa ham, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Protsessual adolatning buzilishi ba'zan protsessual nuqtayi nazardan qonuniy kutilmalarni inkor etish natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Aniq belgilangan majburiyatlardan tashqari, protsessual qonuniy kutilmalar, xususan, o'tmishda doimiy qo'llanilgan tartib-taomillardan kelib chiqishi mumkin, bu esa kelgusida ham ushbu tartib qo'llanilishiga nisbatan ishonchni yuzaga keltiradi. Bunday kutilmalar 1998-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Qonunning 3 va 6-boblari asosida Yevropa inson huquqlari sudi (YEIHS)ning yondashuvlari bilan uyg'unligi nuqtayi nazaridan baholanishi mumkin.

Inson huquqlari to'g'risidagi Qonunning 6-moddasi 1-qismida shunday deyiladi: "Davlat organining konvensiya huquqlariga mos kelmaydigan harakatlari noqonuniy hisoblanadi". Inson huquqlari to'g'risidagi Qonunning 1-bob 1-qismi va 3-qismida tilga olingan, Konvensiyada mustahkamlangan huquqlarga daxldor buzilishlar, ushbu Qonunning 3-ilovaning mazmunida aniq va bevosita aks ettirilgan holda, ma'muriy qarorning noqonuniyligi va haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi.

Ishni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha sud quyidagi turdagi qarorlarni chiqaradi:

1. Vakolatli organning qarorini noqonuniy deb topish to'g'risidagi qaror. Bunday qaror qabul qilingan paytdan boshlab haqiqiy emas deb topiladi. Biroq vakolatli organ yangi qaror qabul qilishi mumkin. Bunda sud qarorida bayon etilgan qonun talqiniga rioya qilishi shart bo'ladi.

2. Taqiqlovchi qaror. Bu huquqiy himoyani taqiqlashga oid oldingi qarorga asoslangan taqiqlovchi farmoyishdir. Bunday farmoyish orqali agar ma'muriy organ o'z yurisdiksiyasini amalga oshirishda uning chegaralarini yoki tabiiy adolat normalarini buzsa, ma'muriy organga o'z vakolatlarini amalga oshirish taqiqlanishi mumkin;

3. Majburlovchi qaror. Bu imperativ farmoyish orqali davlat organi o'zining qonuniy jamoat majburiyatlarini bajarishga majburlanishi mumkin. Bunda ariza beruvchida ushbu majburiyat bajarilishiga nisbatan qonuniy manfaat bo'lishi lozim. Majburlovchi farmoyish ma'muriy organ bunday harakat yoki qaror qabul qilish to'g'risida to'liq ixtiyoriy huquqqa ega bo'lgan hollarda chiqarilmaydi.

Ma'muriy sudlov doirasida sud ishni mohiyatan ko'rib chiqishga oid vakolatlaridan tashqari barcha bosqichlarda taraflarni yarashtirishga ko'maklashish vakolatiga ham ega. Sud tomonidan yarashuvga erishish

uchun qo'llaniladigan shakllar qatoriga mediatsiya, sud yarashuvi, muzokaralar va kelishuv shartnomasi kiradi. Ushbu shakllar ayniqsa soliq nizolari, qurilish sohasi va ijtimoiy to'lovlar bilan bog'liq ishlar yuzasidan keng tarqalgan.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudning muhim vakolatlaridan biri o'z qarorlarining davlat organlari tomonidan oqilona muddatda ijro etilishini ta'minlashga kafolat yaratish hisoblanadi. Ma'muriy organ sud qaroriga rioya qilmagan hollarda, uni ijro etishni ta'minlash uchun maxsus tartib-taomil nazarda tutilgan, xususan, sud tomonidan taqiqllovchi qarorlar chiqarish yoki jarimalar qo'llash orqali. Shuningdek, sud qarorlarini ijro etish uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar intizomiy, fuqarolik-huquqiy yoki jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin.

Agar davlat organi ma'muriy hujjatni bekor qilish haqidagi sud qarorini ijro etmasa, arizachi 1998-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Qonunning 4-bobi asosida sudga mazkur harakatning Konvensiyaga mos kelmasligi haqida ariza bilan murojaat qilish va sud qarorining ijro etilmasligi tufayli yetkazilgan zararni qoplash haqida talab qo'yish huquqiga ega.

Umuman olganda, Angliya va O'zbekistonda ma'muriy sudlovda birinchi instansiya sudning protsessual maqomini huquqiy tartibga solishda umumiy jihat shundaki, sudning ommaviy-huquqiy nizolar bo'yicha vakolatlari yuzaga kelishining asosi huquqiy himoya so'rayotgan shaxsning subyektiv ommaviy huquqini himoya qilishda huquqiy manfaatining mavjud yoki mavjud emasligini sud tomonidan tekshirish hisoblanadi. Agar sud bunday manfaat mavjud emas, deb topsa, u holda ma'muriy da'vo arizasini qabul qilishdan bosh tortadi. Bundan tashqari, manfaatdor shaxs o'z huquqlarini himoya qilish uchun avvalo ommaviy-huquqiy nizoni hal etish vakolatiga ega organga murojaat qilishi, so'ngra sudga murojaat qilishi mumkin yoki to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat etishi ham mumkin.

Ommaviy-huquqiy nizolarni majburiy tartibda suddan oldin ko'rib chiqish tartibi qonunchilikda nazarda tutilmagan. Biroq Angliya qonunchiligida sud yuklamasini kamaytirish maqsadida ommaviy-huquqiy nizolarni dastlabki tartibda tegishli ma'muriy tribunalda ko'rib chiqish tartibi belgilangan.

Angliya sudi tomonlarga nizolarni yarashuv protseduralari muzokaralar, mediatsiya, sud yarashuvi orqali hal etish huquqidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Manfaatdor shaxslar bunday

protseduralardan ham sudga murojaat qilishdan oldin, ham undan so'ng foydalanishlari mumkin, bu esa sud yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, Angliyaning ma'muriy sud ish yurituvda sudning faol ishtiroki prinsipi amal qiladi, bu esa ma'muriy sudlovda kuchsiz tomonni himoya qilish orqali namoyon bo'ladi.

Angliya va O'zbekistonda ma'muriy sudlovda sudning protsessual-huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishdagi farqlar uning ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etishdagi faoliyati mazmunida o'z aksini topadi. Xususan, sud faqat ma'muriy organlar qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish bilan cheklanib qolmay, zarur hollarda ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligini ham baholaydi. Bu esa, ayniqsa, muayyan holatda ma'muriy organlarining maqsadlari va harakat variantlari qonun bilan belgilangan xususiy va ommaviy manfaatlariga mos kelishi lozimligini aniqlashni nazarda tutadi.

Angliyada sud ma'muriy organlari tomonidan sud qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida, ularni bajarmaganlik uchun yetkazilgan zararlarni undirish vakolatiga ham ega.

Anglo-sakson huquqiy modelining yana bir o'ziga xos davlatlaridan biri **AQSH** hisoblanib, ushbu davlatda ma'muriy sudlov tizimini shakllantirishda, Angliyada bo'lgani kabi, vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchragan huquq ustuvorligi doktrinasi qabul qilingan.

Amerikaning huquqiy doktrinasida ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish faqat sudlar tomonidan, pretsedent xarakteriga ega qarorlar qabul qilish yo'li bilan amalga oshirilishi kerakligi nazarda tutilgan. AQSH Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq, sudlar har qanday huquqiy nizolarni, jumladan, ommaviy-huquqiy nizolarni ham ko'rib chiqish va hal etish vakolatiga ega.

1946-yilda qabul qilingan Federal "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish vakolati umumiy yurisdiksiya sudlari bilan bir qatorda maxsus ma'muriy organlarga ham berildi.

Ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish vakolatini amalga oshiruvchi shaxs ma'muriy tribunal tarkibida faoliyat yurituvchi ma'muriy sudya hisoblanadi²¹⁴.

²¹⁴ Karumkaryan D. T. Institut administrativnogo sudi kak element administrativnoy yusti sii SSHA // Vestn. Omskoy yuridicheskoy akademii. 2017. № 1.

Milliy yuridik adabiyotda ma'muriy tribunallar faoliyatini ifodalash uchun "kvazisud faoliyati" yoki "ma'muriy arbitraj" atamalari qo'llaniladi, AQSH qonunchiligida esa bu faoliyat "ma'muriy nizolarni hal qilish" (administrative adjudication) deb ataladi.

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi Qonun qabul qilinishiga asos sudlar tomonidan ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan amalga oshirilayotgan sud nazoratiga nisbatan tanqid va sud nazorati chegaralangani to'g'risidagi e'tirozlar bo'lgan²¹⁵.

Sud ishlarini yuritishni tartibga soluvchi huquqiy hujjat AQSH Kodeksi (United States Code) hisoblanadi. Unga 28-bob "Sud tizimi va sud ish yurituvi" kiradi. Ushbu qonun hujjatida umumiy yurisdiksiya sudyasi ommaviy-huquqiy nizolarni to'liq va sifatli ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan mutaxassislik bilimlariga yetarli darajada ega emasligi ta'kidlanadi.

Ma'muriy aktlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha sud vakolatlari huquqiy manfaatga ega shaxslar da'vo arizasi bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida murojaat etgan taqdirda vujudga keladi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda quyidagi qoida bayon etilgan: "Qonunga muvofiq qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan va boshqa yetarli darajada huquqiy himoya vositasi mavjud bo'lmagan agentlik harakatlari sud tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin"²¹⁶. Shu bois, sud vakolatlari odatda ma'muriy tribunalda ommaviy-huquqiy nizo ko'rib chiqilgandan keyin vujudga keladi²¹⁷.

Bu holat "ommaviy-huquqiy nizolar avvalo ma'muriy organda ko'rib chiqilishi va hal qilinishi kerak" degan prinsipning yorqin ifodasi hisoblanadi. Agar ko'rib chiqilayotgan ish ma'muriy organ vakolatiga tegishli bo'lsa, ammo hali hech qanday tergov yoki muhokama o'tkazilmagan bo'lsa, ushbu qoida qat'iy ravishda qo'llanilishi lozim.

AQSH qonunchiligida sud ma'muriy organing o'rnini bosuvchi hokimiyat sifatida qaralmaydi. Bu esa shundan dalolat beradiki, sudlar ma'muriy organ tomonidan huquqni qo'llash tartibiga hurmat bilan yondashishi lozim, ya'ni sudlar ma'muriy organ qarorlarini to'liq qayta ko'rib chiqish (revision de novo) amalga oshirilmasligi kerak. Shunga

²¹⁵ Heuen W. § 46 Geschichte des Verwaltungsgerichtsgerechtschützes in den USA // Karl-Peter Sommermann, Bert Schaffarzik Handbuch der Geschichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Europa. Springer. Verlag GmbH Deutschland, ein Teil von Springer Nature. 2019. P. 1668.

²¹⁶ Administrative Procedures Act // Office of Protected Resources [http. URL: http://www.nmfs.noaa.gov/pr/pdfs/laws/apa.pdf](http://www.nmfs.noaa.gov/pr/pdfs/laws/apa.pdf).

²¹⁷ Karamanukyan D. T. Amerikanskaya model administrativnoy yustitsii // Aktualnie problemy administrativnogo sudoproizvodstva: materialy Vseros. nauch.-prakt. konf. Omsk, 2015.

muvofig, ushbu davlatda sud ma'muriy qarorni hurmat qiladi va nazorat qiluvchi organ sifatida harakat qiladi.

Shu bilan birga, qonunga berilgan asosli talqinga hurmat qilish qoidasidan istisnalar mavjud. Xususan, ular ma'muriy organ faoliyatining formal, noformal va normativ-huquqiy me'yorlar yaratish kabi turlari bilan bog'liq.

Ma'muriyat faoliyati turiga qarab, ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishda sud ma'muriy organ tomonidan aniqlangan faktik holatlar, huquqiy kvalifikatsiya va huquqiy ixtiyoriylikning chegaralarini qo'llash tartibi kabi masalalar yuzasidan tekshiruv vakolatlarini amalga oshiradi.

Bu holatlarning har biri bo'yicha sudning ma'muriyat harakatlarini tekshirish vakolatlari darajasi turlicha bo'ladi va bu asosan faoliyat turiga (formal, noformal yoki norma ijodkorligi) bog'liqdir. Barcha hollarda faktlarni aniqlash darajasi, huquqiy talqin va ixtiyoriylikni qo'llash (huquqiy xulosa va diskretsia) o'rtasida farq mavjud.

Sud tekshiruvining boshlang'ich nuqtasi ma'muriy organ tomonidan qabul qilingan qarorning asoslantirilishidir.

Shu bilan birga, faktlar masalasi tartibga solingan bo'lib, u uch xil nazorat shaklini nazarda tutadi. Xususan, ishni "de novo" tartibida qayta baholash (to'liq qayta ko'rib chiqish), ma'muriy organ qarorining yetarli dalillar bilan asoslanganligini tekshirish va qarorning o'zaro ixtiyoriy yoki asossiz ekanligini baholash. Agar ish "de novo" tartibida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, sud ma'muriy organ tomonidan qandaydir fakt belgilangan bo'lishiga mutlaqo bog'liq emas. Bundan tashqari, sud faktlar masalasini mustaqil tarzda ko'tarishi mumkin. Faktlar agar ular Konstitutsiyada belgilangan huquq va majburiyatlarga yoki ma'muriy organ yurisdiksiyasiga asoslangan bo'lsa, sud tomonidan to'liq nazorat qilinadi. Oxirgi vaqtlarda sudlarning bunday faktlar ustidan to'liq nazorat huquqini mustahkamlovchi pozitsiya kuchayib bormoqda.

Ma'muriy qarorlar bayonnomada rasmiylashtirilgan holda "muhim dalillar" bilan tasdiqlanishi kerak. Bu qarorni asoslash uchun yetarli deb hisoblanishi mumkin bo'lgan tegishli dalillarni izlashni anglatadi. Biroq bu moslashuvchan xarakterga ega. Nazoratning aniq darajasi ma'muriy jarayonning xususiyatlari, masalaning murakkabligi va organing tegishli texnik salohiyati kabi funksional omillarga bog'liq bo'ladi.

Har qanday holatda ham sud barcha bayonnomani ko'rib chiqadi. Bunda ma'muriy qarorni asoslovchi faktlar ham, unga qarshi bo'lgan dalillar ham tahlil etiladi. Boshqa barcha holatlarda esa sudlar faqat taqiqlash qoidasini qo'llaydilar. Sud amaliyotida ma'muriy qarorning asossiz ekanligini yoki emasligini baholash uning ratsional asosga ega ekanligini tekshirishga tenglashtiriladi.

Qonunni talqin qilish qoidasi ham sud nazoratining intensivligining ortib borayotganini ko'rsatadi. AQSHda bu Konstitutsiya va qonuniy normalarni talqin qilish sudlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirishda qat'iy standart qo'llaniladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qonun va vakolat zid keladigan ma'muriy qarorlarni bekor qilishni talab qiladi²¹⁸.

Umuman olganda, AQSH Oliy sudi quyi sudlarni ma'muriy organ tomonidan qonun bilan belgilangan asoslarga rioya etilishini to'liq tekshirishga yo'naltiradi. Ko'p hollarda qonunlar faoliyat yo'nalishini umumiy belgilaydi, ammo bu yo'lni aniqlash va mas'uliyat bilan amalga oshirish ma'muriyat zimmasida bo'ladi. Bu ayniqsa, ma'muriy organ huquqiy normalarni talqin qilish vazifasini bajarishi kerak bo'lgan hollarda dolzarb ahamiyatga ega. Oliy sud bunday talqinga hurmat bilan yondashishi kerak, biroq qaror qonun chiqariluvchi hokimiyat tomonidan ushbu masala bo'yicha aniq va qat'iy iroda ifodalangan yoki yo'qligiga bog'liq ravishda qabul qilinadi. Agar qonun chiqaruvchining aniq maqsadi mavjud bo'lsa, sud ushbu maqsadni amalga oshirishga majbur bo'ladi. Agar bunday aniq maqsad kuzatilmasa, sud masalani ixtiyoriy darajasida baholaydi.

Bu holda asosiy mezon "Ma'muriy organning qonuniy talqini to'g'ri emas, balki qabul qilinishi mumkin bo'lgan darajada maqbulmi?" degan savol bo'ladi. Ammo bunday ikki qarama-qarshi kategoriya amalda kamdan-kam hollarda aniq ajratiladi, chunki qonunlar maqsadlarida aniqlik va noaniqlik o'rtasida ko'plab o'tish nuqtalari mavjud. Shuning uchun sudlar masalaga qarab aniqroq yoki neytralroq standartlarni qo'llaydilar. Bu masalaning murakkabligi, ma'muriy organning tajribasi, huquqiy kontekst va qonun chiqaruvchining irodasi kabi omillarga bog'liq.

²¹⁸ Heuen W. § 46 Geschichte des Verwaltungsgerichtsgerechtschützes in den USA // Sommer- mann K.- P., Schaffarzik B. Handbuch der Geschichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutsch land und Europa. Springer-Verlag GmbH Deutschland, ein Teil von Springer Nature. 2019. P. 1687.

Amerika huquqiy pretsedentlari va nazariyasiga ko'ra, qonun faktlarni aniqlashda, huquqiy normalarni talqin qilishda yoki boshqa hollarda qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun huquqni qo'llash ko'pincha "huquq va faktlarning aralash masalasi" sifatida baholanadi, bu esa sudlarga qaror qabul qilishda muayyan darajada ixtiyoriylik beradi.

Sud amaliyotiga ko'ra ma'muriy aktlar diskretsion vakolatlarni suiiste'mol qilinmasligi yoki qonunga zid kelmasligiga e'tibor qaratiladi. Demak, bu yerda ham umumiy ixtiyoriy standarti qo'llaniladi. Diskretsion qarorlar esa alohida holda tahlil qilinadi va diskretsion xatolar mavjud yoki yo'qligi sud tomonidan tekshiriladi. Qonun bilan organga berilgan diskretsion vakolatlari doirasi umumiy huquqiy talqin qoidalariga asosida aniqlanadi.

AQSHda agar qaror murakkab vazifa yoki maqsadlarni hal qilish bilan bog'liq bo'lsa, yoki bu vazifani qanday hal etish masalasi ma'muriy organ ixtiyoriga topshirilgan bo'lsa unda ma'muriy ixtiyoriylik mavjud deb hisoblanadi. Shu bilan birga, qonun ixtiyoriylik huquqini ochiq-oydin belgilagan bo'lsa, bunday qaror sud nazoratidan mustasno hisoblanadi. Biroq, bunday istisno me'yori ham juda tor talqin qilinadi va faqat huquqiy normalar mutlaq yo'q bo'lgan holatlar bilan cheklanadi. Qayta ko'rib chiqish mumkin bo'lgan darajada, sud nazoratida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi omil aniqlangan faktlar bilan qabul qilingan qaror o'rtasidagi ratsional bog'lanishdir. Bu bugungi kunda universal va yetakchi standartga aylangan. Sud bu bog'lanishni "atroflicha tekshiruv" (circumspect inquiry) orqali baholaydi, ya'ni ehtiyotkor va chuqur tahlilni o'z ichiga olgan jarayon amalga oshiriladi.

Oliy sud bu masala yuzasidan shunday ta'rif bergan: "Oddiy holatda ma'muriy organning harakatlari agar u Kongress qonunlarida nazarda tutilmagan omillarga tayanilsa, muammoning muhim jihatlarini inobatga olmasa, qarorga asos sifatida keltirgan izohlari mavjud dalillarga zid bo'lsa yoki qabul qilingan qaror mantiqsiz bo'lsa, uni faqat nuqtayi nazarlar farqi yoki organ tajribasi bilan izohlab bo'lmasa noqonuniy hisoblanadi".

Bundan tashqari, ma'muriy ixtiyoriylik asosida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ham organning protsessual qoidalariga rioya qilganlik holati tekshiriladi. Bu esa, nazorat darajasidagi ehtiyotkorlikni ma'lum darajada kompensatsiya qiladi, chunki diskretsion qarorlarga nisbatan sudlar odatda ehtiyotkor yondashadi.

Ma'muriy huquqiy aktlar qabul qilinishi ustidan nazorat qilish vakolatlaridan tashqari, sud tomonlar o'rtasida ommaviy-huquqiy nizolarni muqobil tartibda hal etish muzokaralar, mediatsiya, sud yarashuvi kabi usullar orqali hal qilishga ko'maklashish vakolatiga ham ega. Bunday muqobil tartibdagi usullar eng ko'p soliqqa oid nizolarda, qurilish sohasidagi nizolarda, ijtimoiy imtiyozlar va ijtimoiy himoya kafolatlarini taqdim etishda qo'llaniladi.

Sud faoliyatida ayniqsa muhim bo'lgan yo'nalish ijro etuvchi hokimiyat organiga qarshi qabul qilingan sud qarorining ijrosini nazorat qilish vakolatidir. Agar sud qarorining ijrosi ta'minlanmasa, manfaatdor shaxs sud qarorining ijro qilinmagani haqida ariza berish va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, sud qarorining ijro qilinishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shu tariqa, AQSH va O'zbekistonda ma'muriy sudlov tartibida sudning faollik prinsipi qo'llaniladi.

AQSH va O'zbekistonda ma'muriy sudlovda sudning protsessual-huquqiy maqomining huquqiy tartibga solinishdagi farqlari quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi. AQSHda ommaviy-huquqiy nizolarni hal etishda majburiy ravishda avval ma'muriy tribunalda ko'rib chiqish tartibi amal qiladi. Bu qoida faqat qonunni talqin qilish zarur bo'lgan holatlar yoki manfaatdor shaxsning ma'muriy tribunalda ishni davom ettirish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda istisno qilinadi.

Ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish chog'ida sud faqat ma'muriy organlarning qarorlarini qonuniyligi va asoslanganliginigina emas, balki zarur hollarda ushbu qarorlarni qabul qilish maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ham tekshiruv o'tkazadi. Bunday tekshiruv, ma'muriy organlarining belgilangan maqsadlariga va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar variantlariga, shuningdek, xususiy va jamoat manfaatlarining qonun doirasida himoya qilinishiga mos kelishini baholashni nazarda tutadi.

Sud qarorlarining ma'muriy organlar tomonidan ijro etilishini ta'minlash maqsadida, AQSH sudi qabul qilingan sud qarorining ijro etilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni undirish vakolatiga ega.

Skandinav huquqiy modeliga Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya kabi davlatlarni kiritish mumkin. Ushbu davlatlarda ma'muriy sud ish yurituvida fuqarolar va ma'muriy organlar o'rtasida tenglik va ochiqlik tamoyili ustuvor hisoblanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar

huquqiy maqomi keng ta'riflanadi. Xususan, shaxs, jamoat birlashmasi va boshqa manfaatdor tomonlar. Sud muhokamasi doimiy ravishda raqobatli emas, balki ko'pincha tahlil va munosabat asosida amalga oshiriladi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu modelning yuqorida tahlil qilgan modellar bilan o'xshash jihatlari ko'p. Shu nuqtayi nazardan aynan farqli jihatlari to'xtalib o'tsak.

Birinchidan, ma'muriy ish yurituvchi to'liq yozma ish yurituvchi doirasida amalga oshiriladi. Ko'plab davlatlarda sud muhokamasiga og'zaki eshitishlar ustuvor hisoblanadi.

Ikkinchidan, Parlament Ombudsmani (Justitieombudsmannen) ma'muriy sudlar faoliyatini nazorat qilish, huquqiy xulosalar berish imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, ko'p davlatlarda faqat huquqiy ma'lumotga ega professional sudyalarning ishini ko'radi. Lekin mazkur modeldagi davlatlarda ayrim ishlar (xususan ijtimoiy ta'minot, migratsiya, oilaviy nizolar) bo'yicha huquqshunos bo'lmagan sudyalarning "lekmän" sudga qo'shiladi²¹⁹.

To'rtinchidan, sudlar tomonidan ish tugagunga qadar ma'muriy qaror to'xtatib qo'yish bo'yicha vakolatidan keng foydalanadi.

Beshinchidan, sud tomonidan tayinlangan ekspertlar boshqa ishtirokchilar tomonidan tayinlangan ekspertlarga nisbatan yuqori e'tiborga ega, bu esa ma'muriy sudlarda sudning faol ishtiroki prinsipining o'ziga xos jihatlari ko'rsatadi²²⁰.

Oltinchidan, sudlar faqat huquqiy tomondan emas, balki qarorning maqsadga muvofiqligi (reasonableness)ni ham tekshiradi. Xususan, qarorning konstitutsiya va xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqligini ham baholaydi²²¹.

Yettinchidan, odatda sudga murojaat qilinadigan muddatlar mavjud emas, faqat maxsus sohalarida (masalan, davlat xaridlari) belgilangan muddatlar qo'llanadi.

Sharqiy Yevropa va bolliq davlatlari huquqiy modeli Estoniya, Latviya, Litva, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya kabi davlatlarni kiritish mumkin. Ma'muriy sud ish yurituvchi kontinental

²¹⁹ Madeleine Rundberg. Lay judges and the Swedish rule of law: A qualitative analysis of mixed panels' argument construction in criminal court cases. Master Thesis (SOLM02) Spring 2022

²²⁰ The Use of Court- and Party-Appointed Experts in Legal Proceedings in Sweden: Judges' Experiences and Attitudes. 25 August 2017. pp 63–81

²²¹ <https://www.aihja.org/en/membre/sweden-supreme-administrative-court>

tizimdan ta'sirlangan, lekin milliy xususiyatlar mavjud. Da'vogar sifatida ishtirok etish huquqi asosan "huquqiy manfaat" (legitimate interest)ga bog'liq. Quyida mazkur modelning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilsak.

Mazkur modelga oid ayrim davlatlarda ma'muriy ishlar odatda yakka sudya tomonidan ko'rib chiqiladi. Uch sudyadan iborat hay'at faqat alohida ahamiyatga ega, murakkab va prinsipial ishlarda tuziladi. Bu esa sud ish yurituvini jadallashtiradi, ma'muriy jarayonlarni tejamli va samarali qiladi.

Sudning faol ishtiroki prinsipi boshqa modellarga qaraganda ancha samarali qo'llanadi. Sud ishning holatlarini faol ravishda o'rganadi, dalillar to'plashda ishtirok etadi, izoh so'raydi. Sud nizoni hal qilishda formal passiv kuzatuvchi emas, balki adolatni faol ta'minlovchi subyekt hisoblanadi.

Ushbu modeldagi davlatlar raqamlashtirishga juda jiddiy e'tibor qaratadi. Xususan, Estoniyada barcha ma'muriy sud ishlari elektron sud tizimi (E-toimik) orqali yuritiladi. Fuqarolar va vakillar elektron tarzda ariza topshirishi, dalil yuborishi va qaror olishi mumkin²²².

Umuman olganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqi maqomiga oid huquqiy modellari tahlili faqatgina ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o'zini o'rganish bilan aniqlash imkoni yo'q. Shu nuqtai nazrdan, mazkur paragrafda kompleks yondashuv asosida tahlil qildik. Chunki, ma'muriy sud ish yurituvining har qanday bosqichi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga daxldor. Ta'kidlab o'tish lozimki, milliy adabiyotlarda ma'muriy sud ish yurituvi bunday tartibda kompleks tahlil olib borilmagan.

Xorijiy modellarni tahlil qilish orqali ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomiga oid milliy qonunchilikni ham o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda savol tug'iladi. O'zbekiston yuqoridagi modellardan qaysi biriga kiradi? Bizningcha, *O'zbekiston ma'muriy sud ish yurituvi tizimini nemis huquqiy modeliga kiritish mumkin*. Buni biz alohida ma'muriy sudlar mavjudligi(yuqori bo'g'in sudlari bundan mustasno), jismoniy yoki yuridik shaxs o'zining subyektiv ommaviy huquqini himoya qilishni so'rab murojaat qila olishi, sudning faol ishtiroki prinsipi va boshqa o'xshash tomonlari mavjudligi bilan izohlash mumkin.

²²² <https://etoimik.rik.ee/>

Umuman olganda, O'zbekiston ma'muriy sudlov modeli sudlarning vakolatlari va boshqa qator jihatlar bo'yicha umumjahon tendensiyalari yo'nalishida rivojlanib borayotgani hamda ma'muriy yustitsiyaning ko'plab asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etganini qayd etish mumkin.

4.2. O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qaror²²³i bunga yaqqol misoldir. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib, sohani rivojlantirishning uchta katta yo'nalishi belgilandi:

1. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

2. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashda sudning faol ishtiroki prinsipini qo'llash mexanizmlarini kengaytirish;

3. Ma'muriy sud ishlarini yuritishga xalqaro standartlarga va ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq yangi institut va tartiblarni joriy etish.

Ta'kidlab o'tish kerakki, ma'muriy sud ishlarini yuritish qonunchiligi takomillashtirishning ayrim yo'nalishlari ayrim milliy olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, L.B. Xvan²²⁴,

²²³ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son

²²⁴ Xvan L.B. Судебный административный контроль в Республике Узбекистан: проблемы понимания и перспективность в ее правовой системе. Стариков Ю.Н. Административное судопроизводство в Российской Федерации: развитие теории и формирование административно-процессуального законодательства.

M.U. Eshimbetov²²⁵, J. Nematov²²⁶, Sh.I. Shayzakov²²⁷, D.R. Artikov²²⁸ va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari doirasida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bergan.

Biz tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqqan holda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqi maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, ma'muriy sud ishlarini yuritishning muhim ishtirokchisi bo'lgan arizachining sudga murojaat qilish huquqini kengaytirish lozim. Bu borada alohida toifadagi subyekt davlat xizmatchisidir. O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasiga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi davlat organiga yoki maxsus vakolatli davlat organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli. Davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida davlat fuqarolik xizmatchisining buzilgan, nizolashilayotgan huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi²²⁹. Demak, amaldagi qonunchilikka ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchisi ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Yevropa inson huquqlari sudi (YEIHS) pozitsiyasi YEIHS barcha xizmat nizolarini ommaviy-huquqiy munosabatlar deb tan olgan, bu esa ularni ma'muriy ish yurituvchi doirasida ko'rib chiqishni talab etadi. Shu ma'noda, bu nizolarni fuqarolik ish yurituviga nisbat berish YEIHS qarorlariga zid hisoblanadi.

²²⁵ Eshimbetov M.U. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan kelib chiquvchi nizolarni sudga ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish // Yurid. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) ...diss. – T., 2023.

²²⁶ Nematov J.N. Ma'muriy sud ish yurituvida sudlovga taalluqlilik. // Odillik mezoni. 2020. 6-son // Nematov J.N. Правовые проблемы обязанности доказывания в административном судопроизводстве Республики Узбекистан. // Yejegodnik publicnogo prava 2022. Dokazatelstva i dokazyvaniye v administrativnom prave. – Berlin: Infotropik Media, 2022. S. 289-316.

²²⁷ Shayzakov Sh.I. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari / Monografiya. T.: Lesson Press, 2021. 161-b.

²²⁸ Artikov D.R. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudga ko'rishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini // Yurid. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – T., 2020.

²²⁹ (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.

Mazkur masala olimlarning doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, M. Bruns Yevropa Ittifoqi va Kanadadagi xizmat nizolarini tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilib, bu tizimlarning samaradorligi davlat organlariga ishonchni oshirishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi²³⁰.

J. Borgault Yevropa standartlarini milliy tizimga moslashtirish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirishga urg'u bergan²³¹. Umuman olganda, xorijiy olimlar davlat xizmatiga oid nizolarni hal etishning aniq mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab keladilar. O'z navbatida, xizmat nizolari davlat xizmat munosabatlarini uzviy bir tarkibiy qismi ekanligiga katta urg'u beradilar. Bu esa mazkur turdagi nizolar ma'muriy nizolarning bir ko'rinishiga urg'u qaratadilar.

Shuningdek, xorijiy sud amaliyoti ham ushbu nizolarning xususiyatiga alohida urg'u qaratadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy pozitsiyasiga ko'ra, davlat fuqarolik xizmati davlat hokimiyati organlari vakolatlarini amalga oshirishni ta'minlovchi maxsus xizmat faoliyati turi hisoblanadi. Bu esa fuqarolik-huquqiy emas, balki ommaviy-huquqiy munosabatlar doirasida baholanishi kerakligini anglatadi. Shu sababli, xizmat nizolari bo'yicha ishlarni protsessual tartibda aniqlashda yagona va zamonaviy huquqiy yondashuv talab etiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga qo'shilish lozim. xizmat nizolarini ma'muriy sud ish yurituv tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar doirasiga kiritish zarur, chunki bunday nizolar muayyan ommaviy organda xizmat o'tayotgan shaxslar va ushbu ommaviy organning huquqlariga daxl qiladi. Bizning fikrimizcha, davlat xizmat bilan bog'liq xizmat nizolari yuzasidan sud himoyasi mexanizmini ma'muriy sud ish yurituv tartibida qo'llash kerak. Bu munosabatlar ommaviy huquq normalariga asoslangan bo'lib, davlat organi va ushbu organda xizmat qilayotgan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar, xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash imkonini, sudning faol rolini, ya'ni taraflar tengligi va erkinligi cheklangan holda, sudning faol harakati orqali ish yuritishni o'z ichiga oladi.

²³⁰ Bruns, M., & Steen, T. (2007). From incremental to Copernican reform?: Changes to the position and role of senior civil servants in the Belgian Federal Administration. In E.C. Page & W. Wright (Eds.), *From the active to the maintenance state* (pp. 63-80). Basingstoke: Palgrave Macmillan. doi: 10.1057/9780230288768_4.

²³¹ Bourgault, J. (2011). Canada's senior public service and the typology of Bargains: From the hierarchy of senior civil servants to a community of "controlled" entrepreneurs. *Public Policy and Management*, 26(2), 253-275. doi: 10.1177/0952076710391517.

Ma'muriy ish yurituvi ushbu toifadagi huquqiy munosabatlarni hal etish uchun eng mos shakl hisoblanadi, chunki u ommaviy xizmat xususiyatiga to'liq mos keladi va davlatning funksional majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan nizolarni yechishga yo'naltirilgan.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar ma'muriy sudlar tomonidan ko'rilishi belgilangan bo'lib, bu esa mazkur soha sud amaliyotini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, *"Davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"*gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan, ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab bilan murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilash lozim. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, arizachi ma'muriy sudga qarorni haqiqiy emas deb topish va harakat(harakatsizlik)ni qonunga xilof deb topish talabi bilan murojaat qilish mumkin.

Ma'muriy sudlarda ma'muriy organga nisbatan majburiyat yuklash talabi arizachi tomonidan ma'muriy organ (yoki mansabdor shaxs)ga muayyan huquqiy harakatni bajarish yoki huquqiy holatni tiklash majburiyatini yuklashni so'rab berilgan talab hisoblanadi. Bu turdagi talablar, odatda, ma'muriy organ o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki harakatsiz qolgan hollarda yuzaga keladi.

Sud amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Urganch tumanlararo ma'muriy sudining 2022-yil 4-apreldagi hal qiluv qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining A. MCHJ manfaatida Xiva shahar hokimining 2018-yil 21-iyuldagi 1246-sonli qarori ijrosini ta'minlash majburiyatini yuklash haqidagi arizasi qanoatlantirishdan rad etilgan.

Ma'muriy organga nisbatan majburiyat yuklash talabi qaror qabul qilishni majburlash (masalan, litsenziya berish), tasdiqlash yoki qayd etish majburiyatini yuklash (masalan, mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish) va huquqni tiklash uchun aniq harakatni amalga oshirish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Sud amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak bunday talablarni sudlar rad etib kelmoqda. Misol uchun, *Urganch tumanlararo ma'muriy*

sudining 2022-yil 4-apreldagi hal qiluv qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining A. MCHJ manfaatida Xiva shahar hokimining 2018-yil 21-iyuldagi 1246-sonli qarori ijrosini ta'minlash majburiyatini yuklash haqidagi arizasi qanoatlantirishdan rad etilgan. Xorazm viloyat ma'muriy sudi apellyatsiya instansiyasining 2022-yil 12-maydagi qarori bilan o'zgarishsiz qoldirilgan. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 26, 27-moddalariga ko'ra, ma'muriy sudga ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqli bo'lib, bunda ariza predmeti ushbu organlar tomonidan qabul qilingan ma'muriy hujjatlar yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) hisoblanadi. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining harakatlari deganda, qaror shaklida ifodalanmagan bo'lsa ham, biroq manfaatdor shaxslar huquqlari va erkinliklarini buzilishiga olib kelgan yoki ularning huquqlari va erkinliklari amalga oshirilishiga to'sqinlik qilgan yuridik ahamiyatga ega farmoyishlar tushuniladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 6-bandida tushuntirish berilgan. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 189-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, qaror haqiqiy emas, harakatlar (harakatsizlik) qonunga xilof deb topilgan taqdirda sud tegishli organning yoki mansabdor shaxsning zimmasiga qonunga muvofiq qaror qabul qilish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud arizachining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishlarini boshqacha usulda bartaraf etish majburiyatlarini yuklaydi. Majburiyat yuklash haqida talab ma'muriy sud ishlarini yuritishda ariza predmeti bo'lmay, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 189-moddasiga asosan sud tomonidan qo'llaniladigan huquqni tiklash usuli bo'lib hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, birinchi instansiya sudi arizachining ushbu talabini mazmunan ko'rib protsessual huquq normalarini buzgan. Apellyatsiya instansiya sudi ham birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilgan ushbu xatoga e'tibor qaratmasdan, shikoyatda keltirilgan vajlarga baho berib, hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirish haqida qaror qabul qilgan. Shunga ko'ra, mazkur ish sudlovga taalluqli emasligi sababli Oliy sud Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasining

*2023-yil 25-avgustdagi qarori bilan sud qarorlari bekor qilinib, ariza bo'yicha ish yuritishni tugatish haqida yangi qaror qabul qilingan*²³².

Germaniya qonunchiligiga ko'ra, agar ma'muriy organ belgilangan qarorni chiqarmagan bo'lsa, sud uni chiqarishga majbur qilish qarorini chiqaradi²³³.

Fransiyada fuqaro davlat organining harakatsizligi ustidan shikoyat qilib, *agir dans un délai raisonnable* (ma'qul muddat ichida harakat qilish) talabini qo'yishi mumkin²³⁴.

Estoniyada da'vogar ma'muriy organga muayyan harakatni bajarishni talab qilishi mumkin. Sud agar bu talab asosli deb topsa, organi shu harakatni bajarishga majburlaydi²³⁵.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, MSiytKning 185-moddasini qo'yidagi tahrirdagi bayon qilish lozim:

“Manfaatdor shaxs ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qarorlarini haqiqiy emas, ular mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish *va ma'muriy organga majburiyat yuklash* to'g'risida ariza (shikoyat) bilan, agar bu qaror, harakatlar (harakatsizlik) tufayli:

- uning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan;

- uning huquqlari, erkinliklarini amalga oshirishga va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'siqlar vujudga keltirgan;

- uning zimmasiga qonunga xilof ravishda biror-bir majburiyat yuklagan;

- uning u yoki bu sohadagi faoliyatni amalga oshirishi uchun boshqa to'siqlar vujudga keltirgan deb hisoblasa, sudga murojaat qilishga haqli.”

Shu bilan birga, *MSiytKning 186-, 187- va 189-moddalariga majburiyat yuklash talabi joriy etilishi munosabati bilan qo'shimchalar kiritish lozim.*

Mazkur masala doirasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarning aksariyati ushbu taklifni qo'llab quvvatlaganini ko'rish mumkin. Xususan, Ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab sifatida murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilashga qanday qaraysiz?

²³² <https://sud.uz/court-experiments/administrative-court-experiments/>

²³³ <https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/>

²³⁴ https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070933/

²³⁵ <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/527012014001/consolide>

degan savolga ishtirokchilarning 82%i “Ijobiy, fuqarolarning sudga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini to‘laqonli ta’minlashga xizmat qiladi” deb javob bergan.

Uchinchidan, *ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar muhim ko‘rinishi bo‘lgan davlat organlarining sudga ishtirok etish amaliyotini takomillashtirish lozim.*

MSIYtK 47-moddasida davlat organlari va boshqa shaxslar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza berishi mumkinligi, ariza bergan mazkur organlar va shaxslar arizachining barcha huquqlaridan foydalanishi hamda uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga olishi nazarda tutilgan²³⁶. Mazkur norma mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlat organlari va boshqa shaxslar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza beradi hamda arizachining barcha huquqlaridan foydalanadi hamda uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Lekin, sud amaliyotida juda ko‘p hollarda, davlat organlari va boshqa shaxslar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma’muriy sudlarga ariza bilan murojaat qilib, sud majlislarida bevosita o‘zlari qatnashishmaydi hamda ishni o‘zlarining ishtirokisiz ko‘rib chiqish haqida ariza bilan murojaat qilishadi.

Ayrim davlat organlari (adliya, moliya va boshqalar) o‘zlariga qonun bilan berilgan ya’ni davlat bojini to‘lashdan ozod qilish haqidagi imtiyozdan foydalanishib, dastlab sudga ariza taqdim qilishib, sud majlislariga qatnashmasdan kelishmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, MSIYtKning 47-moddasini quyidagi tahrirdagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirish lozim:

“Davlat organi va boshqa shaxs o‘zi bergan ariza bo‘yicha ish yuritishda qatnashishlari shart”.

To‘rtinchidan, *ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlarini aniq belgilash lozim.*

Ko‘pgina xorijiy davlatlarning ma’muriy qonunchiligida protsess ishtirokchilarining majburiyatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, unda protsess ishtirokchisi o‘z huquqlaridan vijdonan foydalanishi shartligi, sud

²³⁶ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

protsess ishtirokchilari yoki ularning vakillari yoki maslahatchilari tomonidan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishga, jarayonni kechiktirishga yoki sudni chalg'itishga yo'l qo'ymasligi, ishning imkon qadar to'g'ri, tez va tejamkor ko'rilishiga g'arazli aralashgan protsess ishtirokchisiga sud jarimasi qo'llanishi ko'rsatilgan.

MSIYtKning 39-moddasida taraflarning huquqlari bilan birga yuqoridagi majburiyatlarini ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu o'z o'rnida taraflarni protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish holatlarini oldini olishi, sud majlislarini bekorga cho'zilmasligi, eng asosiysi sud protsessining boshqa ishtirokchilarini huquqlarini buzmasligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, sud amaliyotida qasddan sud protsessi cho'zilishiga harakat qilish uchun asossiz, ariza va shikoyatlar, dalillarni talab qilib olish, ekspertiza tayinlash to'g'risida o'ylab topilgan iltimosnomalar taqdim qilish, sudyani rad etish to'g'risida asoslanmagan ariza berish kabi holatlar sud protsessida keng tarqalgan.

Yuqoridagilarga asosan, 39-moddaning majburiyatlar qismiga quyidagicha o'zgartish kiritish lozim bo'ladi:

"Protsess ishtirokchilari o'z huquqlaridan vijdonan foydalanishlari, sud protsess ishtirokchilari yoki ularning vakillari tomonidan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishga, jarayonni kechiktirishga yoki sudni chalg'itishga yo'l qo'ymasligi, ishning imkon qadar to'g'ri, tez va tejamkor ko'rilishiga g'arazli aralashgan protsess ishtirokchisiga sud tomonidan jarima qo'llaniladi".

Beshinchidan, ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar maqomiga aniqlik kiritish lozim. Ma'muriy sud ishlarini yuritish jarayonida uchinchi shaxslar asosiy taraf sifatida ishtirok etmaydigan, biroq chiqariladigan qarordan manfaatlari ta'sirlanishi mumkin bo'lgan shaxslardir.

MSIYtKga ko'ra, uchinchi shaxslar ikki toifaga ajratiladi. Xususan, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga ajratiladi. Bu fuqarolik protsessual huquqdan o'tgan konsepsiya bo'lib, unda normativ aniqlik va huquqiy ta'sir darajasini belgilash asosiy maqsad bo'lgan. Lekin aksariyat davlatlarda uchinchi shaxslar ikki toifaga ajratish tajribasi mavjud. Quyida mazkur farqlarni batafsil tahlil qilishga harakat qilamiz.

Germaniyada uchinchi shaxslar "Beigeladene" deb ataladi va ular ishga sud tomonidan jalb etiladi. Agar shaxsning huquqiy manfaatlari ish natijasida ta'sirlanishi mumkin bo'lsa, sud uni uchinchi shaxs sifatida jalb qilishi shart hisoblanadi²³⁷.

Fransiya ma'muriy sud amaliyotida uchinchi shaxslar "intervenant" deb yuritiladi. Shaxs sud muhokamasi jarayonida o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishga aralasha oladi. Bunda ular mustaqil talab qo'yish emas, balki mavjud da'voning ta'siri doirasida fikr bildirish huquqiga egadir²³⁸.

Rossiya Federatsiyasida uchinchi shaxslar sud qaroridan manfaaddor bo'lgan holda ishtirok etadilar. Agar ularning huquqlari ish natijasida to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlansa, sudga mustaqil talab bilan ham murojaat qilishlari mumkin²³⁹.

Ozarbayjon Ma'muriy protsessual kodeksiga ko'ra, sud qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar yoki ish yuqori turuvchi instansiya sudining ish yurituvda bo'lgan davr mobaynida, agar sud qarori boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, sud o'z xizmat vakolatiga tayangan holda yoki ushbu shaxslarning arizasiga binoan ularni ma'muriy sud ish yurituviga uchinchi shaxs sifatida jalb qilishi mumkin. Agar sud qarori chiqarilgandan so'ng, ammo u qonuniy kuchga kirguniga qadar sud ish yurituvga uchinchi shaxslarni jalb qilish zarurati to'g'risida xulosaga kelsa, u holda mazkur sud qarori bekor qilinib, ishni mohiyatan ko'rib chiqish qayta tiklanadi. Agar uchinchi shaxsning nizoli huquqiy munosabatlarda ishtirok etish xususiyati ma'muriy sud ish yurituvdagi taraflar va ushbu uchinchi shaxsga nisbatan yagona qaror qabul qilinishi zaruratidan kelib chiqsa, u holda bunday shaxsni ma'muriy sud ish yurituvda ishtirok etuvchi shaxs sifatida jalb etish majburiy (zaruriy jalb qilish) hisoblanadi. Ma'muriy sud ish yurituviga uchinchi shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi sud ajrimi ma'muriy jarayonning barcha ishtirokchilariga yetkaziladi. Ushbu ajrimda sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ish holatlari va jalb etish sabablari ko'rsatiladi. Ma'muriy sud ish yurituviga uchinchi shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi sud ajrimiga shikoyat qilish mumkin emas. Agar sud tomonidan xizmat vakolati asosida ishga jalb etilmagan shaxslar qabul qilinishi kutilgan

²³⁷ Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO), §65-66. <https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo>

²³⁸ Code de justice administrative (CJA), Article R.632-1. <https://www.legifrance.gouv.fr>

²³⁹ Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii (KAS RF), stati 47-48. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_168606/

sud qarori ularning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin deb hisoblashsa, ular ishga jalb qilish to'g'risida ariza berishlari mumkin. Sud ushbu ariza yuzasidan 10 kun ichida ajrim chiqaradi. Arizani qanoatlantirishdan rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan yuqori sudga shikoyat qilinishi mumkin. Uchinchi shaxslar taraflardan biri tomonidan ilgari surilgan talablar doirasida, o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil ravishda huquqiy vositalardan foydalanishlari va protsessual harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Faqat zaruriy jalb qilingan uchinchi shaxslargina taraflar tomonidan ilgari surilgan talablar doirasida ulardan farqli talablarni ilgari surish huquqiga ega²⁴⁰.

Ushbu davlat tajribasidan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, "zaruriy jalb etish" konsepsiyasi O'zbekiston MSiyTKda mustaqil ravishda aniq ifoda etilmagan.

Gruziya Respublikasining Ma'muriy protsessual kodeksining 16-moddasiga ko'ra, sud asosiy sud majlisi yakunlanguniga qadar, sud qarori manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslarni ma'muriy jarayon boshlangani to'g'risida xabardor qilish va ularni ishga uchinchi shaxs sifatida jalb qilish huquqiga ega. Agar uchinchi shaxs sud tomonidan yagona qaror qabul qilinishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxs bo'lsa, u holda ushbu shaxsni ishga jalb etish majburiy hisoblanadi. Agar ushbu huquqiy munosabatlarda 10 nafardan ortiq shaxs ishtirok etsa, sud ishga faqat kirishish istagini bildirgan shaxslarni jalb etadi. Har qanday manfaatdor shaxs ishga uchinchi shaxs sifatida jalb etish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Agar ishga 10 nafardan ortiq uchinchi shaxs jalb etilgan bo'lsa, ajrimni shaxsan topshirish o'rniga, uni rasman e'lon qilish yo'li bilan xabardor qilish mumkin. Shaxsni ishga uchinchi shaxs sifatida jalb qilish to'g'risidagi sud ajrimiga shikoyat berish mumkin emas²⁴¹. O'zbekistonda son jihatidan cheklov yo'q va sud qaroridan manfaatdor bo'lgan shaxslar jalb etiladi, lekin faollikka asoslangan jalb etish yoki ommaviy manfaat tushunchasi rivojlanmagan.

Qozog'iston Respublikasining Ma'muriy protsedura-protsessual kodeksiga ko'ra, uchinchi shaxs manfaatdor shaxs deb nomlanib, manfaatdor shaxs deb huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari

²⁴⁰ https://continent-online.com/Document/?doc_id=30573000

²⁴¹ https://continent-online.com/Document/?doc_id=36503846#pos=0;100

sud hujjati bilan buzilishi yoki buzilishi mumkin bo'lgan shaxs e'tirof etiladi. Manfaaddor shaxslar, agar sud hujjati ularning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sudning birinchi instansiyasida ma'muriy ishni ko'rib chiqish va hal etish bilan tugallanadigan sud hujjati qabul qilinguniga qadar, da'vogar yoki javobgar tomonida o'z tashabbusi bilan ma'muriy ishga qo'shilish huquqiga egadirlar. Manfaaddor shaxslar ma'muriy jarayon ishtirokchilari yoki sud tashabbusi bilan ma'muriy ishda ishtirok etishga jalb etilishi mumkin. Manfaaddor shaxslar da'vogar yoki javobgarining protsessual huquqlaridan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini bajaradilar, lekin da'vo asosi yoki predmetini o'zgartirish, da'voni qaytarib olish, da'voni tan olish, yarashish, mediatsiya yoki bahsni ishtirokli tartibda hal etish to'g'risida kelishuv tuzish huquqiga ega emaslar²⁴². Qozog'iston uchinchi shaxslarning huquqlarini taraf darajasiga olib chiqmaydi, lekin huquqiy ta'siri cheklangan maqomda saqlaydi. Bu holat O'zbekistonning ikkita toifaga bo'lgan tasnifiga yaqin, ammo atamasi "uchinchi shaxs" emas, manfaaddor shaxs deb yuritiladi.

Estoniya Ma'muriy protsessual kodeksiga ko'ra, ma'muriy sud, agar sud hujjatida shu shaxsning huquq va majburiyatlari yuzasidan qaror qabul qilinishi mumkin bo'lsa, ishda ishtirok etuvchi tomon hisoblanmaydigan shaxsni uchinchi shaxs sifatida jarayonga jalb etadi. Uchinchi shaxs jarayonda taraflar bilan teng protsessual huquq va majburiyatlarga ega. Sud, ishda ishtirok etuvchi taraflardan birining arizasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan, jarayonning istalgan bosqichida va har qanday sud instansiyasida, sud qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar uchinchi shaxsni ishtirokchi sifatida jalb qilishi mumkin. Uchinchi shaxs o'zini jarayonga jalb qilish to'g'risida shikoyat berish orqali ham jalb etilishini so'rashi mumkin. Bunday holda uni jalb qilish masalasi shikoyatni ish yuritishga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilishda hal etiladi. Uchinchi shaxs ishtirokidagi masala hal etilgunga qadar amalga oshirilgan protsessual harakatlar, agar sud boshqacha qaror chiqarmasa, unga nisbatan ham amaliy kuchga ega bo'ladi. Sud uchinchi shaxsni jalb qilish masalasini hal qilishdan avval, jarayonda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni tinglashi mumkin. Taraflar yoki uchinchi shaxs, uchinchi shaxsni ishga jalb etish to'g'risidagi sud qaroridan xususiy shikoyat berishi mumkin. Ishga jalb

²⁴² <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K2000000350>

etilishni xohlagan shaxs, shuningdek, uchinchi shaxsni jalb qilish uning manfaatlariga daxldor bo'lgan taraf yoki uchinchi shaxs ham, uchinchi shaxsni ishga jalb etishni rad etish haqidagi sud qaroriga nisbatan xususiy shikoyat berishi mumkin. Agar uchinchi shaxs asossiz ravishda ishga jalb qilingani aniqlansa yoki holatlar o'zgarishi tufayli sud qarori uchinchi shaxsning huquqlariga ta'sir ko'rsatmaydigan bo'lib qolsa, sud maxsus qaror bilan uni ishda ishtirok etishdan chetlatishi mumkin. Bunday qarorga ham taraf yoki uchinchi shaxs tomonidan xususiy shikoyat berilsa bo'ladi²⁴³. Estoniya jarayonda uchinchi shaxslarga taraflar bilan teng huquqlar beradi, O'zbekistonda esa faqat mustaqil talab arz qiluvchi uchinchi shaxslarga bunday huquqlar berilgan.

Umuman olganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslarning huquqiy maqomiga aniqlik kiritish muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash lozimki, amaldagi qonunchilikdagi uchinchi shaxs maqomi fuqarolik protsessual qonunchilik ta'sirida shakllangan. Bugungi kunda ma'muriy sud ish yurituvchi qonunchiligi oldida turgan dolzarb masala uni fuqarolik protsessual qonunchilikdan aniq farqli chegaralarini belgilash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ham mazkur masalaga alohida urg'u berilgan. Jumladan, unga ko'ra ommaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga daxldorligi nuqtayi nazaridan ma'muriy sud ishlarini yuritishda jalb qilinishi lozim bo'lgan uchinchi shaxslar doirasiga aniqlik kiritish lozimligi belgilangan²⁴⁴.

Umuman olganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar maqomiga oid huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. MSIYtKda uchinchi shaxslarni nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga ajratish amaliyotidan voz kechish lozim.

2. MSIYtKda uchinchi shaxslarni zaruriy jalb qilish tartibini belgilash lozim.

²⁴³ <https://www.hartran.ee/index.php?id=13>

²⁴⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son

3. MSiytKda uchinchi shaxslarni cheklangan miqdorini belgilash, xususan agar uchinchi shaxslar ko'pchilikni tashkil etsa, ularni ishga jalb qilishni aniq tartibini belgilash lozim.

Shu nuqtayi nazardan, MSiytKning 44-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

"44-modda. Uchinchi shaxslar

Uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar, agar ish ushbu shaxslarning taraflardan biriga nisbatan huquqlari yoki majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, arizachi yoxud javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular tarafning iltimosnomasi bilan yoki sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Uchinchi shaxslar tarafning protsessual huquqlaridan foydalanadi va uning protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talabning asosini yoki predmetini o'zgartirish, talabdan voz kechish, arz qilingan talabni tan olish yoxud kelishuv bitimi tuzish, sud hujjatining majburiy ijro etilishini talab qilish huquqi mustasno.

Agar uchinchi shaxs sud tomonidan yagona qaror qabul qilinishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxs bo'lsa, u holda ushbu shaxsni ishga jalb etish majburiy hisoblanadi.

Agar ushbu huquqiy munosabatlarda o'n nafardan ortiq shaxs ishtirok etsa, sud ishga faqat kirishish istagini bildirgan shaxslarni jalb etadi. Har qanday manfaatdor shaxs ishga uchinchi shaxs sifatida jalb etish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Agar ishga o'n nafardan ortiq uchinchi shaxs jalb etilgan bo'lsa, ajrimni shaxsan topshirish o'rniga, uni rasman e'lon qilish yo'li bilan xabardor qilish mumkin.

Uchinchi shaxsni ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida yoki uni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Agar uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi."

Yuqoridagi normaga o'zgartirish kiritish munosabati bilan MSiytKning 45-moddasini kuchini yo'qotgan deb topish lozim.

Oltinchidan, *ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokini takomillashtirish lozim. MSiytKning 46-moddasiga ko'ra, Prokuror barcha ishlar bo'yicha sud majlisida ishtirok etishga haqli. Prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib,*

sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart²⁴⁵. Yuqoridagi normadan ko'rish mumkinki, prokuror 4 ta holatda ishda ishtirok etish majburiy hisoblanadi: qonunda nazarda tutilgan hollarda, sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarda va prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda.

Bizningcha yuqorida prokuror ishtirok etishi majburiy bo'lgan aniq belgilangan holatlar sifatida yerga oid nizo va prokuror arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar hisoblanadi. Qolgan ikkita holat esa qachonki qonunchilikda belgilansa yoki sudning ixtiyori bilan amalga oshiriladi.

Qozog'iston tajribasiga e'tibor qaratsak, prokuror o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi holatlarda ma'muriy ishlar yuzasidan xulosa berish uchun sud jarayonida majburiy ishtirok etadi:

- soliq, bojxona, budget munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, tiklash va saqlash, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni tiklash, shu jumladan tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa faoliyat yuzasidan ishlar;
- davlat ijrochi harakatlari (harakatsizligi) ustidan, davlat foydasiga yoki davlatdan undirishga oid ijro hujjatlari bo'yicha shikoyat qilingan ishlar;
- saylovlar va respublika referendumida qatnashuvchi fuqarolar va jamoat birlashmalarining saylov huquqlarini himoya qilishga oid ishlar;
- ma'muriy huquqiy hujjat, harakat yoki harakatsizlik fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini mustaqil ravishda himoya qila olmaydigan shaxslarning yoki noma'lum doiradagi shaxslarning huquqlarini cheklashi mumkin bo'lgan hollarda.

Bizningcha milliy qonunchilikda ham prokuror ishtirok etish lozim bo'lgan holatlar doirasini kengaytirish lozim. Bu borada davlat

²⁴⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son, 26.08.2021-y., 03/21/711/0825-son, 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son

manfaatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratish kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, MSiytKning 46-moddasi sakkizinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

“Qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, soliq, bojxona, budjet, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart.”

Yettinchidan, *ma'muriy sud ish yurituvi fanini o'qitish tizimini takomillashtirish lozim.* Bugungi kunda “Ma'muriy sud ish yurituvi” fani oliy ta'lim tashkilotlarida boshqa protsessual huquq fanlari darajasida e'tibor berilmaydi. Vaholanki, mazkur fan yangi soha bo'lishi bilan birga protsessual huquq fani sifatida alohida tarmoqdir. Shu bois, “Ma'muriy sud ish yurituvi” faniga Fuqarolik protsessual huquqi”, Jinoyat protsessual huquqi” fani singari soatlar ajratish lozim. O'z navbatida, yurisprudensiyaning magistratura bosqichida “Ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari” nomli tanlov fani joriy qilish lozim.

Umuman olganda, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada mavjud sud amaliyotidagi muammolar va ilmiy-nazariy dolzarb masalalarga urg'u qaratish asosida soha qonunchiligi va tashkiliy asoslarini doimiy takomillashtirib borish diqqat markazida bo'lishi lozim.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosa

Monografiyaning ushbu bobida ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomiga oid huquqiy modellar tahlili va soha qonunchiligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Jumladan, ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi nuqtayi nazardan 5 ta huquqiy modelga ajratgan holda tahlil qilingan: nemis huquqiy modeli;fransuz huquqiy modeli; anglo-sakson huquqiy modeli; skandinav huquqiy modeli va sharqiy Yevropa va boltiq davlatlari huquqiy modeli. Bu borada O'zbekiston ma'muriy sud ish yurituv tizimini nemis huquqiy modeliga kiritish mumkinligi asoslab berilgan. Buni biz alohida ma'muriy sudlar mavjudligi(yuqori bo'g'in sudlari bundan mustasno), jismoniy yoki yuridik shaxs o'zining subyektiv ommaviy huquqini himoya qilishni so'rab murojaat qila olishi, sudning faol ishtiroki prinsipi va boshqa o'xshash tomonlari mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar ma'muriy sudlar tomonidan ko'rilishi belgilangan bo'lib, bu esa mazkur soha sud amaliyotini takomillashtirishni taqazo etishi tahlil qilingan. Shu nuqtayi nazardan, "Davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqot ishining ushbu bobida milliy qonunchilikda ma'muriy organga majburiyat yuklash talabi asosiy talab sifatida kiritish lozimligi asoslab berilgan. Shuningdek, davlat organi va boshqa shaxs o'zi bergan ariza bo'yicha ish yuritishda qatnashishlari shartligi tahlil qilingan.

Mazkur bobda MSIYtK 39-moddasining majburiyatlar qismiga quyidagicha o'zgartish kiritish lozimligi asoslab berilgan: "Protsess ishtirokchilari o'z huquqlaridan vijdonan foydalanishlari, sud protsess ishtirokchilari yoki ularning vakillari tomonidan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishga, jarayonni kechiktirishga yoki sudni chalg'itishga yo'l qo'ymasligi, ishning imkon qadar to'g'ri, tez va tejamkor ko'rilishiga g'arazli aralashgan protsess ishtirokchisiga sud tomonidan jarima qo'llaniladi".

Ushbu bobda soha qonunchiligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar maqomiga oid huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jumladan, MSiYtKda uchinchi shaxslarni nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga ajratish amaliyotidan voz kechish lozim.

O'z navbatida, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi muhim shaxslardan biri bo'lgan prokuror ishtiroki masalasiga alohida to'xtalib, qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, soliq, bojxona, budjet, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shartligi asoslab berilgan.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirish mavzusidagi monografiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'rifi berildi:

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi – ularning ma'muriy ishni ko'rib chiqishda protsessual vazifalarini amalga oshirish, sudda o'z manfaatlarini himoya qilish va sud qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlovchi protsessual huquq va majburiyatlar yig'indisidir.

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaati – ularning huquqini sud tomonidan himoya qilish, sud qarorini chiqarish bilan ishni belgilangan protsessual shaklda ko'rib chiqish va hal qilishdan manfaatdorlikdir.

ma'muriy sud ishlarini yuritishda taraflar – o'zlarining moddiy va protsessual manfaatlarini himoya qilish uchun harakat qiladigan, nizoni hal qilish uchun sud xarajatlarini o'z zimmasiga oladigan va umumiy qoida sifatida nizoli moddiy huquqiy munosabatlar subyektlarini belgilovchi shaxslardir.

jamoaviy ma'muriy shikoyat – ma'muriy yoki boshqa ommaviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar va yuridik shaxslar nomuayyan shaxslar manfaatini ko'zlab, yagona nizo predmeti va asos doirasida yagona javobgarga qaratilgan sudga qilingan shikoyatdir.

2. Ma'muriy sud ish yurituvining subyektlarini quyidagi uchta guruhga ajratib tahlil qilindi: a) ma'muriy ishlarni hal qiluvchi shaxslar (sud, sudyalari); b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilgan shaxslar va boshqalar.); v) ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan birga sud jarayonida ishtirok etadigan ma'muriy sud ish yurituvining boshqa ishtirokchilari.

3. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tasnifi huquqiy manfaat tushunchasiga uzviy bog'liqligi

asoslab berildi. Ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda huquqiy manfaatni 3 ta turga bo'lgan holda tahlil qilingan: a) shaxsiy (taraflar va uchinchi shaxslar); b) davlat manfaatlari; d) jamoat manfaatlari.

4. Ommaviy huquq doirasida yuridik shaxsning quyidagi xususiyatlari ajratib berildi: 1) Uning asosiy maqsadi – ommaviy manfaatlari yo'lida ishlash, “umumiy vazifalarni” bajarish butun jamiyat bilan bog'liq (ular davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi). Davlat huquqi subyektlarining maqsad va vazifalari normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi. 2) Ommaviy huquqda yuridik shaxs xususiy huquqdagi yuridik shaxsdan farqli ravishda tuziladi va tugatiladi. Bu ayniqsa ommaviy huquq subyektlari bo'lgan davlat organlari va muassasalari uchun alohida ahamiyatga ega. 3) Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar ommaviy xarakteridagi huquq va majburiyatlarga ega. Mazkur huquq va majburiyatlar ommaviy huquq subyektlari bilan bog'liqdir. 4) Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxs umumiy emas, lekin maxsus huquqiy maqomga ega. Ularning huquqiy maqomi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yiladi. Bu toifadagi yuridik qonunda ruxsat etilgan fuqarolik-huquqiy shakllar va fuqarolik huquqi normalaridan foydalanishi mumkin. 5) Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar o'ziga xos huquqiy rejimga ega bo'lgan mulkka ega hisoblanadi. Odatda ular foydalanadigan mulk davlat mulki hisoblanadi. 6) Xususiy va ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bo'yicha bir biridan farq qiladi. 7) Ommaviy huquq bo'yicha yuridik shaxslar xususiy huquqdagi yuridik shaxslardan o'zining tuzilish va boshqa ichki munosabatlar bilan farq qiladi.

5. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish masala ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida alohida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning mavjudligi eng to'g'ri yo'l hisoblanishi, chunki u fuqaro va davlat organi o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash va fuqarolarning sud orqali himoya huquqini kafolatlashga qaratilganligi asoslab berilgan.

6. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini axborot olish huquqlari, izoh berish huquqlari, dalillar bilan ishlash huquqlari, protsessual tashabbus huquqlari va shikoyat qilish huquqlari kabi tasnifga ajratgan holda tahlil qilish mumkinligi asoslab berilgan.

7. Ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslar majburiyatlarini quyidagi turlarga bo'lgan holda tahlil qilingan: 1) Rasmiy (protsessual) majburiyatlar; 2) Dalillarni taqdim etish majburiyatlari; 3) Axloqiy majburiyatlar.

8. Ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, bu borada xorijiy davlatlar tajribasi shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar va faqat shikoyatda ko'rsatgan e'tirozlar doirasida ko'rib chiqiladigan davlatlar bo'lgan holda o'rganib, O'zbekiston yuqoridagi guruhlardan biri bo'lgan shikoyatdagi e'tirozlar bilan cheklanmaydigan davlatlar qatoriga kirishi asoslab berildi.

9. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligida yuqori instansiya sudlarida ishni ko'rish doirasining ikki hil tartibi mavjudligi asoslab berildi. Jumladan, 1) huquqiy va faktik, ya'ni sud hujjatlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rilganda birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligi va asoslilikini tekshirishi, yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. 2) faqat huquqiy, ya'ni sud ishni taftish tartibida ko'rish chog'ida quyi instansiyalarning sudlari tomonidan moddiy huquq normalari to'g'ri qo'llanilganligini va protsessual qonun talablariga rioya etilganligini ish materiallari bo'yicha tekshiradi.

10. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda milliy qonunchilik uchun yod bo'lgan jamoaviy ma'muriy shikoyatning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatildi: shikoyat qiluvchi shaxslar doirasining noaniqligi; nizo predmeti va asoslarining bir xilligi; umumiy javobgar mavjudligi; jamoaning barcha a'zolari o'z huquqlarini himoya qilishning bir xil usulidan foydalanishi.

11. Bugungi kunda jamoaviy ma'muriy shikoyat institutini joriy qilgan rivojlangan xorijiy davlatlarda mazkur institutni rivojlantirish bo'yicha quyidagi masalalarni rivojlantirish tendensiyalari kuzatilayotganligi tahlil qilindi: jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilish uchun arizaning mazmuni; ma'muriy ish qo'zg'atilgandan keyin jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilgan shaxslarning oqibatlari; jamoaviy ma'muriy shikoyatlar bo'yicha ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning maxsus muddatlari; bir guruh shaxslar

manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi shaxsni almashtirish (vakolatlarini tugatish) masalasi; guruh a'zolarini shaxslar guruhidan chiqarish masalasi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlari mazmuniga qo'yiladigan maxsus talablar; bir guruh shaxslarga sud hujjatlari nusxalarini xabardor qilish va (yoki) yuborishning maxsus tartibi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlariga shikoyat qilishning maxsus tartibi.

12. Jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozimligi isbotlab berildi:

Birinchi mezon – bu jamoaviy shikoyat usulidan foydalanish doirasi. Ayrim davlatlar qonunchiligida jamoaviy shikoyat berilishi mumkin bo'lgan holatlar soni cheklanmagan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa jamoaviy faoliyatga bog'liq faoliyat bilan bog'liq nizolar bo'yicha jamoaviy shikoyatni qo'zg'atish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi mezon – jamoaviy shikoyat berish huquqiga ega subyekti bilan bog'liq. Yuqorida biz dunyoda bir nechta modellar mavjudligini ta'kidladik. Xususan, jamoaviy shikoyatlar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ixtisoslashgan notijorat tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin. O'z navbatida, prokuror, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari va boshqalar tomonidan ham jamoaviy shikoyatlar berilishi mumkin.

Uchinchi mezon – jamoani shakllantirish tartibi. Bu bo'yicha ikkita model bor: kirish yoki chiqish. Bunda potensial ishtirokchi turli xil shaxslar guruhiga kirish uchun bir qator faol harakatlarni amalga oshirishi kerak, xususan, tegishli guruhga qo'shilish uchun ariza topshirishi kerak. Bunday harakatlar nafaqat ishni ko'rib chiqish bosqichida, balki tegishli ariza qo'zg'atilishidan oldin ham amalga oshiriladi.

To'rtinchi mezon – huquqni tan olish, huquqni buzadigan yoki uning buzilishini chek qo'yish va yo'qotishlarni qoplashni o'z ichiga olgan himoya qilishning turli usullarini qo'llash imkoniyatini belgilaydi.

13. Ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi nuqtayi nazardan quyidagi 5 ta huquqiy modelga ajratgan holda tahlil qilindi: 1) Nemis huquqiy modeli; 2) Fransuz huquqiy modeli; 3) Anglo-sakson huquqiy modeli; 4) Skandinav huquqiy modeli; 5) Sharqiy Yevropa va boltiq davlatlari

huquqiy modeli. O'zbekiston ma'muriy sud ish yurituv tizimini nemis huquqiy modeliga kiritish mumkinligi asoslab berildi. Buni alohida ma'muriy sudlar mavjudligi(yuqori bo'g'in sudlari bundan mustasno), jismoniy yoki yuridik shaxs o'zining subyektiv ommaviy huquqini himoya qilishni so'rab murojaat qila olishi, sudning faol ishtiroki prinsipi va boshqa o'xshash tomonlari mavjudligi bilan izohlandi.

II. Qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflar:

14. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda manfaatdor shaxs muhim ahamiyat ega bo'lib, qonunchilikda mazkur tushunchani aniq ta'rifini berish lozim. Shu bois, MSIYtKning 4-moddasiga quyidagi qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

“Ma'muriy hujjat (harakat-harakatsizlik) huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilgan yoki daxl qilinishi mumkin bo'lgan shaxs manfaatdor shaxs hisoblanadi.”

15. Tadqiqot ishi doirasida ilgari surilgan ma'muriy sudlarda jamoaviy shikoyat qilish institutini joriy etilishi munosabati bilan MSIYtKning 5-moddasiga quyidagi qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

“Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sudga jamoaviy shikoyat kiritilishi mumkin.”

16. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini to'laqonli ta'minlashda sudning faol ishtiroki prinsipi muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan mazkur prinsip mazmunini boyitish lozim. Shu bois, MSIYtKning 11-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

“Sud fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida oldindan huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali talablarini shakllantirishda va ularni o'zgartirishda taraflarga huquqiy ko'maklashadi.”

17. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda rad qilish instituti orqali manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qiladi. Sud amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolardan kelib chiqib, MSIYtKning 21-moddasiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

“Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

...

3) ma'muriy sud ish yurituvda javobgar bo'lib qatnashayotgan ma'muriy organning vakili sifatida qatnashgan bo'lsa;

4) *ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, tarafyuridik shaxs bo'lganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar rahbarlari yoki ta'sischilari (ishtirokchilari), yuridik shaxs mol-mulkining egasi yoxud ular vakillarining yaqin qarindoshi bo'lsa;*

...

Sudyaning sudning faol ishtiroki prinsipi asosida huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali taraflarga huquqiy ko'magi sudyani rad qilish uchun asos hisoblanmaydi."

18. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan biri sifatida ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibini bilish huquqini qonunchilikda alohida belgilab qo'yish kerak. Chunki, mazkur huquqni aniq belgilanishi ma'muriy sud ish yurituvining ochiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, MSiYtKning 39-moddasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan biri sifatida sud tarkibini bilish huquqi kiritish lozim.

19. Ma'muriy sud ish yurituvini xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashga hamda ishda etuvchi shaxslarning huquqlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida MSiYtKning 19-moddasi ikkinchi qismidan *"Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi"* jumlasini chiqarib tashlash lozim. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan har qanday holda tanishish imkonini berish kerak.

20. Milliy qonunchilikka ma'muriy sud ish yurituvining oqilona muddati prinsip joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, MSiYtKni quyidagi tahrirdagi 16¹-modda to'ldirish taklif etiladi:

"Ma'muriy sud ish yurituvining oqilona muddati

Ma'muriy sud ish yurituvini amalga oshirish oqilona muddatda ta'minlanadi.

Oqilona muddatni aniqlashda ma'muriy ishning huquqiy va faktik murakkabligi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlardan foydalanish va protsessual majburiyatlarni bajarish darajasiga qarab ifodalanadigan xulq-atvori, shuningdek, ma'muriy ishni tezkor ko'rib chiqish maqsadida sud tomonidan ko'rilgan protsessual harakatlarning yetarliligi va samaradorligi hisobga olinadi."

21. Milliy qonunchilikda mavjud bo'lgan arizachi uchun ariza(shikoyat)da mazkur ishga nisbatan qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, tortishilayotgan yoki buzilayotgan aniq huquq normalarini ko'rsatish majburiyatini bekor qilish lozim. Shu nuqtayi nazardan, MSiYtKning 187-moddasi ikkinchi qism to'rtinchi bandini chiqarib tashlash lozim.

22. Sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish maqsadida MSIYtKning 58-moddasi ikkinchi qismini quyidagi qo'shimcha bilan to'ldirish taklif etiladi: *"Fuqarolar o'z ishlarini sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar orqali yuritishga majburdir."*

23. Ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab sifatida murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilash lozim. Shu bois, MSIYtKning 185-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish lozim:

"Manfaatdor shaxs ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qarorlarini haqiqiy emas, ular mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish va ma'muriy organga majburiyat yuklash to'g'risida ariza (shikoyat) bilan, agar bu qaror, harakatlar (harakatsizlik) tufayli:

uning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan;

uning huquqlari, erkinliklarini amalga oshirishga va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'siqlar vujudga keltirgan;

uning zimmasiga qonunga xilof ravishda biror-bir majburiyat yuklagan;

uning u yoki bu sohadagi faoliyatni amalga oshirishi uchun boshqa to'siqlar vujudga keltirgan deb hisoblasa, sudga murojaat qilishga haqli."

Shu bilan birga, MSIYtKning 186-, 187- va 189-moddalariga majburiyat yuklash talabi joriy etilishi munosabati bilan qo'shimchalar kiritish lozim.

24. Sud amaliyotida juda ko'p hollarda, davlat organlari va boshqa shaxslar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma'muriy sudlarga ariza bilan murojaat qilib, sud majlislarida bevosita o'zlari qatnashishmaydi hamda ishni o'zlarining ishtirokisiz ko'rib chiqish haqida ariza bilan murojaat qilishadi. Mazkur holatni oldini olish maqsadida MSIYtKning 47-moddasini quyidagi tahrirdagi to'rtinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi: *"Davlat organi va boshqa shaxs o'zi bergan ariza bo'yicha ish yuritishda qatnashishlari shart"*.

25. Milliy qonunchilikda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning asosiy majburiyatlari yagona normada o'z aksini topmagan. MSIYtK 39-moddasining majburiyatlar qismiga quyidagicha o'zgartish kiritish taklif etildi: *"Protsess ishtirokchilari o'z huquqlaridan vijdonan*

foydalanishlari, sud protsess ishtirokchilari yoki ularning vakillari tomonidan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishga, jarayonni kechiktirishga yoki sudni chalg'itishga yo'l qo'ymasligi, ishning imkon qadar to'g'ri, tez va tejamkor ko'rilishiga g'arazli aralashgan protsess ishtirokchisiga sud tomonidan jarima qo'llaniladi".

26. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar maqomiga oid huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim. Shu bois, MSiytKning 44-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

"44-modda. Uchinchi shaxslar

Uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar, agar ish ushbu shaxslarning taraflardan biriga nisbatan huquqlari yoki majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, arizachi yoxud javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular tarafning iltimosnomasi bilan yoki sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Uchinchi shaxslar tarafning protsessual huquqlaridan foydalanadi va uning protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talabning asosini yoki predmetini o'zgartirish, talabdan voz kechish, arz qilingan talabni tan olish yoxud kelishuv bitimi tuzish, sud hujjatining majburiy ijro etilishini talab qilish huquqi mustasno.

Agar uchinchi shaxs sud tomonidan yagona qaror qabul qilinishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxs bo'lsa, u holda ushbu shaxsni ishga jalb etish majburiy hisoblanadi.

Agar ushbu huquqiy munosabatlarda o'n nafardan ortiq shaxs ishtirok etsa, sud ishga faqat kirishish istagini bildirgan shaxslarni jalb etadi. Har qanday manfaatdor shaxs ishga uchinchi shaxs sifatida jalb etish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Agar ishga o'n nafardan ortiq uchinchi shaxs jalb etilgan bo'lsa, ajrimni shaxsan topshirish o'rniga, uni rasman e'lon qilish yo'li bilan xabardor qilish mumkin.

Uchinchi shaxsni ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida yoki uni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Agar uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi."

27. Milliy qonunchilikda ham prokuror ishtirok etish lozim bo'lgan holatlar doirasini kengaytirish lozim. Bu borada davlat manfaatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratish kerak. Shu bois, MSiytKning 46-moddasi sakkizinchi qismini quyidagi tahrirda bayon

qilish taklif etiladi: *“Qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, soliq, bojxona, budget, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq ishlarda, shuningdek prokurorning arizasi asosida qo‘zg‘atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart.”*

28. Ilmiy-nazariy jihatdan ommaviy huquqiy munosabatlarda yuridik shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi va xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda **“Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to‘g‘risida”**gi qonun qabul qilish lozim.

III. Tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga doir tavsiyalar:

29. Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar ma‘muriy sudlar tomonidan ko‘rilishi belgilangan bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini inobatga olib, “Davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish lozim.

30. Bugungi kunda “Ma‘muriy sud ish yurituvi” fani oliy ta‘lim tashkilotlarida boshqa protsessual huquq fanlari darajasida e‘tibor berilmaydi. Vaholanki, mazkur fan yangi soha bo‘lishi bilan birga protsessual huquq fani sifatida alohida tarmoqdir. Shu bois, “Ma‘muriy sud ish yurituvi” faniga Fuqarolik protsessual huquqi”, Jinoyat protsessual huquqi” fani singari soatlar ajratish lozim. O‘z navbatida, yurisprudensiyaning magistratura bosqichida “Ma‘muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari” nomli tanlov fani joriy qilish lozim.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
<https://lex.uz/docs/6445145>

2. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni, 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son.
<https://lex.uz/docs/5378966>

3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeks // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son(lex.uz)

4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi 25.10.2024-yildagi O'RQ-982-son konstitutsiyaviy Qonuni. <https://lex.uz/docs/7172667>

5. O'zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi 04.04.2002-yildagi konstitutsiyaviy qonuni.
<https://lex.uz/docs/51255>

6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi 27.04.2021-yildagi konstitutsiyaviy qonuni. <https://lex.uz/docs/5391934>

7. O'zbekiston Respublikasining 11.09.2017-yildagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-445-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/3336169>

8. O'zbekiston Respublikasining 08.08.2022-yildagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni.
<https://lex.uz/docs/6145972>

9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
<https://lex.uz/docs/3517337>

10. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
<https://lex.uz/docs/3523891>

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/3121087>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/4910826?ONDATE=20.09.2024>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // <https://www.lex.uz/uz/docs/7350794>

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

1. Alban Vasco Barrón, Carsten Günther. Seminar of the Federal Administrative Court and ACA-Europe. Functions of and Access to Supreme Administrative Courts Berlin, 13 May 2019.

2. Allgemeines Verwaltungsrecht (De Gruyter Lehrbuch). 2019. P. 805

3. Artikov D.R. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning ma'muriy-huquqiy jihatlari // Yurid. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – T., 2020.

4. Bourgault, J. (2011). Canada's senior public service and the typology of Bargains: From the hierarchy of senior civil servants to a community of "controlled" entrepreneurs. Public Policy and Management, 26(2), 253-275. doi: 10.1177/0952076710391517.

5. Brinktrine R. Verwaltungsermessen in Deutschland und England. S. 1237; Brinktrine R. Verwaltungsermessen in Deutschland. 1998. (Fn. 12). S. 353.

6. Bruns, M., & Steen, T. (2007). From incremental to Copernican reform?: Changes to the position and role of senior civil servants in the Belgian Federal Administration. In E.C. Page & W. Wright (Eds.), From the active to the maintenance state (pp. 63-80). Basingstoke: Palgrave Macmillan. doi: 10.1057/9780230288768_4.

7. Cappelletti M. The Judicial Process in Comparative Perspective. Oxford, 1989. 456 p.

8. Carol Harlow, Richard Rawlings. Law and Administration. Cambridge University Press.

9. Craig, P. Administrative Law. – 9th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 960 p.

10. Druncker & Humblot GmbH. Berlin, 2015. S. 30; Capitane D. § 35 Gerichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Frankreich

11. Eberhard Schmidt-Aßmann. Das allgemeine Verwaltungsrecht als Ordnungsidee. Springer, Heidelberg.

12. Eshimbetov M.U. Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan kelib chiquvchi nizolarni sudda ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish // Yurid. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) ...diss. – T., 2023.

13. European Parliament resolution of 2 February 2012 “Towards a Coherent European Approach to Collective Redress”, (2011/2089(INI) // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52012IP0021&-from=EN> (data o'rasheniya: 10.04.2020).

14. Ewer W. Anwaltschaft und Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Frankreich // Festschrift 150 Jahre Verwaltungsgerichtsbarkeit. Richard Boorberg Verlag. 2014. S. 182.

15. Friedrich Schoch. Verwaltungsrecht und Verwaltungsprozessrecht. 1992.

16. Fromont M. Rechtsschutz gegenüber der Verwaltung in Deutschland, Frankreich und den Europäischen Gemeinschaften (Monographie). Verlag Heymanns, Köln, 1967. S. 17.

17. Gebhardt G. Rechtsschutz durch und gegen die Verwaltung in Frankreich – zugleich eine vergleichende Betrachtung zu Annäherungstendenzen des französischen und deutschen Verwaltungsrechtsschutzsystems. S. 7.

18. Harlow, C., Rawlings, R. Law and Administration. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 568 p.

19. Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally // Kansas Law Review. 2017. Vol. 65. P. 965–988.

20. Hertogh, Marc, and others (eds), The Oxford Handbook of Administrative Justice, Oxford Handbooks (2022; online edn, Oxford Academic, 9 June 2021)

21. Heuen W. § 46 Geschichte des Verwaltungsgerichtsschutz in den USA // Karl-Peter Sommermann, Bert Schaffarzik Handbuch der Geschichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Europa. Springer. Verlag GmbH Deutschland, ein Teil von Springer Nature. 2019. P. 1668.

22. Hodges C. US class actions: promise and reality. EUI LAW. 2015/36. European Regulatory Private Law Project // URL: <http://hdl.handle.net/1814/36536> (data o'rasheniya: 01.04.2020).

23. Hofmann, H.C., Rowe, G.C., and Türk, A.H. Administrative Law and Policy of the European Union. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 672 p.

24. Jean-Bernard Auby. Droit comparé de la procédure administrative. 2016. P. 1046.

25. Karl-Peter Sommermann, Bert Schaffarzik Handbuch der Geschichte der Verwaltungsgerichtsbarkeit in Deutschland und Europa. Springer-Verlag GmbH Deutschland, ein Teil von Springer Nature. 2019. S. 1336–1371.

26. Lücking W. Die Grundlagen der französischen Verwaltungsgerichtsbarkeit. Heft 2. Verlag von Richard Mayr. Würzburg, 1955. S. 5.

27. Lukianova H. (2024) Subjects of administrative jurisdiction: some issues of legal status. Bulletin of Lviv Polytechnic National University. Series: Legal Sciences. Vol. 11, No. 1(41), Pp. 159-

28. Madeleine Rundberg. Lay judges and the Swedish rule of law: A qualitative analysis of mixed panels' argument construction in criminal court cases. Master Thesis (SOLM02) Spring 2022

29. Maier Ch. Der Wegzueiner eigenständigen Verwaltungsgerichtsbarkeit in der Russischen Föderation. Probleme des Verwaltungsschutzes in modernen Russland

30. Mattarella Verwaltungsrecht und Privatrecht // von Bogdandy/Huber, Ius Publicum Europaeum, 1 Aufl. 2007. S. 78.

31. Maurice Hauriou. Les éléments du contentieux. Impr. et librairie E.Privat, 2000. P.18

32. Nagy C. I. Collective actions in Europe. A comparative, economic and transsystemic analysis. N.-Y.: Springer International Publishing, 2019. 122 p.

33. Nematov J.N. Ma'muriy sud ish yurituvi (1). Monografiya – T.: Top Image Media, 2022.

34. Nematov J.N. Ma'muriy sud ish yurituvida sudlovga taalluqlilik. // Odillik mezonlari. 2020. 6-son

35. Nematov J.N. Правовые проблемы обязанности доказывания в административном судопроизводстве Республики Узбекистан. // Ежегодник публичного права 2022. Доказателства i dokazyvaniye v administrativnom prave. – Berlin: Infotropik Media, 2022. S. 289-316.

36. Olivier Gohin. La contradiction dans la procédure administrative contentieuse. Paris, 1988. P. 32 – 33.

37. Participants in Administrative Court Proceedings in Multi-Stakeholder Proceedings (Administrative Law Review, 2021) // https://www.researchgate.net/publication/354740791_Participants_in_Administrative_Court_Proceedings_in_Multi-Stakeholder_Proceedings

38. Pinna, A. Filtering Applications, Number of Judgments Delivered and Judicial Discourse by Supreme Courts: Some Thoughts Based on the French Example. In *The Legitimacy of Highest Courts' Rulings: Judicial Deliberations and Beyond*. Edited by Jacco Bomhoff, Maurice Adams, Nick Huls. The Hague: T.M.C. Asser Press, 2009

39. Polanowsky J., *Procedural Guarantees in Administrative Adjudication*, Warsaw, 2016

40. Ralf Brinktrine. § 32 Geschichte des Verwaltungsgerichtsgerechtschützes im Vereinigten Königreich von Grossbritannien und Nordirland Frankreich. S. 1234.

41. Rivero, J., Bon, P. *Droit administratif*. – Paris: Dalloz, 2015.

42. Schmidt-Assmann, E. *Das allgemeine Verwaltungsrecht als Ordnungsidee*. – Heidelberg, 2006.

43. Schutz, A., Sandy, M.G. (2011). *Collective Action in Twentieth-Century America: A Brief History*. In: *Collective Action for Social Change*. Palgrave Macmillan, New York. https://doi.org/10.1057/9780230118539_4

44. Shayzakov Sh.I. *Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari / Monografiya*. T.: Lesson Press, 2021. 161-b.

45. *The Developing Administrative Justice Landscape: Executive Summary* // Administrative Justice and Tribunals Council. URL: http://ajtc.justice.gov.uk/docs/landscape_paper.pdf (data o'rasheniya 23.11.2019).

46. *The Use of Court- and Party-Appointed Experts in Legal Proceedings in Sweden: Judges' Experiences and Attitudes*. 25 August 2017. pp 63–81

47. *Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO)*, §65-66. <https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo>

48. Wurtenberger T., Heckman D. *Verwaltungsprozessrecht* // Verlag C.H. Beck, München, 2018. S. 30.

49. Xakimov G.T. *O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirishning muammolari*. T., 2010.

50. Abolonin G. O. *Grajdanskoye protsessualnoye pravo SSHA*. M., 2010. S. 94.

51. Abolonin G. O. Massovye iski. M. : VoltersKluver, 2011. S. 22.
52. Abolonin G.O. Prakticheskoye primeneniye gruppovyykh iskov v nekotorykh stranakh mira / G.O. Abolonin // Vestnik grajdanskogo protsessa. 2015. N 4. S. 207 – 260.
53. Administrativnoye sudoproizvodstvo : ucheb. dlya stud. yurid. vuzov, f-tov i yuristov, povыshayuyshykh kvalifikatsiyu / pod red. M. K. Treushnikova. 1-ye izd. M. : Gorodes, 2017. S. 118.
54. Alekseev S. S. Problemy teorii prava. Sverdlovsk, 2000. S. 277.
55. Aparova T. V. Sudы i sudebnyy protsess Velikobritanii. Angliya, Uels, Shotlandiya. M., 1996. S. 11; Ueyd Ye. S., Fillips D. D. Konstitutsionnoye pravo // otv. red. S. B. Krylov. M., 1950. S. 61
56. Shmelev I. V. Osobennosti protsessa peresmotra administrativnykh aktov v ad ministrativnom sude Velikobritanii // Teoriya i praktika obshchestvennogo razvitiya. Krasno dar, 2014. № 10. S. 189.
57. Baranov S. Yu. Gruppovye iski v grajdanskom i administrativnom sudoproizvodstve Rossiyskoy Federatsii // Vestnik grajdanskogo protsessa. 2016. № 1. S. 85.
58. Belonojkin A. Yu., Senichkin A. Yu. Primeneniye mer grajdansko-pravovoy otvetstvennosti za neispolneniye sudebnykh aktov o vзыskanii denezhnykh sredstv s publichno-pravovykh obrazovaniy za schet kazny // Zakon. 2010. № 6. S. 49–55.
59. Burmistrova S. A. Subyektivnye prava i zakonnye interesy : kakim doljen byt rezultat sudebnoy zaщity // Arbitrajnyy i grajdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 10.
60. V.V. Yarkova Uchebnik dlya studentov vysshix uchebnykh zavedeniy po napravleniyu "yurisprudensiya" doktora yuridicheskikh nauk, professora, zaslužennoy deyatelya nauki Rossiyskoy Federatsii, 2016 y.
61. Vedel J. Administrativnoye pravo Fransii. M., 1972. S. 479.
62. Vedeneev Ye.Yu. Dokazyvaniye v arbi trajnom protsesse Rossiyskoy Federatsii: problemy teorii i praktiki (na primere do kazvaniya v sporakh po imushchestvennomu straxovaniyu): dis. ... kand. yurid. nauk. M., 1999.s. 35-37
63. Vikut M.A. Storony – osnovnye litsa iskovogo proizvodstva – Saratov, 2000. – S.6-14
64. Vilxovik A. Yuridicheskiy interes kak predposылka dostupnosti sudebnoy zaщity // SPS Konsultant Plyus: Kommentarii zakonodatelstva.

65. Volosova N.Yu. Otvod sudi kak usloviye vyneseniya zakonnogo i obosnovannogo prigovora po ugovnomu delu: Mejdunarodnyy opyt // Vestnik Udmurtskogo universiteta. Seriya "Ekonomika i pravo". – 2018. T.28. – вып. 1. S. 93-99.
66. Grajdanskiy protsess: ucheb. / otv. red. Yu.K. Osipov. M., 1996.
67. Grajdanskiy protsess: Uchebnik / Pod red. M.K. Treushnikova. – M.: Statut, 2014.
68. Gribanov V. P. Yuridicheskiye litsa. M., 1961. S. 53
69. Gukasyan R.Ye. Izbrannyye trudy po grajdanskomu protsessu. – M.: Prospekt, 2008. – S.46
70. Dolganichev V. V. Gruppovoy isk : sravnitelnyy analiz normativnykh konstruksiy APK, GPK, KAS RF // Zakon. 2021. № 2. S. 37.
71. Ilin I. A. Teoriya prava i gosudarstva. M., 2003. C. 45.
72. Karamanukyan D. T. Amerikanskaya model administrativnoy yustitsii // Aktualnyye problemy administrativnogo sudoproizvodstva: materialy Vseros. nauch.-prakt. konf. Omsk, 2015.
73. Karumkaryan D. T. Institut administrativnogo sudi kak element administrativnoy yustitsii SSHA // Vestn. Omskoy yuridicheskoy akademii. 2017. № 1.
74. Kniper R. Yuridicheskiye litsa. Vvedeniye // Grajdanskoye i ekonomicheskoye pravo stran Kavkaza i Sentralnoy Azii. Proyekt Bremenskogo universiteta. Doklady. URL: // <http://www.cac-civillaw.org/baitraege>
75. Kolesov P. P. Gruppovyye iski v SSHA. M., 2004. S. 8.
76. Korkunov N. M. Russkoye gosudarstvennoye pravo : vvedeniye i obshchaya chast. SPb., 1901. T. 1. S. 41–44.
77. Korf S.A. Administrativnaya yustitsiya v Rossii: V 2 t. M., 1910. T. 2. Kn. 2, 3. S. 464.
78. Kurbatov A. Ya. O yuridicheskikh litsakh publichnogo prava // Khozyaystvo i pravo. 2009. № 10. S. 77.
79. Kurovskiy V.I. Dokazyvaniye v grajdanskom sudoproizvodstve: problemy teorii i praktiki. – M.: Norma, 2006. – 288 s.
80. Kurs dokazatelstvennogo prava: Grajdanskiy protsess. Arbitrajnyy protsess / pod red. M.A. Fokinoy. M., 2014.
81. Lipdbyom P. X. Shvedskiy natsionalnyy doklad // Grajdanskiy protsess v mezhkulturnom dialoge: yevropeyskiy kontekst: Vsemir. konf. Mezhdunar. assotsiatsii protsessualnogo prava (Moskva, 18–21 sentyabrya 2012 g.). M.: Statut, 2012. S. 633–643.

82. Lukyanova I. N. Kollektivnyy isk kak sredstvo zaщity prav grajdan // Yurist. 2021. № 10.

83. Lupinskaya Ye.A. Dokazatelstva i dokazyvaniye v grajdanskom protsesse. – M.: Statut, 2004. – 256 s.

84. Martemyanov B. C. Mestnye sovery i ix ispolnitelnye organy kak yuridicheskiye litsa. M., 1975.

85. Melnikov A.M., Nikolov S.V. Problemy uchastiya administrativnykh organov v administrativnom sudoproizvodstve. // Jurnal rossiyskogo prava. – 2018. – №7.

86. Mixaylenko O. V. Publichnye yuridicheskiye litsa v chastnom prave i chastnye yuridicheskiye litsa v publichnom prave // Jurnal rossiyskogo prava. 2011. № 3. S. 48.

87. Moiseev S. V. Ponyatiye i elementy administrativnogo iska // Administrativnoye sudoproizvodstvo : ucheb. dlya stud. yurid. vuzov, f-tov i yuristov, povыshayushchikh kvalifikatsiyu / pod red. M. K. Treushnikova. 1-ye izd. M. : Gorodes, 2017. S. 113.

88. Myshyakov S. V. Protsessualnye aspekty osparivaniya sudebnykh aktov v rossiyskom sivilisticheskom protsesse // Arbitrajnyy i grajdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 28.

89. Yuridicheskiye litsa v sovremennom prave i ix mejotraslevye svyazi. URL: http://www.pravorggu.ru/2009_13/kosyakova_7

90. Opalev R.O. Voprosy sudoproizvodstva v arbitrajnykh sudax: resheniya i argumenty, ko torymi mozhete vospolzovatsya i vy: nauch.-prikladnoye posobiye. 2-ye izd., pererab. i dop. M., 2014. S.92

91. Opredeleniye Verhovnogo Suda RF ot 6 okt. 2015 g. № 5-KG15-128. Dostup iz sprav. pravovoy sistemy "KonsultantPlyus".

92. Pavlenko K.A. Aktivnaya rol suda v administrativnom sudoproizvodstve: rassmotreniye na primere formirovaniya predmeta dokazyvaniya // Obщestvo. Zakon. Pravosudiye. 2020. № 4 (49).S. 33–36.

93. Paliyeva O.N. Otvod sudye: Problemy pravoprimeneniya // Vestnik Severo-Kavkazskogo federal-nogo universiteta. 2013. № 6 (39). S. 235–238.

94. Portal fransuzskogo prava. URL: <http://www.france-jus.ru>

95. Postanovleniye Plenuma Verhovnogo Suda RF ot 27.09.2016 N 36 (red. ot 17.12.2024) "O nekotorykh voprosakh primeneniya sudami Kodeksa administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii" // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_205136/

96. Postanovleniye Pyatnadsatogo arbi trajnogo apellyatsionnogo suda ot 1-iyulya 2015 g. № 15AP-7704/2015 po delu № A32 29330/2014. Dostup iz sprav. pravovoy siste мы “KonsultantPlyus”.

97. Postateyny kommentariy k Arbitraj nomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / T.K. Andreeva, S.K. Zagaynova, A.V. Zakarlyuka i dr.; pod red. P.V. Krashennnikova. M., 2013.

98. Reshetnikova I. V. Osobennosti arbitrajnogo proizvodstva / pod red. I. V. Reshetnikovoy. M., 2019. S. 218.

99. Reshetnikova I.V. Grajdanskiy protsess cherez prizmu 150-letnego razvitiya // Kodi fikatsiya rossiyskogo chastnogo prava – 2015 / V.V. Vitryanskiy, S.Yu. Golovina, B.M. Gongalo i dr.; pod red. P.V. Krashennnikova. M., 2015. Dostup iz sprav. pravovoy sistemы “KonsultantPlyus”.

100. Рыжак А. П. Postateyny kommentariy k Kodeksu administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii / podgotovlen dlya sistemы “KonsultantPlyus”. Data publikatsii: 16.04.2015. Dostup iz sprav.-pravovoy sistemы “KonsultantPlyus”.

101. Ryabchikov G. Praktika primeneniya kollektivnykh administrativnykh iskov // Yuridicheskiy spravochnik rukovoditelya. 2021. № 5. S. 38–47.

102. Sandevuar P. Kontrol za deyatelnostyu gosudarstvennoy administratsii vo Fransii. M., 1998. S. 52.

103. Slobodyanik A.M. Sostyazatelnost v grajdanskom sudoproizvodstve. – M.: Yuridicheskaya literatura, 1986. – 192 s.

104. Stepin A. B. Problemnye voprosy vosstanovleniya grajdanskix prav uchastnikov ekonomicheskix otnosheniy // Arbitrajnyy i grajdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 4.

105. Strelsova Ye. G. Privatizatsiya pravosudiya. M., 2019. S. 17–18.

106. Sudebnoye administrativnoye pravo : ucheb. dlya stud. vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti “Yurisprudensiya” / Ros. un-t drujby narodov, Yurid. in-t. M. : Statut, 2017. S. 439–440.

107. Sutormin N. A. Kollektivnye iski v Kitaye // Arbitrajnyy i grajdanskiy protsess. 2022. № 1. S. 57.

108. Suxanov Ye. A. Uchastiye gosudarstva v grajdansko-pravovyx otnosheniyax // Puti k novomu pravu : materialy mejdunar. konf. v Sankt-Peterburge i Bremene / pod общ. red. M. M. Boguslavskogo, R. Knipper. Berlin, 1998. S. 198.

109. Tay Yu.V., Arabova T.F., Le Burdon V. Otvod sudey kak garantiya nezavisimosti suda // Vestnik Vysshego Arbitrajnogo suda Rossiyskoy Federatsii. – 2014. – № 8. S. 5.

110. Treushnikov M.K. Grajdanskiy protsess: Uchebnik / Pod red. M.K. Treushnikova. – M.: Yurayt, 2018. – 512 s.

111. Tumanov D. A. O grupповых isках v Konsepsii yedinogo grajdanskogo protsessualnogo kodeksa RF // Vestnik grajdanskogo protsessa. 2015. № 4. S. 69.

112. Fokina M. A. Mexanizm dokazyvaniya po grajdanskim delam: teoretiko-prikladnye problemy. M., 2010. S. 474–477.

113. Xvan L.B. Sudebnyy administrativnyy kontrol v Respubliki Uzbekistan: problemy ponimaniya i perspektivnost v yee pravovoy sisteme. Starilov Yu.N. Administrativnoye sudoproizvodstvo v Rossiyskoy Federatsii: razvitiye teorii i formirovaniye administrativno-protsessualnogo zakonodatelstva.

114. Svetkova Ye. A. Sravnitelno-pravovoy analiz alternativnykh sposobov razresheniya nalo govых sporov na primere Rossii, SSHA, Niderlandov, Germanii // Journ. zarubejnogo zakona i sravnitel'nogo pravovedeniya. 2017. № 2. S. 59.

115. Chirkin V. Ye. Ye. Yuridicheskoye litso publichnogo prava. M., 2007. S. 147.

116. Shapdursniy D. K. Pravovaya priroda instituta orranizatsionnogo grupповoro iska v Rossii // Vestnik rrajdanskoro protsessa. 2018. №6. S. 208–225

117. Shvars M. Z. Ob imperativnom i dispozitivnom v regulirovanii protsessualnykh form zaщиты grupповых interesov // Zakon. 2021. № 2. S. 31–33 ;

118. Shershenevich G. F. Uchebnik russkogo grajdanskogo prava. M., 1995. S. 92–93.

119. Endryus E. Pravovaya sistema bez effektivnykh grupповых iskov uщerbna // Zakon. 2021. № 2. S. 8–9.

120. Yudel'son K.S. Storony v grajdanskom protsesse. – M.: Yuridicheskaya literatura, 1984.

121. Yarkov V. V., Abushenko D. B., Batuxtina Ye. M. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii: kommentariy – Izdatel'stvo "NORMA", 2021.

122. Yarkov V.V. Administrativnoye sudoproizvodstvo: ucheb. dlya studentov yuridicheskikh vysshiх uchebnyх zavedeniy po

napravleniyu “Yurisprudensiya” (spetsialist, bakalavr, magistr) / otv. red. B.B. Yarkov; Ural. gos. yurid. un-t. 2-ye izd., ispr. i dop. M.: Gtatut, 2021. 123 s.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K2000000350>
2. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30573000
3. <https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/legal-systems>
4. <https://etoimik.rik.ee/>
5. <https://expressreportnews.wordpress.com/>
6. [https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:\[%22001-57436%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng#{%22itemid%22:[%22001-57436%22]})
7. https://korkeinoikeus.fi/fi/index/ajankohtaista/puheet_1/the-role-of-the-supreme-court-and-leaving-to-appeal-in-finland.html
8. <https://kun.uz/kr/24276680?q=%2F24276680>
9. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/1649004?publication=0>
10. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1456819
11. <https://practiceguides.chambers.com/practice-guides/collective-redress-class-actions-2024/netherlands/trends-and-developments>
12. <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global>
13. <https://www.aihja.org/en/membre/sweden-supreme-administrative-court>
14. <https://www.bverwg.de/en/rechtsprechung>
15. <https://www.conseil-etat.fr/en/news/the-conseil-d-etat-issues-a-reminder-of-the-rules-guaranteeing-the-independence-and-impartiality-of-administrative-justice>
16. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/
17. https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_eng
18. https://www.gesetzeiminternet.de/englisch_vwgo/englisch_vwgo.html
19. <https://www.hartran.ee/index.php?id=13>
20. <https://www.ibanet.org/article/ec97d321-744e-40ad-ab3d-e5b3ae481b5d>
21. https://www.informea.org/en/court-decision/zimmermann-and-steiner-v-switzerland?utm_source
22. <https://www.kas.de/en/web/rspno/laws-and-rulings>
23. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI00006507289

24. <https://www.lvat.lt/en/court-system/competence>
25. <https://www.rechtspraak.nl/SiteCollectionDocuments/New-dutch-legislation-on-collective-actions.pdf>
26. <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/527012014001/consolide>
27. <https://www.sanfordheisler.com/case/discrimination-harassment/volkswagen-ag-age-discrimination-collective-action/>
28. <https://www.vero.fi/en/businesses-and-corporations/business-operations/foreign-business-in-finland/your-tax-handbook-in-finland/#:~:text=Tax%20liability%3A%20Finnish%20residents%20are,effective%20management%20is%20in%20Finland.>
29. <https://www.wsj.com/articles/BL-LB-54664>

**“O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish
va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha**

TAQQOSLASH JADVALI

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asos
11-modda. Sudning faol ishtiroki Ma‘muriy sud ishlarini yuritish sudning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma‘muriy ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshiradi. To‘ldirilmoqda	11-modda. Sudning faol ishtiroki Ma‘muriy sud ishlarini yuritish sudning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, arizalari, iltimosnomalari, ular tomonidan taqdim etilgan dalillar va ishning boshqa materiallari bilan cheklanmasdan ma‘muriy ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshiradi. Sud fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida oldindan huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali talablarini shakllantirishda va ularni	MSIYtK 11-moddasi sudga ushbu moddadagi aniq harakatlardan tashqari, ma‘muriy sud ishini yuritish vazifalarini hal etishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajarish majburiyatini ham yuklagan. Mazkur vazifa umumiy xarakterga ega bo‘lib, bir tomondan, sudga keng ko‘lamdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini berishi ijobiy jihat hisoblanadi, boshqa tomondan, ko‘plab aniq choralar ko‘rsatilmagani sababli fuqaro himoyasi yo‘lida hech qanday amaliy harakat qilmaslikka ham olib kelishi mumkin. Sud arizadagi rasmiy xatolarni ko‘rsatadi, noaniq talablarni aniqlashtirishni, noto‘g‘ri talablarni sudga taalluqli talablar bilan almashtirishni, asosiy talab bilan hosilaviy talablarni

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asos
Sud o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha qo'shimcha dalillar to'playdi, shuningdek ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajaradi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to'plashda sudga ko'maklashishi shart. To'ldirilmoqda	o'zgartirishda taraflarga huquqiy ko'maklashadi. Sud o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha qo'shimcha dalillar to'playdi, shuningdek ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajaradi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishning haqiqiy holatlarini tekshirishda va dalillarni to'plashda sudga ko'maklashishi shart. Sud ish holatlarini arizada ko'rsatilgan hamda ko'rsatilmagan asoslar asosida to'liq, har tomonlama ko'rib chiqishi lozim.	farqlashni, yetarli bo'lmagan faktik ma'lumotlarni to'ldirishni taklif qilinmoqda.
13-modda. Sud muhokamasining oshkoraligi Sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi. Davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda, ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yiladi. Ishni yopiq majlisda videokonferensaloqa rejimida	13-modda. Sud muhokamasining oshkoraligi Sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi. Davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda, ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yiladi. Ishni yopiq majlisda videokonferensaloqa rejimida	MSIYtKda yopiq sud majlisini o'tkazish tartibi belgilanmaganligi sababli har xil sud amaliyoti mavjud. Xorijiy davlatlarda yopiq sud majlislarini o'tkazish tartibi kengroq bayon etilgan.

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asos
	Eshitish yopiq sud majlisida o'tkazilgan taqdirda, ishni elektron shaklda shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi. Ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish to'g'risida ajrim chiqariladi. Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.	
21-modda. Sudyani rad qilish Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u: 1) mazkur ish ilgari ko'rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga ushbu Kodeks talablariga muvofiq yo'l qo'yilmasa; 2) mazkur ish ilgari ko'rilganda unda prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa; to'ldirilmoqda 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning <i>yoki</i> ular vakillarining qarindoshi bo'lsa;	21-modda. Sudyani rad qilish Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u: 1) mazkur ish ilgari ko'rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga ushbu Kodeks talablariga muvofiq yo'l qo'yilmasa; 2) ma'muriy-huquqiy munosabatda ishtirok etgan bo'lsa, unda prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa; 3) ma'muriy sud ish yurituvda javobgar bo'lib qatnashayotgan ma'muriy organning vakili sifatida qatnashgan bo'lsa	21-modda. Sudyani rad qilish Sudya quyidagi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u: 1) mazkur ish ilgari ko'rilganda sudya sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga ushbu Kodeks talablariga muvofiq yo'l qo'yilmasa; 2) mazkur ish ilgari ko'rilganda unda prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa; to'ldirilmoqda 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning <i>yoki</i> ular vakillarining qarindoshi bo'lsa;

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asos
4) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa; 5) ishni ko'rayotgan hay'at tarkibidagi sudyaning qarindoshi bo'lsa. to'ldirilmoqda	4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, taraf yuridik shaxs bo'lganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar rahbarlari yoki ta'sischilari (ishtirokchilari), yuridik shaxs mol-mulkining egasi yoxud ular vakillarining yaqin qarindoshi bo'lsa; 5) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa; 6) ishni ko'rayotgan hay'at tarkibidagi sudyaning qarindoshi bo'lsa; 7) ishni ko'rishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan bo'lsa. Sudyaning sudning faol ishtiroki prinsipi asosida huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali taraflarga huquqiy ko'magi sudyani rad qilish uchun asos hisoblanmaydi.	4) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa; 5) ishni ko'rayotgan hay'at tarkibidagi sudyaning qarindoshi bo'lsa. to'ldirilmoqda

To'ldirilmoqda	75¹- moddasi: Elektron ma'lumotlar ... Ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning ko'chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqli. ...	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 4-yo‘nalishi 85-maqsadida Ma‘muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni to‘liq bartaraf etish hamda 87-maqsadida Dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini to‘liq raqamlashtirish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur qo‘shimchaning qonunchilikka kiritilishi natijasida ma‘muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma‘muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada
------------------------------	---	--

		takomillashtirildi hamda mazkur soha zamon talabiga muvofiqlashtirildi.
To'ldirilmoqda	75²-moddasi: Raqamli dalillar ... Ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko'chirma nusxalarini qog'ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga ega. ...	"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 4-yo'nalishi 85-maqsadida Ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to'sqinlik qilayotgan omillarni to'liq bartaraf etish hamda 87-maqsadida Dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyatini to'liq raqamlashtirish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur qo'shimchaning qonunchilikka kiritilishi natijasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini

		ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirildi hamda mazkur soha zamon talabiga muvofiqlashtirildi.
148-modda. Ariza (shikoyat) yuzasidan yozma fikr, qo'shimcha dalillar taqdim etilmaganligi, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudga kelmaganligi oqibatlar ... Ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar, uchinchi shaxslar sud majlisiga kelmasa, ish ularning yo'qligida ko'rilishi mumkin.	148-moddasi: Ariza (shikoyat) yuzasidan yozma fikr, qo'shimcha dalillar taqdim etilmaganligi, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudga kelmaganligi oqibatlar ... Ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sud majlisiga kelmasa, ish ularning yo'qligida ko'rilishi mumkin.	"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 4-yo'nalishi 85-maqsadida Ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to'sqinlik qilayotgan omillarni to'liq bartaraf etish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilanishi, ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy

		tendensiyalari asosida yanada takomillashtirish hamda mazkur sohani har tomonlama tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda. Mazkur qo'shimchaning qonunchilikka kiritilishi natijasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirildi hamda mazkur soha zamon talabiga muvofiqlashtirildi.
230¹-modda. Ishni talab qilib olish ... O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularning o'rinbosarlari ish bo'yicha taraflarning murojaati bo'lganda, kassatsiya protesti keltirish to'g'risidagi masalasini hal qilish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqli.	230¹-modda. Ishni talab qilib olish ... O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurorlari va ularning o'rinbosarlari ushbu Kodeks 224-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha yoxud qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar bo'yicha	"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 4-yo'nalishi 85-maqsadida Ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to'sqinlik qilayotgan omillarni to'liq bartaraf etish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi

	kassatsiya protesti kiritish to'g'risidagi masalasini hal qilish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqli.	qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilanishi, ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirish hamda mazkur sohani har tomonlama tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda. Mazkur qo'shimchaning qonunchilikka kiritilishi natijasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirildi hamda mazkur soha zamon talabiga muvofiqlashtirildi.
--	---	---

G.R.MADRAHIMOVA

**MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA
ISHTIROK ETUVCHI SHAXSLARNING HUQUQIY
MAQOMI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

Monografiya

Bosh muharrir:	S. Ortiqov.
Muharrir:	D. Sharipov.
Musahhih:	H. Soatova.
Texnik muharrir:	J. Karimov.
Dizayner:	O .Lapasov.

Tasdiqnoma:

№ 147632, 14.07.2025.

07.04.2026-yilda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. "Cambria" garniturasida, 7,9 nashriyot hisob tabog'i,
13,25 shartli bosma taboq. Adadi 50. Buyurtma raqami 57.

"TOP IMAGE MEDIA" nashriyoti.

100060. Toshkent shahri, Y.G'ulomov ko'chasi, 74.

"TOP IMAGE MEDIA" nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.

100060. Toshkent shahri, Y. G'ulomov ko'chasi, 74-uy.